

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

NURMUHAMMAD ANDALIB

MO‘LLAMUROD XORAZMIY



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

NURMUHAMMAD ANDALIB

MO‘LLAMUROD XORAZMIY

94

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.164-1
KBK 84(5Tur)-5
N 87

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Bahodir Karim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8721-1-0
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

NAZM BOG'INING BULBULI

Nurmuhammad Andalib (1711–1780) o'zining otashnafas g'azal-u murabbalari va xalqona dostonlari bilan turkiy xalqlar orasida mashhur bo'lib, asarlari qo'lma-qo'l o'qilgan el ardog'idagi shoirlar sirasiga kiradi. U Toshhovuzning Qoramozi qishlog'idan bo'lib, ayrim ma'lumotlarga qaraganda, turkmanlarning tuyachi urug'idan chiqqan. U ko'pchilik turkman shoirlari kabi o'zini Sayilxon elidan deb biladi:

Andalibing qilma yo'lda muztarib,
Jannati rizvonni ayla, yo nasib,
Yaxshilarga xizmat ayla, yo G'arib,
Sayilxon avlodi elidan bo'lur.

Jo'ji ulusi Suyunxon deb atalib, turkmanlar uni Sayilxon tarzida talaffuz qiladilar va o'zlarini shu ulusga mansub deb biladilar[1].

Otasi Sayidmuhammad hunarmand usta bo'lgan, she'r ham aytgan. Andalibning umri asosan Urganch va Xivada o'tgan. Xiva madrasalarida tahsil olgan. Buxoroda ham o'qiganligi haqida ayrim taxminlar mavjud. Uning arab, fors-tojik va qator turkiy tillarni bilganligi, hatto forsiy she'rlar ham yozgani, tarjima bilan ham shug'ullanganigi aytiladi[2]. Masalan, "Nasimiy" qissasi arab tilida yozilgan bo'lib, Andalib uni turkiy tilga o'girgan.

Shoirning Andalib (Bulbul) taxallusini tanlashiga Gul ismli go'zal bir qizni sevganligi va uning ishqida sayrovchi bulbul ma'nosida shu taxallusni olganligi sabab qilib ko'rsatiladi[3]. An-

---

[1] *Bu haqda qarang:* ***Tohirov Q.*** Oktabrdan avvalgi o'zbek-turkman adabiy aloqalari problemasiga doir. — Toshkent: "Fan", 1988. 82-bet.

[2] ***Meredov A.*** Nurmuxammat Andalibin lirikasi // ***Nurmuxammat Andalip.*** Lirika. Ashgabat: "Ilim", 1976. S. 5.

[3] ***Mulkamanov A., Nazarov G.*** Sez ussadi // Nurmuxammet Andalip. Dessanlar. — Turkmenistan, 1991. S. 5.

dalib qator asarlarida G'arib taxallusini ham qo'llagan. Bu so'z o'tmishda hozir biz tushunganimiz kabi faqir, bechora, qashshoq, kambag'al, musofir, kimsasiz ma'nosida emas, balki ko'proq ajoyib, g'aroyib, nodir, noyob ma'nolarida qo'llangan. Shoir tabiatiga oid ayrim chizgilar, jumladan, o'zining g'aroyib fazilatlari bilan xalq orasida mashhurligi, so'zga chechanligi uning bu taxallusni tanlashi bejiz emasligidan guvohlik beradi.

U Xorazmda shoh G'ozixon davrida yashagan. "Shoh G'ozixon Xorazmda ikki yil hukmronlik qilgan va 1767-yili o'ldirilgan"[1]. Bu haqda shoir yozadi:

Ismim erur Nurmuhammad g'arib,
So'zda taxallusim edi Andalib.
Shahrimiz Urganch viloyati edi,
Xonimiz shoh G'ozi jamoati edi,
Asli makonimiz Qoramozidir.

Andalib XVIII asrning boy adabiy meros qoldirgan shoirlaridandir. Uning to'liq devoni topilmagan. G'azal, murabba, muxammas janridagi she'rlari turli bayozlar tarkibida keladi. "Layli-Majnun", "Yusuf-Zulayxo", "Boboravshan", "Zaynularab", "Malikayi Mehrinigor", "G'arib-Shohsanam", "Nasimiy", "O'g'uznoma", "Sa'di Vaqqos", "Qissai Fir'avn" kabi dostonlari qissaxonlik kechalarida xalq tomonidan sevib o'qilgan. Ular tarkibida ham ko'plab g'azal, murabba, muxammas, mustazod, musaddas, masnaviy janridagi she'rlar keladi.

Ma'lumki, g'azal, murabba, muxammas, musaddas, mustazod kabi she'rlar bilan boyitilgan dostonlar so'z va soz birligida ijro etishga mo'ljallangan bo'ladi.

Bu — Xorazm dostonchiligi ta'siri. Andalibning barcha dostonlari shu usulda yozilgan. Uning tom ma'nodagi xalqchil shoir bo'lganligi, xalqning dili tubida, tili uchida turgan fikrlarni topib she'rga solgani, ko'ngilga yaqin, yurakka jiz etib tegadigan, o'quvchini to'lqinlantiradigan, tuyg'ularini qitiqlaydigan so'z va iboralar, misralarni topib qo'llagani, ta'sirchan so'z, ibora va

[1] *O'zbek adabiyoti.* Majmua. Besh jildlik. 5-jild. 1-kitob. — Toshkent: O'zdavnashr, 1966. 103-bet.

misralarni radifga chiqarib, asosiy urg'uni shunga berganida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, keyingi asrlarda muxammas yozish avj olgan. Andalib ijodida ham ko'plab muxammaslarni ko'ramiz. Shoir muxammaslarini uch guruhga bo'lish mumkin: 1) o'zi yozgan muxammaslar; 2) Navoiy, Fuzuliy, Ubaydiy, Vafoiy, Habibiy kabi shoirlarning mashhur g'azallariga bog'lagan taxmislari; 3) Munis, Muxlis, Ahmad Donish kabi shoirlarning Andalib g'azallariga bog'lagan taxmislari.

Andalib eng ko'p taxmisni Navoiy g'azaliga bog'lagan — yigirmaga yaqin. Bu dalil uning buyuk salafi ijodini yaxshi bilgani va undan ta'sirlangani, ijodiy o'rganganini bildiradi. Ayni paytda, Navoiyning eng badiiy barkamol, eng mashhur g'azallariga taxmis bog'lash bilan o'zining uning munosib izdoshi ekanligini ham namoyon etgan. U Navoiyning "Ollida" radifli g'azaliga musamman ham bog'lagan.

Andalib qofiya topishga usta: Navoiy va Fuzuliyning ko'plab ichki qofiyali g'azallariga shunga munosib taxmislar bog'laganki, bu katta mahorat mahsuli.

"Andalib lirikasida muhabbat mavzusi asosiy o'rinni egallaydi. U xalq og'zaki ijodiyotidan foydalanib, o'z fikrlarini sodda va ravon ifodalaydi hamda she'rlarining mazmundor bo'lishiga, chin insoniy tuyg'ularni aks ettirishga ahamiyat beradi"[1].

Chin ma'nodagi xalq shoiri bo'lgan Andalib bilan bu ilk muloqot o'quvchilar uchun ko'ngilli kechadi, deb umid qilamiz.

Ergash Ochilov,
filologiya fanlari nomzodi

[1] *O'sha yerda.* 104-bet.

G‘AZALLAR

KO‘NGLIMNI BERDIM

Ko‘nglimni berdim bir bevafoga,
Kuydi yuragim jabr-u jafoga.

Ey nozaninim, menga rahm qil,
Qoldim seni deb sonsiz baloga.

Bemori ishqing bo‘ldim, netarman,
Ne chora aylay jabr-u jafoga.

Kipriging o‘qi tegdi yurakka,
Borim davolar ushbu yaroga.

Dunyoda chekdim men oh-u hasrat,
Sabr qilaver ushbu jafoga.

Zolim raqiblar begona qildi,
Ayla tarahhum[1] men benavoga.

Andalib sen deb kechar jonindan,
Qilgil inoyat muflis[2] gadoga.

[1] **Tarahhum** — rahm qilish, shafqat etish.

[2] **Muflis** — faqir, bechora, nochor.

NE BALO XO‘B

Ey rashki pari, mehri jamoling ne balo xo‘b,
Ey nilufaridek qo‘sha xoling ne balo xo‘b!

Fikringda bo‘lib ko‘zlarima jilva namoyon,
Har soat-u har lahza xayoling ne balo xo‘b!

La’ling[1] g‘amidin tashladi Xizr obi hayotin[2],
Kavsar[3] suvidek sofi zuloling ne balo xo‘b!

Ey hur, yuzingning biri oy, birisi kundek,
Bu oy-u quyosh uzra hiloling ne balo xo‘b!

Boshdin-oyoqingdur ochilan gulshani xo‘biy,
Sar[4] to qadam toza niholing ne balo xo‘b!

O‘ltursa ko‘zing, ikki labing lek berur jon,
Jonbaxshliging xo‘b-u qitoling[5] ne balo xo‘b!

Boqsam yuziga Andaliboso[6], ajab ermas,
Furqatzada bo‘lganga visoling ne balo xo‘b!

---

[1] **La’l** — qizil rangli yaltiroq qimmatbaho tosh. Ma’shuqaning qizil labini unga nisbat beradilar.

[2] **Obi hayot** — tiriklik suvi, mangulik suvi. Tasavvufda sa’y-harakat bilan erishib bo‘lmaydigan, Olloh tomonidan o‘zi xohlagan bandalariga beriladigan laduniy (ilohiy) ilm ma’nosida keladi.

[3] **Kavsar** — jannatdagi hovuz, buloq. Uning suvi asaldan shirin, qor va sutdan oq bo‘lib, ichgan kishi abadulabad tashnalik nimaligini bilmaydi.

[4] **Sar** — bosh. Sar to qadam — boshdan-oyoq.

[5] **Qitol** — jang, urush.

[6] **Andaliboso** — Andalibdek. **Oso** — o‘xshash, -dek, -day, monand.

JONONIGA YETSA

Na xush kundir, aziz do‘stlar, kishi jononiga yetsa,
Ko‘rib turli malomatlar oxir hayroniga yetsa.

Chekib ranj-u mashaqqatlar, bu ishq yo‘lida ofatlar,
Ko‘rib yuz ming malomatlar, ko‘ngil armoniga yetsa.

Falak qilsa hujum har on, yiqilsa boshiga osmon,
Ko‘rib yuz dard-u g‘am chandon yana darmoniga yetsa.

Dil-u jonim xarob bo‘lsa, yo‘linda ming azob bo‘lsa,
Kuyib bag‘rim kabob bo‘lsa, ne armon jonimga yetsa.

Malaksiymo, qadi zebo, ko‘zi ohu, yuzi alvon,
Bo‘lib chun Andalib shaydo, guli xandoniga yetsa.

XANDON-XANDON

Keldi sarvi qomatim noz ila xandon-xandon,
Oldi ko‘nglimni navozish bila chandon-chandon.

Shukr Ollohgaki, ko‘zim tushdi quyoshdek yuziga,
Muntazir bo‘lmish edim yo‘lida chandon-chandon.

Jonima solmoq uchun ishva bilan tob uzra tob,
Sochini gul yuziga ayladi pechon-pechon[1].

Qoldilar sayr qilarda yuz-u la’li labiga
Gul boqib, g‘uncha ochib og‘zini hayron-hayron.

Andalibo, qilaver vasl kunining shukrin,
Qolmagaysan yana hijronida nolon-nolon.

[1] **Pechon** — o‘ralgan, halqa.

KITOB OCHDI

Bahor ayyomi ko‘zdan g‘unchalar gulshanda xob[1] ochdi,
Sabo mashshotasi[2] sunbuli zulfing yoydi, tob ochdi.

Ko‘rib sargashta[3] ahvolini bazmi bo‘ston ichra,
Tabassumlar bilan bulbulga gullar la’li nob[4] ochdi.

Demang gul gunchasi, gullar damodam bulbulin chorlab,
Yashil dasturxonidan gulshan ichra bul kitob ochdi.

Sunar bulbula zarrin piyola birla gulshanda,
Demanglar nastarinkim, lab-balab guli sharob ochdi.

Xalildek[5] urganiga o‘zini ishq otashi ichra,
Bilingkim, Haq bihisht gulzoridan bulbulga bob ochdi.

O‘quvchidek chamanning maktabida Andalibi zor —
Ki, bismilloh o‘qibon elda bir alvon kitob ochdi.

RASHKI PARIZOD

Xiromon qomati nozik niholi sarvi ozode,
Paridek gul yuzi-yu surati rashki parizode.

Visoli bazmida oshiqlarini komyob aylab,
Valekin aylamas aslo meni ozodaning yodi.

O‘girdim yuzining hijronida oy-u quyosh sham’in,
Chekib bir o‘tli oh berdim zamin-u ko‘kni barbode.

---

[1] **Xob** — uyqu.

[2] **Sabo mashshotasi** — tong pardozchisi.

[3] **Sargashta** — boshi aylangan, ovora.

[4] **Nob** — toza, tiniq.

[5] **Xalil** — do‘st, yor, sevikli. Ibrohim payg‘ambarning laqabi.

Urab kiprigidan xanjar, surib maydon aro ot gar,
Tanim chok etdi u kofir — ajab berahm jallode.

Musaffodir hilol qoshi-yu noziktab'-u shirinso'z,
Pari yuzli, suman bo'yli, labi qand, o'zi qannodi[1].

Tikan bo'lsa to'shak, yostiq-chi tosh ko'yingda,
yo'q tongkim,
Qilurman hasrat o'tiga kuyib har kecha faryode.

Yuz-u qaddu sumandek kokilining sadqasi aylab,
Gul-u sunbul bilan sarvi chamanni qildi ozode.

Oyog'iga tushib, boshindan aylansam, ajab ermas,
Navozishlar qilib, etmish buzuq ko'nglimni obode.

Ajab kokil, ajab qomat, ajab bir ishva, jodu ko'z,
Ajab xol-u ajab iyak, ajab husni Xudododе!

Jamoling naqshi Chin suratgarni soldi tahayyurga[2] —
Ki, hayron qoldi foniy rashk o'tiga bezode[3].

Nasimi ism har bayt ibtidosidan kelur, ammo,
Kerakdir, Andalibo, ot chiqarmoqlikda ustode.

ANDALIB

Tosh aro aylab vatan, toshbaqa bo'lgan Andalib,
Tuproqqa bag'rin bosib, qurbaqa bo'lgan Andalib.

Bo'lmasa qurbaqa-yu toshbaqa ul nafsi yomon,
Nega bir go'shada doim yakka bo'ldi Andalib.

[1] **Qannod** — qand pishiruvchi, halvogar.
[2] **Tahayyur** — hayratlanish, ajablanish.
[3] **Bezod** — hech narsasiz, sarmoyasiz.

Beqanoatlik uning qo‘l-u oyog‘in bog‘labon,
Bu uqubat ichra tikka-tikka bo‘ldi Andalib.

Do‘st bo‘lganlar eshitsalar sovuqdan o‘lganin,
Kulib ayturlarki: o‘la, xok-da bo‘ldi Andalib.

Kelsa qish urib kovakka, chiqqusi bo‘lsa bahor,
Gohi boyqush bo‘ldi, gohi hakka bo‘ldi Andalib.

MURABBALAR

YORNING FIROG‘I

Izlab yurarman Shom-u Iroqni,
Topmadim aslo yordan so‘roqni,
Yondirdi jonim ko‘r ishtiyog‘i,
Mushkul ekan-ey yorning firog‘i.

Saharlar chekkan oh-u fig‘onim,
Yoqdi falakni, chiqmadi jonim,
Qani mening ul sohibqironim[1],
Kuydirdi, do‘stlar, yorning firog‘i.

Jon-u dilimga o‘tlarni yoqdi,
Ko‘zlarda yoshim qon bo‘lib oqdi,
Oh tutunini bo‘ynimga toqdi,
Kuydirdi, do‘stlar, yorning firog‘i.

Yorni so‘roqlab, qaydan toparman,
O‘tli yurakka suvlar separman,
G‘am qilichida boshim choparman,
Kuydirdi, do‘stlar, yorning firog‘i.

Ko‘rdim banogoh gulday yuzingni,
Qora qoshingni, nargis ko‘zingni,
Qaydan toparman shirin so‘zingni,
Kuydirdi, do‘stlar, yorning firog‘i.

Jon-u jigarlaro o‘rtanadir, yor,
Chunki azalda bo‘ldim giriftor,
Ko‘nglim hamisha ishqingda bemor,
Kuydirdi, do‘stlar, yorning firog‘i.

[1] **Sohibqiron** — bu yerda: baxtli soatda tug‘ilgan, baxtiyor, mas’ud.

Darda tabibim qoshimga kelmas,
Goho kelibon holimni so‘rmas,
Majruh dilimni hech kishi ko‘rmas,
Kuydirdi, do‘stlar, yorning firog‘i.

Nola qilarman shom-u saharlar,
Hajringda bo‘ldim endi qalandar,
Xumori bo‘ldim soqiyi kavsar[1],
Kuydirdi, do‘stlar, yorning firog‘i.

Olib qarorim, ketdi guloyim,
Bo‘lmadi ko‘nglim sira muloyim,
Bo‘ldi qorong‘i ikki saroyim[2],
Kuydirdi, do‘stlar, yorning firog‘i.

Ketdim o‘zimdan, yo‘lingda men xor,
Jon-u dilimdan ortiqdir ul yor,
Ko‘nglim kuyadir, ey Andalib, zor,
Kuydirdi, do‘stlar, yorning firog‘i.

MEN SENGA SHAYDO

“Bandang erurman, vallohi billoh[3],
Shomu saharlar, men senga shaydo,
Keldim qoshingga, ey shay’alilloh[4],
Ko‘rdim yuzingni, alhamdulilloh”.

Kecha-kunduzlar seni ko‘zlarman,
Ko‘chama-ko‘cha seni izlarman,
Har kim yo‘liqsa, sendan so‘zlarman,

[1] **Soqiyi kavsar** — Hazrat Ali. Unga jannatdagi Kavsar bulogining soqiyligi marhamat qilingan. Qiyomatda u odamlarga obi kavsar — kavsar suvi ulashadi.

[2] **Ikki saroy** — ikki dunyo.

[3] **Vallohi billoh** — Xudoga qasamki...

[4] **Shay’alilloh** — Xudo yo‘liga bir narsa so‘rash.

Ko‘rdim yuzingni, alhamdulilloh.
Bir necha kunlar men zori-afgor[1],
Bo‘ldim giriftor men seng, ey yor,
Avval-oxirda sen menga darkor,
Ko‘rdim yuzingni, alhamdulilloh.

Ko‘p zor bo‘ldim senga yetolmay,
Bemoring bo‘ldim darmon topolmay,
Kelib edim men toqat etolmay,
Ko‘rdim yuzingni, alhamdulilloh.

Keldim umid-la seni ko‘ray deb,
Dardimga darmon sendan so‘ray deb,
Qoldirma mahrum — jonim beray deb,
Ko‘rdim yuzingni, alhamdulilloh.

Hayrat yo‘lida holim xarobdir,
Hijron o‘tiga bag‘rim kabobdir,
Holimni so‘rsang, behad savobdir,
Ko‘rdim yuzingni, adhamdulilloh.

[1] **Afgor (Figor)** — 1) yaralangan, majruh; 2) ezilgan, o‘rtangan.

MUXAMMASLAR

O‘RGULAY

Ey sho‘xi noziktabiat, gul yuzingdan o‘rgulay,
Ey qamar yuzlik, shirin-shakkar so‘zingdan o‘rgulay,
Qil qalamdek ikki qoshi qunduzingdan o‘rgulay,
Noz bilan boqqan o‘shal nargiz ko‘zingdan o‘rgulay,
Ham yuzingdan, ham ko‘zingdan, ham o‘zingdan o‘rgulay.

Bu ne davlatdirki, diydoring tamosho aylasam,
Go‘iyo ul Hazrati Yusufni savdo aylasam,
Oy yuzing ko‘rdim — o‘zimni mast-u shaydo aylasam,
Ishqingni, ey navbahorim, ko‘nglima jo aylasam,
Ham boshingdan, ham toshingdan,
ham qoshingdan o‘rgulay.

Taxti dunyoni kezib, sendek nigore ko‘rmadim,
Sen kabi sohiblatofat guluzore[1] ko‘rmadim,
Sendayin nozikbadan, ko‘zi xumore ko‘rmadim,
Dilrabolar ichra sendek shahriyore[2] ko‘rmadim,
Ham belingdan, ham elingdan, ham dilingdan o‘rgulay.

Uyquda ko‘rgan o‘shal shohi jahonim senmisan?
Aql-u hushim olgan ul qoshi kamonim senmisan?
Ko‘nglim ichra jo bo‘lgan mehribonim senmisan?
Qaddi ortiq To‘bidan[3], shirinzabonim senmisan?
Ham tilingdan, ham labingdan, ham bolingdan o‘rgulay.

Bu muxammas sening vasfing bilan qildim bayon,
Aql-u hush yetmas sening vasfingga, ey nozik xirom,

[1] **Guluzor** — gul yuzli, go‘zal.

[2] **Shahriyor** — buyuk podshoh.

[3] **To‘bi(y)** — jannatdagi go‘zal va sersoya daraxt.

To qiyomat aylasam vasfingni hech bo‘lmas tamom,
Men g‘arib jonim fido qilsam bo‘lib senga g‘ulom,
Ham bo‘yingdan, ham o‘yingdan, ham xo‘yingdan o‘rgulay.

Shukr Allohga seningdek mohliqoga uchradim,
Husni misli oftob qoshi qaroga uchradim,
Andalibi benavodirman navoga uchradim,
Ne ulug‘ davlatki, sendek podshoga uchradim,
Ham bo‘yingdan, ham o‘yingdan, ham xo‘yingdan o‘rgulay.

DILBAR

Qurbon bo‘lay ko‘z uzra bodomqabog‘a, dilbar,
Ko‘rgach meni yopishdi g‘amzang pichog‘a, dilbar,
La’ling mayidan ichmay tushdim oyog‘a, dilbar,
Bo‘lgay ne nav’ holim yetgach davog‘a dilbar,
Qatlimni kengasharlar zulfing qulog‘a, dilbar.

Ey moh, eshigingga bir umr bosh urarman,
Chiqsang meni qilib shod, boshingdan aylanarman,
Holi xarob birla ko‘yingga yuzlanarman,
Ilon kabi visoling ganjida tovlanarman,
Rahm et ko‘zimdagi bu qonli bulog‘a, dilbar.

Sharh aylasam tuganmas har dam sifoti husning,
Bog‘ ichra gul qizardi olgach baroti[1] husning,
Bo‘lmish raqibga hamdam ko‘p iltifoti husning,
Ey shoh, men gadoga bermay zakoti husning,
Bir ko‘rsatib o‘zingni, chekding qirog‘a[2] dilbar.

Bir ko‘rish orzusi, boq, qaddimni ayladi xam,
Holim kabi parishon bo‘ldi tanim-da har dam,
Qonlar yutar hamisha la’ling g‘amida dil ham,

[1] **Barot** — afv etilganlik to‘g‘risidagi xat, hujjat.
[2] **Qirog‘** — chet, chekka.

Hurkak dilimni xoling rom ayladi chinakam,
Jonlar qushini zulfing soldi tuzog‘a, dilbar.

Shavqingda, ey parivash, devonadir bu jonim,
Har qancha gunohingga jurmonadir[1] bu jonim,
Men xasta, benavodan begonadir bu jonim,
Vasl oqshomini topgan afsonadir bu jonim,
Husning shomiga boqqil, boqma chirog‘a, dilbar.

Guldek yuzing g‘amida yo‘q menda sabr-u toqat.
Hajringda kecha-kunduz topmay zamone rohat,
Sen bo‘lmasang zamona qilmas ko‘ngil farog‘at,
Jannat sening visoling, hajring esa qiyomat,
Sadqa bo‘lay ko‘zingdan, kelgil quchog‘a, dilbar.

Qorong‘i, kuydiruvchi sensiz menga guliston,
Bulbullar aylagaydir shavqingdan nola har on,
Husning bahosini bil — sendan o‘tar bu davron,
Zulm-u sitamni bas qil, solma aroga hijron,
Qoshingdan aylanay men, kelgil quchog‘a, dilbar.

Quvma sira eshikdan, ey nozanin, qulingman,
Ranj-u alamda doim ko‘ngli hazin qulingman,
Hindu kabi qoraygan hajr ichra chin qulingman,
Bozori ishqqa kirgan bir kamtarin qulingman,
Bechorani boshingdan ayla sadog‘a, dilbar.

Qil gul yuzing namoyon bechora Andalibga,
Gohi, ne bo‘lgay, etsang nazzora[2] Andalibga,
Rahm aylamasmisan hech bechora Andalibga,
Bir to‘ldirib qadah tut mayxora[3] Andalibga,
Noz-u itoblar aylab borganda bog‘a, dilbar.

---

[1] **Jurmona** — gunoh uchun olinadigan haq.

[2] **Nazzora** — qarash, nazar solish.

[3] **Mayxora** — mayxo‘r, may ichuvchi.

CHIG‘IR[1]

Xo‘shlik dehqonlara bir nozanin jonon chig‘ir,
Bo‘lsa ekish vaqtida suv, aylanar chandon chig‘ir,
Ikki yuz tilla bahosi bo‘lsa ham arzon chig‘ir,
To‘ldirib suvni quyarda orasi larzon chig‘ir,
Ko‘zlaridan sel kabi yosh oqizur giryon[2] chig‘ir.

Har saharlar nola aylab, qichqurur shaydo bo‘lib,
Aylanur yuz nag‘ma birlan bulbuligo‘yo bo‘lib,
Ko‘lcha-ko‘lcha yerlara rahmat suvi daryo bo‘lib,
Rahmatidan ko‘karar jumla o‘simlik jo bo‘lib,
Kechalar zikrin aytar oh chekib har on chig‘ir.

Yaxshilab solsang quloq har dam kelur ovozi xush,
Tanbur-u dutoridan yoqimli uning sozi, xush,
Suv farovon bo‘lsa,
bilgilki, bahor-u yozi xush,
Dam-badam suv to‘kkanida u viqirlab nozi xush,
Biz kabi bechoralarning dardiga darmon chig‘ir.

Bo‘lsa go‘yo bir safar kim aylanishda jo‘sh etar,
Yaxshisi yuz ming sanolar birla ko‘ngling xush etar,
Mehribon bo‘lsa Xudo kimga, chig‘irni duch etar,
Kim chig‘irning zavqini bilmas, u tarki hush etar,
Darhaqiqat, bilgan elga aslida dehqon chig‘ir.

Bu chig‘irga ming bir og‘och, biling, darkor erur,
Har biri bir so‘z bilan Haq zikri uchun zor erur,
Biri Subhon[3] deb,
biri “Alhamdulilloh” yor erur,

---

[1] **Chig‘ir** — odam, uy hayvonlari yoki oqar suv kuchi bilan harakatga keltirilib, suvni yuqoriga ko‘tarib beradigan qadimga eng oddiy gidravlik moslama.

[2] **Giryon** — yig‘lovchi, yig‘lab turgan.

[3] **Subhon** — Xudoning sifatlaridan biri: pok.

Aylanurda qisgani charxi falakdek bor erur,
Tinmayin "huv-huv" etib,
bag'ri emish biryon[1] chig'ir.

Ustuni boqib samoga Arshi a'lo ko'rgusi,
Haq taolo birligiga ham guvohlik bergusi,
Haq ijodini hamisha u tamosho qilgusi,
Suvidan past-u baland-u sho'r yerlar to'lgusi,
Ko'karar rahmat suvidan bog' ila bo'ston chig'ir.

"Lo iloha illalloh" deb, arpa-bug'doy bosh bo'lur,
"Losharika vahdahu"[2] deb jo'xori ham chosh bo'lur,
Sabzi-yu kunjut, zig'ir, sholi ajoyib osh bo'lur,
Ko'p eking jo'xorini — uning xurushi mosh bo'lur,
Ehtiyot aylang, azizlar, bo'lmasin vayron chig'ir.

Ham uzum paydo bo'lur, anjir bilan zardolular,
Olma, kishmish, qovun-u tarvuz bilan qarolular,
Ham anor-u pistalar, nashvoti-yu shaftolilar,
Savsan-u sunbul, qizil gul ochilib, gul-lolalar,
Ushbu gullarni ko'rib, mast bo'lgusi chandon chig'ir.

Kimki bilmas bu chig'irning lazzatin hayvon erur,
Termulib o'ltirsa suv deb, ahmog'-u nodon erur,
Chiqmasa suv yer uchun ishimiz ming afg'on erur,
Andalib shukr etdi Allohga, chig'ir javlon erur,
Biz kabi bechoralarning dardiga darmon chig'ir.

[1] **Biryon** — qovurilgan; o'rtangan.

[2] **Losharikavahdahu** — Xudoning sherigi yo'q.

NAVBAT SIZA YETDI

Ibrat oling, ey xalq, jahondan hama ketdi,
Kim olama keldi — hama armon bila ketdi,
Chin bandalari oxirat asbobini etdi,
Ogoh bo'ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo'ling, ahbobki[1], navbat siza yetdi.

U Hazrati Odamga-da keltirdi balolar,
Havvo boshiga soldi necha jabr-u jafolar,
Yetkazdi-ku ul Nuhga sitam ahli xatolar,
Ogoh bo'ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo'ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Jirjis[2] ila Shis[3] edi nabilarni(ng) qadimi,
Ilk olimi Idris[4] bu basharning, muallimi,
Luqmoni Hakim erdi bu xalqning hakimi,
Ogoh bo'ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo'ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Yahyo-yu Zikiryoni shahid ayladi kuffor[5],
Ayyub taniga yetdi Haq hukmi-la ozor,
Turmay bu jahondan barisi o'tdi bo'lib zor.
Ogoh bo'ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo'ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Yaqub sitamlar ko'rib o'tdi bu jahondan,
Yusuf sotilib, ko'rdi jafolar bu makondan,
Osmonga qochib ketdi Iso ahli zamondan,
Ogoh bo'ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo'ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

---

[1] **Ahbob** — do'stlar.

[2] **Jirjis** — musulmon rivoyatlarida zikr etilgan shaxs. Butparast Mosul podshosi uni qayta-qayta qatl ettirgan, lekin har gal Alloh uni tiriltirgan.

[3] **Shis** — payg'ambar.

[4] **Idris** — Xizr va Ilyos kabi abadiy hayotga nozil bo'lgan payg'ambar.

[5] **Kuffor** — kofirlar.

Solih qani — u tuyani tog‘dan badar[1] etgan,
Muso qani — u quruq yog‘ochdan shajar[2] etgan,
Ul Lut qani — ummatni xuni jigar[3] etgan,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Dovud qo‘lida mum kabi erir edi temir,
Hukmida Sulaymonning edi yer-ko‘k — emas sir,
To‘qqiz ko‘kka[4] chiqdi u rasullar shohi bir-bir,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Qoldimi Xalil — o‘g‘lini u ayladi qurbon,
Bordirmi Ali — sayladi Haq o‘ziga arslon,
As’hobi Rasul qayda, qani forsiy u Salmon[5],
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Ummatga imomlik Hasan-u Husaynda jam erdi,
Sajjoda[6] qani — olam aro muhtaram erdi,
Avlodi Rasul barcha sohibi karam erdi,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Imomlari bor Ko‘faning a’zam — nazar et,
Aldanma jahon makr-u firibiga — hazar et,
Sen oxirat asbobini[7] jam ayla — safar et,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

---

[1] Bu yerda Samud qavmiga payg‘ambar qilib yuborilgan Solihning mo‘jiza ko‘rsatib, xarsang toshdan tuya chikarganiga ishora qilinayapti.

[2] **Shajar** — daraxt.

[3] **Xunijigaretmoq** — jigarini qon etmoq.

[5] **Salmon** — sahoba

[6] **Sajjoda** — joynamoz.

[7] **Oxirat asbobi** — oxirat vositalari, ozig‘i.

Tark etdi jahon mulkini u Xo'jai Ahror,
Sultoni tariqat — ulug' Qosimi Anvor[1],
Shibliy[2] qani — Tangriga edi mahrami asror,
Ogoh bo'ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo'ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Ul murshidi xayr qaydaki, oti Hasan[3] erdi,
Qimmatbaho durning oti Vays ul-Qaran[4] erdi,
Ahmad Yassaviy qaydaki, qutb ul-eran[5] erdi,
Ogoh bo'ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo'ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Ul shayxi Kabir[6] etdi shahodat mayini no'sh,
Mansur edi solgan, qani, ummon ichiga jo'sh,
Ul shayxi Naqshband qani — shohi kulohgo'y[7],
Ogoh bo'ling, charx burungilarni netdi?
Voqif bo'ling, ahbobki, navbat siza yetdi!

Shahboz[8] qani — ul adl ila dod[9] etdi hamisha,
Hotam edi qilgan o'ziga xayrni pesha[10],
Farhodni yo'q qildi urib boshiga tesha,
Ogoh bo'ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo'ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Iskandar edi zo'r ila olam yurib olgan,
Rustam[11] qani — ul olam aro g'ulg'ula solgan,

---

[1] **Qosimi Anvor** — mashhur avliyo va mutasavvif shoir.

[2] **Shibliy** — mashhur shayx.

[3] **Hasan** — yirik ilohiyot olimi Hasan Basriy.

[4] **Vays ul-Qaran** — so'fiylikdagi uvaysiya tariqati asoschisi.

[5] **Qutb ul-eran** — tariqat yo'lboshchisi, oriflar rahnamosi.

[6] **Shayxi Kabir** — mashhur shayx, yirik tasavvuf olimi va mutasavvif shoir Najmiddin Kubro.

[7] **Shohikulohgo'y** — darveshlar shohi.

[8] **Shahboz** — lochin.

[9] **Dod** — insof, adolat.

[10] **Pesha** — kasb, hunar.

[11] **Rustam** — mag'lubiyat nimaligini bilmagan afsonaviy qahramon Rustami doston.

Bo‘lmang sira mag‘rur bu jahonga yoru yoron[1],
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Ustun bo‘lib olamda biror qoldimi xoqon,
Hasrat bilan o‘tdi bu jahondin bari sulton,
Bermaydi madad xotin-u qavmu moling ul on,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Payg‘ambariga hatto vafo qildimi dunyo,
Rahm aylamadi keksaga-da, yoshga-da aslo,
Vaqting oxirat yo‘lida sarf ayla har asno,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Jahd ayla — qazo aylamagil ro‘za, namozing,
Tur erta sahar, Tangriga arz ayla niyozing[2],
O‘tkazma behuda kecha-kunduz, qish-u yozing,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi,
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Ota-yu onang qavm-u qarindoshingni qil yod,
Ham yor-u birodar qani, ul pir ila ustod,
G‘ofillik ila berma aziz umringni barbod,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi?
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Ummat, qilibon tavba, yoqangni tutavergil,
Foniy bu jahon bor-u yo‘g‘in unutavergil,
Yondashma bu dunyoga, uzoqdan o‘tavergil,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi?
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

---

[1] **Yoron** — do‘stlar.

[2] **Niyoz** — iltijo, arz.

Soqiy qo‘lidan mast-u xumor mayni simirmay,
Kim qolgusidir bu qora tuproq aro kirmay,
Faryodki, qoldim yana armon ila, ko‘rmay,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi?
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Yo Rab, qil uni ravzai rizvon[1] ila ulfat,
Fazling ila ahvoliga boq, ayla inoyat,
Turg‘izgil uni ravzasida kelsa qiyomat,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi?
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

Ey Andalibo, o‘tdi jahondan necha shahboz,
Bir kuni vafosiz bu umr qilgusi parvoz,
Musoi Kalim erdi Xudoga qilibon roz,
Ogoh bo‘ling, charx burungilarni netdi?
Voqif bo‘ling, ahbobki, navbat siza yetdi.

[1] **Ravzairizvon** — jannat bog‘i.

TAXMISLAR

NAVOIY G‘AZALLARIGA MUXAMMASLAR

YORG‘ACHA

O‘ngumni tutsa balo Hinddan Hisorg‘acha,
Qaroqchi tutsa yana Qorshudin Xuzorg‘acha,
Suv olsa yo‘limi to Balxdin Buxorg‘acha,
Hirotdin agar o‘t tushsa Sabzavorg‘acha,
Bo‘lay samandar-u[1] tortay o‘zumni yorg‘acha.

Jahonda ohim o‘tidin sharora[2] tush-tushdur,
Ki ruq’am[3] ar biri elturga nomavar[4] qushdur,
Ko‘rubman oni bu oqshom, o‘ngummu yo tushdur,
Ko‘ngul dog‘i bu o‘t ichra yo‘luqsa ham xushtur —
Ki, bo‘lsa hamrahim ul sarvi guluzorg‘acha.

Balo sipohi bila dashti g‘amda ot surushub,
Fazoyi mehnat aro bir-birin oxtorushub,
Qaror-u toqati sabrim birin-birin urushub,
Junun aro borishib, goh-u goh qichqirishib,
Yetishsak ikkimiz ul tund shahsuvorg‘acha[5].

Tanim firoq o‘tidin xasta-u kuyuk bo‘lsa,
Yo‘limda turlu balolar suruk-suruk bo‘lsa,
O‘ngumg‘a ne keluri kosh bilgulik bo‘lsa,
Emas chu umr ishi ma’lum, har nechuk bo‘lsa,
O‘zumni yetkurayin yor o‘lon diyorg‘acha.

---

[1] **Samandar** — afsonaga ko‘ra, olov ichida tug‘ilib, olov ichida yashaydigan, rangi ham olovrang jonivor.

[2] **Sharora** — uchqun.

[3] **Ruq’a** — xat, maktub.

[4] **Nomavar** — maktub olib boruvchi.

[5] **Shahsuvor** — 1) chavandoz; 2) mahbuba.

Fig‘onkim, bo‘lmisham o‘z shahri kishvarimda[1] g‘arib
Kishim yo‘q oni janozamg‘a qilg‘ali targ‘ib,
Yetushmagay manga shoyad azobdin osib[2],
Chu ko‘y ichra mozorimg‘a bersalar tartib,
Qadamni qilsa gahi ranja ul mazorg‘acha.

Bu kun sabo bu ko‘han dayr[3] aro topilmassan,
Yo‘ling mahufdurur[4] qaytib emdi kelmassan,
Hama fano yo‘lig‘a bordi, boqiy qolmassan,
Erur bahor g‘animat, may ichki, bilmassan —
Ki, dahr bog‘ida bo‘lgung yana bahorg‘acha.

Kel, Andalibi balokashg‘a, soqiyo, may ber,
Qilay man oni ichib, joninga duo, may ber,
Xumor, xastasidurman, topay shifo, may ber,
Navoiyo, g‘amim o‘lturdi, g‘amzudo[5], may ber,
Yo‘q ersa boshla mani yori g‘amguzorg‘acha[6].

O‘LTURGUSI

Faryodkim, man zorni ul guluzor o‘lturgusi,
Qatlimg‘a bog‘lab tig‘i kin, zori nizor[7] o‘lturgusi,
Qosh-u ko‘zung, xol-u xating begonavor o‘lturgusi,
Bir kun mani ul qotili majnunshior o‘lturgusi,
Usruk[8] chiqib, javlon qilib, devonavor o‘lturgusi.
Ochmish guli ruxsorini ul qomati navrastakim[9],

---

[1] **Kishvar** — o‘lka, viloyat, shahar.

[2] **Osib** — ziyon, zarar, kulfat.

[3] **Kuhandayr** — ko‘hna dunyo.

[4] **Mahuf** — qo‘rqinchli, dahshatli.

[5] **G‘amzudo (G‘amzado)** — qayg‘uni ketkazuvchi, g‘amdan qutqaruvchi.

[6] **G‘amguzor** — g‘amxo‘r, mehribon.

[7] **Nizor** — zaif, notavon.

[8] **Usruk** — mast.

[9] **Navrasta** — yosh, navnihol.

Ikki hiloli qoshlari bir-birina payvastakim,
Gisularina bo‘lmisham ondin beri vobastakim,
Oshiq bo‘lurda bilmadim men notavoni xastakim,
Hajr o‘lsa, g‘am kuydurgusi, vasl o‘lsa, yor o‘lturgusi.

Kirpiklarini o‘qlarin bog‘lab qoshi yosig‘akim,
Bilmon ne deb rahm aylamas man zori shaydosig‘akim,
Ko‘nglum qushin band ayladi zulfi chaliposig‘akim[1],
Maydon aro, ey ahli din, kirmang tamoshosig‘akim,
Yuz ko‘rmayin ul kofiri chobuksuvor[2] o‘lturgusi.

Jonimg‘a rohat yetkurur la’ling xayoli o‘zgacha,
Uchdi jamoling hajridin uyqu ko‘zimdan bu kecha,
Mumkin emas jon saqlamoq man notavoni tongg‘acha,
La’ling zakoti may tutub tirguzmasang, ey mug‘bacha[3],
Dayr ichra men dilxastani ranj-u xumor o‘lturgusi.

Ikki banogo‘shidagi[4] kokul ochibdur orazin,
Jon rishtasidek mushkbo‘ sunbul ochibdur orazin,
Bu Andalibi zorg‘a bilkull[5] ochibdur orazin,
Derlar Navoiy qatlig‘a gul-gul ochibtur orazin,
Ko‘rguncha oni, voykim, yuz xor-xor[6] o‘lturgusi.

---

[1] **Chalipo** — but, xoch.

[2] **Chobuksuvor** — mohir chavandoz; majozan: ma’shuqa.

[3] **Mug‘bacha** — mug‘ (otashparast)lar ibodatxonasidagi dastyor bola. Tasavvuf adabiyotida sodiq murid, chin oshiq va soqiy timsoli bo‘lib keladi.

[4] **Banogo‘sh** — quloq solinchog‘i.

[5] **Bilkull** — mutlaqo, butunlay, tamomila.

[6] **Xor-xor** — g‘am, qayg‘u, tashvish, bezovtalik.

EY KO'NGUL

Ul paridin o'zgaga telmurmag'aysan, ey ko'ngul,
Aylasa javr-u sitam injilmag'aysan, ey ko'ngul,
Muddaiylar[1] ta'nidin tortilmag'aysan, ey ko'ngul.
Istasang hajr o'tig'a yoqilmag'aysan, ey ko'ngul,
Yordin zinhorkim ayrilmag'aysan, ey ko'ngul.

Orzu aylarsan hardam ul shakarguftorni[2],
Qomati sarv-u yuzi gul, xoli anbarborni[3],
Oqibat hijronida o'ltirgusi san zorni,
Vah, ne tole'durki, topmay istab umre yorni,
Chun sani yor istagay topilmag'aysan, ey ko'ngul.

Bazm aro ul mahliqodin g'ayri havro[4] bo'lmasun,
Balkim ul Layli bilan Shirin-u Uzro bo'lmasun,
Furqatida bistaring[5] juz[6] xor-u xoro[7] bo'lmasun,
Buki qon yoshim desangkim oshkoro bo'lmasun,
Mayl etib yoshlar sori qotilmag'aysan, ey ko'ngil.

Fitnalar soldi jahong'a ikki kofir ko'zlari,
Lek jon ta'min berur nutq etsa shirin so'zlari,
So'rsalar, de xo'blarda yo'qtur ondin ilgari,
Desalar Laylim-u ortiq husn aro yo ul pari,
Garchi Majnunsan, kerak yongilmag'aysan, ey ko'ngul.

Ayladi par qoshlari qavs-u quzah[8] hushingni mahv,
Ul musaffo g'abg'abi[9] holi manah[10] hushingni mahv,

---

[1] **Muddaiy** — da'vogar, raqib.

[2] **Shakarguftor** — shirin so'zli.

[3] **Anbarbor** — anbar sochuvchi; xushbo'y, muattar.

[4] **Havro** — hurlar.

[5] **Bistar** — to'shak.

[6] **Juz** — ...dan boshqa.

[7] **Xoruxoro** — tikan va tosh.

[8] **Qavs-u quzah** — kamalak.

[9] **G'abg'ab** — iyak.

[10] **Manah** — iyak.

Yo saning devonalig‘, yo bu farah hushingni mahv,
Qildi chun soqiy labi tekkoch qadah hushingni mahv,
To abad zinhorkim oyilmag‘aysan, ey ko‘ngul.

Istabon bu gulsitonda guluzori orazin,
Ko‘zlaring tortib oqordi intizori orazin,
Umring o‘tdi ko‘rmading bir lahza yori orazin,
G‘unchasin g‘amdin vale soqiy bahori orazin,
Ochsa bilmonkim netib ochilmag‘aysan, ey ko‘ngul.

Andalibo, bu mahol andesha birla moh-u sol[1],
Yor vaslin fikr etib ko‘rmak xayolidur xayol,
Dayr piri[2] xizmatida qilmayin kasb-u kamol,
Davlati boqiy Navoiydek erur topmoq mahol,
To tamom o‘zlikni[3] foniy qilmag‘aysan, ey ko‘ngul.

KELMADI

Xam keturdi qomatim payvasta abro‘[4] kelmadi,
Xatti mushkafshon-u[5] xoli anbarinbo‘ kelmadi,
Ro‘zgorim[6] tiyra[7] qilg‘on ja’di[8] gisu kelmadi,
Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Chiqg‘on ermish azmi javlon qilg‘oli ul shahsuvor,
Orazin ko‘rmak erur ikki ko‘zumga iftixor,

---

[1] **Moh-u sol** — oy-u yil.

[2] **Dayrpiri** — mayxona piri, ya’ni tariqat piri, ma’naviy rahbar.

[3] **O‘zlik** — insonning nafs va dunyo bilan bog‘liqligi. Ular har lahza kishiga o‘zligini eslatib, uni Xudo yo‘lidan chalg‘itadi.

[4] **Abro‘** — qosh.

[5] **Mushakafshon** — mushk sochuvchi.

[6] **Ro‘zgor** — 1) davr, zamon; 2) taqdir, qismat; 3) turmush, hayot.

[7] **Tiyra** — 1) qora, qorong‘i, xira, nursiz; 2) qayg‘uli, g‘am-g‘ussali.

[8] **Ja’d** — jingalak soch.

Oh, naylaykim, bo‘lubdur ashk birla pardador,
Lahza-lahza chiqtim-u chektim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘a-u ul sho‘xi badxo‘[1] kelmadi.

Kelsa ul gul xirmani suhbat tutib qilsam nishot[2],
Pardai jonimni poyandoz etib qilsam bisot,
Yo‘qsa nomus etti qilmoq men gadog‘a irtibot[3],
Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro‘zgorimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u, kelmadi.

Ey parilar shohi, bir jurm[4] ila yozg‘urmang meni,
Bu suubatlar[5] bila har yonga kezdurmang meni,
Kelmisham ummid ila, navmid[6] etib surmang meni,
Ko‘zlaringdin necha suv kelgay deb o‘lturmang meni,
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.

Beli fikri qo‘lga kirmas, og‘zidek bo‘lmay adam[7],
Tortibon har dam riyozat, istamay dayr-u haram,
Za’faronzor orazing qon yoshimi qilmay niam[8],
Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsa kim qo‘ydi qadam
Yo‘lg‘akim, avval qadam ma’shuqa o‘tru[9] kelmadi.

Andalibo, nola aylab beg‘am et ko‘nglung uyin,
Jomi sahbodur[10] dengiz, ko‘z bayram et ko‘nglung uyin,
Yetmasun osib, hargiz mahkam et ko‘nglung uyin,
Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

---

[1] **Badxo‘** — yomon qiliqli; sitamgar.
[2] **Nishot** — shodlik, xursandchilik, xurramlik.
[3] **Irtibot** — bog‘lanish, aloqa.
[4] **Jurm** — ayb, gunoh.
[5] **Suubat** — qiyinchilik, qattiqlik, azob.
[6] **Navmid** — umidsiz, ma’yus.
[7] **Adam** — yo‘q, yo‘qlik.
[8] **Niam** — ne’matlar.
[9] **O‘tru** — qarshi, muqobil, ro‘para.
[10] **Sahbo** — qizil may, oliy sifatli may.

GIRIFTORMAN YANA

Har subh-u shom telbarab og‘lormen yana,
Ul vajhdinki, tolibi diydormen yana,
Gah sokini jafo, gah sayyorman yana,
Hayhotkim, birav g‘amidin zormen yana,
Faryodkim, balog‘a giriftormen yana.

Jonimni oldi qosh-u ko‘z-u oraz uzra mang,
Ko‘nglumni yoqdi shu’lai hijron bedarang[1],
Ey ahli dil, qachon bo‘lur oshiqta nom-u nang[2],
Og‘zim qurub, damim tutulib sekrasam ne tong,
Kim telba chobukimga[3] jilavdormen yana.

Zorimni kimga desam, uchar hush boshidin,
Bir o‘q qadaldi siynama payvasta qoshidin,
Faryoda keldilar hama nolam xaroshidin[4],
Har kecha bir quyosh g‘amidin g‘ussa toshidin,
Boshdin ayog‘ sipehrdek[5] afgormen yana.

Gah vodiyi junun aro mastona yo‘l tuzub,
Kim telbarab fig‘on ila, gah yova[6] ko‘rguzub,
May ichgali ridog‘a solib, bodani suzub,
So‘fiyi aql savmaasin[7], shukrkim, buzub,
Dorul-fanoi ishqda xammormen yana.

Tuz, Andalib, “Iroq”u “Hijoz” aylagil fig‘on,
Gohi Nishovuriga tebranar “Isfahon”.
Sharhi g‘amingni aylagil ushshoq aro ayon,

---

[1] **Bedarang** — to‘xtovsiz, tez, darhol.

[2] **Nang** — or, nomus, uyat.

[3] **Chobuk** — 1) tez, chaqqon, ildam; 2) sho‘x, o‘ynoqi, go‘zal.

[4] **Xarosh** — bu yerda: dard, alam, azob.

[5] **Sipehr** — 1) osmon; 2) zamon, dunyo.

[6] **Yova** — bu yerda: yolg‘on.

[7] **Savmaa** — nasroniylar ibodatxonasi, cherkov.

Aql itti, hush ketti, ko‘ngul kuydi, chiqdi jon,
Shukr et, Navoiyoki, sabuksubormen[1] yana.

KO‘RDIM BU KUN

Ahli ishqa Haq inoyat etmishin ko‘rdim bu kun,
Yusufi Soniy[2] jahon yaratmishin ko‘rdim bu kun,
Go‘iyo jannatda bir gul bitmishin ko‘rdim bu kun,
Bir pari ro‘yi ko‘zimdan o‘tmishin ko‘rdim bu kun,
Telba aylab, aqlim olib ketmishin ko‘rdim bu kun.

Men ne bo‘lgum — necha mendek telbai hayron bo‘lib,
Ahli ishqing ko‘ngli ishq o‘ti bilan jumla to‘lib,
Mast-u mustag‘raq bo‘lib, behush ekaningni bilib,
Boshi yetmish, yuz ayoq, uch yuz badanli qush kelib,
Tan o‘yindan murg‘i jon[3] sayd[4] etmishin ko‘rdi bu kun.

Ahli rindlar[5] chokaridirlar[6] unga, ul — podshoh,
Oshig‘i sodiq unga bisyor chun xayli sipoh[7],
Bir g‘arib bechora doim amringga aylab nigoh,
Yetti bosh, sakson oyoq, o‘ttuz badan mori siyoh[8],
Xam bo‘lub gul ustida to‘lg‘onmishin ko‘rdim bu kun.

Marhamatlar aylabon ham dushmana, ham do‘stina,
Oshiq ahli ko‘z yoshini hino qilmish dastina,

---

[1] **Sabukbor** — yuki yengil.

[2] **Yusufi Soniy** — ikkinchi Yusuf, ya’ni go‘zallikda Yusuf alayhissalomga teng.

[3] **Murg‘ijon** — jon qushi.

[4] **Sayd** — ov, shikor.

[5] **Ahliind** — rindlar.

[6] **Chokar** — xizmatkor.

[7] **Xaylisipoh** — askarlar guruhi.

[8] **Morisiyoh** — qora ilon.

Do‘stlarini aylamish poymol samandi[1] ostina,
Bir qora qush ul zamon chiqqanda gulzor ustina,
Ikki oh-u sahni gulda turmishin ko‘rdim bu kun.

Qoshi yoydir, kiprigi o‘q — jumla oshiq qasdida,
Muddao oshiqlara maqtul bo‘lmoq dastida,
Or etardin qildi ul poymol raxshi[2] ostida,
Bir qalandar hindubachcha[3] xirmani gul ustida,
Rumga mehmon bo‘lub o‘lturmishin ko‘rdim bu kun.

Lablarim suvi quribdir ishqi Farhodi uchun,
Shirin ersa la’li rahm etmaski Farhodi uchun,
Voizo, sen pand berma sabri imdodi uchun,
Oshiqi sodiq nishoni ishqi bevodi(y) uchun,
Aql ila iymonni mayga sotmishin ko‘rdim bu kun.

Yo Iloho, ul guling vaslini qil bizga nasib,
Bulbuling dardiga darmon gul emish, deydi tabib,
Roqim[4] ishi doimo bo‘lgay navo chun Andalib,
Yor bazmida, Navoiy, erdi rashk aylab raqib,
Laxta-laxta g‘unchadek qon tutmishin ko‘rdim bu kun.

O‘N SAKIZ YOSHINDADIR

Bir parivashkim, g‘ami men zori qalloshindadir[5],
Jonfizoliklar[6] labi la’li guharposhindadir[7],
Sho‘r-u[8] savdoyi qiyomat zulfi chirmoshindadir,

---

[1] **Samand** — tulpor, arg‘umoq.

[2] **Raxsh** — yugurik ot, tulpor.

[3] **Hindubachcha** — hind bolasi.

[4] **Roqim** — 1) raqam etguvchi, kotib; shoir; 2) Xorazmda XVIII oxiri — XIX asr boshida yashab ijod etgan o‘zbek shoiri.

[5] **Qallosh** — g‘arib, bechora.

[6] **Jonfizo** — jonbaxsh, jonga rohat beruvchi.

[7] **Guharposh** — gavhar sochuvchi; ma’noli so‘zlar gapiruvchi.

[8] **Sho‘r** — g‘avg‘o, to‘polon.

O‘n sakiz ming olam oshubi[1] agar boshindadir,
Na ajab, chun sarvinozim o‘n sakiz yoshindadir.

Bo‘lsun ul oy masnadi husn uzra doim barqaror,
La’li serobida[2] hargiz ko‘rmasin xatti g‘ubor,
Go‘iyo bir guldir, ochilmishdir ul avval bahor,
Desa bo‘lgaykim, yana ham o‘n sakiz yil husni bor,
O‘n sakiz yoshinda muncha fitnalar boshindadir.

Voh, ne ofatdirki ul — goh yig‘latar, goh kuldirar,
Nutqidan jon bersa, fatton ko‘zlaridan o‘ldirar,
Partavi[3] husni quyosh yanglig‘ jahonni to‘ldirar,
O‘n sakiz yil dema, yuz sakson yil uldurur,
Husn shohi bu balolarkim, ko‘z-u qoshindadir.

Ayladi mayxonaga javlon ochib o‘tlig‘ uzor[4],
Sunbulin yoymish banogo‘shiga aylab tor-tor,
Kirpigi nishi balodir, ko‘zlari oshuftavor,
Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,
Barchasi Ezid[5] taolo sun’i[6] naqqoshindadir.

Ohkim, kelmas vafo bo‘yi sitamgar ko‘nglidin,
Qatlima bel bog‘labon aylab muqarrar ko‘nglidin,
Qilmangiz hargiz tama ul sho‘xi kofir ko‘nglidin,
Tan anga siym-u[7] ichinda tosh muzmar[8] ko‘nglidin,
Aqlga yuz hayrat ul oyning ich-u toshindadir.

---

[1] **Oshub** — g‘avg‘o, fitna, to‘polon.

[2] **Serob** — sersuv, namlik; porloq, yarqiroq.

[3] **Partav** — uchqun, shu’la.

[4] **Uzor** — yuz, chehra.

[5] **Ezid** — Xudo, tangri.

[6] **Sun’** — yaratish, san’at, ijod.

[7] **Siym** — 1) kumush; 2) kumush tanga, pul; 3) oqlik, oqbadan.

[8] **Muzmar** — yashirin, pinhon, maxfiy.

Oshiq uldirkim, shahodatgohida o‘lgay zabih[1],
Ne uchun mast otlanib chiqmishdir ul sho‘xi malih[2],
Aylama ta’n-u malomat, zohido, ko‘rma qabih,
May[3] ketir, ey mug‘ki[4], yuz hayrat aro qolmish Masih,
Bulajablig‘lar[5] bu eski dayr xuffoshindadir[6].

Voh, ne to‘fon turg‘izib, olamni buzdi qahri — ashk,
Za’faronzor orazin rux-rux[7] qilibdir zahri ashk,
Andalibi notavon yanglig‘ oqizdi nahri ashk,
To Navoiy to‘kdi, ul oy furqatidan bahri ashk,
Har qachon boqsang, quyosh aksi uning boshindadir.

NOZIKKINA

Shukrililloh, dilbarim bo‘lmish chuchuk tillikkina,
Sho‘xi-shax, nozikado, mahvash, ochiq yuzlikkina,
Xo‘blar shohi, sariri[8] husn uza usrukkina,
Bir kichik yoshlig‘ nigore topmisham nozikkina,
Sekreturda tavsanin[9] maydon aro chobukkina.

Ziynat aylab kokili shabgun[10] ila o‘zginasin,
Suydirar ul qomati mavzun ila o‘zginasin,
Chun tuzatdi bu sifat qonun ila o‘zginasin,

[1] **Zabih** — boshi kesilgan, qurbon qilingan.

[2] **Malih** — go‘zal, malohatli.

[3] **May** — tasavvuf adabiyotida ilohiy tajalli timsoli, ishq va irfon (ma’rifat) ramzi bo‘lib keladi. Shunga muvofiq, mastlik ilohiy ma’rifatdan huzurlanishni, ma’naviy zavq daryosiga g‘arq bo‘lishni bildiradi.

[4] **Mug‘** — otashparast; ba’zan otashparastlar ruhoniysi ma’nosida ham keladi; majozan: piri komil.

[5] **Bulajblig‘** — ajablanarlik, qiziq, g‘aroyib.

[6] **Xuffosh** — ko‘rshapalak.

[7] **Rux** — yuz, chehra.

[8] **Sarir** — taxt.

[9] **Tavsan** — sho‘x, asov, o‘ynoqi ot.

[10] **Shabgun** — tun kabi qora, qora rangli.

Gah vafo, gah noz-u gah afsun ila o‘zginasin,
Ko‘rguzib har lahza dilbarlig‘da bir turlukkina.

Nutqi jonbaxshi fasohat bobida tahsingina,
Bevafodir, masti bebok-u[1] jafo oyingina[2],
Hiyla-yu makr-u firiblar aylabon ta’yingina,
Javr ila tahdidi bedillarg‘a[3] bori ching‘ina,
Mehr ila har va’dakim qildi, bari o‘trukkina[4].

Qomati sarv, yuzi gul, ko‘zlari mastonginam,
Ishvalar qildi kulib la’li labi xandonginam,
Aldadi yuz til bilan men xastani jononginam,
Asr-u yolg‘on va’dasidin kuymish erdi jonginam,
Ongdibon bir kecha tushti ilgima[5] usrukkina.

Fitna solgan olama ko‘zginasidan o‘pkamen,
La’li jonbaxshin so‘rib, so‘zginasidan o‘pkamen,
Boshidan yuz aylanib, o‘zginasidan o‘pkamen,
Istadim bo‘ynin quchib, yuzginasidan o‘pkamen,
Iztirob aylab talashdi, bor emish kuchlukkina.

Keldi yarim kecha — ilgida surohiy[6] birla may,
Yonida mutrib[7], chalib tanbur, qonun[8] birla nay,
Men dedim: “Bir bo‘sa bergil, yuzlaringdan jon topay,
Yuz o‘parga quymadi, ilgin”, dedim, bori o‘pay,
Tashlabon yumruqqina, qildi ko‘zumni ko‘kkina.

---

[1] **Bebok** — zolim, shafqatsiz; mahbuba, go‘zal yor.
[2] **Oyin** — rasm, odat; yo‘l-yo‘riq.
[3] **Bedil** — dilini oy bergan, oshiq, mubtalo.
[4] **O‘truk** — yolg‘on.
[5] **Ilik(Ilig)** — qo‘l.
[6] **Surohiy** — qadah, may idishi.
[7] **Mutrib** — cholg‘uchi, sozanda.
[8] **Qonun** — musiqiy qonun.

Andalibo, betahoshiy[1] so‘zga berding tumtaroq,
Bu vafosiz dilrabolardan o‘zingni tut yiroq,
Tarki ishq aylab, farog‘at bo‘lganing ko‘p yaxshiroq,
Har ne deding, bor edi yolg‘ongina boshtin-ayoq,
Ey Navoiy, muncha yolg‘on degucha bo‘l shukkina[2].

KO‘ZGU XO‘B

Ey o‘tog‘ing xo‘p, o‘tog‘ingda murassa’[3] inju xo‘b,
Ey qulog‘ingda qiron etgan[4] musaffo lo‘lu xo‘b,
Uchdan o‘rilgan banogo‘shinda ikki gisu xo‘b,
Ey senga yuz xo‘b-u lab xo‘b-u labingdin kulgu xo‘b,
Har nekim voqe bo‘lur sendin, ko‘zumga asru[5] xo‘b.

Za’flik jismim bo‘lubdur oh chekmakdin yengil,
Itlaringga ayladim boshim fido, qonim bihil[6],
Shammae[7] noz-u adosidin qulog‘imga degil,
Deding ul oy vasfin, ey roviy, yana so‘z demagil,
Xo‘blardinkim, so‘zung erdi bu yerga tegru xo‘b.

La’li nobing[8] sharbati yuhyil izomin[9] ichtilar,
Jonidin qo‘l yuvdilar, dag‘i boshidin kechtilar,
Rashkdin yig‘lab, ayoqingga guharlar sochtilar,
Xo‘blar qul bo‘ldilar, lekin parilar qochtilar,
Olam ichra odamiy bir sencha bor erkinmu xo‘b?

---

[1] **Betahoshiy** — qo‘rqmasdan, hayiqmasdan.
[2] **Shukbo‘lmoq** — jim bo‘lmoq.
[3] **Murassa’** — bezalgan, ziynatlangan.
[4] **Qiron etmoq** — yaqinlashmoq, to‘qnashmoq.
[5] **Asru** — ko‘p, ortiq, behisob.
[6] **Bihil** — bu yerda: fido, qurbon.
[7] **Shamma** — bir oz, ozgina, qisqacha.
[8] **La’linob** — 1) toza va xolis la’l; 2) toza va tiniq may.
[9] **Yuhyilizom** — suyaklarni tiriltirish.

Pistada pinhon qilibdir la'li shakkarbori[1] qand,
Bor uning yuz kufri iymon zulfi zunnorinda band,
Bir kishi yo'q men kabi zor-u asir-u mustamand[2],
Xo'blarni arz qildim qilmadi ko'nglum pisand,
Oni ko'rgach, ixtiyori qolmayin dedi bu xo'b.

Yuz-u qadding hasratidin oh cheksam har qachon,
Har sharori gul bo'lur, har dudi bir sarvi chaman,
Rahm qil holim ko'rub, men xud[3] senga arz aylaman,
Vaslida jonimg'a hajridin ne kelganni deman —
Kim, farah bazmida zikr etman emastur qayg'u xo'b.

Xatti[4] — xoli zulfidin olam aro oshub erur,
Zor jismim novaki paykonidin mahjub[5] erur,
Lablaridin nukta[6] surmaklik manga matlub erur,
Jafr-u, lutf-u, kibr-u, noz andin ko'ngulga xo'b erur,
Haq azalda zotini oning yaratibdur chu xo'b.

Solik ersang, bo'l rizo yo'lida yolg'iz, yaxshikim,
Bu jahon ahlidan ulfat rishtasin uz yaxshikim,
Ishq aro jon ber, vafo rasmini ko'rgiz yaxshikim,
Sof qil xotirki, solg'ay aks ul yuz yaxshikim,
Ko'rguzur yuzim qachonkim ravshan o'ldi ko'zgu xo'b.

Zulm qilmasdan burun bu gunbazi nopoydor[7],
Chekmadindirkim sening nozik tomog'ingdan dimor[8],
Kiprigingdan qil supurgi, yo'lida qo'yma g'ubor,

---

[1] **L a'li shakarbor** — shakar sochuvchi lab, shirin lab.

[2] **Mustamand** — g'amgin, xasta, notavon.

[3] **X u d** — 1) o'z; 2) yolg'iz, faqat.

[4] **X a t t** — qizlarning labi ustidagi mayin tuklar. Tasavvuf istilohida g'ayb olami.

[5] **Mahjub** — pinhon, yashirin.

[6] **Nukta** — nozik va teran ma'noli so'z, hikmat.

[7] **Gunbazi nopoydor** — omonat, o'tkinchi dunyo.

[8] **Dimor** — halok bo'lish, nobud bo'lish.

Ey ko‘ngil, borsang ul oy nazzorasig‘a zinhor,
Ashk birla ko‘zlaringdin g‘ayrining naqshin yu(v) xo‘b.

Ko‘rmadim hargiz sening xol-u xatingda shakku rayb[1],
Andalibi benavo devona bo‘ldi choki jayb[2],
Bor aqiqoso[3] labing durjida[4] pinhon sirri g‘ayb,
Xo‘blarni ko‘rmasa sensiz Navoiy qilma ayb —
Kim, ko‘runmaydur ko‘ziga kimsa sendin ayru xo‘b.

G‘AMZA O‘QLARIN OTIB

Ohki, bordi ul sanam zulfini yuzga tortib,
Daf’i takovar[5] ayladi ko‘rmasa bizni o‘xshatib,
Chekti jilov sitamining[6] har yon uchini o‘ynatib,
Voh, ne balo ekankim, ul chiqti samandin o‘ynatib,
Qoshlari yosini chekib, g‘amzali o‘qlarin otib.

Ochdi uzori lolagun — to‘ldi ko‘zimga ashki xun,
Ishqida zor-u zabun, shavqida mehnatim fuzun[7],
Mast chiqibdir ul bu kun, ablaqi[8] ko‘rguzib o‘yin,
Tez ketib, o‘ylakim, quyun, aylanib, o‘ylakim, tutun,
Raxsh solib, javlon urub, xayli[9] baloni qo‘rqutib.

Xoki darida[10] yastanib, xoli-xatiga kuymanib,
Ko‘nglumni bir dam aldatib, vasliga yetmay aldanib,

[1] **Shakkurayb** — shubha-gumon.
[2] **Jayb** — yoqa, giribon.
[3] **Aqiqoso** — aqiqday.
[4] **Durj** — sadaf, qimmatbaho narsalar saqlanadigan quticha.
[5] **Takovar** — yo‘rg‘a, chopqir ot.
[6] **Sitam** — bu yerda: ot abzali.
[7] **Fuzun (Afzun)** — ortiq, ko‘p, ziyoda.
[8] **Ablaq** — ola-bula ot.
[9] **Xayl** — 1) guruh, to‘da, toifa; 2) el, jamoa.
[10] **Xoki darida** — eshigi tuprog‘ida, ostonasida.

Hajrida kuydim o'rtanib, vah, yana keldi chizg'anib?[1]
Fitna qilurg'a otlanib, goh chopib, gohi yonib,
Har tarafekim aylanib, o'zgacha la'b[2] ko'rsatib.

Sunbuli tobdorini[3], shonalab har kanorini,
Yoydi yuz uzra torini, oldi ko'ngil qarorini,
Buzdi sitam shiorini, yoqdi men intizorini,
Elga ochib uzorini, gul kibi yuz bahorini,
Dard-u firoq xorini[4] ko'kragim ichra o'rtanib.

Andalib oh-u voh ila, yo'q ishi izzu joh[5] ila,
Qoldi tuman[6] gunoh ila, oldi nohaq guvoh ila,
Ul mohi kajkuloh[7] ila, holi base[8] taboh[9] ila,
Itti Navoiy oh ila, nolai umri koh[10] ila,
Chunki shah-u sipoh ila sirrini elga anglatib.

QUYOSH

Ohkim, qaddim duto[11] qildi iki ul egma qosh,
Ayladim charxi kuhan[12] toqini nolamdan xarosh,
Jon-u ko'nglim dardini chekmak tilab aylar talosh,
Chiqdi yorim[13] kecha yo'l azmin qilib ul bag'ri tosh,
Bas, ajoyibdir qorong'u kecha chiqmog'lig' quyosh.

---

[1] **Chizg'anib** — bu yerda: qaytib, aylanib.

[2] **L a'b** — 1) o'yin; 2) hiyla, nayrang.

[3] **Sunbuli tobdor** — burama soch, gajak zulf.

[4] **Xor** — tikan.

[5] **Izzujoh** — obro'-e'tibor.

[6] **Tuman** — o'n ming; majozan: behisob.

[7] **Kajkuloh** — kulohi, bosh kiyimni egri qo'ygan; majozan: sho'x, go'zal mahbuba.

[8] **Base** — ko'p, ziyoda.

[9] **Taboh** — xarob, vayron.

[10] **Koh** — somon.

[11] **Duto** — egik, bukik, xam.

[12] **Charxikuhan** — ko'hna falak.

[13] **Yorim** — bu yerda: yarim.

Bu quyoshning novaki mujgonidin[1] tirkash[2] to‘lar,
Ul quyoshning tobidan olam aro otash to‘lar,
Bu quyoshning lablaridan bodai beg‘ash[3] to‘lar,
Gar quyoshqa el nazar qilsa, ko‘ziga yosh to‘lar,
Ul quyosh borg‘ach nazardin, ko‘zlarimga to‘ldi yosh.

Goh og‘zi ramzining qol-u maqolin[4] istabon,
Goh ra’no qaddining zebo niholin istabon,
Goh beli fikrining nozik xayolin istabon,
Furqatidan yig‘labon, chiqdim visolin istabon,
Goh socharmen boshqa tufrog‘, gah qo‘yarmen yerga bosh.

Andalibo, bo‘lgali bir mohliqo ovorasi,
Anjum[5] ermasdir falak ustinda — bag‘rim porasi,
Qon yoshim bo‘ldi ko‘ngil sobit ul-sayyorasi[6],
Fosh etar mehrin Navoiyning sarig‘ ruxsorasi,
Subhdekkim[7], sargarib ruxsori aylar mehr[8] fosh.

HIJRON QOLMASIN

Ishq aro jon bermadi deb menda bo‘hton qolmasun,
Kes boshimni, ol — mening ishqimda nuqson qolmasun,
Ayrilib sendin meningdek bir musulmon qolmasun,
Borsang, ol jonimni, to sensiz manga jon qolmasun,
Jon qolib, jon ichra nogah dog‘i hijron qolmasun.

---

[1] **Mujgon** — kiprik, mija.
Novaki mujgon — kiprik o‘qi.

[2] **Tirkash** — sadoq, o‘qdon.

[3] **Boda** — may, mast qiluvchi ichimlik.
Bodai beg‘ash — toza, tiniq may.

[4] **Qol-u maqol** — gap-so‘z, aytishuv.

[5] **Anjum** — yulduzlar.

[6] **Sobit ul— sayyora** — turg‘un falak.

[7] **Subh (Subhidam)** — tong, ertalab.

[8] **Mehr** — quyosh.

Toza dog‘ uzra yo pishgan dog‘ kuyuk ko‘nglumdadur,
Ishqidan oq-u qizil gul qayg‘ulik ko‘nglumdadur,
Rozi pinhonlarki bor erdi, o‘luk ko‘nglumdadur,
Chun o‘larmen — chin deyin, ishqi buzug‘ ko‘nglumdadur,
Men o‘lub, ul ganj bu vayronda pinhon qolmasun.

Nola qilsam, ayb qilmang, gohi mast, gohi xumor,
Jon berurman bir parivash ishqida devonavor,
Qil, ajal, boshing uchun bir dam taammul[1] zinhor,
Ey ko‘ngul, dey ko‘zga bu damkim, tirikmen, kelsa yor,
Bahra olsun orazidin, asr-u hayron qolmasun.

Umrlardir ko‘rmadim sendin vafo, ey charxkim,
Rozimen o‘rniga qilsang ham jafo, ey charxkim,
Ayla jismim tirboroni qazo[2], ey charxkim,
Hajrida oncha balo yetkur mango, ey charzkim,
O‘zgalar ishqni havas qilmoqqa imkon qolmasun.

Andalibo, qil duolar — yetmasin charx ofati,
Yo Rab, o‘lsun qadricha yuz hissai shon-shavkati,
Shoh yanglig‘ surati, darvesh yanglig‘ siyrati[3],
Ey Navoiy, sobit o‘lsun shoh G‘oziy[4] davlati,
Ollida qul bo‘lmag‘an olamda sulton qolmasun!

SHITOB AYLAB

Bihamdulloh[5], meni ushshoq xaylidan hisob aylab,
Qorargan ro‘zgorimni yuzidan oftob aylab,
Navozishlar qilib, men notavonni komyob[6] aylab,

---

[1] **Taammul** — sabr, bardosh.

[2] **Tirboroni qazo** — taqdir o‘qining yomg‘iri.

[3] **Siyrat** — odat, xislat, fe’l-atvor, tabiat.

[4] **Shoh G‘oziy** — Sulton Husayn Boyqaro.

[5] **Bihamdulloh** — Allohga shukr.

[6] **Kom yob** — baxtli, toleli, davlatli.

Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux[1] shitob aylab,
Xiromi sur'atidin gul uza xaydin[2] gulob aylab.

Chiqibdir, marhabo, mast otlanib, ul sangdil kofir,
Kesib boshimni, qonimni labi oshom[3] etib sog'ar[4],
Solib olamga rustaxez[5], har yonga chopib lashkar,
Qilib mujgonni shavravlar[6] kibi jon qasdig'a xanjar,
Beliga zulfi anbarboridin mushkin tanob[7] etmish.

Kecha borgum debon ul nozanin gulrux xabar berdi,
Xazon ko'rgan bahorisi vasl umididan samar berdi,
Mana bu mujdani ahboblar fayzi sahar berdi:
Kelib o'lturdi-yu, ilkim chekib, yonida yer berdi,
Takallum[8] boshladi hal lafzini durri xushob[9] aylab.

Ko'rub holim dedi: na xastadursen, na o'luktursen,
Yuzum hajrida ko'ngli o'tlug-u bag'ri kuyuktursen,
Qaro kipriklarimdin pardai joni teshiktursen —
Ki, ey zori balokash oshiqim, mensiz nechuktursen?
Men o'ldum lol-u ayta olmadim mayli javob aylab.

Bihamdulloh, yetishdi boshim uzra chekmagan doman[10],
Buzuq ko'nglum uyiga ko'zlarimdan bor edi ravzan[11],
Yuzidin aks solgach, bo'ldi ul vayron ajab gulshan,
Quyoshdek chehra birla tiyra kulbam aylagach ravshan,
Manga titratma tushti zarra yanglig' iztirob aylab.

---

[1] **Gulrux** — gul yuzli, go'zal.
[2] **Xay** — ter tomchisi.
[3] **Oshom** — ichish.
[4] **S o g'ar** — qadah.
[5] **Rustaxez** — g'avg'o, to'polon.
[6] **Shabrav** — tunkezar; qaroqchi, yo'lto'sar.
[7] **Mushkin tanob** — xushbo'y arqon.
[8] **Takallum** — so'z, nutq.
[9] **Durri xushob** — yaltiroq toza dur.
[10] **Doman** — etak.
[11] **Ravzan** — darz, raxna, teshik.

Muhabbat jomini men telbaga dilbar to'la quydi,
Hamono[1] ko'ngliming ko'zgusiga javhar to'la quydi,
Labining bodasidin jonima orzu to'la quydi,
Chiqardi shishai may dog'i bir sog'ar to'la quydi,
Ichib, tutti menga yuz nav' nozoso[2] itob aylab.

Firoq ichra qilib ma'lum holimni sarig' yuzdin,
Sharoboso[3] yurak qonimni har dam oqizib ko'zdin,
Munosibdir bu yanglig' kosasini qilsa jon bizdin,
Ichib, faryod etib tushtum ayog'iga borib o'zdin,
Meni yo'q bodakim, lutfi aning mast-u xarob etmish.

Visol avjida bazm aylab, labindin boda no'sh etding[4],
Taajjub ko'rguzub, mahv aylab, olam xomush etding,
Navo tortib, qilib faryodlar jo'sh-u xurush[5] etding,
Ki, ey Majnun, pari ko'rdung magarkim, tarki xush etding,
Takallum qil bu sog'arni ichib, raf'i hijob[6] aylab.

Fig'on-zorlik darkor emas rag'bat tuni mundoq,
Ne hojat yova so'zlar oshig'a vuslat[7] tuni mundoq,
Kerakdir, Andalib, afsonalar suhbat tuni mundoq,
Anikim, aylagay vasl uyqusi ishrat tuni mundoq,
Navoiydek yotarkim, ro'zi mahshar tarki xob[8] aylab.

BEQAROR AYLAY

Necha bir bevafo yo'lida ko'zni intizor aylay,
Necha bir Laylivash ishqida Majnunliq shior aylay,

---

[1] **Hamono** — o'sha lahza.

[2] **Nozoso** — noz bilan.

[3] **Sharoboso** — sharob kabi.

[4] **No'sh etmoq** — ichmoq.

[5] **Jo'sh-u xurush** — shovqin-suron, g'avg'o-to'polon.

[6] **R af 'ihijob** — pardani ko'tarish.

[7] **Vuslat** — vasl, visol.

[8] **Xob** — uyqu.

Necha guldek uzori yorini men xor-xor[1] aylay,
Necha kilki taxayyul[2] birla bir suvrat nigor[3] aylay,
Anga oshiq yasab, ko'nglumni andin beqaror aylay.

Necha badgo'[4] sadoi ta'nasin eltay qulog'img'a,
Necha zahri firog'in yetkururmen men ayog'img'a,
Necha tori umidi vasl band aylay ayog'img'a,
Necha chirmashturub bir zulf savdosin dimog'img'a,
O'zumni ahli savdodek parishonro'zgor[5] aylay.

Necha to'foni sarsar[6] aylagaymen ohi ashkimdek,
Necha qilgum ko'zumning yoshini daryoi Qulzumdek[7],
Necha bo'lgay qorong'u ro'zgorim tiyra baxtimdek,
Necha anjum bila charx ofatidin charx-u anjumdek,
Havoni ohim o'tidin to'la dudi sharor aylay.

Necha bir mohliqo shavqinda ko'rgayman tuman ofat,
Necha bir guljabin[8] xor-u g'amidin tortayin mehnat,
Necha bir hursiymo g'abg'abin istab qilay sur'at,
Necha bir sarvdek qomat havosi birla har soat,
Jahonda oh-u afg'ondin[9] qiyomat oshkor aylay.

Necha aylay qorong'u dudi ohim birla olamni,
Necha yoqgum firoq o'tiga bu vayrona kulbamni,
Necha qon birla mamlu[10] aylagayman chashmi purnamni[11],

---

[1] **Xor-xor** — g'am-qayg'u, tashvish, bezovtalik.
[2] **Kilki taxay yul** — tasavvur qalami.
[3] **Nigor** — surat, tasvir, naqsh.
[4] **Badgo'(y)** — yomon gaplarni gapiruvchi, ig'vogar, g'iybatchi.
[5] **Parishonro'zgor** — turmushi abgor, baxti qaytgan.
[6] **Sarsar** — qattiq, kuchli shamol.
[7] **Qulzum** — Qizil dengiz.
[8] **Guljabin** — gul yuzli, go'zal.
[9] **Afg'on** — fig'onlar, nolalar, faryodlar.
[10] **Mamlu** — to'la, limmo-lim.
[11] **Chashmi purnam** — yoshli ko'z.

Necha g'am dashtni ichra bir pari mehrida soyamni,
Junundin har zamon kovlab, gahi andin firor[1] aylay.

Chu topsang dayr[2] aro may,
Andalibo, jon berib olg'il,
Bo'lub dostonsaro[3] bir jom ichg'il, gul-gul ochilg'il,
Tamattu'[4] istasang, har lahza g'am girdobida qolg'il,
Navoiy, boda bahri bekaronig'a[5] meni solg'il —
Ki, gardun[6] bahrining mavji balosidin kanor aylay.

HAMD

Ey podshohi lamyazal[7], lutfingni qil hodiy lano[8],
Yuz keltirib men afvinga isyonlarimdan ha huna[9],
Oyati lutfingdan nishon "inna fatahia joina"[10],
Ey yetti manzar[11], tarhiga me'mori sun'ungdin[12] bino,
Masnu'lar[13] foniy vale maslubi[14] sone'din[15] fano.

---

[1] **Firor** — qochish.

[2] **Dayr** — otashparastlar ibodatxonasi; majozan: mayxona.

[3] **Dostonsaro** — doston aytuvchi, shoir.

[4] **Tamattu'** — bahra olish, foydalanish.

[5] **Bekaron** — chek-chegarasiz, tubsiz.

[6] **Gardun** — 1) osmon, falak; 2) dunyo, olam.

[7] **Lamyazal** — doimiy, abadiy.

[8] **Hodiylano** — bizga rahbarlik qil, bizga hidoyat yo'lini ko'rsat.

[9] **Hahuna** — Ul shu yerda.

[10] **Inna fatahiajoina** — "Darhaqiqat, to'g'ri yo'lga hidoyat qilish uchun... bizga ogohlantiruvchi kelgan edi (Qur'oni karim, "Fath" 1–3-oyat; "Mulk" surasi, 9-oyat).

[11] **Manzar** — 1) tomoshagoh; 2) ko'rinish.

[12] **M e'morisun'** — olam me'mori, ya'ni Xudo.

[13] **Masnu'** — mahorat bilan ijod qilingan nozik san'at.

[14] **Maslub** — mahrum, bebahra, ajralgan.

[15] **Sone'** — yaratuvchi, ya'ni Xudo.
Maslubisone' — Xudodan ayrilgan.

Abri[1] karamning shiddati past etdi do'zax o'tini,
Chiqmay sharori uchquni sabz[2] etdi shoxi to'bini,
Gul ochdi fazling gulbuni[3] ko'rgach-da rahingdan muni,
Chekmay malak lutfung kuni juz zikr ila tasbeh uni,
Odam debon qahring tuni har dam "zalamno, Rabbano"[4].

Farzand etib sen bepadar, berding quyosh yonida yer,
Ko'k uzra qilding mo'tabar, gumrohmen — bo'l rahbar,
Ojizga bermishsan hunar,
og'maga[5] bermishsan basar[6],
Hamding'a har ko'tahnazar[7] ham gung-u o'lg'ay magar,
Chunkim demish xayr ul-bashar[8] ul yerda lo uhsi sano[9].

Ey shoh, ulug'dir qudrating, keldi biyikroq rif'ating[10],
Og'ozina[11] yo'q sabqating[12],
anjominga[13] yo'q shirkating[14],
Mo'minga haqdir ro'yating[15],
kofirga chindir shiddating,
Faqr ahli istab, qurbating, ahli g'ino[16] ham toating,
Yetganga dog'i furqating, ne faqr nofe'[17] ne g'ino[18].

[1] **Abr** — bulut. **A brikaram** — karam buluti, yomg'iri.
[2] **Sabz** — ko'k, yashil.
[3] **Gulbun** — gul tupi, buttasi.
[4] **Zalamno Rabbano** — "Zulm etdik, ey Xudoyim".
[5] **Og'ma** — ko'r, basir.
[6] **Basar** — ko'rish quvvati, nur.
[7] **K o'tahnazar** — kaltafahm, kaltabin.
[8] **Xayrul-b a shar** — insonlarning afzali, ya'ni Muhammad alayhissalom.
[9] **Louhsisano** — haddan ziyod maqtov.
[10] **Rif'at** — yuksaklik, ulug'lik.
[11] **Og'oz** — boshlanish.
[12] **Sabqat** — ilgari, oldin.
[13] **Anjom** — oxir, nihoya, so'ng.
[14] **Shirkat** — sheriklik.
[15] **Ro'yat** — ko'rish.
[16] **Ahlig'ino** — boylar, badavlatlar.
[17] **Nofe'** — foydali.
[18] **G'ino** — boylik.

Vahdoniyat[1] javlongahing, birlikda yo‘qdir ashbahing[2],
Bu yo‘lda bo‘lmas hamrahing, amringga begah-begahing[3],
Me’mori yo‘qdir hargahing, tobandasi[4] mehr-u mahing[5],
Jinsi bashar yo‘q ogahing, xurshid xoki[6] dargahing,
Ko‘p mahd[7] aro tifli[8] rahing[9], yetti atv-u to‘rt ano.

Boshimda yuz oshub erur, g‘amdan tanim ma’yub[10] erur,
Fahmu hayrat mag‘lub erur, farzonalig‘[11] maslub erur,
Fazling ajab mahbub erur, ko‘zdin yuzing maqjub erur,
Vaslingda ishrat xo‘b erur, aysh-u tarab[12] marg‘ub erur,
Sensiz manga matlub erur tanda alam, jonda ano[13].

Ko‘nglum base vayronalig‘, chekdim fig‘on dardonalig‘[14],
Jurmum uchun jurmonalig‘[15], yo‘linda bir mardonalig‘,
Vaslingda bir mastonalig‘, shamingga bir parvonalig‘,
Ishqingda bir devonalig‘, shavqingda bir farzonalig‘,
Ag‘yordin begonalig‘ aylab o‘zungga oshno.

Ochdi fig‘onlar yolqitub, ahli falakni hurkutub,
Ko‘nglum shararlar putratub, shavqingda qoldim qon yutub,
Hajringda qo‘yma o‘rtatub, subhi umidim yorutub,

---

[1] **Vahdoniyat** — birlik, yagonalik.
[2] **Ashbah** — o‘xshash.
[3] **Begah** — kech, bemahal.
[4] **Tobanda** — porloq.
[5] **Mehr-u mah** — quyosh va oy.
[6] **Xok** — tuproq.
[7] **Mahd** — beshik.
[8] **Tifl** — go‘dak, bola.
[9] **Rah(Roh)** — yo‘l.
[10] **Ma‘yub** — mayib, nogiron, aybli.
[11] **Farzonalig‘** — oqillik, donolik.
[12] **Tarab** — shodlik, xursandchilik.
[13] **Ano** — ranj, mashaqqat, azob.
[14] **Dardonalik** — dardlik.
[15] **Jurmonalik** — gunoh uchun beriladigan jazo.

Jurm-u gunahlardin o‘tub, kelturma yuzga qo‘rqutub,
Lola agar sog‘ar tutub, musicha gar qilmish zino.

Bu charxi kajning shevasi[1], makr-u fusundir[2] lu’basi,
Tazvir[3] erur pesha[4] base, aldarga ko‘pdir hiylasi,
Behuda ermas nolasi, yo‘q Andalibning kulbasi,
Bordur Navoiy bekase[5], ishq ichra andoqkim xase,
Chun o‘rtading oni bale, kuydurma do‘zaxda yano.

LAYLAT UL-ME’ROJ[6]

Zihi[7], ul tun karam bahri nasimi fayzidan mavvoj[8],
Guloboso[9] yuzinda qatra xunlar har sari lujjoj[10],
Furo‘g‘i[11] orazing oy mash’alasidan erur vahhoj[12],
Zihi, ko‘k boshig‘a gardun xiromingning izidan toj,
Visoling xilvatida bir shabiston[13] laylat ul-me’roj.

Bo‘lub Ruh ul-amin[14] oldinda hodiy[15] ham sanga ma’nus[16],
Tushub tuz yo‘lga shaytoni lainni aylading ma’yus,

---

[1] **Sheva** — bu yerda: odat, ravish.

[2] **Fusun(Afsun)** — sehr, hiyla, nayrang, firib.

[3] **Tazvir** — makr, hiyla, firib.

[4] **Pesha** — kasb, hunar.

[5] **Bekas** — hech kimi yo‘q, yolg‘iz, firib.

[6] **Laylatul- me’roj** — me’roj kechasi (Muhammad alayhissalom Alloh huzuriga yuksalgan kecha).

[7] **Zihi** — 1) go‘zal, yaxshi; 2) qanday yaxshi, ofarin; 3) xuddi o‘zi, juda, eng.

[8] **Mavvoj** — mavj urib turgan.

[9] **Guloboso** — gulob singari.

[10] **Lujjoj** — dengiz, daryo.

[11] **Vahhoj** — ravshan, yorug‘

[12] **Furo‘g‘** — yorug‘lik, ravshanlik.

[13] **Shabiston** — tungi yotoq, kechasi tunaydigan joy.

[14] **Ruhul— amin** — Jabroil alayhissalom.

[15] **Hodiy** — yo‘l boshlovchi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi.

[16] **Ma’nus** — munis, ulfat, ko‘ngilga yaqin.

Qo‘pub butxonadan rohibi barahman cholmadi naqus[1],
Shabistoning aro subbuhlardin[2] yuz tuman tovus,
Gulistoning aro qudduslardin[3] yuz tuman durroj[4].

Kirib mastona yo‘lga, jomi vahdatdan ichib karkaf[5],
Falak vodiylarin qat’ aylading[6] tinmay o‘qib Mus’haf,
Buroqing ojiz o‘lgan keldi oldinga rafraf[7],
Rikobingda[8] maloyik xaylidin har sori yuz ming saf,
Solib har saf shayotin mulkiga yag‘mo[9] bila toroj.

Sujudi mag‘firatga Bayt ul-aqsod qo‘yub yuzni,
Shihoboso[10] buroqing tiyra qildi, yoqdi yulduzni,
Masaldirkim, “Tutar Tangri taolo yori yolg‘izni”,
Yo‘lungda anbiyo ruhi musharraf aylabon o‘zni,
Va lekin iltifotingg‘a biri mushtoq, o‘ni muhtoj.

Bo‘lub tolib[11] sanga matlubing[12], o‘ldung sen anga matlab,
Muhabbat birla qildi mezbonliklar seni chorlab,
Chu surdung barqdek[13] to‘quz falakning ustiga markab,

---

[1] **Noqus** — katta qo‘ng‘iroq.

[2] **Subbuh** — Xudoning sifatlaridan biri bo‘lib, “hamma ayblardan pok” degan ma’noni anglatadi.

[3] **Quddus** — pok, pokiza.

[4] **Durroj** — qirg‘ovul.

[5] **Karkaf** — may, sharob.

[6] **Qat’ aylamoq** — bosib o‘tmoq.

[7] **Rafraf** — Me’roj safarida Muhammad alayhissalomga ulov sifatida xizmat qilgan maxluq.

[8] **Rikob** — uzangi.

[9] **Yag‘mo** — talon-toroj, g‘oratgarlik, buzg‘unchilik.

[10] **Shihoboso** — shihob singari. **Shihob** — uchar yulduz.

[11] **Tolib** — solik, murid, yo‘lovchi: tariqatga kirib, riyozat bosqichlarini bosib o‘tish orqali Xudo sari sayr qilayotgan kishi.

[12] **Matlub** — mahbub, ma’shuq, sevilgan zot. Tasavvuf adabiyotida matlub, mahbub va ma’shuq deyilganda ko‘pincha Alloh taolo, Muhammad alayhissalom va piri komil ko‘zda tutiladi.

[13] **Barq** — yashin, chaqmoq.

Buroqing sur'atidin xatti nuroniyki rahm aylab,
Ayon aylab bu sayrinda nubuvvat ahlig'a minhoj[1].

Yuzungning shan'i oy,
kun shu'lasidan begumon morij[2],
Qaro gesularidin nur topmishdir shabi orij[3],
Ko'ngulda fikr yo koshif[4] tilida zikri forij[5],
O'zin o'zlikdin-u kavnayn[6] mulkidin qilib xorij,
Qayu kavnayn mulki,
lomakondin[7] ham tonib axroj[8].

Uruji[9] lomakonga qildi azming o'lguncha xohish,
Erur rasmi qadim oshiqqa ma'shuq aylamak nozish[10],
Shafoat[11] oftobi ikki olamga urub tobish[12],
Tilab ummat gunohin, har nekim istab, topib baxshish[13],
Zihi soyil[14], zihi bozil[15], zihi rif'at, zihi me'roj![16]

Habibim[17] deb seni, Jibrilni qildi sanga ulfat,
Kechirdim osiy ummating gunohin deb qilar shafqat,

---

[1] **Minhoj** — katta, keng yo'l.

[2] **Morij** — tutunsiz o't.

[3] **Shabi orij** — osmonga ko'tarilgan kecha.

[4] **Koshif** — kashf etuvchi.

[5] **Forij** — shodlik bag'ishlagan.

[6] **Kavnayn** — ikki olam; dunyo va oxirat.

[7] **Lomakon** — vahdat olami bo'lib, u zuhur etadigan joy irfon sohiblarining sof ko'ngillaridir

[8] **Ixroj** — uzoqlashtirish, chiqarish.

[9] **Uruj** — ko'tarilish, yuksalish.

[10] **Nozish** — noz etish.

[11] **Shafoat** — himoya qilish.

[12] **Tobish** — porlash.

[13] **Baxshish** — muruvvat, marhamat.

[14] **Soyil** — gado.

[15] **Bozil** — saxovatli.

[16] **Me'roj** — Muhammad alayhissalomning Arshi a'loga yuksalishi.

[17] **Habib** — do'st: Muhammad alayhissalomning laqabi.

Sochar abri karam boshing uza, rahmat uza rahmat,
Zihi shohyeki, tun-kun javharidin sone'i hikmat,
Sening zoting tuzdi bu taxti obnus-u[1] oj[2].

Kelar vasfing bayonga rost mundoq aytuchi birla,
Chalar charxi maoniy[3] tinmayin qattiq kuchi birla,
Tutar momiqlaring bek Andalib hovuchi birla,
Ichirdi rishtam na'ting Navoiy ko'z uchi birla,
Agar boqsang,
mute' o'lg'ay anga nassoj[4] ila sarroj[5].

O'TKAN KECHA

Xoli siyohi[6] mushki xitov-u[7] Xo'tan erdi,
Go'yo labi jonbaxshi naboti Dakan[8] erdi,
Kirpiklari jon qasdina novakfigan[9] erdi,
O'tkan kecha men erdim-u ul siymtan[10] erdi,
Gulshan to'rida maskanimiz bir chaman erdi.

Hay-hay, na pari chehradir ul dilbari tannoz,
Ko'rguzdi ikki la'li labi Masih kibi e'joz[11],
Yusufi Misriy[12] bo'lubdir anga damsoz[13],

[1] **Obnus** — qora tusli qattiq va xushbo'y daraxt.
[2] **Oj** — fil tishi, fil suyagi.
[3] **Maoniy** — ma'nolar.
[4] **Nassoj** — to'quvchi.
[5] **Sarroj** — egarchi.
[6] **Siyoh** — qora.
[7] **Xito** — Sharqiy Turkiston.
[8] **Dakan** — Hindistondagi shahar.
[9] **Novakfigan** — o'q otuvchi.
[10] **Siymtan** — kumush badan, oqbadan; go'zal, zebo.
[11] **E'joz** — mo''jiza.
[12] **Yusufi Misriy** — Yusuf alayhissalom.
[13] **Damsoz** — hamdam, sirdosh.

Mast ayladi goh noz-u gahi arbada[1] og‘oz,
Ko‘ksum kibi chok etkan anga pirahan[2] erdi.

Ul mohliqo o‘ldi kelib ziynati mahfil[3],
Jon naqdini sochdim ayog‘inda meni bedil,
Maqsudi bu erdi — bo‘lubon yorga vosil,
Gulbun aro ikki kishiga sig‘qucha manzil,
Bulbul bila guldek ikimizga vatan erdi.

Zavq ila qilib Andalib na’rayi maston,
Chekmish aning og‘ushiga bir g‘unchai xandon,
Go‘yo ul ikovlari edi Bilqis — Sulaymon[4]
Hajr emdi Navoiyning gar o‘ltursa, ne armon,
Munchaki murod anga bu vajhi hasan erdi[5].

[1] **Arbada** — shovqin-suron, g‘avg‘o-to‘polon.
[2] **Pirahan** — ko‘ylak.
[3] **Mahfil** — bazm, majlis, anjuman.
[4] **Bilqis** — Sabo shahrining malikasi.
[5] **Vajhihasan** — go‘zal chehra.

ILOHI

Ilohi, bu jahondek yuz jahonni aylading barham[1],
Bo‘lub oting ila ma’mur bu to‘quz torami a’zam[2],
Vujudingga guvoh sening berdilar kunduz ilan oqsham,
Zihi mulkungning o‘n sekiz mingdin biri kelib olam,
Bir uyluk[3] qul senga olam aro Havvo bila Odam.

Bo‘lsa barpo sun’ingdan muqarrar sarnigun[4] xirgoh[5],
Falak zodi ko‘zingga tun savodidan[6] chekib surma,
Tikib habibiga oy, kun tillasidan yasab tugma,
Berib chun ofarinish[7] mahvashig‘a hikmating jilva,
Bo‘lub ruxsori nimiy[8] bu mudavvar[9] nilgun[10] toram[11].

Urub sen necha kavkabni[12], qilibsen yetti shoh darmon,
Qilibsen bir saroy ichraki bizni besh kun mehmon,
Bino qo‘ygan unga, billoh[13], zihi g‘ofil, zihi nodon,
Nohud[14] folin ko‘rub, anjumdan avvalg‘i uchi mezon[15],
Chu amring charx zolin[16] aylabon makkorai qadxam.

---

[1] **Barhamaylash** — yo‘qotish.

[2] **To‘quz torami a’zam** — ulug‘ to‘qqiz osmon. Sharqda qadimdan etti sayyora (Oy, Atorud, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhal) va To‘qqiz falak (ushbu sayyoralarga ikkita qo‘shiladi — falak savobit (turg‘un falak — burjlar), va falak ul-aflok (falaklar falagi) tushunchalari mashhur bo‘lgan.

[3] **Uyluk** — xonadon, oila.

[4] **Sarnigun** — boshi quyi; ostin-ustun.

[5] **Xirgoh** — chodir; manzil.

[6] **Savod** — qora, qoralik.

[7] **Ofarinish** — yaratilish, vujudga kelish.

[8] **Niliy** — nil rangli, ko‘k.

[9] **Mudavvar** — yumaloq, doira.

[10] **Nilgun** — ko‘k rang.

[11] **Toram** — 1) gumbaz, qubba; 2) ko‘k, osmon.

[12] **Kavkab** — yulduz, sayyora.

[13] **Billoh** — Xudo haqqi.

[14] **Nohud** — Zuhra.

[15] **Mezon** — o‘n ikki burjning ettinchisi.

[16] **Zol** — qariya (kampir, chol). **Charx zoli** — ko‘hna falak.

Rayohin[1] bargina xori balolar sanchilub andin,
Shaqoyiq[2] kosasi har subh qon birla to'lub andin,
Sariq zebo, qizil ra'no mulavvan[3] ochilub andin,
Gul ahmar[4], savsan[5] azraq[6] bu chaman ichra bo'lub andin, —
Ki, yeldin tarbiyat kojin[7] alarga yetkurub mahkam.

Solib odam taniga ruhi poking changi nay birlan,
Birin qilding munojot, birini oluda[8] may birlan,
Chiqardi arsai[9] ofoqqa ani nasli Kay[10] birlan.
Kusuf[11] ichra quyoshni zoye yetgan edi oy birlan,
Xirad[12] vahm ettikim, ham jins ikki harf erur mudg'am[13].

Yoqib qahring o'tidan bo'ldi bino surmai mozog'[14],
Bo'lib la'ling yelidan har quruq shox uzrakim yaproq,
Qilibdir gul yuzing tirnarga qahring xoridan tirnoq,
Chamang'a otashin guldin chu qo'yding toza qonlig' dog',
Momuq oq guldin etting, dog'i uzra qo'yg'ali marham.

O'qir vasfing saharlar Andalibi osiy-u gumroh,
Uning ko'nglida fikringdir, tilinda zikri bismilloh,
Ulug' zotingakim monand emastur Hech shay'[15], yo Olloh,
Itingdur shohlar, yo'qtur Navoiy itcha oldingda,
Alar ittin ko'p-u bu it ayog'i tufrog'idin kam.

---

[1] **Rayohin** — rayhonlar, giyohlar, gullar.

[2] **Shaqoyiq** — lola turlaridan biri.

[3] **Mulavvan** — rang-barang.

[4] **Ahmar** — qizil.

[5] **Savsan** — gulsapsar.

[6] **Azraq** — ko'k, havorang.

[7] **Koj** — shapaloq.

[8] **Oluda** — aralash, qo'shilgan, bulg'angan.

[9] **Arsa** — sahn, maydon.

[10] **K a y** — 1) ulug', podshoh; 2) kayoniylar sulolasiga munsub hukmdorlar: Kaykovus, Kayxusrav, Kayqubod.

[11] **Kusuf** — tutilish.

[12] **Xirad** — aql.

[13] **Mudg'am** — ikki harfni bir-biriga biriktirib aytish.

[14] **Mozog'** — aldanmadi.

[15] **Shay** — narsa.

VAFOIY G‘AZALIGA MUXAMMAS

QAYDADIR?

Ey ko‘z, to‘k ashk, ul labi durbor[1] qaydadir?
Ey aqli dali, ul pariruxsor qaydadir?
Ey jon, g‘am sarrishtasiga[2] yor qaydadir?
Ey dil, xabar ber, ul yuzi gulzor qaydadir?
Oromijonim, ul guli bahor qaydadir?

Yetti falakdin o‘tdi sahar, oh, yo Rabbim,
Jonim bu vajh birla borib, qoldi qolabim[3],
Yo‘qtur ko‘zumning oldida ul siymg‘abg‘abim[4],
Mag‘ribnishin[5] shom siyoh bo‘ldi kavkabim,
Ul oftobi mashriqi anvar qaydadir?

Tokay[6] labi firogida har lahza qon yutay,
Yo‘qdur yuzing quyoshiki, ko‘zumni yorutay,
Kuydurdi hijron tanimi, kimga dod etay?
Kul bo‘ldi ishq o‘tiga kabobim tutay-tutay,
Mast aylagan meni hushyor qaydadir?

Islom uyini buzdi bu kofir nigoh ila,
Dinimga raxna soldi shikast[7] kuloh ila,
Bir lahza turmayin men baxti siyoh[8] ila,

---

[1] **Durbor** — dur sochuvchi.
[2] **Sarrishta** — kalavaning uchi; ishning asosi.
[3] **Qolab** — qolip: tan, badan.
[4] **Siymg‘abg‘abi** — iyagi oppoq, go‘zal.
[5] **Mag‘ribnishin** — g‘arbga botuvchi.
[6] **Tokay** — qachongacha.
[7] **Shikast** — siniq, majruh.
[8] **Baxtisiyoh** — baxti qora, badbaxt.

Bolinim[1] uzra keldi tabib, yondi oh ila,
Olam ichida men kibi bemor qaydadir?

Past etmayin fig‘oning Hijoz-u Iroq aro,
Chun Andalib tort sahar vaqtida navo,
Matlubiga yetarmi kishi bo‘lmayin fano[2],
Olamda nang-u, nom-u, nishon istama, Vafo,
Oshiq o‘lan g‘ariblara or qaydadir?

[1] **Bolin** — yostiq.

[2] **Fano** — tasavvufda bandaning Haqda fano bo‘lishi, ya’ni bashariy xususiyatlarning ilohiy sifatlar ichra mahv bo‘lishi.

HABIBIY G‘AZALIGA MUXAMMAS

GO‘ZAL

Ey nutqi jonfizo[1], labi la’li shakkarshikan[2],
Husnung bahori gullar ochibdir chaman-chaman,
Qadding niholi sarv, yuzing sham’i anjuman,
Ey og‘zi — g‘uncha, chehrasi — gul, xatlari — suman[3],
Zulfi — binafsha, husni — chaman, bo‘yi — yosuman[4].

Hay-hay, ne tushmish oraz uzra nuqtai xol,
Baxtim yuzini qildi qora, ko‘z yoshimni — ol[5],
Uzro[6] uzor, seb[7] zanaxdon[8], malak misol,
Sohibjamol, ahli kamol, shakar maqol[9],
Yusuf sifatli, Iso nafas, vajh ila ahsan[10].

Tark etdim, ey sanam, g‘ami ishqingda nom-u nang,
Kelgan emas jahonga seningdek but[11] farang[12],
Mastona ko‘zli oy-u, quyosh yuzli sho‘xi shang,
Ey ko‘ngli sang, odati jang, xo‘yi[13] palang[14],
Noz aylabon karashma qilan, oshiq o‘lduran.

---

[1] **Jonfizo** — jon bag‘ishlovchi, jonga rohat beruvchi.

[2] **Shakkarshikan** — shakarni sindiruvchi, ya’ni shirinso‘z.

[3] **Suman** — oq xushbo‘y gulli o‘simlik va uning guli.

[4] **Yosuman** — xushbo‘y, oq, sariq, moviy to‘p gulli manzarali buta.

[5] **Ol** — qizil, alvon.

[6] **Uzro** — “Vomiq va Uzro” dostoni qahramoni.

[7] **Seb** — olma.

[8] **Zanaxdon** — iyak, baqbaqa.

[9] **Maqol** — so‘z, nutq.

[10] **Ahsan** — eng yaxshi, go‘zal, a’lo.

[11] **But** — 1) sanam, mahbuba; 2) go‘zal, mahbuba.

[12] **Farang** — yevropalik.

[13] **Xo‘y** — fe’l, odat, xulq, tabiat.

[14] **Palang** — yo‘lbars.

Ayb ayladim — labingni so‘rub, jonni bermadim,
Ma’zur tutki, telba edim — o‘zumni bilmadim,
Tutdi firoq isitmasi cho‘x yovalar dedim,
Yo‘q, yo‘q, g‘alat dedim, xato etdim, kaj angladim,
Ishi vafo-yu ko‘ngli safo, oshig‘in sevan.

Tun-kun ishim chu erdi mening justujo‘yi[1] do‘st,
Yetkurdi tong nasimi dimog‘imga bo‘yi do‘st,
Bechora Andalibga vatan bo‘ldi ko‘yi do‘st,
Oz ayla, ey Habib, shikoyat az xo‘yi[2] do‘st,
Dardi-balodan injimasin oshig‘im degan.

[1] **Justujo‘ (y)** — qidirish, so‘roqlash.
[2] **Azxo‘yi** — fe’lidan.

JOMIY G‘AZALIGA MUXAMMAS

HIJRON BOSHQA

Boqsam, to‘lar ko‘zimga sirishk[1], ul quyoshga,
Yo‘qdur yuzung nazarda, ko‘zum to‘ldi yoshga,
Zulmung ziyoda bo‘ldi meni dilxaroshga[2],
Zulfung xayoli tushgali sho‘rida boshga,
G‘am boshqa o‘lturur meni, hijron boshqa.

Piri mug‘ona[3] bandi bo‘lub, pandin olgamen,
Bu nav’ ila dayr aro shoyista[4] bo‘lgamen,
Ushshoq mazhabida yo‘q ersa uyolgamen,
Mehrobga ne farzki, men sajda qilgamen,
Qilgumdurur sujud men ul ikki qoshga.

Tutdum o‘zimga dayr eshiginda harimni[5],
Itlar bila safolidan ichdim naimni,
Zor yig‘ladim ko‘ngulga solib ancha bimni[6],
Ashkimni qon ko‘rub dedi: ko‘rgul yetimni,
Burni qonadi og‘zi yetishganda oshga.

Bo‘ldi ziyoda ishq o‘ti kuydirgali meni,
Yo‘q rahm birla bir kishi qayg‘urgali meni,
G‘amzang balosi qahr ila yozgurgali meni,
Qosh-u ko‘zung taloshdir o‘ldurgali meni,
O‘ldur meni-yu qo‘yma ikkovni taloshga.

---

[1] **Sirishk** — ko‘z yoshi.

[2] **Dilxarosh** — dili tirnalgan, dili majruh.

[3] **Pirimug‘on** — mug‘lar piri.

[4] **Shoyista** — loyiq, munosib.

[5] **Harim** — xos manzil.

[6] **Bim** — xavf, qo‘rquv.

Ul Andalibi xasta meni zorga o‘xshadi,
Farsuda[1] jismim g‘am yuki ostida qaqshadi,
Ushshoq o‘ynini Rost[2] surudida[3] boshladi,
Jomiy bir oh chekdi, aning ko‘ngli yumshadi,
Ohim o‘tini ko‘r — ne asar qildi toshga.

[1] **Farsuda** — xarob, notavon.

[2] **Rost** — shashmaqom sho‘balaridan biri.

[3] **Surud** — kuy, ohang.

FUZULIY G‘AZALIGA MUXAMMASLAR

SHEROZALAR

Toki ko‘rdum chashmi fattoningdadur[1] g‘ammozalar[2],
Dog‘lar kiydim yuzing sha’nida yuz andozalar,
Rashk kojidin yuziga urdi mahvash g‘ozalar[3],
Har kitobakim labi la’ling hadisin yozalar,
Rishtai jon birla ishq ahli oni sherozalar[4].

Mehmonim bo‘lding, ey dilbar, qo‘l urdum kisaga,
Kokuling savdosidin naqdimni bermon nasyaga,
Xoli mushkining qilibdur ro‘zgorimni siyah,
Bu na sirdur sirri ishqing demadim bir kimsaga,
Shahra dushmushman sani sevdum deyub ovozalar.

Oshiq o‘lmang deb nasihatlar ko‘b etti piri ishq,
Naylayinkim, jon-u ko‘nglum bo‘ldilar tasxiri[5] ishq,
Man o‘lar holatg‘a yetdim yo‘qmudur tadbiri ishq,
Choklar ko‘ksumda sonmangkim[6] ochibdur tiyri ishq,
Ko‘ngluming shahrina mehring kirmaka darvozalar.

Rindlar birla qilib har dam fig‘on-u arbada,
Ahli olam bo‘ldilar faryod-u nolamdan zada,
Shukrillah, manzil-u ma’vo bo‘lubdur maykada,
Shayxlar mayxonadin yuz do‘ndururlar[7] masjida,
Betariqatlarni ko‘rkim to‘g‘ri yo‘ldin ozalar.

---

[1] **Chashmi fatton** — sho‘x, o‘ynoqi ko‘z.

[2] **G‘ammoza** — chaqimchi, fosh etuvchi.

[3] **G‘oza** — yuzga surtiladigan upa-elik.

[4] **Sheroza** — kitobni muqovalashda uning sahifalari sochilmasin uchun ipak bilan tikish.

[5] **Tasxir** — bo‘ysundirish, qo‘lga kiritish.

[6] **Sonmoq** — bu yerda: o‘ylamoq, bilmoq, hisoblamoq.

[7] **Do‘ndurmoq** — burmoq, qaytarmoq.

Andaliboso chekib hardam fig'on-u zamzama,
Ul quyoshning orazidin munfaildur[1] mehr-u mah,
Bir kuni bo'lg'ay firoqingning visoli, g'am yema,
Ey Fuzuliy, yor agar javr etsa andin injima,
Yor javri oshiqa har dam muhabbat tozalar.

YONMAZMI?

Fig'onkim, ul labi maygun ichib qonimni qonmazmi?
Hazin jonimg'a hardam zulm-u bedodni oyonmazmi?
Yonib shavq o'tina boshdin ayog' jismim tutonmazmi?
Bani jondin o'sondurdi[2], jafodin yor o'sonmazmi?
Falaklar yondi ohimdin, murodim sham'i yonmazmi?

Bo'lub ul but niqobafkan, chekarman dardlig' shevan[3],
Falak saqfin[4] qilib ravzan, g'izom[5] anduh, yerim gulxan,
Ishim nola, tilim alkan[6], so'zim bo'lg'aymu mustahsan,
G'amim pinhon dutardim ban, dedilar yora qil ravshan,
Desam ul bevafo, bilman, inonurmu inonmazmu?

Chiqibdur ul mahitobon, jamolidin jahon raxshon,
Quvon, ey ko'z, go'nan ey jon, ichingda qolmasun armon,
Alandurma bo'lub hayron, qilibdur va'dai paymon,
Qamu[7] bemorina jonon davoi dard etar ehson,
Nechuk qilmaz bango darmon, bani bemor sonmazmi?

---

[1] **Munfail** — 1) ta'sirlangan, hayajonlangan; 2) xijolatda qolgan, uyalgan, sharmisor.

[2] **O'sondurmoq** — bezdirmoq, zeriktirmoq.

[3] **Shevan** — nola, zori.

[4] **Saqf** — 1) shift, tom; 2) osmon.

[5] **G'izo** — oziq-ovqat, yegulik, taom.

[6] **Alkan** — gung, lol, soqov.

[7] **Qamu(g')** — hamma, barcha.

Ko‘zing purfitnai jodu, g‘azoli[1] mushk anbarbo‘,
Otorsen o‘q kamonabro‘[2], qilurman jonimi qobu[3],
Durur ko‘nglum ango qorshu, borur ashkim bo‘lub jo‘-jo‘[4],
Guli ruxsoringa qorshu, ko‘zumdin qonlu oqar su,
Habibim fasli guldur bu, oxir sular bo‘lonmazmi?

Firoqingda mani bedil, ishim mushkil uza mushkil,
Tuzubman g‘ayr ila mahfil, yotibman xasta oy-u yil,
Sari ko‘ying qilib manzil, murodim bo‘lmadi hosil,
Degildim[5] man sango moyil, san etding aqlimi zoyil,
Bango ta’n aylayan g‘ofil, sani ko‘rgach o‘tonmazmi?[6]

Chiqib ul nomusulmonim qilurg‘a qasdi iymonim,
Falakda ohi so‘zonim[7], ko‘zimda ashki g‘altonim[8],
Ichimda dardi pinhonim, tabibo, yo‘qmu darmonim,
Shabi hijron yonar jonim, do‘kar qon chashmi giryonim,
Uyotir xalqi afg‘onim, qaro baxtim uyonmazmi?

Jahonda to‘la g‘avg‘odir fig‘oni Andalibodur,
Na yanglig‘ sho‘rishafzodur, tili vasfingda go‘yodur,
Ango ko‘yingda ma’vodur, alimda jomi sahbodur,
Fuzuliy rindi shaydodur, hamisha xalqa rasvodur,
Ko‘ringkim, bu na savdodur, bu savdodan o‘sonmazmi?

---

[1] **G‘azol (G‘izol)** — ohu, kiyik

[2] **Kamonabro‘** — qoshi kamon.

[3] **Qobu** — nishon.

[4] **Jo‘(y)** — ariq, soy.

[5] **Degil** — emas.

[6] **O‘tonmoq** — uyalmoq, hijolat tortmoq.

[7] **So‘zon** — yolqinli, yonib turgan, kuygan

[8] **G‘alton** — 1) dumaloq; 2) yiqilish, yumalash.

UBAYDIY G‘AZALIGA MUXAMMAS

YORI BOR

Qaysi gulshanning qadingdek sarv-u xushraftori bor?
Qaysi gulning ul yuzingdek otashin ruxsori bor?
Qaysi dilbarning saningdek la’li shakkarbori bor?
Shukrkim, mahzun ko‘ngulning seni kibi dildori bor?
Ne g‘ami bor ul kishiningkim seningdek yori bor?

Lablaring shavqida seb-u nok terdim olg‘ali,
Istayub bodom-u tarbog‘ ichra bordim olg‘ali,
Bog‘bona olma keltur deb buyurdim olg‘ali,
Nori borin bilmadim, shaftolu so‘rdim olg‘ali,
Dedi-yu: shaftoludin yo‘qtur nasibang, nori bor.

Ohkim, hijron balosi toqatimni qildi toq,
O‘tlug‘ afg‘onim bilan bo‘ldi munavvar no‘h ravoq[1],
Jon-u jismimni yoqib, kul qildi shiddatlig‘ firoq,
Tushgali boshim necha ayyom ul guldin yiroq,
G‘uncha yanglig‘ ko‘nglum atrofida yuz ming xori bor.

Ko‘zlaringdek bog‘ aro nargis ko‘zi shahlo degul,
Sarv ozod-u sanavbar qomatingga bo‘ldi qul,
Orazingga og‘zin ochib g‘uncha, hayron qoldi gul,
Qaysi bir yaxshiligin mendan so‘rarsan, ey ko‘ngul,
Xo‘bluq asbobida har neki dersen — bori bor.

Ul parilar podshohi masnad[2] uzra o‘lturub,
Bazm tuzmish, may ichib, jomi murassa’ to‘ldurub,
Xizmatida Andaliboso turubdur telmurub,
Bosh qo‘yubdur ostoniga Ubaydiy, qul bo‘lib,
Bandadur onga, vale yuz saltanatdin ori bor.

[1] **No‘hravoq** — to‘qqiz falak.

[2] **Masnad** — taxt.

MUSAMMAN

(Navoiy g‘azaliga musamman)

OLLIDA

Mubtaloman, ohkim, bir rashki rizvon ollida,
Yuz balo, yuz fitna bor, ul chashmi fatton ollida,
Zor jismim bo‘ldi qon, bu no‘gi[1] mijgon ollida,
Tob tushdi qomatimg‘a zulfi chavgon[2] ollida,
O‘ynasa go‘y etgumen boshimni g‘alton ollida,
Poymol o‘lmoq kerak bu sho‘xi javlon ollida,
Bud-u nobudum[3] agar teng bo‘ldi jonon ollida,
Zarrai yo‘q, bori tengdur, mehri raxshon[4] ollida.

Tiyra qildi subhim ul xurshidi tobon[5] hajr aro.
Soldi g‘am chohig‘a rashki mohi Kan’on[6] hajr aro,
Alloh-Alloh, men kibi yo‘qtur parishon hajr aro,
Ashk-u ohim bo‘ldi sarsar birla to‘fon hajr aro.
Bu balolardan qutulmoqlik ne imkon hajr aro,
Bahri ashkimdin suv olmish abri nayson[7] hajr aro,
Ko‘zlarimning chashmasi ollida ummon hajr aro,
Ko‘z biaynih[8] o‘yladurkim chashma ummon ollida.

Borg‘ali ul mahliqo, vahkim, parishondur dimog‘,
Qong‘a to‘ldi onsizin bazm ichra miynodi ayog‘[9],

---

[1] **No‘g** — uch.

[2] **Chavgon** — 1) “ot to‘pi” o‘yinida to‘p uradigan uchi egri tayoq; 2) “ot to‘pi” o‘yini, chavgon o‘yini.

[3] **Bud-u nobud** — bor yo‘q.

[4] **Mehrirax shon** — porloq quyosh.

[5] **Xurshidi obon** — porloq quyosh.

[6] **Mohi Kan’on** — Kan’on oyi, ya’ni Yusuf alayhissalom.

[7] **Abri nayson** — bahor yomg‘iri.

[8] **Biaynih** — xuddi o‘zi, aynan, bamisoli.

[9] **Miynodi ayog‘** — may to‘la qadah.

Topmadim hargiz nishonin ko‘-bako‘ aylab so‘rog‘,
Mumkin ermas bu suubatlar bila topmoq farog‘,
Zohir etti la’li yodida ko‘zim qonlig‘ bulog‘,
Lola ochti bog‘, gul ochti bu yanglig‘ qaysi bog‘,
Vasl ichinda do‘zax o‘ti birla qo‘yg‘on toza dog‘,
Otashin guldek gumon qil dog‘i hijron ollida.

Hajr shomi tinmay o‘tlug‘ ohlar chekdim dalir[1],
O‘rtanib kul bo‘ldi oning tobidin mohi munir[2],
Ko‘zlarim sho‘robasi ollida daryo chun g‘adir[3],
Biri Jayhuni bashir-u biri Sayhuni nazir,
Ber manga husnung zakotin ham gadomen, ham faqir,
Lutf etib ilkim tutub bo‘lsang na bo‘ldi dastgir[4],
Ey musulmonlar, ne holatdurki ishq etmish asir,
Yuz musulmon xaylini bir nomusulmon ollida.

Ey ajal, jonim olib bergil manga sabr-u qaror,
Yo‘qsa hijron ilkida qo‘yma meni zor-u nizor,
Vasli xurshidir tilab jismim bo‘lubdur zarravor,
Umredur bee’timod-u, jong‘a yo‘qtur e’tibor,
Og‘zidek bo‘ldim adam, belini aylab ixtiyor,
Andalibo, ko‘yi jonon sori etsang sen guzor,
Ey Navoiy, jon sabo ollida qilg‘aymen nisor,
Bu gado holin desa, yetgancha sulton ollida.

[1] **Dalir** — botir, qo‘rqmas, shijoatli.
[2] **Mohimunir** — porloq oy.
[3] **G‘adir** — ko‘l.
[4] **Dastgir** — qo‘llovchi, homiy, madadkor.

DOSTONLARDAN QO‘SHIQLAR

“LAYLI-MAJNUN”DAN

BO‘LMASA

Bulbul, nadur sani muncha faryoding?
Na yig‘larsan, yor firoqi bo‘lmasa?
Guldin judo ermas sani nihoding[1],
Na yig‘larsan, yor firoqi bo‘lmasa?

Parvoying yo‘q sani sog‘-u so‘l bila,
Hafta, kun-u oy, yana yil bila,
O‘lturushung sani doyim gul bila,
Na yig‘larsan, gul firoqi bo‘lmasa?

Munda turur Majnun yorim firoqi,
Qurub turur, yor deb, chashma — buloqi,
Oyog‘ing ostida gulning yafrog‘i,
Na yig‘larsan, gul firoqi bo‘lmasa?

Faryod etma, fasli bahor emasdur,
Visol kunung ro‘zi[2] hijron emasdur,
Gul jamoli sandin nihon emasdur,
Na yig‘larsan, gul firoqi bo‘lmasa?

Man yig‘larman ko‘zdin qonli yosh to‘kub,
Sabr etarman ko‘ksum uza tosh qo‘yub,
San yotarsan gul ustina bosh qo‘yub,
Na yig‘larsan, gul firoqi bo‘lmasa?

Hadding yo‘qdur mandaq kuyub-yonmaqa,
Ayrolig‘i firoqini chekmaka,
Qanoting bor sani uchub qo‘nmaqa,
Na yig‘larsan, gul firoqi bo‘lmasa?

[1] **Nihod** — tabiat; makon, joy.

[2] **Ro‘z** — kun.

Mushtiparman, jismi jonim eritma,
Ko‘p yig‘lama gul deb, o‘zung horitma,
Layli aytur, jigar-bag‘rim eritma,
Na yig‘larsan, gul firoqi bo‘lmasa?

LAYLIYI RA’NO

Shamshod qading turfa gulistona tushubtur,
ey Layliyi ra’no,
Go‘yoki ko‘zum jannati rizvona tushubtur,
ey qomati zebo.

Majnuni balokash alamingda, sitamingda
bag‘rig‘a urub tosh,
Nozik badani xori mug‘ilona[1] tushubtur,
ovorai sahro.

Laylida hama noz-u ado, lutf-u latofat,
rizvon[2] huri yanglig‘,
Ohu barakim[3] sabzai rayhona tushubtur,
ko‘rgoni tamosho.

Majnun boshina beshi uchub, o‘ni qo‘nodur,
qushlar uyasidur,
Ne vahmi oni jismidaki jona tushubtur,
og‘zidadur Laylo.

Layli oyog‘in savsan-u sunbul o‘payin deb,
boshin yera urdi.
Mehri havasi Yusufi Kan’ona tushubtur,
go‘yoki Zulayxo.

[1] **Xori mug‘ilon** — Arabiston sahrosidagi tikanli buta.
[2] **Rizvon** — jannat.
[3] **Ohu bara** — ohu bolasi.

Dog‘i dili Majnunga hech kim chidayolmas,
peshonasi qattig‘,
Zavqi ona vahshiyi biyobona tushubtur,
ham besar-u somon[1].

Bir rahguzare[2] yod olibon ushbu g‘azalni,
majnun o‘quyurdi,
Yaxshi g‘azali yaxshi g‘azalxona tushubtur,
purg‘am[3], dili daryo.

DERLAR

Ey shohi jahon, oshiqi maftun shuni derlar,
Sho‘ridai[4] daryo, dili purxun[5] shuni derlar.

Mag‘zi jigarin g‘ussa-u g‘am birla eritgan,
Rohati kam-u mehnati afzun shuni derlar.

Ham ulfati qushdur ani, ham suhbati vahshiy,
Ko‘nglida alam xirmani, mahzun shuni derlar.

Devona, Arab mulkida, bir turfa g‘azalxon,
Mastonai, parvonai majnun shuni derlar.

Har kunda urar Layli uchun ko‘ksiga ming tosh,
G‘urbatzadai sangi faloxun[6] shuni derlar.

Behuda dili zaxmi tabar[7] ko‘ksiga urgan,
O‘z qoni bilan jomasi[8] gulgun shuni derlar.

---

[1] **Besaru somon** — baxtsiz.
[2] **Rahguzar** — yo‘lovchi.
[3] **Purg‘am** — g‘amga to‘la.
[4] **Sho‘rida** — parishon.
[5] **Purxun** — qonga to‘la.
[6] **Sangi faloxun** — palahmon toshi.
[7] **Tabar** — bolta.
[8] **Joma** — to‘n.

Zayd aydi, jahonda tama'in jondin uzubdur,
Beqabr — lahad zindai madfun[1] shuni derlar.

SAYDING QO'YABER, SAYYOD

Sayding qo'yabek sayyod, dilpora ekan mandak,
Cho'llarni kezib yurgan sayyora ekan mandak,
Sartosari[2] hijrondin ham yora ekan mandak,
Sargashta[3] g'arib bo'lgan ovvora ekan mandak,
Ol domingi bo'ynidin, bechora ekan mandak.

O'ldurmak uchun xanjar hardam qilasan angez[4],
Tut pandimi gar bo'lsang, xayrni yo'lig'a omez[5],
Qur'onda bitiklikdur: isyon ulug'i — xunrez[6],
Yeshkin rasaning[7] sayyod, juftiga qo'shulsun tez,
Ol domingi bo'ynidin, bechora ekan mandak.

Besh kun sani davringda, bechora xirom etsun,
Ko'nglidagi g'amlarni yuz qayta harom etsun,
Har qayda qadam tortib, yo'l topsa maqom etsun,
To toqati toq o'lmay yoriga salom etsun,
Ol domingi bo'ynidan, bechora ekan mandak.

Xez aylasun[8] ul jonvar, ohudak uchub juftak,
Borsun bu sifat oqib, ketsun yonibon o'tdak,
G'am-g'ussadin ayrilsun, javzoda biton tutdak,
Bir-birga qo'shulsunlar Horut ila Morutdak,
Ol domingni bo'ynidin, bechora ekan mandak.

---

[1] **Zindai madfun** — tiriklay ko'milgan.
[2] **Sartosar** — boshdan-oyoq, butunlay.
[3] **Sargashta** — boshi aylangan, ovora.
[4] **Angez** — qasd.
[5] **Omez** - bu yerda: moyil.
[6] **Xunrez** -- qon to'kish.
[7] **Rasad** — ip, arqon.
[8] **Xez aylamoq** — turmoq.

Ishq ofatidin, Majnun, jo'lidai sardurman[1],
Avzoini el bilmas, ahvoli digardurman[2],
Go'yoki qiyomatlik man sanga birodarman,
Bir bandani ozodin, topting savobin san,
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mandak.

KELTURMISHAM

Rabbimga, ey Munkar Nakir, ohi sahar kelturmisham,
Jismim emas toatpazir[3] xuni jigar kelturmisham,
Isyonli quldurman — faqir, ruxsori zard[4] kelturmisham,
Dardi alamdin benazir zodi safar[5] kelturmisham,
Bo'lg'aymukin deb dastgir, to chashmi tar[6] kelturmisham.

Fikrim na bir odam bilan, rasvolig'im mashhur edi,
Bemor jismi g'am bilan toatga nomaqdur[7] edi,
Cho'llarda subh-u shomlar hamsuhbatim tuyur[8] edi,
Hasrat bilan ham g'am bilan ko'nglum uyi ma'mur edi,
Dunyoda mehnat, g'am bilan vohasrato[9] kelturmisham.

Layli havosidin boshim qushlarga bo'ldi oshiyon,
Zahrob[10] edi ichgan oshim, yutqan taomim erdi qon,
Kun-kundin ortib kohishim[11], Layli uchun bas har zamon —
Diydam to'kubon ko'z yoshim, oldimdadur ohu fig'on,
Ishq elida bo'ldum asir, jo'lida sar kelturmisham.

---

[1] **Jo'lidai sar** — sochlari parishon.
[2] **Digar** — boshqa, o'zga.
[3] **Toatpazir** — toat qiluvchi.
[4] **Zard** — sariq.
[5] **Zodi safar** — safar ozig'i.
[6] **Chashmi tar** — yoshli ko'z.
[7] **Nomaqdur** — zaif, kuchi yetmaydigan.
[8] **Tuyur** — qushlar.
[9] **Vohasrato** — oh-voh.
[10] **Zahrob** — zaharli suv.
[11] **Kohish** — azob

Mehnat yuki qaddim bukub, fikr-u g'amim Laylo edim,
Selob[1] chashmimdin to'kub, bir oshiqi shaydo edim,
Siynam qapusi[2] so'kulub, devonai rasvo edim,
Rohi haqiqatga cho'kub qolg'on basi a'mo[3] edim,
Bechora man miskin,
faqir, ko'p dardisar[4] kelturmisham.

Xalq og'zida Majnun otim — bir notavoni zori ishq,
Ko'p dardi mehnat chekdugum sartosarim afgori ishq,
Bul erdi doim niyatim — o'lsam bo'lub bemori ishq,
Na Haqqa toat ayladim, qo'ydi oyog'din nori ishq,
Rabbimga emdi man bukun ajzi sahar[5] kelturmisham.

BO'LMASMU?

Arzim sizga, Haqni sevar elchisi,
Layli bo'lsa, dog'i ishqi bo'lmasmu?
Haqiqatni, tariqatni yo'lchisi,
Layli bo'lsa, dog'i ishqi bo'lmasmu?

Kimsa sanchar gul deb bosha har xasi,
Har tikondin kelmas bo'lur gul isi,
Layli shahid bo'ldi, qondur qismati,
Layli bo'lsa, ani isi bo'lmasmu?

Na savdog'a soldi mani bu falak,
Silar mani aylanmangizlar halak,
Mani Laylim emas erur ul — malak,
Layli bo'lsa, dog'i ishqi bo'lmasmu?

---

[1] **Selob** — sel suvi; ko'z yoshi.
[2] **Qal-u** — eshik, darvoza.
[3] **A'mo** — ko'r, basir.
[4] **Dardi sar** — bosh og'rig'i, tashvish.
[5] **Ajz** — ojizlik, zaiflik, xastalik.

Nalar ortti bevafo jafosi,
Na deb chiqsun boshdin oni havosi,
Yurakida bordur ishqni yarosi,
Layli bo'lsa, dog'i ishqi bo'lmasmu?

Majnun aytur andin qo'lim uzmanam,
Ko'ngil taxtin har dilbara qurmanam,
G'ilmon, hura tirnog'ini bermanam,
Layli bo'lsa, dog'i ishqi bo'lmasmu?

AYIRMA ISHQDAN

Ey Xudo, o'z shavqinga yor et, ayirma ishqdan!
Zoti poking hurmati xor et, ayirma ishqdan!
Boshdan-oyoq bu tanim xor et, ayirma ishqdan!
G'unchadek ko'nglimni afgor et, ayirma ishqdan!
Dard-u kulfatni bemiqdor et, ayirma ishqdan!

So'zlasin jonim erib, bag'rim kuyib cheksin fig'on,
Ustuxonim[1] o'tga yoqsin — qolmasin nom-u nishon,
Bo'lsinu g'am dengizi oqsin ko'zim yoshi ravon,
Boshim uzra yeru ko'k misli tegirmon har zamon,
G'amni kundan-kunga bisyor[2] et, ayirma ishqdan!

Topmagayman chok bu ko'ksimga malham axtarib,
Bir go'dakdekman o'zim ming qatla yig'lab-yolvorib,
Shavq o'chog'i ichra jismim oqsa temirdek erib,
Termulib har yon oyoq ostida qolsam men g'arib,
Sen samandardek tanim nor[3] et, ayirma ishqdan!

Yilma-yil ovvoralik kasb aylasam bedodlab,
Yo'l yurib, cho'llar kezib, tog'lar oshib faryodlab,
Xalqi olamni baland ovoz bilan men shodlab,

[1] **Ustuxon** — suyak.
[2] **Bisyor** — ko'p, ortiq, ziyoda.
[3] **Nor** — bu erda: o't, olov.

Borgali yo'l topmasam yurib, emaklab, dodlab,
Bekas-u bechora, nochor et, ayirma ishqdan.

Qays nomim el aro mashhur chun Majnun bo'lsa ham,
Mag'zi jonim ta'na toshidan to'la qon bo'lsa ham,
Jabri dardidan agarki boshlarim un bo'lsa ham,
Bir g'amim har lahza o'tguncha ming afsun bo'lsa ham,
Ko'p balolarga meni yor et, ayirma ishqdan!

SABO BILAN

Bordim adab saroyiga
Shanba kuni sabo[1] bilan.
Tushdi ko'zim bir oyga
Bir necha dilrabo bilan.

Lavhin ochib, o'qir sabaq,
Har sabog'idir uch varaq,
Nur to'kilar tabaq-tabaq,
Og'zi to'la sano bilan.

Bir pari noz ila boqar,
Boqishi jonima yoqar,
So'zlasa shakkari oqar
Lablaridan vafo bilan.

Pok bir pari — xurram dili,
Lolarang bog' toza guli,
Oti Layli, mushk — kokili,
Yuz yashirur hayo bilan.

So'zlashadir birin-birin,
Lazzati jonimdan shirin,
Yuzida zulfi anbarin[2],
Oq qo'shilib qaro bilan.

[1] **Sabo** — Sharq tomondan esadigan tonggi yoqimli va salqin shamol.
[2] **Anbarin** — anbar isli, xushbo'y, muattar.

YOR MADHI

Havas bilan maktab borsam saboqqa,
Aqlim olar ul dilbarning qo'llari.
Sochi hanuz yetgan emas taroqqa,
Mendan uzoq tushmasin-ey yo'llari!

Kipriklari jondan o'tar ko'zlasa[1],
Topmas kishi istab uni izlasa,
Shakar tomar lablaridan so'zlasa,
To'timidir, bulbulmidir tillari?

Chin oshiqman — Yusuf payg'ambar pirim,
Koshki mening bo'lsa edi dastgirim,
Borsam bugun, yod o'rgatsa dilbarim,
Qaddi — alif, nuqtamidir xollari.

Mard boshini nomardga hech egmasin,
Nomard o'zin xalq ichra madh etmasin,
Yor bog'iga xazon yeli tegmasin,
Ko'zni olsin chaman-chaman gullari.

Qays borar maktab sari xush bo'lib,
Yorni ko'rish uchun ko'ngli jo'sh bo'lib[2],
Mening umrim yor umri qo'shilib,
Ziyod bo'lsin oy-kunlari, yillari.

MENGA

Soqiyi ishqi azal berdi bu kun jom[3] menga,
G'ussadir olamidan bir necha in'om menga.
Charxdan yetdi vahima tong bilan shom menga,
Shira o'rniga berib zahr-u zahar kom[4] menga,
Telba ko'nglimga na sabr-u na orom menga.

---

[1] **Ko'zlamoq** — qaramoq.

[2] **Jo'sh bo'lmoq** — qaynab-toshmoq, to'lqinlanmoq.

[3] **Jom** — may idishi, qadah.

[4] **Kom** — bu yerda: rizq, nasiba.

Kim nechuk o‘tga urar suv bilan tuproqqa sharor,
Chun umid aylar o‘t-u suvdan o‘sha aylab qaror,
Tosh agar bo‘lsa, uning birmuncha kuydirmog‘i bor,
Zarradek jismimni kuydirmoqqa oy yuzli nigor,
Ochdi yuz, yopdi yana va’da berib xom menga.

Ishqidan, oh, muncha ofatzada bo‘ldim, ne qilay?
Yoshligimdan g‘am-u kulfatzada bo‘ldim, ne qilay?
Yutganim qondir-u illatzada bo‘ldim, ne qilay?
Xalqi olamga malomatzada bo‘ldim, ne qilay?
Qolmadi bir zarra aql-u hush bu ayyom menga.

Nogahon yoshgina bir malakka tushdi nazarim,
Bog‘lanib qo‘lu oyoq, qolmadi hushdan asarim,
Qon bo‘lib, ko‘zim yo‘lidan oqdi xasta jigarim,
Shom qilib qo‘zg‘olganida tongni ohi saharim,
Bas, barobar ko‘rinur tong bilan shom menga.

Berdi ustodi tariqat menga ta’limi vafo,
Garchi solgay bu kabi boshimga u jabr-u jafo,
Shu jigar qoni taomdir, yeb-ichishga yo‘q ravo,
Ochdi el og‘zini bu Layli bilan Majnun debon,
Desa gar jonimga Layliyi dilorom menga.

DUO YETKAZ

Sabo, Layli makonidan o‘tar bo‘lsang, duo yetkaz,
Meni ovvoradan jonimga ming bir marhabo yetkaz.

O‘shal oy yuzligim bois senga qulluq etarman ko‘p,
Ko‘zimga xoki poyidan[1] uning bir to‘tiyo[2] yetkaz.

[1] **Xokipoy** — oyoq osti tuprog‘i.

[2] **To‘tiyo** — ko‘zni ravshan qilish uchun ishlatiladigan murakkab dori, surma toshi.

Sabo, mendan salom yetkaz — bu ko'nglim muddaosidir,
Uni to boricha imkon kechikmay mutlaqo yetkaz.

Zamona zulmidan yetmay bu jism-u jonima ofat,
Yor o'tgan yer g'uboridan menga bir zarra jo yetkaz.

Parishon ayladi-ku xotirimni ul qaro zulfi,
Ul anbardan dimog'imga meni bo'yi sabo yetkaz.

Madadkorsan aro yo'lda qolib ketgan zaiflarga,
Xudoning hurmatidan ushbu hojatni ravo yetkaz.

Jafolar dastidan har kun tanim yongay, otim — Majnun,
Muruvvat et zaif oshiqqa-yu aylab vafo yetkaz.

ISTAMISH

Jon bog'ida bir bulbulim bor edi,
Parvoz etib, orzu-armon istamish.
Gul shavqida ko'zi yoshli, zor edi,
Toza gul-u toza bo'ston istamish.

Hech kimsaning nasihatin olmagan,
Azob chekib, rohat nima bilmagan,
Ko'z yoshiga g'arq bo'lganin silmagan[1],
Jon bulbulim oromijon istamish.

Yuzi ishqing otashidan za'faron[2],
Har nafasda dard ustiga dard chandon,
Jismi jonin toq aylamish bu hijron,
Jon bergali oromijon istamish.

[1] **Silmagan** — artmagan, poklamagan.

[2] **Za'faron** — sarg'ish tus beruvchi xushbo'y o'simlik; majozan: sariq rang.

Yosh o‘rniga ko‘zlarimdan qon oqib,
Joni kuyib, suyaklarin o‘t yoqib,
Najd[1] tog‘ida qorovulday yo‘l boqib,
Zulayxodek mohi Kan’on istamish.

Sayid Bani[2] viloyating ko‘zladi,
So‘zing so‘zlar bo‘ldi, izing izladi,
Majnun bag‘rin dog‘i bilan tuzladi,
Layli otlig‘ mohi tobon[3] istamish.

DARMON KERAGI YO‘Q

Bir xastaman-u dardima darmon keragi yo‘q,
Oshuftaman-u, bas, menga armon keragi yo‘q,
Bu qavmu urug‘dan menga ehson keragi yo‘q,
Zavq aylash uchun o‘zga guliston keragi yo‘q,
Layli keragim, jismim uchun jon keragi yo‘q.

Ishq yo‘lida jonimni muqarrar tilamayman,
G‘avg‘osi tushib, boshima toj — zar tilamayman,
Parvoz etayin deb o‘zima par tilamayman,
G‘ilmoni[4] bihishtu paripaykar[5] tilamayman,
Layli keragim, jismim uchun jon keragi yo‘q.

Ranjitmang-u so‘z birla, eritmang yuragimni,
Ta’na etibon aylamang inkor tilagimni,
So‘ldirgali qilmang harakat dil chechagimni,
Haq yo‘lida o‘zimga qo‘ying dard yemagimni,
Layli keragim, jismim uchun jon keragi yo‘q.

---

[1] **Najd** — Arabistondagi tog‘.

[2] **Sayid Bani** — Qaysning otasi.

[3] **Mohi tobon** — charaqlagan oy; go‘zal yor.

[4] **G‘ilmon** — jannatdagi xizmatkor bola.

[5] **Paripaykar** — pari jussali, go‘zal.

Bekor ketar — o‘gitni bu devona na bilsin,
Boyqush vatanini dili vayrona na bilsin,
O‘rtanmagidan o‘zgani parvona na bilsin,
Ko‘nglida na so‘z borini begona na bilsin,
Layli keragim, jismim uchun jon keragi yo‘q.

Yig‘larman oqizgancha ko‘zim yoshini, naylay?
Dardim bedavo, do‘st-u qarindoshini naylay?
Dil ketdi muhabbatning ulug‘ tojini, naylay?
Qismat ulasa Layli-yu Qays boshini, naylay?
Layli keragim, jismim uchun jon keragi yo‘q.

KECH ENDI

Orzu-armon bilan bordik yoringga,
Layli kechdi, sen ham undan kech endi.
Rahm etmadi faryodingga, zoringga,
Layli kechdi, sen ham undan kech endi.

Arzing aytdik — ko‘nglin aslo buzmadi,
Ko‘ngli sevmas gulni bog‘bon uzmadi,
Magar qismat uni sanga yozmadi,
Layli kechdi, sen ham undan kech endi.

Oqil o‘zin yonar o‘tga urmadi,
Ot julini[1] itga loyiq ko‘rmadi,
Charxi falak murodingni bermadi,
Layli kechdi, sen ham undan kech endi.

Rohatingdan kechib, o‘zing zor etma,
Aziz joning jafo bilan xor etma,
Bevafodir Layli, o‘g‘lim, yor etma,
Layli kechdi, sen ham undan kech endi.

[1] **Jul** — ot yopinchig‘i.

Otang aytar senga pand-u nasihat,
Vafosizdir — boshdan bo‘ldi alomat,
Bekor ketar cheksang ohu nadomat,
Layli kechdi, sen ham undan kech endi.

YOR UCHUN

Ishq yo‘lida, ey dilrabo, qo‘ydim qadam sen yor uchun,
Har tun chekib men benavo ohu nadam[1] sen yor uchun,
Bilmam senga ne muddao, menda alam sen yor uchun,
Boshimda ming jabr-u jafo, zulmu sitam sen yor uchun,
Jonimda ming dard-u balo, yuz muncha g‘am sen yor uchun.

Olmasmisan mendan xabar, ishqingda bo‘ldim darbadar,
Tunlar chekib oh to sahar, yutmoq ishim xuni jigar[2],
Kezsam biyobonlar agar ko‘z yosh to‘kib, bag‘rim kuyar,
Ko‘ksimda ishq o‘qi — zahar, qildim tiriklikni badar,
Jonimda ming dard-u balo, yuz muncha g‘am sen yor uchun.

Nolamga itlar yig‘lashar, ey yor, eshitdingmi sado,
Kelgil, mening qo‘limni tut — qoldim oyoqdan men gado,
Bog‘lab oyoq-qo‘limni, kech yordan deyishdi doimo,
Maqsad senga, bilmam, nedir, men mubtalo, men mubtalo,
Jonimda ming dard-u balo, yuz muncha g‘am sen yor uchun.

Lutf aylabon, ey mehribon, so‘rsang ne bo‘lgay hasbi hol[3],
Bo‘g‘zim qurib, darmon ketib, ishqingda bo‘ldim bemajol,
Qonli yosh-u g‘amlar yutib, el ta’nasidan poymol,
Men foniy olamdan o‘tib, bo‘ldim xazon, ey navnihol[4],
Jonimda ming dard-u balo, yuz muncha g‘am sen yor uchun.

---

[1] **Nadam** — afsus, nadomat, pushaymon.

[2] **Xuni jigar** — jigar qoni.

[3] **Hasbi hol** — hol-ahvol.

[4] **Navnihol** — toza nihol; yosh qiz.

Majnuni ishq ovvorasi bo‘ldim ajab zoring sening,
Bag‘rimda hasrat yorasi to men giriftoring sening,
Dardimni bo‘lmas chorasi bo‘lgali bemoring sening,
Boshdan-oyog‘im porasi — majruh-u afkoring sening,
Jonimda ming dard-u balo, yuz muncha g‘am sen yor uchun.

AYLADING

Rahmon egam, berib jonim,
Yo‘qdan meni bor aylading.
Oshiqlarga keng jahonni,
Kulfat bilan tor aylading.

Hech bo‘lmadi yaxshi ishim,
Kundan-kun ortdi tashvishim,
G‘urbat ichra qoldi boshim,
Ajab mushkul kor[1] aylading.

Dushman bo‘ldi do‘st deganim,
Og‘u bo‘ldi har yeganim,
Samandardek jism-u jonim —
O‘rtash uchun nor aylading.

Xazon uyi bo‘ldi joyim,
Najot bergil, ey Xudoyim,
Ortar bo‘ldi oh-u voyim,
Sen jafoga yor aylading.

Arzin senga aytdi Majnun,
Ko‘zi giryon[2], ko‘ngli mahzun,
Zulayxodek Yusuf uchun
Qon yig‘latib, zor aylading.

[1] **Kor** — ish, amal.

[2] **Giryon** — yig‘lab turgan.

KA'BADA

Zahmat chekib keldik bu kun bu joyga,
Oqil inson hayron bo'lgan joyidir.
Sabr aylarman yordan kelgan jafoga,
Mushkul dardga darmon bo'lgan joyidir.

Ko'nglim bo'ldi bir dilbarning moyili,
Cho'llar kezib, bo'ldim ishqing soyili[1],
Haqning farmonining bo'lib qoyili,
Ismoildek qurbon bo'lgan joyidir.

Og'ir kun ber er yigitning boshina,
Boshing urgil bu Ka'baning toshina,
Qo'l uraver Xalil Rahmon ishina,
Suyuk gullar mehmon bo'lgan joyidir.

Do'st qo'lidan gulgun[2] sharob ichilsin,
Taqdirimiz har ne bo'lsa kechilsin,
Sarob bo'lib rahmat suvi sochilsin,
Qatra kelsa, ummon bo'lgan joyidir.

Haq taolo qismatiga eg boshing,
Jafolarga sabr et, chimirma qoshing,
Haddan ziyoda ham bo'lsa qilmishing,
Gunohkorlar g'ufron[3] bo'lgan joyidir.

Yurak dog'-u darding ochib yig'lagin,
Shirin jondan oshkor kechib yig'lagin,
Ko'zdan qonli yoshing sochib yig'lagin,
Oshiqlarning giryon bo'lgan joyidir.

[1] **Soyil** — gado.
[2] **Gulgun** — gul rangli, qizil.
[3] **G'ufron** — gunohlarni kechirish.

Majnun, qulsan — Haqqa ayla munojot,
Uzring aytib, yig'lab tilagin hojat,
Chin oshiqqa yordan kechmoq ne uyat,
Gado qulning sulton bo'lgan joyidir.

MUNOJOT

G'amimni zoti poking haqqi, sen bisyor qil, yo Rab!
Oluvchi bo'lmasin bir zarra zor-u zor qil, yo Rab!
Ko'zim yoshin jigar qoni bilan gulnor[1] qil, yo Rab!
Tanim boshdan-oyoq Layli uchun afgor qil, yo Rab!
Boshimdan rahmati ishqingni bemiqdor qil, yo Rab!
Sharobi ishqdan to'yguncha ber andoqki mast aylab,
Xayoli zulfi Layli aqlim olsin menga qasd aylab,
Oyog'imni qo'yishga bu baland osmonni past aylab,
Muyassar aylagin himmat samandin yor-u do'st aylab,
Xayolim qushlarin Layli uchun bisyor qil, yo Rab!

G'amidan shamdek chiqsin oyog'imdan — boshimdan o't,
Samandardek sira ayrilmasin jismim — qoshimdan o't,
Kuyuk parvonadek chiqsin-da har bir yonboshimdan o't,
Chekay Qaqnus kabi nola, taralsin to loshimdan o't,
Berib bir dardni, darmoni yo'q bemor qil, yo Rab!
Ilohi, dard ber andoq, to'kib qoni jigar yig'lay,
Bo'lay ovvorai bexonumonu[2] darbadar yig'lay,
Lahad tuprog'iga boshim urib, men besamar yig'lay,
Kafan yirtib, chiqay mahshar kuni-yu shu qadar yig'lay,
Muruvvat birla ul kun loyiqi diydor qil, yo Rab!

Ilohi, parvarish et ishq ila bu xilqatimni[3] sen,
Bu ishqdan qilma xoli bir nafas ham qismatimni sen,
Munavvar ayla ishqni nuridan bu zulmatimni sen,

[1] **Gulnor** — anor guli, qizil gul; qizil rang, qip-qizil.
[2] **Bexonumon** — uy-joysiz.
[3] **Xilqat** — yaratilmish, paydo bo'lish.

Muyassar ayla maqsad kemasini — davlatimni sen,
Meni Majnuni sargardonni yorni yor qil, yo Rab!

MUSTAZOD

Ne jonsan, ayo ahli bashar, odami behush,
mastona yotibsin,
Jondan ham azizroq ko'rinarsan, sho'xi dilkash,
qayg'uga botibsan.
Ohing o'ti joning bilan andoq tutashibdir,
o'tli nafasing bor,
Pokiza diling bo'ldi nimadan bu qadar g'ash,
aytgil, ne etibsan?
Bo'g'zing qurib, og'zing to'la zaqqum-u zahar may,
qonli jigaring suv,
Sen qaysi sanam qo'lidan ichding-u mayi ishq,
aqling unutibsan?
Hamsoya — fig'on, nola — rafiq[1], g'am esa hamdam,
ey oshiqi shaydo,
Aytgil menga bu dardi diling, kimdan etib vahm
nedan uyatibsan?
Olam ko'zingga tangmi qilibsan vataning gar,
o'zdan xabaring yo'q,
Jisming kuyadir, boshdan-oyog'ing bari magar,
olamdan o'tibsan.
Ne kecha, zamondan xabaring yo'q, asaring yo'q,
nedir senga bo'l hol?
Yuz nolaki, sen ta'nang ichiga to'la otash
qo'ldan chu ketibsan.
Sa'diy[2] sening ahvolingga toqat qila olmas,
ey sarvari[3] olam,
Olam ko'zinga tengmi sira donai ko'knor,
taxtiga yetibsan.

[1] **Rafiq** — do'st.

[2] **Sa'diy** — sahroda Majnunga duch kelgan ovchi.

[3] **Sarvar** — yetakchi, rahbar.

ALDANMA

Chekma muncha jafolarni yor uchun,
Bevafodir Layli, ko'zim, aldanma.
Qo'l uzatma gul deb yongan nor uchun,
Olgil mening pand-u so'zim, aldanma.

Avval mehrin ko'ngling ichra jo etar,
Murodingni berish uchun roy[1] etar,
Oxir ishing faryod bilan voy etar,
Qalam qoshim, qora ko'zim, aldanma.

Hasrat chekib, qon yig'lamoq sendadir,
Jafo tortib, rohat ko'rmoq qaydadir,
G'animlarning ta'na toshi mendadir,
Mendan kechib, rizq-u ro'zim, aldanma.

Qurbon bo'lay faryodingga, dodingga,
Umrim o'tdi — men tushunmadim yodingga,
Bevafoni olma dili shodingga,
Navniholim, sarvinozim, aldanma.

Yashar kimning qiz-o'g'loni yosh bo'lur,
El og'zida uning siri fosh bo'lur,
Bevafoning ko'ngli qora tosh bo'lur,
Shunqor qushim,
lochin — bozim[2], aldanma.

Yaxshi yorning ko'ngli ajab xush bo'lur,
Nafas o'tmay bir-biriga duch bo'lur,
Oshiq degan go'yo uchar qush bo'lur,
Bog'im guli, fasli yozim[3], aldanma.

---

[1] **Roy(R a'y)** — o'y, fikr, andisha.

[2] **Boz** — lochin.

[3] **Yoz** — turkman tilida bahorni bildiradi.

Sayid deydi: Majnun, qaytib yo‘lingdan,
Yuz o‘girma qavm-qardosh, elingdan,
Qurbon bo‘lay — bir iqror et tilingdan,
Olgil so‘zim, tutdim yuzim, aldanma.

IQBOLI XUSH

Ey karimi loyazal, solding menga bu holi xush,
Ko‘hna olam ichra berding menga baxt-iqboli xush.

Jism-u jonim kuydirib ishq o‘tiga, qilding kabob,
Oqdi yuzing nuridan ko‘zdan qon inzoli[1] xush.

Shuncha ham bo‘lsa, ziyoda ayla dard-u kulfatim,
Darbadar Layli ko‘yinda aylagil abdoli[2] xush.

Nozparlik erur Layliga lozim zebi xo‘b,
Dard-u anduh-u firoq, hijron menga har holi xush.

Tushdi Majnun chekiga g‘ussa, jigar qonin yutish,
Surmali ko‘z, zulfi tunrang, Layli yuzda xoli xush.

NASIHAT

Nasihatim senga, suyguli jonim,
Kuyma, ko‘zim, ishq jabriga sabr ayla.
Ko‘ngil xushim, tanda ruhi ravonim[3],
Jigarso‘zim[4], ishq jabriga sabr ayla.

[1] **Inzol** — quyi inish, pastga oqib tushish.
[2] **Abdol** — darvesh, qalandar.
[3] **Ruhi ravon** — jon, hayot, ravonlik.
[4] **Jigarso‘z** — ichkuyar, g‘amxo‘r, mehribon.

Sabr ayla, yo‘l berma oh-u faryodga,
Umring gulin berma xazonli bodga[1],
Oshiqlar sabridan yetdi murodga,
Bir yolg‘izim, ishq-jabriga sabr ayla.

Ko‘p nola aylama, fig‘oning ortar,
Ohing sharorasi jahonni o‘rtar,
Sabr-u bardosh ayla — kuyganing yetar,
Nargis[2] ko‘zim, ishq jabriga sabr ayla.

To‘xtamasdan hadeb aylama nola,
Ko‘zda yoshing qilma misoli jola[3],
Ko‘p pardoz bermagin guldek jamola,
Nurli yuzim, ishq jabriga sabr ayla.

Onang fig‘oningga chiday bilmadi,
Qismat-u taqdiring bita bilmadi,
Sira o‘ynab-kulib yura bilmadi,
Olgil so‘zim: ishq jabriga sabr ayla.

YORIM QANI?

Mullam, sizga arz aylayin,
Ko‘nglim olgan yorim qani?
Bir necha bor bo‘lgan yaqin,
Majnun dilafgorim[4] qani?

Shu edi maktabxonasi,
U sham-u men parvonasi,
Oshiqlarning devonasi,
Oshufta atvorim qani?

---

[1] **Bod** — el, shamol.

[2] **Nargis** — oq yoki sariq gulli ko‘p yillik o‘t va uning chiroyli guli. Mahbubaning shahlo va xumor ko‘ziga nisbat beriladi.

[3] **Jola** — 1) do‘l; 2) shabnam.

[4] **Dilafgor** — dili xasta, majruh, ko‘ngli vayron.

Gulzori jonimning guli,
Bog‘i dilimning bulbuli,
Kim quvladi u bedili,
Bechorai zorim qani?

Yo‘q edi aslo hamdami,
Ohdan bo‘lak bir mahrami,
Dil dog‘ining u malhami,
Ovvora dildorim qani?

Men jism agar bo‘lsam,
u — jon,
Men — teri-yu u — ustuxon,
Har dam chekib oh-u fig‘on,
Qon yutguchi yorim qani?

Qilmoqqa keldim marhabo,
Jonimga mening u davo,
Qo‘ysin oyoq ko‘zimga to,
Ul to‘tiyolarim[1] qani?

Layli degay: vaqt o‘tmasin,
Dushman yo‘limni tutmasin,
Cho‘lda adashib ketmasin,
Vaslim talabgorim qani?

OVVORA

Ayrildi-yu Majnun guli bog‘u haramingdan,
Har yon yugurar erdi Masihoyi damingdan,
Ummid etibon vaslinni lutfi karamingdan,
Sargashta kezar har sari savdoyi g‘amingdan,
Majnun emish ovvora sening dard-alamingdan.

[1] **To‘tiyolar** — to‘tiyo qiladigan.

Bilmas kishi uning vatani qaysi guzargoh[1],
O‘z soyasidir mahrami-yu hamdamidir oh,
Kim qaysi go‘ristonda qurildi unga xirgoh,
Bormikan-yey ozig‘u ulovi uning, ey voh,
Majnun emish ovvora sening dard-alamingdan.

Bir necha zamon erdi ishi nola-yu afg‘on,
Jonlar talashib g‘ussa bilan vola-yu[2] hayron,
Ko‘ksida jarohat, ko‘zi giryon, o‘zi nolon,
Na ota-yu, na ona uning dardiga darmon,
Majnun emish ovvora sening dard-alamingdan.

Ishq pardasin oldi ketibon yuzdan ibosi,
Boshiga tushibdi bu jahon barcha balosi,
Qaydan yetishib, bilmadim, ul obu-havosi,
Cho‘l qushlarining boshidadir xona — uyasi,
Majnun emish ovvora sening dard-alamingdan.

Olim der: ishqsiz kishi bir dam ura olmas,
Majnuni g‘arib rangini hech kim ko‘ra olmas,
Bardoshi bitib, dardini aytib tura olmas,
Vasling yo‘lini biror kishidan so‘ra olmas,
Majnun emish ovvora sening dard-alamingdan.

GULGA O‘XSHAB

Avval boshdan ruxsat olib,
Kelib eding gulga o‘xshab.
Kimdan sening ko‘ngling qolib,
Yotibsan-ey selga o‘xshab.

Falak hech to‘g‘ri yurmadi,
Hech kim shod davron surmadi,

[1] **Guzargoh** — o‘tadigan joy, yo‘l, ko‘cha.
[2] **Vola** — oshiq, shaydo, maftun.

Alloh muroding bermadi,
Talon tushgan elga o‘xshab.

Qurbonman qalam qoshingga,
Ko‘zdan oqqan qon yoshingga,
Izlab keldim men boshingga,
Nolishim bulbulga o‘xshab.

Mast-u mastona yotibsan,
Nedan bu holga yetibsan,
Nega o‘zingdan ketibsan,
So‘zla, bolam, bolga o‘xshab.

Sen eding obi hayotim,
Bilmas el or-uyatim,
Bo‘larmi g‘amdan najotim,
Yonib-o‘chsam kulga o‘xshab.

HAQ QISMATI

Kuyma qizingning holiga,
Haq qismati tugal ekan.
Barcha muhabbat ahliga,
Bo‘lmog‘i ushbu hol ekan.

Ishq ahliga zamon-zamon,
Nola-yu yig‘i-yu fig‘on,
Avji falakdadir hamon,
Yaxshiga shu kamol ekan.

To‘qayli tog‘da ko‘p jafo,
Obi navosidir vafo,
Ahli zamonadan balo
Topguchi navnihol ekan.

Dil ahli bilgay ne firoq,
Chunki dili dog‘ uzra dog‘,
Ulug‘ zotlar yalangoyoq,
Kiygani eski shol[1] ekan.

Layli g‘ami jahon bilan,
Yo‘q ishi jismi jon bilan,
Gulni ko‘ring tikan bilan,
Ikkisi ham poymol ekan.

SOG‘INCHLI SALOM

Ey tonggi sabo, arzimi gulzorima yetkaz,
Sahroni vatan tutgan u bemorima yetkaz,
Bag‘ri to‘la qon, ko‘nglida ozorima yetkaz,
Savdoyi g‘amimni, qani, bozorima yetkaz,
Sog‘inchli salomimni sevar yorima yetkaz.

She’rlar bitayin o‘tli jigar qoni bilan, yor,
Shoyadki uni o‘qisa Majnuni dilafkor,
Ishq ahli sira ko‘rdimi Majnun kabi xushtor,
Men bandai ojizman-u Majnun shohi dongdor,
Sog‘inchli salomimni sevar yorima yetkaz.

Kelsin bu taraflargaki, makkoraligi bas,
Dardimga davo etsin u — bechoraligi bas,
Jonvorlariga sahroni g‘amxoraligi[2] bas,
Sargashtaligin qo‘ysin-u ovvoraligi bas,
Sog‘inchli salomimni sevar yorima yetkaz.

Men bunda alam ichra bag‘ir erita qoldim,
Bir surati devor kabi hushdan keta qoldim,
Jononadan ayrildim-u aql unuta qoldim,

[1] **Shol** — jundan tikilgan kiyim.
[2] **G‘amxora** — g‘amxo‘r, mehribon.

Jon keldi-yu bo‘g‘zimga, o‘lishga yeta qoldim,
Sog‘inchli salomimni sevar yorima yetkaz.

Soqiy quyibon g‘am mayini to‘la jomimga,
Sol endi qulog‘ingni mening bu kalomimga,
Majnun kelib endi meni yetkazsa komimga,
Lekin bu kalomimni u qaddi xiromimga,
Sog‘inchli salomimni sevar yorima yetkaz.

XIROM ETMISH

Bu kun sarvi gulandomim, qadi navras[1] qiyom[2] yetmish,
Qadam bir-bir bosibon sayri gulshanga xirom etmish.

Kiribdi g‘am bilan, tongning shamoli ustidan,
Nasimi birla Majnun xastasiga bir salom etmish.

O‘qib ko‘rgan, eshitgan so‘zlarini orzu aylab,
Na xush kundir, nigorim, noz ila shirin kalom etmish.

Chiqib tom ustidan qilgan salomi keldi qoshimga,
O‘shalkim huri jannat — bog‘i gulshanda maqom etmish.

Dedi Majnun:
mening holimni fahm etgan uchun Layli,
Ajib bir nomai tummor bilan ko‘nglin orom etmish.

YORI VAFODOR

Sen uchun sayri bog‘ etdim, kel, ey yori vafodore,
Munosib men senga erdim, menga sensan sazovore.

[1] **Navras** — yangi etilgan, yosh.

[2] **Qiyom yetmoq** — bu erda: hozir bo‘lmoq.

Qaniydi ikkimiz bir sayri bog‘-u bo‘ston etsak,
Xabar topmasa koshki soyamizdan o‘zga jondore.

Ne bo‘lgay erdi olsang dardi dog‘imni yuragimdan,
Ayo, ey sarvari oshiq, o‘shal shohi ulug‘vore.

Topolmayman farog‘at yig‘lamoqqa hasbi hol aytib,
Na hojat menga bog‘i Eram-u[1] firdavs[2] gulzori.

Jahonda Layli sargardon bo‘lib, ovvorai — hayron,
Bo‘larmi, ey Xudo, yorning visolin haddu miqdori?!

BOG‘ SAYRI

Bog‘ sayriga bordim dilshod bo‘lay deb,
Dog‘i dardim qayta bo‘ldi ziyoda.
Yuzim ochdim gulga hijron solay deb,
Yana bulbul bilan tushdim faryoda.

Kundan-kun ortadi oh-u faryodim,
Hijron seli yiqdi jismi bunyodim,
Hosil bo‘lmas bog‘ sayridan murodim,
Magar endi o‘lar bo‘ldim jafoda?

Bulbul qushning gulzorinda zori bor,
Ko‘z oldida ko‘ngli sevar yori bor,
Yuragimda bu hijronning nori bor,
Bilmam, nechuk kun ko‘rarman dunyoda?

Boqqa kirdim — bordir gulning vafosi,
Boshdan oshdi ayriliqning jafosi,
Jonim oldi har bir qushning nidosi,
Chin oshiqlar doim dard-u baloda.

[1] **Eram** — afsonaviy go‘zal bog‘.
[2] **Firdavs** — jannat.

Hajr o‘tidan guldek yuzim sarg‘ardi,
Ishqing o‘ti meni jondan to‘ydirdi,
Layli aytar: nargis ko‘zim qorardi,
Shirindayin qildim g‘ami Farhoda.

DARDI BEDAVO

Arzi ahvolimni izhor aylasam men, ey habib,
Sabr-u oromimni oldirdim — qolibman sarg‘arib,
Men senga hamdam bo‘lib,
sen — shohkim, men — bir g‘arib,
Bormikan Layli nigorimdan nasibim, yo nasib,
Bilmasang dardim, ne qilg‘aysan davosin, ey tabib?

Oh-u nolamdir ziyod-u faryod-fig‘onim dardnok[1],
Dil — yara, bag‘rim-chi, pora,
ko‘ksim ichi chok-chok,
Etagim ho‘l bo‘ldi ko‘z yosh ila, jismim bo‘ldi xok,
Zohir-u botinni bilmassan, qani, bir ruhi pok,
Bilmasang dardim, ne qilgaysan davosin, ey tabib?

Bu jahon ayvonida bir qush — navosizman, ajab,
Mehr kam ko‘rgan g‘aribdek oshnosizman, ajab,
Mubtalo bo‘lgan balolarga rahosizman[2], ajab,
Dard-u g‘am bechorasi bo‘lgan davosizman, ajab,
Bilmasang dardim, ne qilgaysan davosin, ey tabib?

Sen kim-u dardim mening — dardimga darmon qilgali,
Yaxshi sen bir so‘zni aytib, so‘ng pushaymon qilgali,
Qolmadi toqat jahon mulkida davron qilgali,
Maqsudimdan yuz o‘girding so‘zni pinhon qilgali,
Bilmasang dardim, ne qilgaysan davosin, ey tabib?

[1] **Dardnok** — dardli, g‘amgin.

[2] **Rahosiz** — qutulmaydigan, xalos bo‘lmaydigan.

Dedi Majnun: sen eshit arzimni, ey mirzo yigit,
Podsho bo'lgan xaloyiqqa shohi dono yigit,
Baxt-u iqbolim kam-u kamdir zarim, zebo yigit,
Behuda chekma mashaqqat, ey guli ra'no yigit,
Bilmasang dardim, ne qilgaysan davosin, ey yigit?

QORA QUSH

Shox ustida turgan qora to'nli qush,
Sen ham mendek yordan judo bo'lganmi?
Ko'ngling g'amlik ko'rdim, o'zingni noxush,
Sen ham mendek yordan judo bo'lganmi?

Suvga to'la ko'rdim yurgan yerlaring,
Savdosidan chiqib bahravarlaring[1],
Boshdan-oyoq qora qunduz parlaring,
Sen ham mendek yordan judo bo'lganmi?

Kiyganing qoradir, bilganing uyqu,
Turibsan misoli amalsiz so'fi,
Tiling bo'lsa, javob aylagil, yohu[2],
Sen ham mendek yordan judo bo'lganmi?

Sayramassan, qushim, yo ochmisan, ayt?
Yoki don-u suvga muhtojmisan, ayt?
Azalikmi — g'amdan odoshmisan, ayt?
Sen ham mendek yordan judo bo'lganmi?

Majnun aytar: mendek qoradir taning,
So'zladim do'st bilib, qora qush, sani,
Ayriliq soldimi Allohim mening,
Sen ham mendek yordan judo bo'lganmi?

---

[1] **Bahravar** — bahramand.

[2] **Yohu** — Xudoni yodlash, Xudovand deyish (arabcha "yo huva" so'zidan).

JONIM O‘RTANDI

G‘addor falak, sening yuz dod dastingdan,
Zulmingdan kuygulik jonim o‘rtandi.
Har kun aylarman yuz faryod dastingdan,
Hijron bilan xonumonim o‘rtandi.

Boshimga kunda bir solarsan savdo,
Nedir qasding menga — qilarsan judo?
Layli firog‘ida aylading fido,
O‘tlar tushib, ustuxonim o‘rtandi.

Shodligimga sira topilmas dalil,
Dardim ado bo‘lmas, bitmas oy-u yil,
Karam qil holimga, yo Rabbim jalil[1],
Xasta jismi notavonim o‘rtandi.

Koshki bormasaydim gadolar bo‘lib,
Yor ko‘yiga jonim fidolar bo‘lib,
Nega meni ko‘rib adolar bo‘lib,
Chiday bilmay Layli jonim o‘rtandi.

Maqsadim bir jonim yorimga bersam,
Uning xizmatida qul bo‘lib yursam,
Majnundir bir g‘arib, yig‘lab oh ursam,
Otashidan ustuxonim o‘rtandi.

SABO BERMAS XABAR

Sabo bermas mangakim bir xabar ul dilfigorimdan[2],
Xazon yeli esar ajratgali ul guluzorimdan[3].

[1] **Rabbim jalil** — ulug‘ Parvardigorim.

[2] **Dilfigor (Dilafgor)** — dili majruh, dili xasta.

[3] **Guluzor** — gul yuzli, go‘zal.

Uning hajru firog‘inda bu jonim chiqqali yetdi,
Nasimi bir xabar olgaymikan hech holi zorimdan.

Tamomi ustuxonimga tushib o‘t, jonim o‘rtandi,
Fig‘on tortib kuyar barcha mening o‘tli sharorimdan.

Chiqib jonim jasaddan, tan qolibdir surati devor,
Kelib Majnun xabar olmas mening bu yo‘g‘-u borimdan.

Xumori tutsa har dam ul jafokash shoh Majnunning,
Boqarman — qon oqar yo‘liga ko‘zi intizorimdan.

Boshim haqqi, sabo, holim o‘shal jononga arz ayla,
Salom yetkaz-u so‘yla hasbi holim, kor-u borimdan[1].

Degil: Layli sening hajring o‘tida kuydi, jon berdi,
Borib ul bahra olsin ko‘tarib xoki mozorimdan.

SEN U YONA — MEN BU YONA

Ne odamsan malak xulqli,
Nazar aylab mehribona.
Chaman yuzli, sarv bo‘yli,
Soya solding kuygan jona.

Qaydan kelding, aziz kishi,
Shunday bo‘lar taqdir ishi,
Qon aralash ko‘zing yoshi,
Sabab nima — qil bayona?

Notavonsan aso olib,
Ko‘nglingga muhabbat solib,
Sen istarsan mendan kelib,
Qon yig‘larsan g‘aribona.

[1] **Koru bor** — ishlar, mashg‘ulliklar.

Ne so‘zing bor, arab shohi,
Har dam chekib o‘tlik ohni,
Ko‘p qilarsan oh-u vohni,
Sabab nima bu fig‘ona?

Majnun aytar: ne qilayin,
So‘zing nedir, ayt, bilayin,
O‘z holima qo‘y — o‘layin,
Sen u yona, men bu yona.

MAJNUNMAN

Agar izhori dil etsam,
Ayo, ey ona, Majnunman.
Agar Layli otin tutsam —
Ki, bir devona Majnunman.

Jafosi haddidan oshgan,
Fig‘oni ko‘kka yetishgan,
Xaloyiq og‘ziga tushgan,
Ajab afsona Majnunman.

Senga Layli agar farzand,
Menga jononai dilband,
Jafosi bo‘lsa ham harchand,
Unga mastona Majnunman.

Kelib ishq aqlini olgan,
Muhabbat dashtiga solgan,
Boshida qush uya qilgan,
Uyi vayrona Majnunman.

Huda-behuda may ichgan,
O‘zining jonidan kechgan,
Gohi yongan, gohi o‘chgan,
Misli o‘txona Majnunman.

Jahon savdosidan chiqqan,
Tani-joni erib oqqan,
Xayolin sham bilan yoqqan
Pari parvona Majnunman.

Na dunyo lazzatin bildim,
Na fikri oxirat qildim,
Sig'inib, Layli deb keldim,
Na men, begona Majnunman.

FALAK

Hech kimsaning sendan ishi bitmadi,
Muncha ham jabrli, jafoli falak.
Sendan birov murod topib yetmadi,
Azobli, kulfatli, baloli falak.

Kambag'alga sira madad etmagan,
Badavlatga hasad qilmay ketmagan,
Va'da berib, ijrosiga yetmagan,
Kundan-kunga ziyod azoli falak.

Chamanlarni xazon bilan so'ldirib,
Bulbul ko'nglin fig'on bilan to'ldirib,
Bir nechani tuhmat bilan o'ldirib,
Nohaq qondan qo'li hinoli falak.

Bir nechani shod-u xurram aylabon,
Bir nechani yorga mahram aylabon,
Bir nechani g'amga hamdam aylabon,
Alamli, hijronli, jafoli falak.

Bir nechaning murodiga yurmadi,
Bir nechaning qish-u yozin so'rmadi,
Bir nechaning ko'ngli kulfat ko'rmadi,
Bir nechadan ko'ngli iboli falak.

Majnun aytar: faryodimni eshitmang,
Quloq solib, bu dodimni eshitmang,
Mahshargacha murodimni eshitmang,
Qora toshdan qattiq qubbali falak.

ILTIJO

Ey Xudoyo, yor debon dardimni afzun qil meni!
Oqizib ko‘z yoshimi, daryoi Jayhun qil meni!

Chun samandardek tani bu otashi ishq ichrakim,
Ishq azobida yoqib, majruh-u dilxun qil meni!

Misli Qaqnusdek tanimdan sochilar har yon olov,
Bor-u yo‘g‘im kuydirib, bas,
bir hovuch kul qil meni!

Layli vaslini ko‘rarman deb umidim bor edi,
Qomatimni Laylining dardi bilan nun[1] qil meni!

G‘am hujumi dastidan abgor bo‘ldi bu tanim,
Layli ketdi bu jahondan, endi mahzun qil meni!

Andalib bechoradek uzdim umidim yordan,
Jism-u jonim o‘tda yoqib, misli bir kul qil meni!

Majnuni devonaman — g‘urbatda qoldim sarg‘arib,
Qo‘yma bu g‘urbat aro-yu bas, jigarxun qil meni!

[1] **Nun** — arab alifbosidagi “n” harfi: egik va qayrilmaligi jihatidan ma’shuqaning qayrilma qoshiga va oshiqning egilgan qaddi-bastiga tashbeh qilinadi.

JAFOLI DUNYO

Qodir Alloh, ming bir oting haqqidan,
Jafosi ko‘p bu dunyodan xalos et!
Ul sifating, yolg‘iz zoting haqqidan,
Jafosi ko‘p bu dunyodan xalos et!

Kundan-kun azob-u kulfatim ortar,
Lutfingni ko‘rsatib, ko‘nglimni qaytar,
Bu makkor dunyoning jilvasi eltar,
Jafosi ko‘p bu dunyodan xalos et!

Yaxshi kunga falak rozi emasdir,
Bu to‘rt kunlik dunyo hoyu-havasdir,
Oshiqlarning turar joyi emasdir,
Jafosi ko‘p bu dunyodan xalos et!

Birov bormi bunda yetgan muroda?
Maqsad yo‘lin topmay qoldi aroda.
Bundan ortiq qo‘yma meni dunyoda,
Jafosi ko‘p bu dunyodan xalos et!

Ranjim ortib, holim yomon kundan-kun,
Aqlim oldi, qon yig‘latib tundan-tun,
Oshiqlarga rahnamo bo‘l o‘zing chin,
Jafosi ko‘p bu dunyodan xalos et!

Oshiq bo‘lgan og‘ir kunlar kechirmish,
Makkor dunyo jigar qonin ichirmish,
Mehr qizin bir ko‘rsatib qochirmish,
So‘zi yolg‘on behayodan xalos et!

Bir nechaning yurak-bag‘rin dog‘ladi,
Bir nechani yomon yo‘lga chog‘ladi,
Mard odamlar bundan yukin bog‘ladi,
Qari shayton a’molidan[1] xalos et!

[1] **A’mol** — amallar, qilmishlar.

Birovlar mol bilan vaqtin qildi shod,
Birovlar ishqni deb unutdi uyot,
Tilagimni bergil, chiqarib hojat,
Ko‘ngil uzdim — bu dunyodan xalos et!

Miskin boshi ne kulfatga tutqardi,
Pichog‘imni suyagimdan o‘tkardi,
Bir shodlikka necha qayg‘u o‘tkardi,
Jafosi ko‘p bu dunyodan xalos et!

Oshiq bo‘lgan ishq yo‘lida taloshur,
Jonin berib, jononiga ulashur,
Layli uchun men ham o‘lsam yarashur,
Rozidirman — bebaqodan xalos et!

Qizil yuzim za’farondek so‘ldirib,
Xasta ko‘nglim alam bilan to‘ldirib,
Bu dunyodan hasrat bilan o‘ldirib,
E’tiborsiz bu ma’vodan xalos et!

Ijozat ber — jon qo‘shilsin joniga,
Noil bo‘lsin ul gavharning koniga,
Ko‘nglim qushi parvoz etar yoniga,
Ahdi yolg‘on bevafodan xalos et!

Majnun der: Haq o‘zi boqsin hollarga,
Aqlim hayron, ko‘zim giryon yo‘llarga,
Endi sira boqmasman sog‘-so‘llarga,
Jafosi ko‘p bu dunyodan xalos et!

O‘TINCH

Qodir Alloh, dargohingga kelibman,
Meni bunday oh-u zorga qo‘ymagin!
Jondan kechib, senga ravon bo‘libman,
O‘z qoshingdan boshqa dorga qo‘ymagin!

O‘z-o‘zingdan bo‘lgan zoting haqqiga,
Uch vahdating[1], o‘n sifating haqqiga,
Sharofatli ming bir oting haqqiga,
Layliga qo‘sh, intizorga qo‘ymagin!

Odam bilan Havo, et Abulbashar[2],
Shis binni Kayumars[3] o‘g‘ildir magar,
Idris haqqi uchun aylab bir nazar,
Egam, meni bu kirdorga[4] qo‘ymagin!

Ruhim qushi parvoz etar uchmoqqa,
Bu foniydan dor ul-baqo[5] ko‘chmoqqa,
Yor qo‘lidan boqiy sharob ichmoqqa,
Asli vayron, bemadora qo‘ymagin!

Nuh payg‘ambar, Xalil rahmon haqqidan,
Dovud o‘g‘li ul Sulaymon haqqidan,
Mustafoga ingan Qur’on haqqidan,
Meni sira yo‘qdan bora qo‘ymagin!

Oshiqlar sultoni Yusuf-Zulayxo,
Dunyodan uylanmay o‘tgan Masiho[6]
Musoning sir aytar joyidir Sino[7],
Ular haqqi, bag‘rim pora qo‘ymagin!

---

[1] **Vahdat** — Alloh taoloning birligi, yagonaligi. Bu tushunchaga ko‘ra borliq yagona bir vujuddan, olamdagi barcha narsalar uning tajalliysi — namoyon bo‘lishidan iborat.

[2] **Abulbashar** — insoniyatning otasi, ya’ni Odam Ato.

[3] **Kayumars** — qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub ilk podshoh.

[4] **Kirdor** — ish, amal.

[5] **Dorul— baqo** — boqiylik uyi, ya’ni u dunyo.

[6] **Masiho(Masih)** — Iso payg‘ambar.

[7] **Sino(n)** — Muso alayhissalom Alloh taolo bilan so‘zlashgan Arabistondagi tog‘.

Zabihullo[1] rozi bo‘ldi qoniga,
Jirjis rahm etmadi shirin joniga,
Sabr ayladi, keldi Ayyub shoniga,
Meni dardi bemiqdorga qo‘ymagin!

Alloh suygan Mustafoning hurmati,
Choriyori bosafoning hurmati,
Bor payg‘ambar, avliyoning hurmati,
Qon yig‘latib, baxtin qora qo‘ymagin!

Makkora dunyo bu — jilvasi tortar,
Lutfingni ko‘rsatib, ko‘nglimni ko‘tar,
Bu foniy uyingda yurganim yetar,
Bundan ortiq sharmisora qo‘ymagin!

Kulfatim ziyoda, ahvolim zabun,
Faryodim ortadir mening kundan-kun,
O‘zing bo‘lib menga rahnamo bugun,
Bag‘rim pora, ko‘nglim yara qo‘ymagin!

Ishim bitmas bu foniydan ketmayin,
Yukim bog‘lab, baqo yo‘lin tutmayin,
Bundan ortiq oh-u hasrat etmayin,
Tomi buzuq, tang-u tora qo‘ymayin!

Hech kelib bunda yetmas muroda,
Maqsad yo‘lin tutolmayin aroda,
Ojiz qulman — qo‘yma meni baloga,
Dardim ortib, sonsiz dora qo‘ymayin!

Ne oshiqdir yor yo‘lida bo‘lmasa,
Jigar-bag‘rin pora-pora tilmasa,
Jon talashib, mozorinda o‘lmasa,
Majnun quling nomus-ora qo‘ymagin!

[1] **Zabihullo** — Ismoil alayhissalomning laqabi: qurbon qilingan.

MAJNUNI BENAVO KELUR

Hamd-u sano Xudoyima, dardima bir davo kelur,
Oh-u fig‘on, nola chekib, g‘am ila mubtalo kelur,
Jabr-u jafo etib o‘shal dilbari bevafo kelur,
Shohligidan kechib butun, ishq yo‘lida gado kelur,
Laylini izlabon bu kun Majnuni benavo kelur.

O‘tdi jahondan ul g‘arib necha g‘am-u sitam bilan,
Mening hajr-u firoqimni chekib hasrat-nadam bilan,
Berdi yo‘lida jonini g‘ussa-yu yuz alam bilan,
Jon berar u qabrim uza oh ura ko‘zda nam bilan,
Laylini izlabon bu kun Majnuni benavo kelur.

Layli debon jahon aro yig‘ladi beqaror bo‘lib,
Oh uradi u qon yutib, dunyoda xor-u zor bo‘lib,
Najd tog‘i uzra mening yo‘lima intizor bo‘lib,
Etmadi foniy bu jahon uyini dilfigor bo‘lib,
Laylini izlabon bu kun Majnuni benavo kelur.

Yoqdi u xasta jonini ishq o‘tiga ado qilib,
Boqdi yo‘limga termula qumri kabi navo qilib,
Oqdi g‘am ummonida joniga ming jafo qilib,
Ko‘z yoshi har taraf oqib, ahdiga, bas, vafo qilib,
Laylini izlabon bu kun Majnuni benavo kelur.

Shod bo‘libon baqo sari Layli deya gadoginam,
Keldi fig‘on-u nolada bu dardi bedavoginam,
Bag‘ri pora, ko‘ngli majruh, ko‘z yoshi daryoginam,
Tashladi daftar-u kitobini rahnamoginam,
Laylini izlabon bu kun Majnuni benavo kelur.

SAVOL

Ey banda, qilmishingda tokim uyalib kelding,
Sen qaysi savobingni oldingga olib kelding?
Dunyo edi ekinzor, bas, sen ne qilib kelding?
Qismatga bo‘yin sunding, holingni bilib kelding,
Dargohida Rabbingning, Majnun, ne olib kelding?

Bu olamni oyog‘ing ostiga bisot etdi,
Rizqing talabni qilmay oldingga yetdi,
Bir zarra edi asling, bas, muncha aziz tutdi,
Kel, so‘yla ibodatdan, umring ne etib o‘tdi?
Dargohiga Rabbingning, Majnun, ne olib kelding?

Dunyo sohibi erding — ko‘rsat yo‘g‘-u boringni,
Bir pulga birov olmas qilgan kirdoringni,
Har ilm-u amal bo‘lsa, jam ayla u koringni,
Bir yo‘la savol etdim dard-u g‘uboringni,
Dargohiga Rabbingning, Majnun, ne olib kelding?

Ko‘r deya san’atim senga basar[1] berdi,
O‘zingda deya erking Qur’onda xabar berdi,
Qil xayr-u saxovat deb qo‘lingga hunar berdi,
Oldingda qiyomatning savdosi asar berdi,
Dargohiga Rabbingning, Majnun, ne olib kelding?

Ey banda, kelibdirsan, qaytib ketaring bo‘lmas,
Bir yerda tutib manzil, undan o‘taring bo‘lmas,
Maqsadi yo‘li ko‘p og‘ir — izlab yetaring bo‘lmas,
Har foyda-ziyon bo‘lsa, aytib, etaring bo‘lmas,
Dargohiga Rabbingning, Majnun, ne olib kelding?

[1] **Basar** — ko‘z, ko‘rish quvvati.

ISHQ SAVDOSI

Oshiq Majnun chekar oh-alam mahzun,
Undan ko‘nglimizga asar yetibdi.
Og‘zidan o‘t chiqar, qop-qora tutun,
Undan dunyo yuzin sharar tutibdi.

Oshiq ahli tortib g‘am-u savdoni,
Orttirar boshiga sho‘r-u g‘avg‘oni,
Ular dardi bilan foniy dunyoni
Ne xo‘blar tark etib, guzar[1] etibdi.

Ishq savdosi tushsa kimning boshiga,
Qon qo‘shilib oqar ko‘zda yoshiga,
Yegan noni bilan ichgan oshiga,
Falak — og‘u, hijron — zahar qotibdi.

Oshiq bu dunyoda bilmas farog‘at,
Do‘st-u dushman unga qilar malomat,
Orttirib boshiga dardi qiyomat,
Qachon bu dunyoga nazar etibdi.

Ishqing alamiga o‘rtandi bari,
Hasrat-u g‘am bilan ayladi zori,
Yig‘lab, ko‘z yosh to‘kish bo‘lib shiori,
Go‘yo dunyo yuzini suv tutibdi.

XAYRLASHUV

Etgan ajal yeli xazon, ey gulsitonim, sen nechuk?
Bog‘lab safarning yukini, oromijonim, sen nechuk?
Dor ul-baqoga mehmonim, ey xushinonim, sen nechuk?
Bir tanda ikki jon edik, ruhi ravonim, sen nechuk?
Xorlik zaminiga nihon bo‘lgan nishonim, sen nechuk?

[1] **Guzar** — o‘tish, kechish.

Sen indamaslar shahrida kim birla qilding yorlik?
Aylar nechuk tuproq aro mastona ko‘zlar xorlik?
Qo‘zg‘al, yuzing ko‘rsat menga — edi gul-u gulzorlik,
Shakkar tiling kim birla aylaydi shiringuftorlik,
Ey, lola yuzli-yu shirin so‘zli chunonim, sen nechuk?

Aylab nihon olam aro gulday jamolingni bu kun,
Yodgor etib endi menga shirin xayolingni bu kun,
Yer qo‘yniga pinhon qilib qoshi hilolingni bu kun,
Keldim etib orzu yana sening visolingni bu kun,
Topmasman izlab seni endi, benishonim, sen nechuk?

Bu gul kabi jisming qaro tuproq bilan esh aylading,
Jannat gulistoni aro tushding-u og‘ush aylading,
Taxti baqoga o‘ltirib, bizni faromush aylading,
Jonbaxsh nafas birla malaklar vaqtini xush aylading,
Nomingni takror aylagum, ey rozdonim[1], sen nechuk?

Mushk-anbarin zulfingni tuproqqa qorib, ey nozanin,
Bir yor-u hamdamsiz hol-ahvoling nechuk bo‘ldi bu kun,
Shu ikki shahlo ko‘zlaringdan fitnaga to‘ldi zamin,
Endi bo‘lib mangu senga jannatdagi hurlar yaqin,
Foniy jahonni tashlagan jannatmakonim, sen nechuk?

Surmali ko‘zlarni to‘ldirding lahad tuprog‘iga,
Tuz urib kuygan jarohatlik yurakning dog‘iga,
Qush kabi uchding-u kirding sen bu jannat bog‘iga,
O‘t qo‘yib kelding arablarning tuman dil yog‘ina,
Dard-u qayg‘usi to‘kis, ey mehribonim, sen nechuk?

Bog‘lading sen azm aylab bu baqo ehromini,
Sipqorib ajal qo‘lidan o‘limning jomini,
Bu safar do‘stingga qilmasdan xabar-e’lomini[2],
Tashlabon tanho meni, etding baqoning komini,
Yuz qo‘yib, kelgan qochib dor ul-omonim, sen nechuk?

[1] **Rozdon** — sirni biluvchi, sirdosh.

[2] **E’lom** — ma’lum qilish, bildirish.

Sarvi qadding soyasi bo‘ldi zamin ostiga jo,
Qancha oshiqqa edi nozik vujuding muddao,
Ko‘rgach malaklar surating, qo‘l ochdimi aylab duo,
Keldim mozoring boshiga qilmoqqa, jonim, marhabo,
Holing nechukdir bu zamon, oromijonim, sen nechuk?

Ul dona mushkin xollaring tuproq aro oldimi rang?
Qurt-u qumursqa shod bo‘lib, qurdimi atrofingda jang?
Dur-marvariddek tishlaring hamrohi bo‘ldi tosh-u chang,
Gulshanga zeb bo‘lgan taning bag‘ri oldi qabri tang,
Ey sarvi ra’noi jahon, durri nihonim, sen nechuk?

Majnun kelib dod aylagay qabringga kelib, ey Xudo,
Bilmam, nechuk tushding yiroq, mendan senga yetmas sado,
Oxiri shuldir maskani xoh shoh bo‘lsin, xoh gado,
Shu ekan hukmi qazo[1] — mendan seni qildi judo,
Ko‘nglim to‘la oh-u fig‘on, ey gulistonim, sen nechuk?

[1] **Qazo** — taqdir, qizmat.

"YUSUF-ZULAYXO"DAN

JUDO AYLAMA

Qodir Alloh, yuragimga o't tushdi,
Meni Yusufimdan judo aylama!
Ayriliq dunyoda bir yomon ishdir,
Sulton boshim bu kun gado aylama!

Bilmam, ne og'ir kun tushar boshimga,
Qo'rqarman bu kecha ko'rgan tushimga,
Og'u solma mening ichar oshimga,
Menga ayriliqni ravo aylama!

Ko'zimning ravshani, belda quvvatim,
Ko'nglim osoyishi, jonda rohatim,
Sevar ko'zim, kecha-kunduz ulfatim,
Yusufimdan meni judo aylama!

Ochilganda gul g'unchasi so'lmasin,
Bemahalda xazon yeli urmasin,
Ayriliq balosin hech kim ko'rmasin,
Mening baxtim bu kun qaro aylama!

Yaqub bir hikmatga o'zni chog'lagay,
Go'yo g'addor falak bag'rin bog'lagay,
Onadan ayrilib, qo'zi yig'lagay,
Ayriliq o'tini ravo aylama!

AJDODLAR O'GITI

O'tgan odamlardan qolgan bir gap bor:
Ko'rsang yashir, ko'rmagandan so'z ochma.
Ko'ngilga tun-u kun ming bir xayol bor,
Ko'rsang yashir, ko'rmagandan so'z ochma.

Aytmasam — yolg‘onchi bo‘ladi otim,
Aytsam — itoatsiz bo‘ladi zotim,
Og‘alarim, buzmang bu ko‘ngli shodim,
Ko‘rsang yashir, ko‘rmagandan so‘z ochma.

Mard shuki, dunyoga qo‘ymasa ko‘ngil,
Sirin makr bilan bilmasa ul el,
Aylanmasa dushmanga nafsi botil,
Ko‘rsang yashir, ko‘rmagandan so‘z ochma.

Og‘alarim, bu kun xijolat etmang,
Otam bilan menga xiyonat etmang,
Bundan ortiq tushdan rivoyat etmang,
Ko‘rsang yashir, ko‘rmagandan so‘z ochma.

Qudrati kuchlidir — ne qilsa Jabbor,
Bechora Yusufda bo‘lmas ixtiyor,
Benomuslar qilar sirrini oshkor,
Ko‘rsang yashir, ko‘rmagandan so‘z ochma.

XO‘SH ENDI

Ko‘zim nuri, xush bor endi,
Qolmadi hech ixtiyorim.
Judolikdan dilim yondi,
Eshit endi ohi-zorim.

Sendan ayru bu jonim yo‘q,
Xasta bo‘ldim — omonim yo‘q,
Kelar deya gumonim yo‘q,
Tezroq kel, ey guluzorim!

Bilmam, ne savdo ko‘rarsan,
Boshda yuz g‘avg‘o ko‘rarsan,
Bugun yo erta ko‘rarsan,
Shu sababdan yo‘q qarorim.

Huvillatib ketding bog‘ni,
Qaydan qilarman so‘rog‘ni,
Yuragimga solding dog‘ni,
Hijron solma, Biruborim![1]

Yaqub aytar: bolam, xush bor,
Ko‘zim yo‘lingda intizor,
Allohim bo‘lsin senga yor,
Tez qayt-u ko‘rgil diydorim.

SENDAN AYRILIB

Bu ne qismatdir menga, ey yor, sendan ayrilib,
Qayg‘u-kulfatdir menga, dildor, sendan ayrilib.

Gul edim, sen — bulbulim,
uchding — qo‘nar zog‘lar kelib,
Qaysi suhbatdir menga, dildor, sendan ayrilib.

Qo‘ymadi g‘addor zamon o‘z holima xurram meni,
Naylayin, tushdim yiroq, nochor sendan ayrilib.

Ketdi jon-u men qolibman ta’nalarga ko‘milib,
Ne malomatdir menga, gulzor, sendan ayrilib,

Hasratingda qoldi Ya’qub nolai afg‘on etib,
Xasta-yu bechoraman, dildor, sendan ayrilib.

TUSH

Bir kecha tush ko‘rdim sahar chog‘ida
Ko‘nglim qushi uchib, sayron[2] ayladi.
Gullar chaman bo‘lgan bahor chog‘ida,
Bulbullar oh urib, afg‘on ayladi.

[1] **Birubor** — Xudo, Tangri.

[2] **Sayron** — kezish, charx urish, aylanish.

Munojot aylabon belingni bog‘la,
Yaxshi ta’bir uchun aqlingni chog‘la,
Bu jonimga jallod bo‘lib bir o‘g‘lon,
Mening qasdim uchun javlon ayladi.

Bilmasman — rostmi yo yolg‘on bu ahvol,
Lutfidan yaratmish uni Zuljalol[1],
Qoshlari qayrilma, yuzlari hilol,
Bu ko‘nglim kulbasin vayron ayladi.

Men bilan bir nafas u bo‘ldi ulfat,
Daf etib ko‘nglimdan bu qayg‘u-kulfat,
Quyosh chehrali-yu yana oy surat,
Qismatimni mening hijron ayladi.

YORIM BOR

Ajoyib nozanin ko‘rdim, nasib aylasa, yorim bor,
Ishqi tig‘i yuragimni pora qildi, oh-zorim bor.

Tamomi huri jannat rashk etar gul chehrasin ko‘rgach,
Tamosho qilgali, sayron etarga guluzorim bor.

Yuzin ko‘rsatdi-yu, boshimga soldi turfa savdoni,
Qaror-u sabrim oldi — kecha-kunduz intizorim bor.

Kechibman jon-u dildan ko‘rmaguncha husni ra’nosin,
Yo‘qotdim ko‘z ochib-yumguncha —
bir sohibqironim bor!

Muhabbat o‘tidan yondi dil-u jonim, musulmonlar,
Men ayb aylamangiz yig‘lasam to ixtiyorim bor.

---

[1] **Zuljalol** — asmoi husna — Alloh taoloning go‘zal ismlaridan biri: ulug‘lik va sharaf egasi.

Azal soqiylari tutdi qo'limga ishqi jomini,
Ichib, sarxush bo'lib, yor-u diydorimdan guzorim bor.

Tegib ishq otashi yondirdi, ayb etmang, Zulayxoni,
Visolini qilib orzu, yana fasli bahorim bor.

BIR PARIPAYKAR

Aql-u hushim oldi bir paripaykar,
Qochirdim gul uzmay toza bog'indan.
Sarv qadli, gul yuzli, lablari shakkar,
O'pmadim mushk isli ol[1] yonog'indan.

Zulfi chin kokili aqlimni oldi,
Oy-u quyosh gul yuziga qul bo'ldi,
Bu g'amgin dilimga nazarin soldi,
Yopdi jonim, do'stlar, yor firog'indan.

Fido qilsam uning yo'lida jonim,
Ketdi mening qo'limdagi mehmonim,
Ajal bir necha kun qo'ysa omonim,
Guldasta bog'lasam gul yaprog'indan.

Ey tong yeli, yetkaz mening dodimni,
Yusufjon eshitsin bu faryodimni,
Shahanshohdir, bilsin, asl zotimni,
Ko'zga surma qilsam iz tuprog'indan.

Eshit arzin Zulayxoning, azizim,
Tilda so'zlar so'zim, ham ko'rar ko'zim,
Somon bo'ldi ayriliqdan gul yuzim,
O'lar bo'ldim ko'rmay yo'l yirog'indan.

[1] **Ol** — qizil.

BIR OFATI JON KELDI

Maqsudi ko‘ngil ichra
Bir ofati jon keldi.
Kipriklari xanjardek
Ham qoshi kamon keldi.

Bir necha zamon yig‘lab,
Ko‘zim to‘la qon yig‘lab,
Oshkor-u nihon yig‘lab,
Yorim bu zamon keldi.

Jonimda farog‘at yo‘q,
Usiz menga toqat yo‘q,
Hech o‘zga hikoyat yo‘q,
Chun ruhi ravon[1] keldi.

Ham dardimgadir darmon,
Jonimdir unga qurbon,
O‘ldirsa — shudir farmon,
Ul shohi jahon keldi.

Ishqida uning zorman,
Yo‘lida giriftorman,
O‘lguncha xaridorman,
Ul sarvi ravon keldi.

Ul sarvi qadding joni,
Yondirdi Zulayxoni,
Shahrimizning mehmoni,
Davlatli zamon keldi.

[1] **Ruhi ravon** — jon, hayot, ruh.

MURODIM HOSIL AYLA

Qolmadi tanda qarorim,
Kel, murodim hosil ayla.
Senga berdim ixtiyorim,
Kel, murodim hosil ayla.

Xizrga ber obi hayvon[1],
So'liganga bag'ishla jon,
To'ti topsin shakkariston,
Kel, murodim hosil ayla.

Eshitmishman asl zoting,
Ko'ksimga bitmishman oting,
Saqlamishman omonating,
Kel, murodim hosil ayla.

Dardim og'ir — ayla darmon,
Bu jonimdir senga qurbon,
Sadqa qilay dur-u marjon,
Kel, murodim hosil ayla.

Ko'ksim uzra qo'yib xanjar,
O'larman begumon, dilbar,
Yusufjonim, aylab nazar,
Kel, murodim hosil ayla.

Sen endi qonimga qolding,
Zulayxoning holin bilding,
Yetar, jon, muncha uyalding,
Kel, murodim hosil ayla.

[1] **Obi hayvon** — obi hayot.

JONONIGA YETSA

Ne xush kundir, aziz do‘stlar,
Kishi jononiga yetsa.
Ko‘rib turli malomatlar,
Oxir diydoriga yetsa.

Chekib ranj-u mashaqqatlar,
Bu ishq yo‘lida ofatlar,
Ko‘rib yuz ming alomatlar,
Ko‘ngil armoniga yetsa.

Sitam etsa falak har on,
Yiqilsa boshiga osmon,
Ko‘rib yuz g‘am, chekib afg‘on,
Yana darmoniga yetsa.

Dil-u joni xarob bo‘lsa,
Kuyib bag‘ri kabob bo‘lsa,
Yo‘lida ming azob bo‘lsa,
Ne g‘am, jononiga yetsa!

Malaksiymo, qadi zebo,
Yuzi qirmiz, ko‘zi shahlo,
Bo‘lib bu Andalib shaydo,
Guli xandoniga yetsa.

MEHRIBONIM KELMADI

Maktubi ko‘nglimni olgan mehribonim kelmadi,
Gulshan ichra gul edi, guldan nishonim kelmadi.

Har nafas faryod etib, boshimni ursam toshlara,
Ul qizil gul, so‘zi bulbul, arg‘uvonim[1] kelmadi.

[1] **Arg‘uvon** — gullari nihoyatda qizil bo‘ladigan daraxt; majozan: qizil rang.

Intizorlikda yurarman kecha-kunduz yod etib,
Oh urarman har zamon — oromijonim kelmadi.

Ishq aro har dam o‘shalkim, dilbari jonim edi,
Ayriliq o‘tiga uygan jism-u jonim kelmadi.

Yaqub aytar: o‘qigan ushbu maktubni menga,
Yusufim isi kelar, bildimki, jonim kelmadi.

NAYLARAM

Aziz tandan shirin jonim chiqibdir,
So‘z bo‘lmasa, qizil tilni naylaram.
Ajal yeli imoratim yiqibdir,
Sarv bo‘lmasa, qaddi dolni naylaram.

Kerak emas menga qaddi-kamolim,
Zahar bo‘ldi suv-u shakkar zulolim,
Yusufjon ko‘rmasa husn-u jamolim,
Ko‘zda nargiz, yuzda xolni naylaram.

Oydan ayru gulgun sharob bo‘lmasin,
Ko‘zda surma, yuzda gulob bo‘lmasin,
Sunbul sochim, zulfi tanob bo‘lmasin,
Tilla tuzoq, yuzi olni naylaram.

Bog‘i qurib-qaqshar bog‘bon bo‘lmasa,
Mulki xarob bo‘lar sulton bo‘lmasa,
Bog‘lar ichra bulbul nolon bo‘lmasa,
Tez ochilgan qizil gulni naylaram.

Zulayxo, va’dangga qilma xiyonat,
Ber bu joning tanda to‘rt kun omonat,
Qo‘shilarsan Haq aylasa inoyat,
Yor bo‘lmasa, jon-u dilni naylaram.

VISOL

Haqiqat bo'ldi ishqimiz,
Majozga[1] yo'qdir e'tibor.
Davoni topdi dardimiz,
Muyassar bo'ldi gulyuz yor.

Yetishdi Haqqa dodimiz,
Berdi bizning murodimiz,
Shu edi ko'ngil shodimiz,
Nurini soldi Birubor.

Haqqa yetib oh-voyimiz,
Jannati a'lo joyimiz,
Yo'q edi hech parvoyimiz,
Ketdi ko'nglimdan qaror.

Oshiq edim jamoliga,
Yuzdagi dona xoliga,
Labi shakkar zuloliga,
Ko'nglimiz bo'lmasa intizor.

Zulayxo bildi holini,
Ko'rdi yangi hilolini,
Tajalliydan[2] jamolini,
Yusufni qilmas ixtiyor.

JONNI YONADIR

Yo'q toqatim ishq o'tiga, balki bu jonim yonadir,
Toza bog'im, navbahorim, guluzorim yonadir.

---

[1] **Majoz** — o'zining tub ma'nosida ishlatilmay, biror munosabat va o'xshatish orqali boshqa ma'noda ishlatilgan so'z.

[2] **Tajalliy** — ko'rinish, jilvalanish. G'aybdan keladigan va qalbda namoyon bo'ladigan ilohiy nur va sirlar. Haq taolo hamisha hamma yerda turli darajada tajalliy etadi.

Agar qabul aylamasa bu oh bilan afg‘onimiz,
Men chidolmay, naylayin, sabr-u qarorim yonadir.

Hurmati zoting uchun ham hosil ayla maqsadim,
Begumon yig‘lamasam oh-u fig‘onim yonadir.

Chekdi Zulayxo mening jabr-u jafomni qirq yil,
Menda yo‘q sabr-u qaror, nomus-u orim yonadir.

Ey Xudo, solma Yusuf ko‘ngliga hijron dog‘ini,
Dam-badam,
lahzama-lahza ixtiyorim yonadir.

YETISHMAS

Ishq dastidan dod-u faryod aylayin,
Mening oh-u zorim yorga yetishmas.
Jigar qonim oqdi ko‘zdan, naylayin,
Dardi holim ul dildora yetishmas.

Qirq yil bo‘ldi — dog‘ ustiga dog‘ soldi,
To‘rt kunlik umrimni u ado qildi,
Jon chiqmoqqa tanda endi ne qoldi,
Qo‘rqarmanki, guluzora yetishmas.

Umrim oxirladi, umid kam bo‘lmas,
Mening bu holimni hech kimsa bilmas,
To qiyomat mening ko‘nglim uzilmas,
Kecha-kunduz intizorga yetishmas.

Meni elting — yo‘l ustida turayin,
Otining gardini surma qilayin,
Ne xayoli bordir uning — bilayin,
Ishqing o‘ti nomus-ora yetishmas.

Yo bir nazar aylab, meni kuldirsin,
Yo bo‘lmasa oti tepib o‘ldirsin,
Yo magar u ko‘nglidagin bildirsin,
Zulayxoning ixtiyori yetishmas.

NETAY

Oh, firoqingda sening bag‘rim to‘la qondir, netay,
Ishtiyog‘ingdan ko‘zim har lahza giryondir, netay.

Men seni jonim dedim — ne bo‘ldi ko‘rsatsang yuzing,
Chiqmagay ul bevafoning ishqidan jondir, netay.

Hasratingdan kecha-kunduz ichganim zaxr-u zaqum,
Oh-u afg‘onim oshirgan dog‘i hijrondir, netay.

Ko‘rgali bog‘i latofat ichra yuzingni ko‘zim,
Misli ko‘klam yomg‘iri ko‘zimda to‘fondir, netay.

Solsalar bog‘-u chaman ichra meni yolg‘iz agar,
Menga jannat bog‘i sensiz misli zindondir, netay.

Der edim men gul yuzingning hajrida qurbon bo‘lay,
Yuz ming oshiq ahli yo‘ling uzra qurbondir, netay.

YOR KELUR

Sayri jahon aylabon
Ko‘rgali diydor kelur.
Bo‘lib xurram-u xandon
O‘ynagali yor kelur.

Bir-biriga qo‘l solib,
Hamma sirlarni olib,

Bir-birga quchoq ochib,
Yurgali dildor kelur.

Dunyoda dilrabo o‘zi,
Jonimga bir balo o‘zi,
Oshiqqa rahnamo o‘zi,
Yusufi dildor kelur.

Qolmasman undan o‘lguncha,
Lablari bolin so‘rguncha,
Yuzlari gul, og‘zi g‘uncha,
Birga-birga xush yor kelur.

Yor keladi kulishmoqqa,
Pinhon sirni bilishmoqqa,
Quchoq ochib ko‘rishmoqqa,
Sollanibon ul yor kelur.

Keladi dilbarim mening,
Dunyoda so‘zlarim mening,
Rahnamo, rahbarim mening,
Andalibi xumor kelur.

"BOBO-RAVSHAN" DAN

DUNYO

Tug'ilgandan xush bir kunni bilmadim,
Kundan-kun, dam-badam batarsan, dunyo!
G'aflat ichra yurdim, fikr qilmadim,
Anglab yetdim endi — o'tarsan, dunyo!

Nechalar etaging tutibdi qo'lga,
Nechalarni aldab, chiqarding cho'lga,
Lekin yetkazmasdan makon-manzilga,
Chanqatib, charchatib ketarsan, dunyo!

Bir necha kishining vaqtin xush etib,
Bir nechani misli uchar qush etib,
Bir nechani qayg'u-g'amga duch etib,
Nechaning boshiga yetarsan, dunyo!

Bir nechaning aql-u hushin olibsan,
Ajab mast-u shaydo qilib qolibsan,
Har kimga bir turli savdo solibsan,
Mashg'ul etib, bir kun yutarsan, dunyo!

Sira to'kis emas, asli xolisan,
Kimki do'st deb bilsa, uning molisan,
Majlis ichra ajab sarvi nozlisan,
Kimni g'ofil ko'rsang, tutarsan, dunyo!

Avval-oxir kelgan pokiza qizsan,
Ma'shuqlar ichida jondan azizsan,
Oshig'ingga qand-u boldan lazizsan,
Masti beixtiyor etarsan, dunyo!

Bir go‘zalsan, oting “dol” bilan “nun”dir[1],
G‘amingdan oshiqlar ko‘z yoshi xundir,
Senga kelganlarning holi zabundir,
Ishva bilan hazil etarsan, dunyo!

Birovning kasbiga beribsan rivoj,
Birovni aylading faqir-u muhtoj,
Birovni aylading och-u yalang‘och,
Birovni birovga sotarsan, dunyo!

Bir nechani safar yo‘liga chog‘lab,
Nechalarni urib, ko‘ksini dog‘lab,
Sharqdan to g‘arbgacha qismatin bog‘lab,
Har kimni har yonga otarsan, dunyo!

G‘am yo‘lida ulkan karvonlar qolib,
Qayg‘u bilan uning atrofin olib,
Kulfat ajdarhosi zaharin solib,
Bu xasta Ravshanni netarsan, dunyo?!

SEN BILARSAN HOLIMNI

Ikki olam ichra ulug‘ podshohsan,
Qodir Alloh, sen bilarsan holimni.
Bandaning holidan doim ogohsan,
Qodir Alloh, sen bilarsan holimni.

Jahon ichra mashhur qilding o‘zingni,
Mo‘min ahli zikr etadi so‘zingni,
Olam ichra ochib qudrat ko‘zingni,
Qodir Alloh, sen bilarsan holimni.

[1] **Arab alifbosidagi “dol”** — “d” va “nun” — “n” harflari qo‘shilishidan, “dun” so‘zi hosil bo‘lib, u tuban, past degan ma’noni bildiradi.

Yo‘qdan bor aylading barcha ashyoni,
Bunyod etding zamin bilan samoni,
Arsh-u[1] Kursi[2], lavh-u[3] qalam zamoni,
Qodir Alloh, sen bilarsan holimni.

Azaldir aslida zoting[4] binosi,
Ibtidosi yo‘qdir, ham intihosi,
Jami maxluqotning dard-u davosi,
Qodir Alloh, sen bilarsan holimni.

Ibrohim Xalilga farmon aylading,
Ismoil boshini qurbon aylading,
Jannatdan qo‘y berib, oson aylading,
Qodir Alloh, sen bilarsan holimni.

Ayyubni qurtlarga aylab giriftor,
Yusufni zindonga qilding sazovor,
Kashamshamni[5] xalq aylagan Birubor,
Qodir Alloh, sen bilarsan holimni.

ARMONLI DUNYO

Bevafo dunyosan, oxir o‘tarsan,
Bu dunyoda kimning ko‘ngli shod bo‘ldi?
Xayrning yo‘q hech, kundan-kunga batarsan,
Bu dunyoda kimning ko‘ngli shod bo‘ldi?

---

[1] **Arsh — Arshi a’lo** — buyuk taxt. Oyat va hadislarga ko‘ra, Arsh oyoqlari bor taxt bo‘lib, uni farishtalar ko‘tarib turadi. U xuddi olam ustidagi qubbaga o‘xshash. U maxluqotlarning shiftidir.

[2] **Kursi** — Arshning ikkinchi nomi. Yetti qavat osmondan tashqari, alohida sakkizinchi osmon ma’nosida ham tushuniladi.

[3] **Lavh** — Alloh insoniyatning taqdirlarini yozgan ulkan kitob (Lavhi mahfuz)

[4] **Zot** deganda tasavvuf ahli Mutlaq ruhning o‘zini, ilohiyot olamining javhari, ya’ni abadiy va azaliy Vahdatning mohiyatini tushunganlar.

[5] **Kashamsham** — “Voboravshan” dostonida Alining laqabi.

Hazrati Odamni hayron aylading,
Havvoning ko‘zini giryon aylading
Nuh qavmini g‘arqi to‘fon aylading,
Bu dunyoda kimning ko‘ngli shod bo‘ldi?

O‘z nuringdan xalq aylading Isoni,
Tur tog‘ida roz aytishgan Musoni,
Kofir arraladi Zikiriyoni,
Bu dunyoda kimning ko‘ngli shod bo‘ldi?

Ibrohim Xalilni tashlading norga,
Mansurning[1] boshini ostirding dorga,
Hazrati Yusufni solding bozorga,
Bu dunyoda kimning ko‘ngli shod bo‘ldi?

Luqmonni dardlarga davo aylading,
Idrisning maskanin ma’vo aylading,
Har kimga bir turfa savdo aylading,
Bu dunyoda kimning ko‘ngli shod bo‘ldi?

Vomiq uchun Uzro daryoda suzdi,
Layli uchun Majnun sargardon kezdi,
Shirin uchun Farhod tog‘larni qazdi,
Bu dunyoda kimning ko‘ngli shod bo‘ldi?

O‘n to‘rt oshiq o‘tdi sendan zor aylab,
To‘qson to‘qqiz ming shayx yer belni bog‘lab,
Yuz yigirma to‘rt ming payg‘ambar yig‘lab,
Bu dunyoda kimning ko‘ngli shod bo‘ldi?

Iskandar Zulqarnayn, hazrati Salmon,
Yana Qaysar[2] bilan Jamshidi[3] xoqon,

---

[1] **Mansur** — mashhur so‘fiy Mansur Halloj (858–922). “Analhaq” — “Men — Haqman” degani uchun dorga osilgan

[2] **Qaysar** — Sharq adabiyotida Rim va Vizantiya imperatorlari shu nom bilan yuritilgan.

[3] **Jamshid** — qadimgi Eronning afsonaviy podshohi Jamshid.

Qani Suhrob[1], Zarqum, Rustami doston,
Bu dunyoda kimning ko'ngli shod bo'ldi?

Shoh-u gado yurish aylar ustingdan,
Yer-u mulking olmoq uchun qasdingdan,
Oxir armon bilan o'lar dastingdan,
Bu dunyoda kimning ko'ngli shod bo'ldi?

Kashamsham der: sendan topmadim behbud[2],
Ulug' ajdarhoni aylading nobud,
Hosil bo'lmas sendan hech kimga maqsud,
Bu dunyoda kimning ko'ngli shod bo'ldi?

KERAKDIR

Kimki kirar bo'lsa dini islomga,
Xudoni yagona bilmoq kerakdir.
Bo'yunsunib shariatga — ahkomga,
Muhammadga ummat bo'lmoq kerakdir.

G'ayridinning ishi doim kasofat,
Mo'min banda doim topar sharofat,
Kecha-kunduz qilib toat-ibodat,
Nahyin[3] tashlab, amrin qilmoq kerakdir.

Ko'p islom dini yo'lida sharofat,
Ro'za, namoz aylar xayr-u saxovat,
Kofir ahlin ko'rsang, misli najosat,
Suhbatidan yiroq bo'lmoq kerakdir.

Tillarida doim zikr-u sanodir,
Payg'ambar bu ummatlarga panohdir,

[1] **Suhrob** — "Shohnoma" qahramoni Rustamning o'g'li. U o'z otasi tomonidan o'ldiriladi.

[2] **Behbud** — yaxshilik.

[3] **Nahyi** — man etish, qaytarish.

To‘rt xalifa go‘yo ulug‘ daryodir,
G‘avvos bo‘lib o‘zni solmoq kerakdir.

Abu Bakr siddiq nuri safodir,
Umar odil, Usmon sohibhayodir,
Kashamsham der: Ali sheri Xudodir,
To‘rtovin bir ko‘zda ko‘rmoq kerakdir.

TILARMAN

Ey azizlar, ko‘pdir ko‘nglim armoni,
Murodimni bir Allohdan tilarman.
Haqning o‘zi barcha dardning darmoni,
Zor aylabon Rabbanodan tilarman.

O‘n sakkiz ming olam bilan tog‘larni,
Qurt-qumursqa bilan bulbul, zog‘larni,
U yaratdi basir bilan sog‘larni,
Gadodirman — o‘shal shohdan tilarman.

Uch yuz ming yil yig‘lab, tilda sanosi,
Dargohida bag‘ishlandi gunosi,
Jumla payg‘ambarning ota-onasi,
Odam bilan ul Havvodan tilarman.

Makkani ilk bora imorat etgan,
Barcha odam uni ziyorat etgan,
Qodir Xudo o‘zi bashorat etgan,
Ul Xalili bosafodan[1] tilarman.

Zora rahm qilsa ko‘zim yoshiga,
Yaratdi kofirni tegra-toshiga,
Daraxt ichra arra keldi boshiga,
O‘shal ruhi Zikriyodan tilarman.

[1] **Bosafo** — safoli; pok.

Yahudo[1] qo‘yarmi sog‘-u salomat,
Bir aziz boshima necha malomat,
Choh ichida topgan davlat — saodat,
Yusuf bilan Zulayxodan tilarman.

Uyqusin tark etib ummati uchun,
Ko‘zidan to‘kkan yosh durini betin,
Shafoat eshigin ochar mahshar kun,
Ul Muhammad Mustafodan tilarman.

Duldul[2] minib, Zulfiqori[3] belida,
Farishtalar turar sog‘-u so‘lida,
Kavsar hovuzining suvi qo‘lida,
Ravshan degay: Murtazodan[4] tilarman.

[1] **Yahudo** — Yaqub alayhissalomning o‘g‘li, Yusufning o‘gay akasi.

[2] **Duldul** — Hazrat Alining afsonaviy oti.

[3] **Zulfiqor** — Hazrat Alining mashhur qilichi.

[4] **Murtazo** — Hazrat Alining laqabi: saylangan. Unga jannatdagi Kavsar hovuzining soqiyligi inoyat qilingan.

"ZAYNULARAB" DAN

YOR IZLAB

Ijozat ber, qiblagohim[1],
Chiqsam bir yona yor izlab.
Mehribonim, pusht-panohim,
Ketsam sayrona yor izlab.

Ishq mayidan no'sh aylasam,
Sahro chiqib, jo'sh aylasam,
Ko'ngil vaqtin xush aylasam,
Yursam bog'-u gulzor izlab.

Otlar chopib, o'q-yoy otib,
Ohu quvlab, qulon[2] tutib,
Yursam Xudoni yod etib,
Boshqa-boshqa diyor izlab.

Soya-salqin soyga borsam,
Bir oltin saroyga borsam,
Ko'z ko'rmagan joyga borsam,
Yursam bazm-u shikor izlab.

Muhammaddan bu hikoyat,
Aytaversam yo'q nihoyat,
Kundan-kun o'zgadir holat,
Yuz alam, beqaror izlab.

[1] **Qiblagoh** — bu yerda: ota.
[2] **Qulon** — yovvoyi eshak.

HAMROZ ISTABDIR

Og‘am, ko‘nglim qushi bu kun
Baland parvoz istabdir.
Topib bir gulshani jonin,
Navosin soz istabdir.

Chamandan g‘uncha gul ko‘zlab,
Shakarlab, to‘tiday so‘zlab,
Bir ishqdan bazmi vasl izlab,
Bir baland ovoz istabdir.

Haqni istab vafo bilan,
Vafo izlab jafo bilan,
Borib bir dilrabo bilan,
O‘zini hamroz istabdir.

Arg‘umoq sursa yo‘llarga,
Kezibon tog‘-u cho‘llarga,
Musofir yolg‘iz ellarga,
Bir do‘sti e’zoz istabdir.

Budir shahzoda so‘z aytsa,
So‘zin yaxshi fahm etsa,
Falak ma’nosiga yetsa,
Unga og‘oz[1] istabdir.

MOHI TOBON

Ey shahzoda, so‘zim tingla,
Ko‘rsang, bir mohi tobondir.
Bunday go‘zal yo‘qdir, angla,
Ko‘rsang, bir mohi tobondir.

[1] **Og‘oz** — bosh, boshlanish, kirishish.

Jamolin ko‘rsang bir zamon,
Yuragingda qolmas armon,
Yuzi gul, aqli farovon,
Ko‘rsang, bir mohi tobondir.

Ta’rifga so‘z topib bo‘lmas,
Hech go‘zal unga teng kelmas,
Har yerda o‘tirib-turmas,
Ko‘rsang, bir mohi tobondir.

Yurak o‘ynab, haddan oshdi,
Shirin jonimga o‘t tushdi,
Davosiz bir dard yopishdi,
Ko‘rsang bir mohi tobondir.

Imloq[1] deydi: qoldi dilim,
U tomon tushmadi yo‘lim,
Kecha-kunduz shu xayolim,
Ko‘rsang, bir mohi tobondir.

SENGA KELIBMAN

Necha kunki, men ham chekib jafoni,
Sargardoning bo‘lib senga kelibman.
Boshimga orttirib necha baloni,
Parishoning bo‘lib senga kelibman.

Sening uchun yonib-kuyib, kul bo‘lib,
Dushmanga qo‘shildim borib, el bo‘lib,
Men ham senga g‘oyibona qul bo‘lib,
Bir mezboning bo‘lib senga kelibman.

[1] **Imloq** — “Zaynularab” dostoni qahramonlaridan biri.

Makoning oldida qavm-u qardoshim,
Falak sitamidan yo'llarda yoshim,
Eldan uzoq tushib yolg'iz bu boshim,
Notavoning bo'lib senga kelibman.

Boshim qutulmadi dog'i firoqdan,
Ishq azobin chekdim shunday yiroqdan,
Bir bo'sa ber, jonim, yoqut dudoqdan,
Giriboning[1] bo'lib senga kelibman.

Shahzoda der: quchsam nozik belingdan,
So'zlagil dur sochib shakar tilingdan,
Xabar bergil menga sen o'z elingdan,
Nigohboning[2] bo'lib senga kelibman.

AYRILIQ

Turgil, yorim, tez uyqudan uyg'onib,
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.
Ko'p yotmagil qirmiz to'nga chulg'onib,
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

Nargislaring xumor-xumor suzilmish,
Hasrat bilan yurak-bag'rim ezilmish,
Vasling etagidan qo'lim uzilmish,
Sen ayrilding,
men ham sendan ayrildim.

Talashmayin noz uyquga ketibsan,
G'urbat to'nin g'aflat bilan yopibsan,
Qurboning bo'layin, ne deb yotibsan,
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

[1] **Giribon** — yoqa.

[2] **Nigohbon** — posbon, qorovul, nazoratchi.

Falak sharobini bizlarga sochdi,
Xonadonim shami yonganda o‘chdi,
Uyg‘on yorim, meni dev olib qochdi,
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

Ko‘zing och uyqudan, anglagil gapni,
Fahm et hijron olib kelgan sababni,
Sen izlab topmasang Zaynularabni,
Sen ayrilding, men ham sendan ayrildim.

NIGORIM QANI?

Jumhur[1] ko‘ngil bergan nigorin oldi,
Mening ko‘nglim olgan nigorim qani?
Shod bo‘lib, qo‘lini bo‘yniga soldi,
Mening ko‘nglim olgan nigorim qani?

Ishqing afsonasi boshdan o‘tibdi,
Har kimga bir turli jafo yetibdi,
Kimki ko‘ngil berib, yorin topibdi,
Mening ko‘nglim olgan nigorim qani?

Mast-u hayron bo‘ldim, bilmadim o‘zim,
Men kimga aytayin alamlik so‘zim,
Yor yo‘liga boqib, termuldi ko‘zim,
Mening ko‘nglim olgan nigorim qani?

Bu diyordan ko‘ching, bunda turolmam,
Yorimni sog‘inib, sira ko‘rolmam,
U buyon kelolmas,
men ham borolmam,
Mening ko‘nglim olgan nigorim qani?

[1] **Jumhur** — “Zaynularab” dostoni qahramonlaridan biri.

Go‘yoki bulbulman — qoldim qafasda,
Yorimni yod etib har bir nafasda,
Yorim qoldi, vo hasrato, Kamusda,
Mening ko‘nglim olgan nigorim qani?

Necha oylar o‘tdi, necha zamonlar,
Mening bilan ulfat bo‘lgan yoronlar,
Lashkarga bosh bo‘lgan beg-u sultonlar,
Mening ko‘nglim olgan nigorim qani?

Oh desam, olamni xarob aylarman,
Bu jonimga endi azob aylarman,
Bag‘rimni o‘tlarga kabob aylarman,
Mening ko‘nglim olgan nigorim qani?

Bechora shahzoda ne iloj etsin,
Boshin olib eldan-ellarga yetsin,
Kamus shahrida yorin yod etsin,
Mening ko‘nglim olgan nigorim qani?

KUYGANIM YETAR

Tez yetishgil ko‘nglim qushi — shahbozim,
Termulib yo‘lingga boqqanim yetar.
Oh urib yig‘lasam, yetmas ovozim,
Ko‘z yoshim yo‘lingga to‘kkanim yetar.

Kelgil, yorim, bu diyordan ketaylik,
Madina shahrining yo‘lin tutaylik,
Murod-maqsadimiz hosil etaylik,
Bu yerlarda g‘arib qolganim yetar.

Ko‘zim kosasini yoshga to‘ldirib,
Musofirlik diyorida o‘ltirib,
Qizil yuzim hasrat bilan so‘ldirib,
Oh-u fig‘on chekib yurganim yetar.

Falak bag‘rin teshar oh-u afg‘onim,
Seni izlab ketar ruhi ravonim,
Ishq o‘tiga kuygan bu g‘arib jonim,
G‘ariblar g‘aribi bo‘lganim yetar.

Bu dunyo — u dunyo o‘zing g‘amxo‘rim,
Salomat bo‘l Xudo bergan dildorim,
Yo‘lingga termulib ko‘zi xumorim,
Firoqingda shuncha kuyganim yetar.

Zaynularab aytar kelib qoshimga,
Rahm aylagil ko‘zdan oqqan yoshimga,
Falak sargardonlik soldi boshimga,
Zor-u giryon bo‘lib turganim yetar.

YORIMNI SOG‘INDIM

Ko‘z yumib-ochdim, shukur,
yorimni sog‘indim, Xudo!
Ko‘ngil olgan ul vafodorimni sog‘indim, Xudo!
So‘rguchi holimni dildorimni sog‘indim, Xudo!
Hasratimda diydai zorimni sog‘indim, Xudo!
Ber murodimni mening — yorimni sog‘indim, Xudo!

Chunki u zordir menga, men bo‘lsa unga zorman,
Chekdi u dardimni, men ham dardida bemorman,
Tushdi zindon ichra yor, men ham dili afgorman,
Yod etar yorim meni, yodi-la men ham borman,
Ber murodimni mening — yorimni sog‘indim, Xudo!

Senga yuz tutdim — umidim o‘ldirib, xor aylama,
Bundanam ortiq balolarga giriftor aylama,
Mustajob et bu duolarni, sharmisor aylama,
Bandai bechoraman men, ko‘p meni zor aylama,
Ber murodimni mening — yorimni sog‘indim, Xudo!

Sen karimsan — lutf etarsan bandai bechoraga,
Vasl etagin qil muyassar men kabi ovvoraga,
Tolei badbaxt beribsan muncha baxti qoraga,
Sevganim ayla muyassar bu dili yuz poraga,
Ber murodimni mening —
yorimni sog'indim, Xudo!

Yig'lagay Zaynularab dargohingga faryod etib,
Shum falakning dastidan dod etib, bedod etib,
"Qissai Yusuf-Zulayxo"ni yana bunyod etib,
Dargohingga yuz tutarman yori jonim yod etib,
Ber murodimni mening —
yorimni sog'indim, Xudo!

G'ARIB BO'LDIM

Karam aylab, mening qo'lim olmasang,
Dargohingda g'arib bo'ldim, Xudoyo!
Qudrat bilan o'zing madad qilmasang,
Dargohingda g'arib bo'ldim, Xudoyo!

Guldek tanim bo'ldi o'q bilan pora,
Ozor berar birdan bir necha yara,
Naylayin, yolg'izman men — baxtiqora,
Dargohingda g'arib bo'ldim, Xudoyo!

Qizil qondan tanim ochilgan lola,
Falakni titratdi oh bilan nola,
Yolg'iz boshim senga qildim havola,
Dargohingda g'arib bo'ldim, Xudoyo!

Sonsiz lashkar bilan qamrab olibdi,
Qiyomat g'avg'osi bu kun bo'libdi,
G'ofil umrim yolg'izlikda qolibdi,
Dargohingda g'arib bo'ldim, Xudoyo!

G‘ariblikda yo‘qdir mening yo‘ldoshim,
Sensan mening qo‘lim tutar qo‘ldoshim,
Kofirlar ichida bu g‘arib boshim,
Dargohingda g‘arib bo‘ldim, Xudoyo!

Ko‘zim yoshi oqar bo‘lib sel endi,
Bag‘rim sonsiz olam bilan tilindi,
Yolg‘iz qoldim — g‘aribligim bilindi,
Dargohingda g‘arib bo‘ldim, Xudoyo!

Dargohingga keldim bu kun omona,
Yuz tutarman bu kun qodir Rahmona,
Shahzoda der: qutulmog‘im gumona,
Dargohingda g‘arib bo‘ldim, Xudoyo!

HOLING NE KECHDI?

Seni izlab chiqib keldim bu yona,
Bilmadim, jononim, holing ne kechdi?
Yusufi Kan’ondek tushdim zindona,
Zulayxo nishonim, holing ne kechdi?

Men bu yerda qayg‘u bilan kulfatda,
Zindon ichra ming jabr-u mashaqqatda,
Sen qaysi diyorda, qaysi suhbatda,
Zulfi parishonim, holing ne kechdi?

Kimdan so‘ray sening xasta bu holing,
Hamisha istarman Haqdan visoling,
Kecha-kunduz fikrim sening xayoling,
Orzu-yu armonim, holing ne kechdi?

Men sayr etib Madinaning cho‘lida,
Asir bo‘ldim kelib Anqo[1] qo‘lida,

[1] **Anqo** — “Zaynularab” dostonidagi shoh.

Sen ham asirimsan dushman elida,
Ey yosh jononim, holing ne kechdi?

G‘amlik ko‘nglim xayolingdan sovutmam,
Sendan o‘zga dilraboni yod etmam,
Sen meni unutma, seni unutmam,
Toza gulistonim, holing ne kechdi?

Yoshligimda ko‘nglim olgan nigorim,
Qiyomatlik hamdam bo‘lgan dildorim,
Mening bunda yo‘qdir sabr-u qarorim,
Sen unda, jononim, holing ne kechdi?

Shahzoda der: mening uchun zormisan,
Yo bo‘lmasa, begonaga yormisan,
Zaynularab[1], omon-eson bormisan,
Jannat-u rizvonim, holing ne kechdi?

YO‘QLOV

Nelar kechdi holing qayg‘u-kulfatda,
Omon-eson, sarvinozim, bormisan?
Bu chohning ichida g‘am-mashaqqatda,
Ko‘nglim olgan dilnavozim, bormisan?

Toqatim yo‘q — falak jonimni yoqar,
Ko‘zlarimning yoshi daryoday oqar,
Bu devni o‘ldirdim — ovozing chiqar,
To‘ti tilli xushzabonim, bormisan?

Nechuk bo‘ldi — dev qo‘liga tutilding,
Hasrat bilan choh ostiga otilding,
Umrin oxir qildim — devdan qutulding,
To‘rga tushgan mehribonim, bormisan?

[1] **Zaynularab** — qal’a boshlig‘i, Jumhurning singlisi.

Necha kunki firoqiga zor etgan,
Makonini sandiq bilan g'or etgan.
Ko'nglim olib, yoshligimdan yor etgan,
Umrim xushi, parizodim, bormisan?

Shahzoda der:
Haq yetkazdi dodingga,
Qurbon bo'ldim Zaynularab otingga,
Yoring izlab, solib yoring yodingga,
Kel, ko'rishgil, qorako'zim, bormisan?

NOUMID ETMA

Barchaning sultoni, shohlarning shohi,
Dargohingdan meni noumid etma!
Ko'zim yoshi mahshar kuni guvohi,
Dargohingdan meni noumid etma!

Kofirlarning jazosidir ulfatim,
Kundan kunga ziyodadir kulfatim,
Bundan yomon qilma mening qismatim,
Dargohingdan meni noumid etma!

Gar menga Alidan shafoat bo'lsa,
O'g'li Muhammadni u izlab kelsa,
Nazir qilib, mening holimni so'rsa,
Dargohingdan meni noumid etma!

Baxtimning shumligi yetdi jonimga,
Ko'zim piyoladek to'ldi qonimga,
Muhammadim so'rab kelsa yonimga,
Dargohingdan meni noumid etma!

KO‘RDIM

Kel, so‘zlashgil, pahlavonim,
Husningni safoli ko‘rdim.
Ne holing bor, jonajonim,
Men seni vafoli ko‘rdim.

Sen kabi bo‘lmas odamzod,
Yo malaksan, yo parizod,
Inson ham bo‘lsang asling zot,
Qizdan ham iboli ko‘rdim.

Yuzing gul, qadding niholdir,
Lablaring obi ziloldir[1],
Aytgil, senga bu ne holdir,
Muncha ham jafoli ko‘rdim.

Sen kabi bo‘lmas nozanin,
Kel, bizga bo‘l do‘st-u yaqin,
La’li labing jondan shirin,
Jondan ham mazali ko‘rdim.

Tug‘ra[2] der: hayodan kechib,
O‘z qo‘limdan sharob ichib,
So‘zlagil og‘zingni ochib,
Bulbulday navoli ko‘rdim.

YOR,
SENSIZ NAYLAYIN

Men giriftori baloman, yor, sensiz naylayin,
Bo‘ldi bu guldek tanim afgor, sensiz naylayin,
Dashti g‘urbat ichra qoldim xor, sensiz naylayin,

[1] **Obi zilol** — tiniq, shaffof suv.

[2] **Tug‘ra** — shoh Anqoning qizi.

Topdi jonim ushbu kun ozor, sensiz naylayin,
Yor, sensiz naylayin, dildor, sensiz naylayin.

Qaydasan, bilmam sening holingni, ey jonona, san,
Shamdek ko'nglim uyinda turli-turli yonasan,
Ushbu kofirlar bilan bo'ldingmi, yor hamxona san,
Solding, ey dilbar, meni bu dardi bedarmona san,
Yor, sensiz, naylayin, dildor, sensiz naylayin.

Uchradim yuz ming balo-kulfatga men baxti qaro,
Hech kishi yo'q boshim uzra bo'lgali motamsaro,
Voy, bilmaslar mening holimni xesh-u aqrabo[1],
Yordan bo'ldim judo, bo'ldim baloga mubtalo,
Yor, sensiz naylayin, dildor, sensiz naylayin.

Kim borib aytar mening holi parishonim sanga,
Borsa aytarim sabo bu oh-u afg'onim sanga,
Turmulib, ashkim to'kib, choki giribonim sanga,
Qaysi kun bo'lgay — qo'shilgay dardlik jonim sanga,
Yor, sensiz naylayin, dildor, sensiz naylayin.

Kokil chok-u bag'ri biryon[2], poraman sen yor uchun,
Shuncha sargardon bo'lib, ovoraman sen yor uchun,
Makridan dushman elin yuz poraman sen yor uchun,
Gar o'zim shahzodaman, bechoraman sen yor uchun,
Yor, sensiz naylayin, dildor, sensiz naylayin.

BOSHIMGA TUSHDI

Tug'ra, so'zim eshit, aytayin boshdan,
Sahroning havosi boshimga tushdi.
Zar-ziynatdan topdim bir nishona man,
Bu ishqing balosi boshimga tushdi.

[1] **Xeshu aqrabo** — qarindosh-urug'.

[2] **Biryon** — qovrilgan, o'rtangan.

Bahodirlik davosini qilardim,
Har bir yurtda necha muddat turardim,
Nogahondan ellar kezib yurardim,
Bir jonon savdosi boshimga tushdi.

Dushmanlarim zarar soldi jonimga,
Yolg‘iz qoldim — kishi kelmas yonimga,
Oq qo‘shilib shunday qizil qonimga,
Dunyoning jafosi boshimga tushdi.

Ikki og‘am mohi anvar[1] degaylar,
Otamning otini Haydar[2] degaylar,
Madina shahrida sarvar degaylar,
G‘ariblik savdosi boshimga tushdi.

Mening otim Muhammaddir[3], eshitgil,
Yaxshi anglab olgil, quloqqa tutgil,
Bu mening dardimning davosin etgil,
Shum baxtim qarosi boshimga tushdi.

[1] **Mohi anvar** — to‘lin oy.

[2] **Haydar** — Hazrat Alining laqabi: sher.

[3] **Muhammad** — “Zaynularab” dostonida Hazrat Alining o‘g‘li.

QISSAI FIR'AVN

(doston)

O'tar foniy dunyo, so'zla, Andalib,
Tilga bu so'zlarni yazdon yetirdi.
Har kimsaga bir ish berdi g'am qorib,
Subhi shom qilgali farmon yetirdi.

Kimnidir shoh qildi, kimnidir gado,
Kimdir ishrat bilan bo'ldi muktado,
Qayg'u-hasrat bilan necha benavo
Bir nechaga xonavayron yetirdi.

Qudratdan o'n sakkiz olam yaratdi,
Yuz yigirma to'rt ming payg'ambar o'tdi,
Zamoninda davlat Musoga yetdi,
Ularga Fir'avnni rasman yetirdi.

Dunyoda Fir'avnni barjasta qildi,
Misrda shohni bir shoista qildi,
Mol-u dunyo bilan vobasta qildi,
Oxirda ko'ngliga armon yetirdi.

Dunyo izzatidan ne so'z so'zladi,
Xaloyiqqa o'zin Xudo ayladi,
Mag'rib bilan mashriq elin to'yladi,
Hukmini olamga ravon yetirdi.

Xizmatinda xon qilurdi Hamon boz,
Yuz ming ahli hikmat vaziri damsoz,
Sad hazor munajjim, hazor qur'adoz,
Yana to'rt ming jodu maston yetirdi.

To'rt yuz yil shoh bo'lib olamni so'rdi,
Mag'rib bilan mashriq amrinda turdi.
Kofirlar xudo deb, anga bosh urdi,
Toat aylab shab-ro'z xandon yetirdi.

Yetardi bir kecha Fir'avn salomat,
Nogohon tushida ko'rdi alomat,

Bir yulduz oldida erdi davomat,
Nogoh g‘oyib bo‘lib afg‘on yetirdi.

Jon hovliqib, sakrab turdi shu zamon,
Chaqirdi kelsin deb vaziri Hamon.
Tushini vazirga ayladi bayon,
Ko‘zidan yosh to‘kib, giryon yetirdi.

Vazir dedi: “Munajjimlar kelsinlar,
Bu tush ta’biriga qur’a solsinlar,
Bu ne sirdir yaxshi-yomon bilsinlar,
Yasovullar olib, zamon yetirdi.

Munajjimlar shohning so‘zin eshitib,
Ne bo‘larin alar aytardi turib,
Yana, aytmadilar andin xavf etib,
Vaziriga sirin pinhon yetirdi.

“Vazir bayon etsa, desin shohimiz,
Xavf etar aytmoqqa mahri jonimiz,
Ikki dunyo sensan bizning mohimiz”, —
Qo‘rqa-qo‘rqa so‘zin larzon yetirdi.

Fir’avn dedi: “Turmasinlar, aytsinlar,
Har ne ko‘rganlarin bayon etsinlar,
Bu pinhon sirlarni ayon etsinlar,
Bandalarim” deyib, farmon yetirdi.

Munajjimlar dedi: “Ey shohi zamon,
Bani Isroildan tug‘ar bir o‘g‘lon,
Sening mulking qilur ul bachcha vayron,
Qur’ada bu so‘zni ayon yetirdi.

Fir’avn dedi: “Qaysi oyda, qay kunda,
Paydo bo‘lur ne kechada, ne tunda?”
Qur’andozlar nishon berdilar anda,
Falon oy, kun deya nishon yetirdi.

Fir’avn dedi: “Bani Isroil konin
Quvdiring, turmasin, yaxshi-yomonin.

Yaylovga ketsinlar o‘lka tamomi”,
Shundoq deb, alarga farmon yetirdi.

Erkakni xotindan judo qildilar,
Bani Isroilga jafo qildilar,
Haqni degan so‘zni qaro qildilar,
Ko‘r, nechuk taqdiri subhon yetirdi.

Imron degan kimsa Fir’avnga mahram,
Qilib erdi Fir’avn ani mukarram,
Xizmatida kecha-kunduz damo-dam,
So‘zlar aytib, uyqu alvon yetirdi.

Imronning xotini uyda nogahon,
Qayg‘usiz yotardi mast-u xiromon,
Yodiga kelmishdir ul damda Imron,
Ko‘ngliga ishq o‘tin chandon yetirdi.

Joyidan ul damda sakradi-turdi,
Fir’avn ko‘shkiga o‘zini urdi.
Ko‘zin tikib, nogoh ul ko‘shkni ko‘rdi,
Osmonga boqibon nolon yetirdi.

Ko‘shki baland, uchi-qirog‘i yo‘qdir,
Ustiga chiqarga hech joyi yo‘qdir,
Ne iloj aylasin, farmoni yo‘qdir,
Ko‘kka ko‘zini tikib, giryon yetirdi.

Nogahon Azroil yetishdi anda,
Qo‘lin tutib dedi: “Bo‘lma armonda”,
Shu soatda ko‘shkka chiqdi omonda,
O‘zini Imronga ravon yetirdi.

Imronning nazari xotinga tushdi,
Barmog‘ini tishlab, dedi: “Ne ishdi?”
Dedi “Sening ishqing jonimni oldi”,
Noz-u karashmali xandon yetirdi.

Fir’avnga xodimlik qilardi Imron,
Uxlatib, qo‘l-oyoq jamladi omon,

Dedi: “Nichuk qilay lablari xandon”,
Shul zamon Jabroil ayon yetirdi.

Jabroil der: “Imron, munda turayin,
Sening xizmatingni o‘zim qilayin,
Sen ishing qil, so‘rma aning xabarin,
Haq sening dardingga darmon yetirdi.

Xodim bo‘ldi Jabroil, ul ishni qildi,
Taqdiri haq bilan bo‘yinda qoldi,
Andin so‘ng ul xotin uyiga keldi,
Sadaf ichra durri g‘alton yetirdi.

Kecha yotib, kunduz yorug‘lik tutdi,
Shavkat bila oftob-jahon yorutdi,
Fir’avn barcha qur’adozin chorlatdi,
“Qur’a soling!” debon farmon yetirdi.

Qur’a solib, munajjimlar dedilar:
“Sadafga tushibdir ul zarri gavhar,
“Fol ichra ko‘rinar, so‘yla, ne xabar?”
Fir’avnning bag‘riga biryon yetirdi.

Shul kundan to‘qqiz oy hisob oldilar,
Yukli xotinlarni xatga soldilar,
Bechoralar yomon holga qoldilar,
Alarning umriga talon yetirdi.

Har xotin izida gar ikki mirshab,
Izlab, ko‘zlab yurur erdi ro‘z-u shab,
Qiz tug‘salar qo‘yar edi mirg‘azab,
O‘g‘ilni o‘ldirib, fig‘on yetirdi.

To‘qqiz oy ichinda necha ming o‘g‘lon,
Etdi xuni nohaq Fir’avn-u Hamon,
O‘ldirib, dardiga topmaydi darmon,
Ellariga shundoq armon yetirdi.

Imronning xotini ko‘p bo‘lib ma’lul,
Aning izinda ikki yasovul,

O‘ldirsa kerakdir gar tug‘sa o‘g‘ul,
Anga bu dunyoni zindon yetirdi.

Nogohon ul xotin tandirga bordi,
Nimadir tutib, aning ko‘zi qorardi,
Yasovullar anga ko‘p qarab turdi,
Anga bir xurshidi tobon yetirdi.

Ko‘rdi zaif, bir nozanin o‘g‘londir,
Hur-u parizoddan balki chandondir,
Yuzin ko‘rgan kishi anga qurbondir,
Barchaning dardiga darmon yetirdi.

Onasi yuziga qaradi-qoldi,
Ilojin bilmadi, tandirga soldi,
Sarko‘shini qo‘yub, farog‘at oldi,
Yasovullar o‘zin elan yetirdi.

Bordilar, o‘g‘londan asar ko‘rinmas,
Qondan boshqa hech bir narsa bilinmas,
“Qon, — dedilar, — o‘g‘il emas, qiz emas,
Bundoq deb, fir’avnga ayon yetirdi.

Alar ketdi, tandir sarpo‘shin oldi,
O‘t o‘ynab o‘tirar, o‘g‘lonni ko‘rdi,
Jon hovulda olib qo‘yniga soldi,
Shakarlab og‘zini bo‘ston yetirdi.

Nogahon shu zamon Imron yetishdi,
Musoga Isoning chun, ko‘zi tushdi,
Ani ko‘rib, ko‘ngli o‘tdek tutashdi.
A’zosiga alvon-larzon yetirdi.

Dedi Imron xotiniga o‘shal hol,
Buni yo‘q etmasang o‘larmiz, ayol,
Bu o‘g‘londan kelar boshimga zavol,
Mundoq deb, ko‘ziga giryon yetirdi.

Xotin dedi: “Imron, xavotir etma,
Bu bir o‘g‘lon erur, ko‘ngil sovutma,

Omon bo‘lsa, yomonlikni yod etma,
Yuzlari gul, qoshi kamon yetirdi.

Yaxshi ko‘rib, Imron qo‘liga oldi,
Haq anga muhabbat nurini soldi,
Qaytib yana Imron Fir’avnga bordi,
Ko‘ngliga bu sirni pinhon yetirdi.

Musoning onasi qayg‘u yeganin,
Yig‘ladi: “Bu sirni kimga deganin,
Qayda saqlab, qay makonda qo‘yayin”,
Ul dam Jabroilni yazdon yetirdi.

Jabroil dedikim, “Yig‘lama, mazlum,
Bir sandiq et, atrofini qilib mum,
Musoni qo‘y shunda, bo‘lmasin ma’lum”,
Davlat saodatli arkon yetirdi.

Mundoq debon g‘oyib bo‘ldi Jabroil,
Tesha, buchg‘i olib keldilar dalil,
Anga bir sandiqni yasadi zalil,
Go‘yoki bir taxtiravon yetirdi.

Sandiqqa soldilar Muso rasulni,
O‘n to‘rt kunlik barno o‘g‘ulni,
Onasi qaradi sog‘ bilan so‘lni,
Nola qilib, oh-u afg‘on yetirdi.

Sandiqni soldilar daryoga shamshod,
Onasi zor yig‘lab, ayladi faryod:
“Shum falak qo‘lindan dod ila bedod,
Oxir menga xonavayron yetirdi.

Jonim ichra sarvinozim, omon bo‘l,
Shunqorim, lochinim, bozim, omon bo‘l,
Aql-hushim, sarfarozim, omon bo‘l,
Menga bir kulbai ahzon yetirdi.

O‘shal dam mavj urib ul xunxor daryo,
Oqizdi sandiqni aylab mujallo,

Onasi yig‘ladi, debon: “Vovaylo!”
Qizi sari boqib, zabon yetirdi.

Bir qizi bor edi Musodan avval,
Oti Maryam edi, paridan afzal,
Bor ukang izidan, qilmagil xayol,
Maryam o‘zin anda javlon yetirdi.

Maryam zor yig‘layub ravona bo‘ldi,
Ukasi keynidan devona bo‘ldi,
Go‘yoki may ichib, mastona bo‘ldi,
“Voy ukam!” deb, oh-u afg‘on yetirdi.

Daryoyi Nil ikki bo‘lak oqardi,
Biri ko‘shki-ayvon sari borardi,
Maryam yig‘lab, ikki yonga qarardi,
Sandiqni Haq ko‘shki ayvon yetirdi.

Ko‘shk tagiga borib aylandi-turdi,
Fir’avn xonim birla ko‘shk ichra erdi,
Daryodan bir sandiq kelardi, ko‘rdi,
Xonimga Fir’avnni Hamon yetirdi.

“Har ne sandiq ichra bo‘lsa, ofarin,
Senga baxsh ayladim ani oxirin!”
Sandiqni oldilar, ochdilar, ichin
Ko‘rdilar, hursifat o‘g‘lon yetirdi.

Fir’avnning xotini Osiyo ko‘rdi,
“Yo Fir’avn, bu mening o‘g‘lonim!” dedi,
Ikkovi olibon Musoni ko‘rdi,
Ko‘r, nechuk hikmatni Subhon yetirdi.

Yo‘q edi zotida Fir’avnning o‘g‘li,
Osiyo yig‘ladi yuragi dog‘li,
Bir doya keltirib sutli-yarog‘li,
Yugurishib, doyalar chandon yetirdi.

Doyalar sut berdi Musoga ul dam,
Emmadi hech birin Muso mukarram,

U yerda bor edi opasi Maryam,
Maryam Osiyoga pinhon yetirdi.

Dedi: "Bir enam bor, suti faravon,
Shakar, boldan shirin edi bir o'g'lon",
Osiyo eshitib xabarni shodon
"Keltiring ani!" deb, unvon yetirdi.

Borib keltirdilar Muso onasin,
Onaga berdilar ul jon bolasin,
Quchog'iga qisib ul dilrabosin,
Emchagin og'ziga dahon yetirdi.

Sutni ko'kragidan ravo ayladi,
Muso, emib, Haqqa sano ayladi,
Yuz-ko'ziga jonin fido ayladi,
Haq aning bolasin omon yetirdi.

Fir'avn onasiga topshirdi o'g'lon,
Ona-o'g'il bo'ldi shod-u xiromon,
Mol-u dunyo berib Fir'avn farovon,
Aning haft pushtiga tarxon ayladi.


"Doya, bunga yaxshi xizmat qilgaysan,
Har bir necha kundan olib kelgaysan.
Murodingcha mendan dunyo olgaysan",
Mundoq deb, dardiga darmon yetirdi.


Doya ani olib uyiga keldi,
Aning sababidan dunyo taraldi,
Musoning nuridan jahon nur oldi,
Aning mo'jizotin alvon yetirdi.

Xudo dargohida payg'ambar bo'ldi,
Mo'jiza ko'rsatib, jahondor bo'ldi,
Oxirda Fir'avnni sarnigun qildi,
Ham toj-u taxtiga vayron yetirdi.

Kim yaxshidir — oxir yetar muroda,
Yomon ishdan yomon qolur uyata,
Andalib, Haq umring qilsin ziyoda,
Mo'minlarga behisht-rizvon yetirdi.

MO‘LLAMUROD XORAZMIY





BIR-IKKI OG'IZ SO'Z

Yangi adabiy siymolarning ma'lum va mashhur bo'lishi, tabiiyki, ular yozgan asarlarga taalluqli. Zero, bugunga qadar kitob sarlavhasida turgan Mo'llamurod Xorazmiyning ism-shariflari o'zbek o'quvchisiga noma'lum edi. Bu shoirning turkman adabiy muhitiga ham yaxshi tanish emas edi. Tarixda yashab o'tgan tabarruk shaxslarning asarlarini nodir adabiy fondlardan izlab topish, tabdil va tadqiq qilish uzoq muddatlik mehnat va mashaqqatli ishdir. Ashxoboda bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy anjumanda Mo'llamurod Xorazmiy ijodi tadqiqotchisi, dostonlari qo'lyozmalarini sinchikab o'rgangan va shu asosda dissertatsiya himoya qilgan iste'dodli adabiyotshunos Araznapas Mammatjumayev qo'limga bir kitob tutqazdi. O'qib ko'rdim. Dostonlar. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi motivida yozilgan ishqiy-sarguzasht ikki doston. Avval so'ngso'zini o'qidim; so'ngra asta-asta dostonlarni o'zbek tiliga o'girdim. To'g'risi, Xorazm adabiy muhitiga yaqinligi sezilgan shoir Mo'llamurod dostonlarida favqulodda notanish so'z va iboralar uchragani yo'q. Arab, fors tiliga oid ayrim so'z va birikmalar zaruratga ko'ra hoshiyada izohlab o'tildi. Ba'zi o'rinlarda ritm va qofiya talabiga ko'ra asliyatga yaqinlik saqlandi.

Mohiyat e'tiboridan o'quvchilarni to'g'rilik, mardlik, sadoqat, vatanparvarlik, do'stlik kabi qator insoniy fazilatlarga chorlab turadigan ushbu dostonlar o'zbek kitobxonlarining qalbidan joy olishiga ishondim. Qolaversa, turkiy xalqlar adabiyoti, xususan, o'zbek folkloridagi xuddi shunday syujet asosida yozilgan xalq dostonlari bilan qiyosiy o'rganishda mazkur adabiy manba qo'l kelishi mumkin. Tarixan bir ulkan shajaraga borib ulanadigan ikki millat orasidagi o'zaro adabiy aloqalarning shunday asarlarning

tarjimasi orqali bugungi kunda yanada kuchayishi tabiiy. To‘g‘risi, har ikki doston voqealari, obrazlari, tili, syujet qurilishi kabi qator nazariy unsurlari yuzasidan bundan ko‘ra ko‘proq so‘zlashim mumkin edi. Ammo ushbu dostonlar kitobi oxirida filologiya fanlari nomzodi A. Araznapas Mammatjumayevning kengqamrovli so‘ngso‘zi berilgani uchun so‘zni muxtasar qildim.

Bahodir Karimov,
filologiya fanlari doktori, professor

DOSTONLAR

DILOVAR VA GULASROR

(doston)

Ammo roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, Rum shahrida qan chadan qancha podshohlar o‘tdi. Ulardan birining ismi Qaysari Rum bo‘lib, Malik Iskandar uning bobosi edi.

Ammo-lekin Qaysar shunday ulug‘ podshoh ediki, yetmish qurandozi, sakson tojdor sarakardasi bor edi. Har sarkardasining bir lak lashkari va ikki ming uch yuz pahlavoni bor edi.

Podshohning yoshi yetmishga yetgan, mol-u dunyo, zeb-u ziynatining aslo nihoyasi yo‘q edi. Ayol-u kanizaklari va qullari bisyor edi. Biroq podshoh befarzand edi. Kunlardan bir kun befarzandlik dog‘i ko‘ngliga kelib, lashkar jamlab, ov-shikorga chiqdi. Bir necha kunlar shikorda yurdilar. Bir necha kun yo‘l yurib, bir sarchashma-buloqning bo‘yiga tushdilar. Shu yerda qo‘nim topib, chodirlar qurdirdi. Podshoh vazirlariga maslahat qilib dediki:

—Ey vaziri a’zam, xaloyiqqa aytgil. Har kim har tarafga ovga borishsin. Ovlariga tushgan narsani tiriklayin olib kelishsin. Men Alloh taoloning ajoyib va g‘aroyib ishlarini tomosho qilmoq istayman, — dedi.

Darvoqe, u vazirning ismini Haqoni Azim der edilar. Dono vazir — Haqoni Azim podshoh amrini darhol bajon-u dil qabul qilib, xaloyiqqa amrini yetkazdi. Shunga binoan odamlar turli tomonga ravona bo‘lishdi. O‘zi ham lashkari bilan ov qilishga kirishib ketdi.

Banogoh bir moda kiyik-ohuni quvladi. Uni Haqoni vazir qush va tozi bilan tutib, podshoh huzuriga keltirdi. Podshoh kiyikni ko‘rib:

— Ey jonivor, nima sababdan bu baloga mubtalo bo‘lding, — dedi.

Alloh taolo u kiyikning tilidan muhrni ketkazdi va jonivor darrov kalimai shahodatni zikr etdi: "Ashhadu alla ilaha illalloh va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh".

So'ngra kiyik davom etdi:

— Ey podshohi olam, ey sultoni bokaram. Bilgil va ogoh bo'lgil. Ogoh va dono bo'lgil. Men Alloh taoloning dargohida nima qilishimni bilmayman. Lekin mening ikki farzandim bor edi. Ularning rizq-u ro'zi uchun o'tlab yurgan edim. Shunda bir guruh odamlar meni tutib, sizning huzuringizga olib kelishdi. Mening farzandlarim biyobonda yetim bo'lib qoldilar, — deb zor-zor va abri navbahor yig'lar edi.

Ayni damda podshohning ham ko'ngli buzilib, befarzandlik dog'i esiga tushib, Alloh taologa yolvorib bir munojot qildi:

G'azali Qaysari Rum

Xudovandim karam birla,
Rahm aylagil bu holima.
Men qoldim ming alam birla,
Rahm aylagil bu holma.

Odam birla Havo haqi,
Nuri nabiyulloh haqi,
Muhammad Mustafo haqi,
Rahm aylagil bu holima.

Arshi a'lo hurmatidan,
Yerda Muso hurmatidan,
Ko'kda Iso hurmatidan,
Rahm aylagil bu holima.

Bahaqqi anbiyoi aksar,
Bahaqqi Fotiha — rahbar,
Bahaqqi ul Ali akbar,
Rahm aylagil bu holima.

Bahurmati zoting uchun,
Ham sakkiz sifating uchun,
Yana ming bir oting uchun,
Rahm aylagil bu holima.

Eshit mening bu nolishim,
Qonga do'ndi ko'zda yoshim,
Qayg'u g'amdan qutqar boshim,
Rahm aylagil bu holima.

Qaysar aytar yondi jonim,
Tanimdan qolmadi holim,
Menga o'g'il ber Alohim,
Rahm aylagil bu holima.

Alqissa, Qaysar podshoh bu munojotni aytib, ul kiyik-ohuni ozod qilib, ko'nglini ovladi. So'ngra podshoh ko'ngli alamda, joni sitamda, ming qayg'u-g'amda bo'lib, lashkarini saranjom etib, yana Rum shahriga qarab ravona bo'ldi. Bir necha kunlar yo'l yurib viloyatlariga yetib bordi. Odamlar o'z o'rinlariga yetib joylashdi.

Ammo Qaysar podshohning bir zaifasi bor edi. U Hindiston podshosining qizi bo'lib, ismini Qamaroy der edilar. Ziyoda sohibjamol, husn-u latofatda uning tengi yo'q edi. Qaysar podshoh ul nozaninning oldiga borib, zor-zor yig'lab ushbu baytlarni aytdi:

G'azali Qaysari Rum

Xudoyo bu shirin jonni naylayin,
Kecha-kunduz hech qarorim bo'lmasa.
Taxt-u tojni, xonu-monni naylayin,
Bu dunyoda sababkorim bo'lmasa.

Qamar jonim, men yig'lamay naylayin,
Boshimdan o'tganin bayon aylayin.
Taxt ustiga ne yuz birla minayin,
El ichida nomus-orim bo'lmasa.

Men kezarman qayg'u bilan kulfatda,
Jonim jafo ichra, tanim mehnatda,
To o'lguncha ado bo'lmas hasratda,
Ajal yetib paymonamiz to'lmasa.

Zarra ko'nglim bermam foniy dunyoga,
Kecha-kunduz yig'lab Qodir Xudoga,
Qo'ltig'imdan suyab, boshim tutishga,
Yiqilganda madodkorim bo'lmasa.

Bechora Qaysarga ne etmish falak,
Xijr o'tiga yoqib, o'rtamish firoq,
Bosh olib bir yonga ketgan yaxshiroq,
O'g'il otli g'amg'usoring bo'lmasa.

Alqissa, podshoh shu g'azalni aytdi. Mohtal'at va hursifat Qamaroy bechora jahonni nuriga to'ldirib, ko'zlaridan misli Jayhun, har tarafga yosh oqtirib, betoqat va beorom bo'lib, podshohga ko'ngil berib, shunday javob aytdi:

G'azali Qamaroy

Qurboning bo'layin, gul yuzli shohim,
Bu dunyo hech kimga vafodor bo'lmas.
Ne maqsading bo'lsa, bersin Xudoyim,
O'zi rahm etmasa ko'ngil shod bo'lmas.

O'g'ilsizlar tortar o'g'il zahmatin,
Qizsiz odam tortar qizning mehnatin,
Sabr ayla, ko'rarsan, Egam qudratin,
Buning uchun kishi beqaror bo'lmas.

Bir siqim tuproqdan bino bo'libsen,
Hijr o'tiga yonib, ado bo'libsen,
Sulton eding, yana gado bo'libsen,
Podshohning ishi muncha zor bo'lmas.

Muruvvat qil gadolarning haqiga,
Rum shahriga borib, mingil taxtinga,
Gul ochilar bulbullarning baxtiga,
Bulbul gulning tegrasida xor bo'lmas.

Qamar aytar, ado bo'lmas bu dog'im,
G'am yeli quritdi solgan chorbog'im,
Oh urib, so'ndirma yongan chirog'im,
Haqning rizosidir, senga or bo'lmas.

Alqissa, Qamaroy bechora shu baytlarni o'qidi. Shunda podshohninig ko'ngli tasalli topib, yuz ming fikr-andisha qildi. Hech biri ma'qul kelmadi. Oxiri boshqa bir fikrni ixtiyor etib, o'z o'rniga Haqonul Azim degan vazirni podshoh qilib, bir chapog'on tuyaga ozuqalar yuklab, Xonai Ka'ba tarafga ravona bo'ldi. Bir necha kunlar yo'l yurib, Xonai Ka'baga borib, ozuqalarini bechoralarga xayr-ehson qildi. Shunda barcha hojilar tegrasini aylanib der edilarki:

— Ey podshohi olam, ey sultoni bokaram, sizning nima talabingiz bor, muncha zor-zor yig'laysiz?

Shunda Qaysar podshoh hojilarga qarab, ko'nglidagi maqsadini bayon etib, bir so'z dedi:

G'azali Qaysari Rum

Sadag'ang bo'layin bugun hojilar,
Ko'ngil maqsadimni tilab yig'larmen.
Yuragim quvvati, ko'ngil madorim,
"Dardga darmonimni ber"
deb yig'larmen.

Qarorim yo'q, toqatim yo'q bu tanda,
Shirin jonim bo'lsin sizlarga banda.
Ajal yetib, umrim oxir bo'lganda,
"Menga iymon ato qil",
deb yig'larmen.

Din yo'lida yurib, boshin berganlar,
Kecha-kunduz Haqqa toqat qilganlar,
Bu jamoat — Ka'ba ichra turganlar,
"Menga bir nazaring sol" deb yig'larmen.

Xudo mening faryodimga yetmasa,
Dargohida bu kun orzum bitmasa,
Rahmin solib, murodimni bermasa,
"Bergan omonating ol" deb yig'larmen.

Otim Qaysar, Rum shahrining podshosi,
Ko'zyoshim bo'libdir Jayhun daryosi,
Yetmish yildir men o'g'ilning gadosi,
"Menga o'g'il otli qil" deb yig'larman.

Alqissa, podshoh munojot qilib yig'lar edi. Shunda barcha hojilar va xodimlar podshoh haqiga duo qildilar. Shundan so'ng har kim o'z joyida qaror topdilar, ammo podshoh tanho qoldi. Bir pas turib, Ka'baning mehrobiga borib, kechaning ichida ridosini ustiga tashlab, zor-zor chun abri-navbahor yig'lab, Allohga yolvorib, bir munojot aytdi:

G'azali Qaysari Rum

Xudoyo sen qabul etgil,
Mening bu oh-u zorimni.
Yiqildim men, qo'lim tutgil,
Yetir fasli bahorimni.

Eshit mening orzu holim,
Dam olishga yo'q majolim,
Safil qoldi barcha molim,
Zoya qilma ko'zyoshimni.

Bu dunyoda davron etsam,
Ko'ngil maqsadimga yetsam,

Jonim ichra nihon etsam,
Shu izzatli mehmonimni.

Bu mehnatni ro'yo ayla,
G'amdin ko'nglim safo ayla,
Yuzim tutsam, ato ayla,
Qo'ldan ketgan davronimni.

Menga bir mujda ko'rsatgil,
Qudrating birla yetkazgil,
Quruq jismimga kirgizgil,
Bu kun ruhi ravonimni.

Bechoramen, yo'qdir kishim,
Hijron erur yoz-u qishim,
Bu dunyoda ko'ngil xushim,
Bergil ko'ngil xushgohimni.

Qaysar erur, mening otim,
Senga budir aytar dodim,
Mena o'g'il ber Allohim,
Ikki dunyo murodimni.

Alqissa, Qaysr shoh shu munojotni aytib, boshini sajdaga qo'ydi; farog'at topib, ko'zi ilindi. Shunda bir tush ko'rdi. Tushida Hazrati Ali karramallohu vajhahu kelib, bir olma berib:

— Ey Qaysari Rum, Alloh taolo sening nolishingni qabul qildi. Turgil, bu olmani olgil, Qamaroy zaifang bilan yegil. Alloh taolo senga bir o'g'il berar va yana u sendan necha ayyomlar judo bo'ladi va yana bir necha muddatdan so'ng seni topadi, — degan so'zlarini tugatar-tugatmas, podshoh tiskinib uyg'ondi. Ko'rdikim, qo'lida bir olma-musaffo, hidi olamga barq uradi. Qaysar shoh tezda turib, chapog'on tuyasiga minib, Rum shahriga qarab ravona bo'ldi. Bir necha manzil yo'l yurib, bir buloq-chashma boshiga yetdi. Ko'rsa bir chashmai musaffo ekan. Ammo Qaysarning ko'ngli buzilib, tuya ustida bu munojotni aytdi:

Munojoti Qaysari Rum

Xudovand-o meni hijron o'tiga mubtalo qilma,
Solib hijron balosiga jonimga yuz jafo qilma.

Ko'zim yoshini sarf aylab, tuzatsam bir imoratni,
Harob aylab bu mulkimni, ki juguzdek oshno qilma.

O'zing shoh aylading amring bilan bu ko'hna dunyoda,
Yiqib bu taxt-u baxtimni, eshiklarda gado qilma.

Meningdek zor-u sargardon bu olam elida yo'qdir,
Yana dard ustiga dard orttiribon benavo qilma.

Boshimga yog'dirib toshlar falakdan,
ey Xudovand-o,
Meni — bechora Qaysarni qaddim bukib,
duto aylam.

Alqissa, Qaysar shoh so'zini tamom qilib, shikasta hol bo'lib jo'nayberdi. Yana bir necha muddat yo'l yurib, Rum shahriga doxil bo'ldi. Haram saroyga kirdi. Ko'rsakim, bechora Qamaroy zaifasi o'z holiga yig'lab, Alloh taologa munojot qilib, shu baytlarni aytdi:

G'azali Qamaroy

Chidolmadim hijr o'tiga, Xudoyim
Shirin jonim o'tga yondi, naylayin.
Bu dunyoda yetdi menga g'am doim,
Azalda qismatim bo'ldi, naylayin.

Qudratidan bizga karam kelmasa,
Ko'zdan oqqan qonga rahmin solmasa,
Podshoh birla mendan zuryod qolmasa,
Toj-u taxtim safil qoldi, naylayin.

Falak rivoj bermas mening ishimga,
Zahar soli bu kun ichar oshimga,
Ikki ko'zdan oqqan qonli yoshimga,
Mag'ribdan Mashriqqa to'ldi, naylayin.

Quloq solmas Egam arzi holimga,
Chidolmadim hasrat ila dog'imga,
Novnihollar tar ochilgan bog'imga,
Qora zog'lar kelib qo'ndi, naylayin.

Sen yetmasang mening arz-u dodimga,
Bir o'g'il bermasang ko'ngil shodimga,
Podshoh bilan mening shirin jonimga,
Jahonning azobin soldi, naylayin.

Kimga dodin aytar bechora Qamar,
Ketar qo'ldan durrus, yoqut-u gavhar,
Ko'nglim sulton erur, tanim bir shahar,
G'am lashkari kelib oldi, naylayin.

Alqissa, Qamaroy bechora bo'lib, bu munojotni aytdi. Uni Qaysar eshitib, betoqat va beorom bo'lib, kissasidan olmani chiqarib, ikkiga bo'lib, yarmini Qamaroyga berdi va yarmini o'zi yedi. Shunda Qamaroy so'radi:

— Bu olmani qaydan oldingiz?

Qaysar shoh ko'rgan tushini Qamaroyga bir-bir bayon etib, bir so'z dedi:

Meningdek kishiki, zor-u parishon bo'lmasin hargiz,
Yolg'onchi foniy dunyoda sargardon bo'lmasin hargiz.

Odamdan vujudga keldim, vujud daryosiga kirdim,
Sharobi hijrdan ichdim, paymonam to'lmasin hargiz.

Xudo qildi meni zori, ko'zim yo'lda intizori,
Hech birovning oxir kori, meningdek bo'lmasin hargiz.

Yotib erdim ko'rdim ahvol, Hazrat Ali keldi darhol,
Bir olma berdilar filhol, shaytoni bo'lmasin hargiz.

Qaysar tushi rahmoniydir, Yaratganning farmonidir,
Oxir umrim davronidir, yolg'onchi bo'lmasin hargiz.

Shu so'zdan so'ng podshoh bilan Qamaroy ikkisi qo'shilib, xushvaqt va hurram bo'lib, aysh-u ishratga mashg'ul bo'ldi. Ammo uch kundan so'ngra Qaysar taxtiga chiqib, adolat bilan hukm yurgizdi.

Alqissa, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat o'tgandan keyin Alloh taolo o'z lutfi karami bilan podshohi Qaysari Rumga bir o'g'il berdikim, u jahon taxtiga loyiq edi. Husni jahon hijriga yetar edi. Podshoh xushvaqt va hurram bo'lib, qirq kech-kunduz xaloyiqqa to'y-tomosha berdi.

Shundan so'ngra odamlar jamlanib, shahzodaga ism qo'yadigan bo'lishi va aytdilarki:

— Ey podshohi sarvar va sultoni bokaram, o'g'lingizga ism qo'ysangiz, uning ismi shahzoda Dilovar bo'lsin.

Podshoh bu taklifni qabul qilib, vaqti xush bo'lib, ko'pdan ko'p mol-dunyo va oltin-kumushlardan in'om berib, odamlarni siyladi. Keyin podshoh taxtiga chiqib, Alloh taologa shukur qilib, odamlarga qarab bir so'z aytdi:

G'azali Qaysari Rum

Ajab hikmat aytay, xaloyiq sizga,
Xudoyim mushkulim oson ayladi.
Rahmin solib, berdi bir o'g'il bizga,
Yetmish yillik umrim shodmon ayladi.

Tushda ko'rdim: Hazarti Ali keldilar,
Bir olma chiqarib menga berdilar,
Taqsim qilib, uni yegil dedilar,
Magar unga Xudo farmon ayladi.

Egam bizga oson qildi dog'larni,
Muyassar ayladi yaxshi chog'larni,
Hazon urib, qurib ketgan bog'larni,
Qayta boshdan yana gulzor ayladi.

Yotgan edim bir tush ko'rib uyg'ondim,
Bu ko'rgan tushimdan o'zim quvondim,
Shukr ayladim, dargohiga suyandim,
Rum shohini toza sulton ayladi.

Bechora qullarni ayladi xursand,
O'g'ildir rishtai jonimga payvand,
Egam bizga qilib inoyat farzand,
Mushkulim hal qilib oson ayladi.

Shoh Qaysarning yetdi Haqqa nolishi,
Hijr ila o'tkazadi yoz bilan qish(n)i,
Endi qo'ndi boshga davlatning qushi,
Yaqub,
Yusuf joyin Ka'non ayladi.

Alqissa, Qaysar shoh bu so'zdan so'ng adolat bilan xotirjam hukmronlikda davom etdi. Oradan yetti yil o'tdi. Shahzoda yetti yoshga kirib, butun olamni nurga to'ldirganda yuzining nuridan oftob rashk qilar edi. Podshoh yana qirq kecha-kunduz to'y berib, bir necha tengqur bolalar bilan birga shahzodani o'qish uchun maktabga olib borishdi. Shundan keyin podshoh yana adolatga mashg'ul bo'ldi.

Oradan yana yetti yil o'tdi. Shahzoda o'n to'rt yoshga kirganida ilmi hol va ilmi qol tahsilini tugatdi.

Bir kun otasiga arz qilib:

— Ey otajon, men ilmi holni, ilmi qolni tamom etdim.Endi ko'nglim shikor— ov tusaydi. Siz menga ijozat bersangiz, shikorga borsam, — deb otasidan izn so'radi. Otasi shahzodaning savoliga javob berdi.

Shahzoda ham bir so'z aytdi:

Shahzoda Dilovar savoli:

— Ko'nglimga tushibdir ishqning havasi,
Ijozat bersangiz, qilsam tomosha.
Har tarafdan oqar rahmat daryosi,
Uni ko'rib ko'nglim bo'lar huvaydo.

Shoh Qaysari Rumning javobi

— Madadkoring bo'lsin yaratgan Jabbor,
Tezda borgin, meni qo'yma bu zora.
Kechaga qolib meni qilma intizor,
Ko'z yoshim qo'shilar bahri xunhor(g)a.

— Yo'qdan bu olamda paydo bo'libmen,
Hisob etsam, o'n to'rt yoshga to'libman,
Bihamdilloh, ilmni tamom etibmen,
Xudo qabul qilsa, ro'zi jazoda.

-Ka'ba ichra yotib, ko'p nola qildim,
Tushimda Hazrati Alini ko'rdim,
Yana bir so'z men ulardan eshitdim,
Undan ko'nglim gumon etar bir pora.

— Hech gumon etmangiz yaxshi — yomon(g)a,
Asr ila shom bo'lsin bizga nishona,
Magar ajal yetib, to'lsa paymona,
Har na qilsa qilar qudratli Xudo.

— Peshin kelib mening bu holim so'rab,
Tez kelmasang qolgum intizor bo'lib,
To o'lguncha xizmatingda o'tirib,
Mus'hafiy husninga qilsam nazzora.

— Shikor etib kelsam, dashti biyobon,
Bor emish cho'llarda ham yaxshi yomon,

Inshaalloh, peshin bo'lsa men omon,
Tez kelib ko'rarman sizni marhabo.

— Men bir osiy qulman, ko'pdir gunohim,
Rasulullоh bo'lsin shafoatxohim,
Topshirmisham senga qodir Allohim,
Furqatingda qilma meni bechora.

— Dilovar der, arzi holin bu fursat,
Yaratgan Allohdan istaydir himmat,
Muhammad Mustafo qilsa shafoat,
Kimga vafo qildi bu ko'hna dunyo.

— Qaysarning ko'nglida murodi sen-sen,
Kecha-kunduz aysh-u nishoti[1] sen-sen,
Ikki dunyo ichra hayoti sen-sen,
Ey tabibim, davo aylang bemor(g)a.

Alqissa, bu so'zdan so'ng Qaysar shoh bir necha akobirlariga o'g'lini qo'shib va Haqoni Azimni bosh qilib shikorga yubordi. Ular bir necha manzil yo'l yurib, bir sarchashma-buloq boshiga yetishdilar. U yerda shahzoda otdan tushib, bir muddat orom oldi. Shunda g'aflat olib, shahzodaning ko'zi uyquga ketdi. Shahzoda uyqusida tush ko'rdi. Tushida bir parizod yuz ming noz va necha alvon aysh bilan jahonni nurga to'ldirib, yuzining jilosidan oftob rashk etar edi. U parizod shahzodaning oldiga kelib salom berdi. Bundan shahzoda Dilovar beixtiyor bo'lib, o'rnidan turib, qo'llarini parizodning bo'yniga tashlab:

— Ey nozanin dilbar, qaysi bog'ning gulisiz, qaysi gulshanda parvoz qilib va qaysi chamanga qo'narsiz?! Otingiz kimdir va kimning qizisiz?! Makon-manzilingiz qayerda? — dedi.

Shunda u parizod:

— Ey shahzoda, otimni so'rasangiz, malika Gulasror pari derlar meni.

---

[1] **Nishot(nashot)** — suyunish, shodlanish.

Makonim qal'ai Zarnigor erur. Men barcha dev-parilarning podshosining qizi bo'laman. Yetti yil bo'ldiki, men sening otashi-ishqingda kuyarman. Va lekin hanuz tanim kul bo'lganicha yo'q. Agar men kerak bo'lsam, tezroq qal'ai Zarnigorga borgin, — deb ko'z oldidan g'oyib bo'ldi.

Shahzoda Dilovar bir oh urdikim, o'zining ohidan o'zi uyg'ondi. Ko'rsa butun odamlar atrofida hozir bo'lib turibdi. Hayron qolib, sarosimaga tushdi va to'rt tarafiga nazar soldi; Gulasror parini ko'rmadi. Oxir uning ishqida fig'on-u nolalar chekib, ako-birlariga qarab, ko'rgan tushini vazirga bir-bir bayon qilib, shunday baytlar aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Ey yoronlar, musulmonlar, naylayin,
Bu dunyoda e'tiborim yo'q mening.
Ko'rgan ahvolimni bayon aylayin,
Pinhon etar nomus-orim yo'q mening.

Yotgan edim bir tush ko'rdim banago(h),
Bir pari bo'ldi oldimda paydo,
Aqlim ketib, bo'ldim Majnuni shaydo,
To ko'rmasam, hech qarorim yo'q mening.

Mashg'ul ekan ayrolikning hasrati,
O'limdan battardir qayg'i kulfati,
Bu jonimga soldi jabr-u mehnatni,
Bu sababdan hech qarorim yo'q mening.

Nechuk orom bilan qaror aylarmen,
Kecha-kunduz yig'lab, mador aylarmen
Bu shirin jonimga guzar aylarmen,
Tushda ko'rgan sevar yorim yo'q mening.

Dilovarning oh-u zori tuganmas,
Mening bu dardimni davosi bo'lmas,

Agar Luqmon kelsa ilojin bilmas,
Gulasrordek zulfi-torim yo'q mening.

Alqissa, shahzoda Dilovar so'zini tugatdi. Haqoni Azim bildikkim, shahzodaga ishqdan ofat yetibdi. "Buni ertaroq otasiga eltib topshiraylik", deganicha, shahzodani otiga mindirib, jami lashkari bilan shaharga qarab ravona bo'ldi. Namozi asr vaqti edikim, shaharga kirib, shahzodani podshohning bargohiga yuborib, o'zi ko'rinishxonaga bordi. Shu mahal podshoh taxtida, barcha amirlariga pand-nasihat qilib o'tirar edikim, banogoh ko'zi Haqoni Azim vaziriga tushdi. Haqoni Azim vazir ta'zim qilib kelib, o'z joyini egalladi. Podshoh vazirdan shahzodani so'radi. Shunda vaziri Azim bo'lgan voqealarni bir-bir bayon qildi. Ammo podshoh bu so'zlarni eshitib, beixtiyor bo'lib haramiga kirdi. Ko'rsa shahzoda bamisli o'likdek yotibdi. Rangi go'yo za'farondek sarg'ayibdi. Qaysar shoh o'g'lini bu holda ko'rib, darhol shahzodaning boshini tizasiga olib, o'g'lidan savol so'radi. O'g'li otasidan ibo qilib, javob bermas edi. Shunda shahzodaning otasi ushbu munojotni aytdi:

G'azali Qaysar shoh

Qodir Mavlom, meni yo'qdan bor etding,
O'zing eshit oh-u zorimni mening.
Ibrohimdek o't ichinda zor etding,
Rahm aylagil ko'zda yoshimga mening.

Dilovardir yuragimning quvvati,
Ko'ngil osoyishim jonim rohati,
Yolg'onchi dunyoning zeb-u ziynati,
Zahar solma ichgan oshimga mening.

Necha yilar hijr o'tida sarg'ayib,
Parvonadek o'tda kuydim men g'arib,
Sevar ko'zim — ulfatimdan ayrilib,
O'tlar solma shirin jonimga mening.

Farzand uchun kecha-kunduz yig'ladim,
Kesib-kesib qora bag'rim dog'ladim,
Endi hasrat bilan o'lar chog'larim,
Falak suvsaganmi qonimga mening?

Umidim ko'p erur Sening rahmingdan,
Kulli mahluqoting qo'rqar qahringdan,
Zabon go'yo parizodning lutfidan,
Sababkordir bu kun o'g'limga mening.

Hech kim hijron bilan seni ko'rmasin,
Ota o'g'il, ena qizdan qolmasin,
Yo avvalda Xudo ani bermasin,
Bu nechuk savdodir boshimga mening.

Qaysar aytar, Egam,
Senga sig'indim,
Falakning gardishi bilan tilindim,
Hijronning xanjari bilan tilindim,
Yetishmasang oh-u zorimga mening.

Alqissa, Qaysar shoh o'z munojotini yakunladi. So'ng shahzodaning onasi Qamaroy bechora, shikastahol bo'lib, Allohga munojot qilib, shahzodaning dardiga shifo tilab so'z aytdi:

G'azali Qamaroy

Ey Karim, zoti pokingdan,
Bu dardimga davo bormi?
Dilovar darddoshingman men,
G'aribingga davo bormi?

Men g'aribga sitam qilding,
Yuragimga alam qilding,
Ziyoda dard-u g'am qilding,
Meningdek mubtalo bormi?!

Dardim ortar kun-bakundan,
Ushbu falakning zulmidan,
O'g'il dardi furqatidan,
Bizningdek majaro bormi?!

To'y berib maqsad ko'rmagan,
Dunyoda rohat ko'rmagan,
Kecha-kunduz qon yig'lagan,
Meningdek notavon bormi?!

Haqiqat so'zim so'zlasam,
Dayr-u fanoga yuzla(n)sam,
Bir hamdard odam izlasam,
O'zimdek masuvo bormi?!

Naylayin, kuydi bu jonim,
Yurak bag'rim, ustixonim,
Ey Sultonim, mehribonim,
Kegashishga oshno bormi?!

Farzand uchun bo'ldi majnun,
Ko'zda yoshim bo'ldi Jayhun,
Qamaroy holiga bu kun,
Dilovardan davo bormi?!

Shunday deb Qamaroy yurak so'zini aytdi. Qaysar shoh Qamaroydan bu so'zni eshitib, ko'ngli alamda, joni sitamda bo'lib shahzodaga:

— Ey ko'zimning nuri, yuragim quvvati, jonimning rohati sen. Ko'zingni ochgil, boshingdan o'tganlarini bayon qilgin. Men uning ilojini qilayin. Bunday yotish bilan Hech bir ish bitmas, — dedi.

Shunda shahzoda Dilovarning ko'nglida toqat qolmay, yotgani joyidan turib, otasining bo'ynidan osilib, ko'rgan tushini bir-bir bayon qilib, ushbu so'zni aytdi:

G‘azali shahzoda Dilovar

Quloq soling, ka’bam otam,
Bu so‘z sizga ayon bo‘lsin.
Xudodan yetishdi bu g‘am,
Birin-birin bayon bo‘lsin.

Bir pari ko‘rdim tushimda,
Aning savdosi boshimda,
Otajon o‘n to‘rt yoshimda,
Uning bilan davron bo‘lsin.

Xudo ani qilsa hamdam,
Boshimizdan ketar bu g‘am,
Yo‘qsa ishim bo‘lar motam,
Mushkul ishlar oson bo‘lsin.

Fe’lim ozib shikor chiqdim,
Ajib manzilga yo‘liqdim,
Anda uxlab dardga qoldim,
Ul dardimga darmon bo‘lsin.

Yo‘qdir mening sevar yorim,
Tanimda qolmadi holim,
Aziz tanda shirin jonim,
Yor yo‘lida qurbon bo‘lsin.

Men bo‘lmisham anga banda,
Sabr-u qaror yo‘qdir manda,
Ul nigorim shahri — tanda,
Kelib shohi jahon bo‘lsin.

Dilovar aytar ahvolin,
Baland aylasin iqbolin,
Tavakkal aylagan qulning,
Madadkori Subhon bo‘lsin.

Alqissa, shahzoda Dilovar so‘zini tugatdi. Shunda Qaysar shoh:

— Ey ko‘zimning nuri, bolam, sen bu savdodan qaytgil. Yetti iqlim mohiro‘y qizlarini oldingdan bir-bir o‘tkazayin, qaysi birini ko‘ngling xohlasa, orzu-armoniga yetkazayin, — dedi.

Shahzoda otasining ra’yini qaytarib:

— Ey otajon, agar Alloh taolo o‘n sakkiz ming olamning husni jamolini bir qizga bersa, o‘sha qiz mening tushimda ko‘rgan yorimning hoki poyiga barobar bo‘lmas. Bu dunyoda uningdek nozanin topilmas, — deb bir g‘azal aytdi:

G‘azali shahzoda Dilovar

Ayo ka’bam, sizga bayon aylayin,
Bu dunyoda menga omon topilmas.
Aziz jonim dardga qoldi naylayin,
Mening bu dardimga darmon topilmas.

Ne jafolar yetar mening jonimga,
Davo qilmoq uchun mening sha’nimga,
Jahonning tabibi kelsa yonimga,
Sevar yorim kabi luqmon topilmas.

Barobari yo‘qdir aning jahonda,
Yer yuzinda ham yetti qat osmonda,
Misrning yurtida, Shom-u Ka’noda,
Yorim kabi shoh-u Ka’non topilmas.

Chin Mochin birla shahri Xo‘tonda,
Ul Qof tog‘i birla Arabistonda,
Makka, Madinada, Rum Ispahonda,
Mening yorim kabi sulton topilmas.

Yoshini so‘radim— to‘qqiz yoshida,
Tillo taxt ustida, jig‘a boshida,
Hur-u g‘ilmon nozanin qizlar toshinda,
Gulasrordek ko‘zi maston topilmas.

Men kezarman qayg'u birla kulfatda,
Tanim hasrat o'ti, jonim mehnatda,
Shohim, endi eshit, sakkiz jannatda,
Yorim kabi huri g'ilmon topilmas.

Dilovar der yorsiz jonni netarman,
Majnun kabi cho'lda makon tutarman,
To o'lguncha ani izlab ketarman,
Mehnat chekmay rohat oson topilmas.

Podshoh shahzodadan ushbu javobni eshitib, tashqari chiqib, vaziri akbarlarini jamlab, ko'p kengash-maslahat qildi. Oxirida hech iloj topmay, chorasiz bo'lib, bir lak lashkarni yig'ib, vaziri Haqoni Azimni lashkarlarga bosh qilib, qirq xachir zerni tayyor qilib, shahzodaga qo'shib yubormoqchi bo'ldi.

Shu vaqt bechora Qamaroy xabar topib kelib, o'g'lining bo'ynidan quchoqlab, zor-zor yig'lab bir so'z aytdi:

G'azali Qamaroy

Sadag'ang bo'layin quvvatim, bolam,
Meni zor yig'latib, qo'zim ayrilma.
Jondan ortiq ko'rgan mehribon bolam,
Ko'rar ko'zim, so'zlar so'zim, ayrilma.

Quloq solib, eshit arzim bu soat,
Taxt ustiga chiqib bo'lgil farog'at,
Mehnatim baxsh etib, bergum ijozat,
Ko'nglimning madori, qo'zim, ayrilma.

Qildi Egam, meni senga parvona,
Sen ketarsan,
kulbam bo'lar g'amxona,
Meni tashlab, ado bo'lmas hijron(g)a,
Umrimning chirog'i, shohim ayrilma.

Uydan chiqma, bo'ying kishi ko'rmasin,
Do'stim g'amgin bo'lib, dushman kulmasin,
Tar ochilgan gulni xazon urmasin,
Sarvi bo'ylim, novbahorim, ayrilma.

Bu dunyoda mening nomusim-orim,
Yuragimning quvvati, ko'ngil madorim,
Sen ketgan so'ng qolmas sabri-qarorim,
Jonim bolam, sababkorim ayrilma.

Har yetar-yetmasga siring bildirma,
Gul-g'unchadek qizil yuzing so'ldirma,
"Ketarman" deb, mening jonim kuydirma,
Sen-sen mening yo'g'u borim, ayrilma.

Qamar aytar, kecha-kunduz yig'ladim,
Kesib-kesib qora bag'rim dog'ladim,
Vo darig'o, men o'likka o'xshadim,
Meni go'rga solma, qo'zim, ayrilma.

Alqissa, Qamaroy so'zini tamomlab, o'g'liga ko'p nasihatlar qildi. Biroq shahzoda ko'nmadi. Bu gaplarni qabul etmadi. Noiloj qolgan podshoh shahzodani lashkarga qo'shib, o'zi ham o'g'lini kuzatish uchun hamroh bo'lib, yo'lga chiqdi.

Yetti kecha-kunduz yo'l yurib, bir manzilda Qaysar shoh shahzoda Dilovarga ijozat bermoqchi bo'lib, o'g'liga qarab, shunday so'z aytdi:

Munojoti Qaysari Rum

Bolam bu ko'hna dunyo, Xudo bo'lsin madadkoring,
Rasuli du olam Mustafo mudom bo'lsin madadkoring.

Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali — sheri Xudo, arslon,
Payg'ambar Yusufi Ka'non —
ular bo'lsin madadkoring.

Rasuli Hazrati Muso, masihi Hazrati Iso,
Tamomi jumla anbiyo — ular bo'lsin madadkoring.

Rijolul-g'oyibi ham, chilton, haftan, sitan, yak tan,
Pirim Sulton Vays , Polvon Ota bo'lsin madadkoring.

O'n ikki Ahmadi Hanbal, jahonni olgan Iskandar,
Qizil gumbazda u Muso Rizo bo'lsin madadkoring.

Ilohi borib kelgaysen, eyki, farzand-dilbandim,
Jahonda jumla o'tgan avliyo bo'lsin madadkoring.

Men bechora Qaysarman, bolam, sendan rizodirman,
Imomayn shahid Karbalo bo'lsin (sening) madadkoring.

Alqissa, Qaysar shoh shahzodani Xudoga topshirib, yaxshilar bilan ijozat berdi. O'zi diydai giryon[1], siynai biryon[2] bo'lib, aziz farzandidan ajralib uni kuzatdi. O'zi qaytib, Rum shahriga keldi.

Shahzoda ikki lak lashkarini saranjom qilib, Haqonul Azim bilan yo'lga tushdi. Qirq kecha-kunduz yo'l yurib, qirq birinchi kun choshgoh vaqti bo'lgan edi. Banogoh kulba tarafdan bir gard[3] paydo bo'ldi. Ko'rishsa, boshdan oyog'i hok bo'lib, gardning ichidan benihoyat ajdarho paydo bo'ldi. U lashkarga qarab, zahar socha boshladi. Uch kecha-kunduzda ikki lak lashkarni butunlay qirib tashladi. Shahzoda Dilovar ham behush bo'lib otidan yiqilib bir go'shada qoldi. Bir kecha yotib, ertasi xushiga kelib ko'rsa, bunu lashkarlari qirilib ketibdi. Hech bir odam tirik qolmabdi. Shahzoda lashkarlari uchun qancha faryodlar qilib, na'ralar tortdi. Hech odamdan sado chiqmadi. Shahzoda jami o'liklarga gasht[4] etib ko'rdi. Boshqa birorta tirik odamni topmadi. Shahzoda shu yerda Allohga munojot qilib ushbu muxammasni aytdi:

---

[1] **Diydai giryon** — yig'loqi ko'z.

[2] **Siynai biryon** — yuragi biryon.

[3] **Gard** — chang, to'zon.

[4] **Gasht** — aylanish, kezish.

Muxammasi shahzodai Dilovar

Ey Xudo, qilding meni tan birla jonimdan judo,
Hajr o'tiga kuydiribon ustixonimdan judo,
Novniholim, tar ochilgan gulistonimdan judo,
Zor-u sargardon bo'libmen do'st-u yoronimdan judo,
Bir gadomen, naylayin, shoh-u jahonimdan judo.

Naylayin, Majnun kabi bo'ldi biyobon maskanim,
Boshimda qushlar uyasi, quruq sahrodir hamdamim,
Bu falak jonim yoqib, yelga berib hokistarim,
Men bo'libmen notavon, qoldi qirilib lashkarim,
Shahri — tanda jon otli mehribonimdan judo.

Hajr o'ti birla qolib men za'farondek sargardon,
Telmirib misli gadodek taraf yo'lga borib,
Shahri Rum ichra otam-onam ikki g'arib,
Kecha-kunduz zori yig'lab, bir Xudog'a yolvorib,
Ham otam birla onamdek mehribonimdan judo.

Rahm ayla, ey Xudoyo, ko'zdan oqqan yoshimga,
Ham meni yetir salomat qavm ila qardoshimga,
Qil tarahhum, Sen O'zing, oqqan ko'zim yoshimga,
Rozidir men har jafo kelsa falakdan boshimga,
Bu Dilovar yig'laydir, solma nigorimdan judo.

Alqissa, bu muxammasni tamom qilib:"Odam mehnat ko'rmaguncha, rohatga yetishmas emish", deganicha yo'liga ravona bo'ldi. Shu holda ikki oy yurib, bir chorboqqa yetib bordi. Ko'rdiki, gullar ochilib, bulbullar chax-chax urib, sarchashmalar har tarafga oqib, mevalar pishib, ostiga tushgan bir chorbog'i musaffo ekan. Biroq hech kimsa yo'q. Shahzoda shu holda mevalardan yeb, har tarafga sayr qilib, sarhovuz labiga borib, bir shohsupa ustiga chiqib o'tirdi. Allohga shukrona aytib, kelgan yo'llari yodiga tushib, o'z — o'ziga: "Ey Allohim, ey Yaratgan Egam bu qandoq sirli manzil bo'ldi?" deb ushbu baytlarni aytdi:

G‘azali shahzoda Dilovar

Xudoyjonim, meni bunda ogoh qil,
Bu nechuk manzildir maydon ichinda.
Bir odam yo‘q xabar bersa, bu sirdan,
Bilolmadim qoldim hayron ichinda.

Dev maskanimi yoki joyi pari,
Jodu shaharidir yo joyi zanggi,
Bu sababdan bo‘ldim ajab diltanggi,
Ko‘zim yig‘lab, labim xandon ichinda.

Bulbullar sayrar gulda, chamanda,
Yana to‘tilari avji suhanda,
Ajab sarchashmalar bor bu vatanda,
Turfa joydir ko‘hna jahon ichinda.

Eram bog‘i bo‘lgay magar bu bog‘lar,
Kiyik hurram aylar, ucharlar zog‘lar,
Falak soldi menga hijronli dog‘lar,
Hasrat bilan qoldim armon ichinda.

Dilovarga Egam bo‘lsin madodkor,
Barcha ishga Xudo O‘zi sababkor,
“Ummatim” degaylar Ahmadi Muxtor,
Aylagay makonim jahon ichinda.

Shahzoda Dilovar munojotni aytgach, joyidan turib chorbog‘ni sayr etib yurar edi. To‘g‘risi, bu chorbog‘ podshohi zanggining maskani edi. Bir zanggi bog‘bon shahzodani ko‘rib, borib zanggilarning podshohiga xabar berib:

— Ey podshohi olam va sultoni bokaram, bu kun Bog‘i jahon ichinda bir yigitni ko‘rdim. Sayr qilib yuribdi, husni chiroyi olamni munavvar etadi. O‘zi ham Rustamsifat polvon ko‘rinur, — dedi.

Shunda podshohi barzanggining rangi o‘zgardi; hayron-u sarosimaga tushib, lashkariga xabar berib, ularni jamladi va darg‘azab

bo‘lib, boqqa yurish qildi. Kelib ko‘rsa, bir juvon yigit monandi Yusufsifat, polvonsifat va Rustampisand, oldiga birov bora bilmaydi, sarhovuz labida o‘tiribdi. Nogoh chorbog‘ining atrofini o‘rab olib, barzanggilarning podshohi uzoqdan shahzodadan bir necha savol so‘radi. Ammo shahzoda Dilovar darg‘azab bo‘lib, Hech bir savoliga javob bermadi. Oxiri podshohi barzanggining qahri kelib, shahzodani o‘rtaga olib, tirbo‘ronga[1] tutdilar. Shu mahal shahzoda Alloh taologa munojot qilib, bir so‘z aytar edi:

G‘azali shahzoda Dilovar

Qodir Mavlom, Sen-Sen pushti panohim,
Madad ayla bu holimga bu soat,
Yuz yigirma to‘rt ming payg‘ambar haqi,
Sevar qullaringdan bormi shafoat.

Men bir osiy qulman yo‘ldan adashgan,
Hijron o‘ti jismi jonga yopishgan,
Hech oshiq dunyoda boshiga tushgan,
Bormikan bu sifat turli alomat.

Rum shahrinda qoldi bog‘-u bo‘stonim,
Eshitganlar yig‘lar, yozar dostonim,
Otam bilan onam ul mehribonim,
Mening uchun chekdi alar malomat.

Bu lashkar kofirmi yoki musulmon,
Bizni tutmoq uchun aylaydi javlon,
Avvaldan omon ber, oxirda — iymon,
Bu kun keldi menga vahim qiyomat.

Dilovarning dilindadir sanosi,
Ochilsin ko‘nglimga rahmat daryosi,
Shirin jonim bo‘lsin yorning fidosi,
Yetkaz meni yorga sog‘-u salomat.

[1]**Tirbo‘ron** — kamon, yoy o‘qini yog‘dirish ma’nosida.

Shahzoda Dilovar dardi so'zini tugatib, Alloh taologa tavakkal qildi; na'ralar tortib, urush maydoniga yurish boshladi. Qarshisidagi dushmanni mag'lub qilmoq uchun hujum etganida, zamin-u osmon, manzil-u, makon-u larzaga kelib, olamni qora bulut-zulmat qopladi. Shu zaylda uch kecha-kunduz urushib, son-sanoqsiz kofirlarning qonini suvdek oqizdi, jonlarini do'zaxga yubordi. Ammo shahzodaning o'zi ham ko'p horib, bexush bo'lib yiqildi. Shunda zanggilar kelib, shahzodani tutib olib, bandi qildilar va eltib zindonga tashladilar. Shahzoda zindon ichida xushiga keldi. Allohga munojot etib ushbu so'zlarni aytdi:

Munojoti shahzoda Dilovar

Kesib mening murodim xalq aro jismim ado qilding,
Chun Majnun Layli deb shab to sahar qaddim duto qilding.

Ki Mansur anal haq shahri — tanda zor-u sargardon qilding,
Makoni benavolarni bu kun dorulfano qilding.

Buzibon mulki-tanni bu baqosiz ko'hna dunyoda,
Haroba xonayi g'urbatda yuziga oshno qilding.

Meni mahzun etib bu hajr yerga Xoliqi bichun,
Bu mazlum eligakim, dahr yerga muncha jafo qilding.

Falakdan yetirib boshimga savdoyi musibatni,
Bu zindon ichra bechorani g'amga mubtalo qilding.

Otam birla onam qoldi bu hijron o'tiga yonib,
Mening uchun ul ikkisin eshiklarda gado qilding.

Tarahhum qil Dilovarga O'zing fazling bilan, yo Rab,
Ne fe'limdin qarong'u joy ichinda mubtalo qilding.

Shahzoda Dilovar Allohning taqdiriga bo'yin egib va qismatiga rozi bo'lib zindon ichida olti oy yotdi. Ammo barzanggilar

podshosining bir qizi bor edi. Uning otini Malika Bonu der edilar. U qizga barzanggilarning yana bir podshosi oshiq edi. U podshoh Zarnigor shahrining hukmdori edi. O'sha podshoh: "Malika Bonuni menga bersin", deb necha martaba kishi yuboribdi. Biroq barzanggilar podshohi qizini bermabdi. Oxiri Zarnigor podshohi g'azabga minib, lashkar jamlab, uning ustiga yurish qildi. Qancha vaqtlar, necha kunlar yo'l yurib, oxiri barzanggilar ustiga yetib kelishdi. Shunda barzanggilar podshosi ham lashkar to'plab, dashtgohga chiqib, Zarnigor podshosi bilan barobar bo'lib saf tortib turdir.

Zarnigor podshosining bir polvoni bor edi. Uning otini Sulaymon xunxo'r der edilar. Uning qaddi-qomati ellik gazcha bor edi va bandi siynasi o'n yetti gaz kelar edi. Benihoyat kuchli bir karkni minib maydonga chiqdi. Maydon o'rtasiga borib, na'ra tortdikim, zamin-u zamon, manzil-u makon bir bo'lib, bir necha barzanggilarning yuragi yorilib o'ldi. Shu vaqtda barzinggilar podshosining vaziri:

— Ey podshohi olam, bu lashkar kuchlidir. Agar o'sha zindonda yotgan yigitni chiqarib olib, unga: "Xush kelding", deb yaxshi gapirib, "Har ne maqsading bo'lsa berarman" desak, shu yigit bir ish qilmasa, bizning lashkarlardan hech kimning haddi va chorasi yo'qdir, — dedi.

Taklif podshohga ma'qul keldi.

— O'sha yigitni olib kelinglar, — deb buyruq berdi.

Shahzoda Dilovarni zindondan chiqarib olib kelishdi.

Shunda podshoh darhol:

— Ey mardi yigit, agar bu kun sen maydonga chiqib, Sulaymon xunxo'rni yiqtisang, ko'nglingda qanday muroding bo'lsa bajo keltiraman, — dedi.

Shahzoda Dilovar:

— Ey podshohi berzanggi, menga yetti kun muhlat bering. Men o'zimga kelib, so'ngra u bilan urishaman, — dedi.

Barzanggining podshosi shahzoda Dilovarga yetti kun muhlat berdi. Shahzoda olti oy zindonda yotganidan keyin majolsiz edi. U yetti kun ichida o'zini parvarish qilib, avvalgiga o'xshab vujudi quvvatga to'ldi; sakkizinchi kuni urush anjomlarini tayyorlab,

yaxshi ot minib, bir shamshiri zahroludni[1] qo'liga oldi; na'ra tortib, maydonga kirdi. Yaqinroq borib Sulaymon xunxo'rga qarab bir na'ra tortdi. Narigi tarafdan Sulaymon xunxo'r ham maydonga kirdi. Shahzodaning ko'zi Sulaymon xunxo'rga tushdi. Qarshisida zo'r polvon turganini ko'rdi. Shu yerda shahzoda Dilovar tahsin va ofarin aytib, Allohdan madad so'rab, jami avliyolarni yodga olib, bir so'z aytdi:

Abyoti shahzoda Dilovar

Barchani yaratgan Qodir Xudosan,
Bu kun menga madad berar kuningdir.
Sevar do'sti payg'ambari Xudosan,
Bu kun menga madad berar kuningdir.

Hasan bilan Husayn shahid shodimon,
Dev parining dodin bergan Sulaymon,
Dargohingga keldim, yo Shohimardon,
Bu kun menga madad berar kuningdir.

Raqiblar dardidan har dam chekib oh,
Olti oy zindonda yotdim mubtalo,
Sadag'ang bo'layin Yusuf-Zulayho,
Bu kun menga madad berar kuningdir.

Haqning qullig'iga belin bog'lagan,
Hijron o'ti bilan bag'rin dog'lagan,
Ul Fotima — dargohida yig'lagan,
Bu kun menga madad berar kuningdir.

Yetti sulton, olam so'ragan sarvar,
Jabroil, Mikoil, Israfil, Mehtar!
Bu dunyoga kelgan jumla buzruklar,
Bu kun menga madad berar kuningdir.

[1] **Shamshiri zahrolud** — zaharli qilich.

Dilovar der, bu kun o'lar yerimiz,
Biz ham o'tgan oshiqlarning birimiz,
Xizir, Ilyos, Qovus, Qiyos pirimiz,
Bu kun menga madad berar kuningdir.

Shahzoda bu munojotni tamom qilgandan so'ng Sulaymon xunxo'r ham na'ra tortib, gurzisini qo'liga olib, shahzodaga qarab otti. Shahzoda otiga bir qamchi urgan edi, ot yigirma to'rt gaz sapchib ketdi.

Sulaymonning gurzisi shahzodaga tegmay, bir qora uydek toshga tegib, talqon-talqon qildi. Sulaymon xunxo'r yana gurzisini ko'tarib, shahzodaga havola qilmoqchi bo'lgan edi, shahzoda faryod tortib:

— Hay, hay, ey kofiri badkor! Sening navbating o'tdi, endi navbat bizga yetdi. Bizdan ham bir zarb ko'rgaysan, —deb shamshiri zahroludi birla andog' urdikim, Sulaymon xunxo'r minib kelgan karki bilan ikki bo'lakka bo'linib, toshga yopishdi. Buni ko'rgan kofirlar shahzodaning ustiga yopirildilar. Shahzoda na'ra tortib, tanho o'zi Zarnigorning lashkarini bir tarafga surib chiqara boshladi. Zarnigorning lashkarini tum-taraqay qochdi.

Alqissa, uch kecha-kunduz urush qilib, Zarnigorning lashkaridan birini ham tirik qo'ymay, hammasining jonini jahannamga yubordi. Shundan so'ng shahzoda sog' salomat qaytib, shaharga kirdi.

Barzanggining podshosi vaqti xo'sh bo'lib, shahzodani tillo taxt ustiga o'tqizib:

— Ey shahzoda, men taxt-u baxtimni, podsholigimni sizga berdim. Taxt sizga muborak bo'lsin, — deb podshohi barzanggi shahzodadan hol-ahvol so'rab, "Ey mardi maydon yigit, qaydan bo'larsan?" deb savol so'rab bir so'z aytdi:

Abyoti shohi barzanggi

Arz-u holing so'zla, ey barno yigit,
Ne sababdan tushding bunday yo'llarga.
Har ne maqsadingni menga bayon et,
Qurbon bo'lay, so'zla shirin tillarga.

Yor yo'lida yo oshiqi shaydo sen,
Yo yurtingda adolatli podsho sen,
Bog'i Eram ichra guli ra'no sen,
Nechuk tushding
Karbalodek cho'llarga.

Sening dining haqdir, nozanin o'g'lon,
Kalima talqin qil, bo'lay musulmon,
Agar bo'lsa ota-onang mehribon,
Seni izlab savol berar yellarga.

Bu dunyoda surgil aysh ila davron,
Egam panohida saqlasin omon,
Senga beray mol-u davlat farovon,
Tarahhum qil mendek g'amli qullarga.

Shohi barzanggining so'zi bu senga,
Javobingni bir-bir bayon et menga,
Qaysi shahar, diyor derlar yurtinga,
Inonmisham endi qolu qillarga.

Barzanggilarning shohi so'zini tamom etdi. Unda shahzoda Dilovar:

— Ey podshoh, avval sen musulmon bo'lgil. Undan so'ng men senga asil-nasabimni bayon qilamen, — dedi.

Shunda podshoh amirlariga va olimlariga bosh bo'lib, birgalikda kalimai shahodatni aytishdi. Butun navkarlari bilan hammasi "La ilaha illalloh Muhammadur rasulullo" deb, musulmon bo'ldilar.

Keyin shahzoda Dilovar barzanggilarning shohiga qarab, boshidan o'tgan kunlarni bayon etib, bir so'z dedi:

G'azali shahzoda Dilovar

Podishohim, men bugun dardimga darmon istaram,
Og'zi gul-u tishlari dur, labi xandon istaram.

Bu tamannolar bilan ko'nglimda ko'pdir dard-u g'am,
Dard-u g'am daf'iga endi chora nochor istaram.

Tushda ko'rdim gul yuzini, bulbuli bechoramen,
Bu muhabbatdin men ani choki giribon istaram.

Pardasin tashlab yuzidan, chiqsa gulshan sayriga,
"Bu nechuk xurshid" debon, aqlimni hayron istaram.

Men gadoyi ko'yi ishqam, husnaro ul podishoh,
Bir zakoti husn debon choki giribon istaram.

Dur soldi mehribonimdan meni bechorani,
Bu falakning gardishidan oh-u afg'on istaram.

Holimga rahm aylab ul, yuzdan niqobin olmasa,
To qiyomat yastanib, shabi shabiston istaram.

Bu Dilovar ishq o'tiga kuyar to mahshargacha,
Bir pari, oti Gulasror, shohi hubon istaram.

Alqissa, shahzoda Dilovar so'zini tamom qildi. Shunda podshohi barzanggi:

— Ey shahzoda Dilovar, sen podshohlikni ixtiyor etgin, men sening oldingda gadolikni ixtiyor qilarman, — dedi.

Shahzoda Dilovar esa:

— Ey podshohi olam, senga taxting muborak bo'lsin, men ketarman,— deb bir so'z aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Ey sultonim, bu dunyoga inonmasman,
Kimlarni salomat qo'ydi bu dunyo.
Yolg'onchi dunyoda bir dam turmasman,
Kimga vafo berdi, kimlarga baqo.

Qildi Egam meni avvalda bu hol,
Umrim o'tar ishq yo'lida mohi sol,
Maqsadimdir bir dildori bemisol,
To borib ko'rmasam ani marhabo.

Men ketarmen, senga taxting muborak,
Bo'lsin yana toj-u raxting muborak,
Madad qilsa menga Izid taborak,
Yetarmen maqsadga hech ko'rma jafo.

Ota-onam qoldi hajrimda yig'lab,
Ayraliq o'tiga siynasin dog'lab,
Men ketarmen sevar yorim so'roqlab,
Bosh olib, dunyodan bo'lib mosuvo.

Shohi Rum o'g'liman, Dilovar otim,
Aslim tuproq erur, bu jismi zotim,
Axtararman topilguncha hayotim,
Omonda saqlasin bir Qodir Alloh.

Shahzoda Dilovar so'zni eshitgan podshoh:

— Ey mardi maydon yigit, unday bo'lsa, lashkar darkor bo'lsa lashkar va yana qancha zar-u zevar kerak bo'lsa olgin, — dedi.

Shahzoda aytdiki:

— Ey podshohi olam va ey sultoni bokaram, siz taxtingizda badavlat bo'ling, men ketarman, — deb taxtidan tushib, podshohdan ruxsat olib, o'z yo'lga ravona bo'ldi.

Ikki oy yo'l yurib, bir shaharga yetdi. Ko'rsa ajoyib shahri musaffo ekan. Shahzoda shu shahar darvozasida o'tirib, fikr qilib, ko'nglida: "Ehtimol bu shahar yor maskanidir", deb xursand va hurram bo'lib, shukr qilib, Alloh taologa yuzlanib ushbu munojotni aytar edi:

Munojoti shahzoda Dilovar

Shukur Egam dargohingga,
Bu yerga yetirding bugun.

Inoyat aylading menga,
G'amdan xalos etding bugun.

Balolarga qoldi boshim,
Hijron bo'ldi mening ishim.
Eshitgil oh-u nolishim,
Menga rahming solding bugun.

Yuragimda bo'ldi parda,
Yo'liqdim men turli dard(g)a,
Zor ingratib turgan yerda,
Menga najot berding bugun.

Zindon ichra bandi bo'lib,
Jafo bilan rangim so'lib,
Mushkullarni oson qilib,
To'g'ri yo'lga solding bugun.

Dod etdim xijron elidan,
Ushbu falakning zulmidan,
Barzanggilarning qo'lidan,
O'zing xolos etding bugun.

Rahmating ko'pdir, Allohim!
Qahringni solma Xudoyim!
Ikki dunyoda panohim,
Sababkorim bo'lding bugun.

Dilovarda ko'pdir armon,
Gulasrordir menga darmon,
Rahm aylabon menga Sulton,
Sevar yorim bergil bugun.

Shahzoda so'zini tamom qilib, shaharni aylanib yurgan edi. Banogoh bir piri zolga uchradi. Uning oldiga borib:

— Ey piri zol momo, bu shaharning nomini nima deydilar va podshohi kimdir? — deganida, haligi kampir:

— Ey bolam, bu shaharga ne uchun kirding? Sen joningga rahming kelmadimi? Bu shaharning nomini shahri Zamon derlar. Podshohining otini malika Dilxoh derlar. Sen bu shaharda nega choshib-adashib yuribsan? Tezroq yashirin. Agar podshoh seni ko'rsa, ming pora qilib, go'shtingni itlariga yediradi. Vaqt borida pinhon bo'lgin, bolam, aks holda o'ldirarlar, — dedi.

Bu gapdan shahzodaning qahri kelib, kampirning boshiga bir musht urdi. Shunda boshi uchib yerga tushdi, kampirning joni uzildi. Keyin yana yo'lida davom etdi.

Alqissa, shahzoda asta-sekin qadam bosib, chorbog'ning darvozasiga yetib bordi. Kanizlar shahzoda Dilovarni ko'rib, borib malika Dilxohga xabar berdilar:

— Bog'ni tomosha qilib yurgan bir odam darvozaga yaqin keldi.

Malika Dilxoh xazinasiga kirib, bexush qiladigan doridan chiqarib, suvga soldi va kanizlariga berib buyurdiki:

— Darvoza qoshiga bir odam o'tqizib, yoniga ushbu bexush etadigan dori solingan piyolani qo'yinglar.

Kanizlar malikaning aytganini bajardi.

Shahzoda bog' darvozasi yoniga kelib qarasa, ajoyib bir piyola, ichida suv. U suvni pokiza deb o'ylab piyolani ichib bo'shatdi. Darrov bexush bo'lib yiqildi. Shu vaqtni g'animat bilganlar darhol shahzodani zanjirband qilib: "Buni kuchuklarga yediringlar" deb itboqarning qo'liga topshirishdi. Itboqar shahzodani olib, itlarini chaqirib, shahzodaga ishorat etib, o'zi tamoshabin bo'lib turdi.

Banogoh shahzoda xushiga keldi, ko'zini ochdi. Ko'rsa, qo'l-oyog'i mahkam bog'langan. Kuchuklar esa har tarafdan unga qarab, hamla qilib turibdi. Shunda u Alloh taologa tavakkal qilib, itlarga qarab bir so'z aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Xudoning qahridan qo'rqingiz itlar,
Bu dunyoda menga jafo aylamang.
Tishlari og'zidan chiqqan palidlar,
Xudo g'azab qilar xato aylamang.

Sen-u meni yaratibdir Xudoyim,
Rahm qilibon kechingmening gunohim.
Oshiqlar murodin bersin Allohim,
Hijr o'tiga yoqib, ado aylamang.

Necha yildir ishq o'tiga yonibmen,
Majnun kabi bir janonga tolibmen,
Yusuf kabi bir bechora oshiqmen,
Oshiqlar umrini ado aylamang.

Meni qo'ying bir necha kun, ketayin,
Haq yetirsa, murodimga yetayin,
Hoki poyin ko'zlarimga surayin,
Meni bu yerlarda ado aylamang.

Jayhun daryo bo'lib oqdi ko'zyoshim,
Turli jafolarni ko'rdi bu boshim,
Beshak tutur mening oh-u nolishim,
Atrofimda turib g'avg'o aylamang.

Bir pari ko'rmisham, yotib tushimda,
Qarorim yo'q mening yoz-u qishimda,
Jahonning savdosi mening boshimda,
Menga bundan ortiq savdo aylamang.

O'zim shahzodaman, otim Dilovar,
Qayg'u g'amdan ko'nglim erur muqaddar,
Ulug'-kichik bunda turgan kuchuklar,
Ket yo'lingga, ko'zim ola aylamang.

Shahzoda so'zini eshitgan itlar Allohning qudrati bilan iziga qaytib ketdilar.

Itboqar bu holni ko'rib hayratga tushib:

— Ey malika Qattol, bu yigitdan savol so'ragil, — dedi.

Malika Qattol shahzodadan savol so'radi. Shahzoda darg'azab bo'lib:

— Ey malika, sen menga makr bilan bir ish qilib, oyoq-qo'limni bog'latding. Agar bo'sh bo'lsam, urug' aymog'ing bilan birga quritar edim. Biroq shu holimda nima qiladigan bo'lsang, ixtiyor sendadir, —dedi.

Bu gapdan malikaning ham jahli chiqib:

— Shahzodani zindonga solinglar, —deb buyurdi. Zindonbonlar shahzodani zindonband qilishdi. Malika o'z aysh-ishrati bilan mashg'ul bo'ldi. Ammo shahzoda zindon ichida zor-zor chun abrinavbahor yig'lab, bir g'azal aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Bu savdolar bo'ldi menga o'zimdan,
Baloga mubtalo bo'ldim men endi.
Bir yomon so'z chiqdi mening tilimdan,
Tuganmas savdoga qoldim men endi.

Bo'ynimda zanjirim,qo'limda bandim,
Bunda bo'lmas mening do'stim, hamdamim.
Bu qarong'u zindon bo'ldi maskanim,
Hasrat bilan o'lar bo'ldim men endi.

Meningdek bormikan mubtalo bo'lgan,
Hijr o'tida rangi ro'yi sarg'argan.
Bir qizil gul edim, toza ochilgan,
Hijron yeli bilan so'ldim men endi.

Ne sababdan qoldim men bu baloga,
Tanimdir g'am uyi, jonim jafoda.
Arzim yetishmas Qodir Allohga,
To qiyomat g'amda qolim men endi.

Qudrating kuchlidir, yaratgan Jabbor,
Sen erursan, barcha bandaga g'amxo'r,
Dilovarning sendan o'zga kimi bor,
Qismatiga rozi bo'ldim men endi.

Shahzoda shu baytlarni o‘qib, taqdiriga bo‘yin egib, qismatiga rozi bo‘lib, zindon ichida qoldi. Zindona olti oy yotdi. Kunlardan bir kun Alloh taolo malika Qattolning ko‘ngliga rahm soldi. Malika: “Borib shahzodadan xabar olayin”, deb zindonga keldi. Ko‘rsa, shahzoda misli za’farondek sarg‘ayib, o‘lim holiga yetibdi. Shahzodaning bu holini ko‘rib va rahmi kelib:

— Ey yigit, sen nechuk bechoradursan? Menga hol-ahvolingni bayon qilgil, — dedi. Shahzodaning ko‘ngli buzilib, boshdan o‘tganini bir bir bayon etib, bir so‘z aytdi:

G‘azali shahzoda Dilovar

Arzimni eshitgil malika Qattol,
Ozod ayla meni Subhon haqqi-la.
Rahming kelib meni to‘g‘ri yo‘lga sol,
Tarahhum qil Egam Rahmon haqqi-la.

Tavrotni yubordi Egam Musoga,
Zaburni Dovudga, Injil Isoga,
Furqonni yubordi ul Mustafoga,
Xolos ayla ul to‘rt Kitob haqqi-la.

Rasulning kuyovi hazrati Ali,
Qilich bilan qirdi barcha kofirni,
Shariatni joriy qilgan to‘rt vali-
Abu Bakr, Umar, Usmon haqqi-la.

Dev pariga podshoh bo‘lgan Sulaymon,
Hukmidan titradi yer bilan Osmon,
Hasan bilan Husayn shahid shodmon-
Imomayn shohi davron haqqi-la.

Bu dunyodan o‘tdi o‘n ikki Ahmad,
Jon-u dildan qildi Xudoga xizmat,
Ularning hurmati, meni ozod et,
Yurt so‘ragan yetti sulton haqqi-la.

Zolim falak menga soldi ming hijron,
Har zamon ayrilmas boshimdan tuman,
Barchaning dardiga ul erur darmon,
Tabiblarning piri Luqmon haqqi-la.

Dilovar der eshit arz-u ahvolim,
Qarangki zindondir mening makonim,
Kechirdi yozig'im, o'tgil gunohim,
Behisht ichra hur-u g'ilmon haqqi-la.

Dilovar so'zini tamom etdi. Malika esa:

— Ey shahzoda, men senga bir ahd qilarman. Agar ma'qul kelsa, men seni ozod qilarman, —dedi.

Shahzoda:

— Aytgil, eshitayin, —dedi.

Malika unga:

— Agar sen bizning yurtimizga dahl qilmasang, men seni ozod qilarman, —dedi.

Shunda shahzoda:

—Xo'p bo'ladi, — deb bajonu dil rozi bo'ldi.

Malika shahzodani zindondan chiqarib, hammomga eltib va pokiza yuvib, soch-u soqollarini oldi. Boshdan oyoq sarpo olib, shahzodani kiyintirdi. Malika Qattol xizmatchisidan bir otni egarlab, bir xurjun tillo bilan qora tangani otning sag'risiga bog'lab, "Bu sening yo'l xarjing bo'lsin" deb shaharning darvozasidan chiqarib, katta bir yo'lga solib yubordi. Keyin o'zi qaytib kelib, malika Qattol bilan sharob ichib, aysh-ishratga mashg'ul bo'ldi.

Ammo shahzoda bechora yetti kecha-kunduz yo'l yurdi. Bir manzilda yo'l ikkiga bo'lindi. Shahzoda u yerda qayerga borarini bilmay bir munojot aytdi:

Munojoti shahzoda Dilovar

Arzimni eshitgil Qodir Allohim,
Meni endi qayta zindon aylama.
Bu ikki dunyoda eshit panohim,
Yor yo'lida ko'zim giryon aylama.

Yolg'onchi dunyoga meni keltirib,
Ayroliq tig'iga bag'rim tildirib,
Bodi sarsor shamoliga oldirib,
Umrim bog'ini xazon aylama.

Ko'p jafolar chekib yorning ishqida,
Kecha-kunduz uning fikri shavqida,
Majnun kabi Karbaloning shavqida
Visolga yetirgil, sarson aylama.

Bir g'arib bechora quling yig'laydi,
Hijron o'ti bilan bag'rin dog'laydi,
Eldan elga yurib yor so'roqlaydi,
Topilmasdek menga makon aylama.

Necha yildir yiroq tushdim vatandan,
Toza bog'dan, qizil guldan, savsandan,
Shirin jonim chiqmas butun bu tandan,
Bu jismimni nori so'zon[1] *aylama.*

Falakning gardishi chapga yurmasin,
Oshiqlar boshiga savdo solmasin,
Mendan o'zga hech kim jafo ko'rmasin,
Hech mo'min qulingni nishon aylama.

Otim Dilovardir, nisbatim shahzod,
Xajr o'tidan bir dam bo'lmadim ozod,
Usiz umrim bo'ldi dunyoda barbod,
Xudoyim sud ishim[2] *ziyon aylama.*

Shahzoda munojotini tamom qilib, Alloh taologa tavakkal etib, yana yo'lga tushdi. U bir oy yo'l yurib, begona bir toqqa yetishdi. Shahzoda ko'rsa u tog' ko'hi Qofmonand osmon bilan barobar ekan. U tog'ni ko'hi Sarshar der edilar. Lekin bu tog'ning u boshi-

[1] **Nori so'zon** — yonib tugan o't, olov.

[2] **Sud ish** — foydali ish.

dan bu boshigacha olti yillik yo'l erdi. Shahzoda bir necha kun ustga chiqar bo'ldi, ammo hech yerdan yo'l topmadi. Oxiri Alloh taologa munojot qilib, Sarshar toqqa qarab, yolvorib "Menga yo'l ber" deb bir so'z aytdi:

Munojoti shahzoda Dilovar

Sadag'ang bo'layin, ey ko'hi kalon.
Ustingdan o'tishga menga yo'l bergil.
Men yuribmen bir yor uchun sargardon,
Rahm aylab holimga, menga yo'l bergil.

Sharofatli tog'sen, bo'lmas misoling,
Hech bir tog'da yo'qdir sening timsoling,
Boshimdan ko'targil endi tumaning,
Musofir bandamen, menga yo'l bergil.

Otamiz Odamdir, onamiz Havo,
Bir biridan ayrilib, bo'ldilar judo,
Qo'shilgan yerlari bo'ldi Baytulloh,
Baytulloh hurmati, menga yo'l bergil.

Senga aytsam, bir sir bordir orada,
Necha oshiq o'tdi, yetdi murod(g)a.
Men ham bir oshiqman, jonim jafoda,
Yorimga yetayin, menga yo'l bergil.

Dilovar der, budir senga nolishim,
Ado bo'lmas qayg'u hijronda boshim.
Seni g'arq etmasdan burun ko'z yoshim,
Rahm aylagil holimga, menga yo'l bergil.

Shahzoda munojotidan so'ng Alloh taoloning qudrati bilan ko'hi Sarshorning o'rtasidan ikki bo'linib bir yo'l paydo bo'ldi. Shahzoda Alloh taologa shukronalar aytib, o'sha yo'lga kirib, bir oy yurib, tog'dan oshib, nariga tomoniga chiqdi. Ko'rsa uzoqdan

bir shahar, bir ko'shk g'ira-shira ko'zga tashlanib turibdi. Shahzoda o'sha ko'shkni ko'rib, "Bu ko'h ko'hi Qof bo'lsa kerak, bu shahar parilarning maskani bo'lsa kerak" deb, o'zi o'zining ko'nglini ko'tarib, "Yorimni maskani shudir ehtimol" deb, bir so'z aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Bu ko'ringan yor maskani bo'larmi,
Uzoqdan bir ko'shki qal'a ko'rindi.
Hech kim mendek sarosima bo'larmi,
Bihamdilloh, yor makoni ko'rindi.

Yor yo'lida jafo chekmagan oshiq,
Oshiqlik yo'lida ul ermas sodiq,
Yor vasliga yetmas ul oshiq loyiq,
Shukur endi yor makoni ko'rindi.

Ayriliq o'tiga kuydi bu hayot,
Necha yillar yig'lab kechirdim avqat[1]*,*
Qaddi-tubi alif, qomati shamshod,
Parizod ahlining shohi ko'rindi.

Inoyat ayladi menga Zuljalol,
Umrim o'tdi yig'lab necha moh-u sol,
Hech kim ermas ul yorimdan xush misol,
Ishq ahlining chekkan ohi ko'rindi.

Dilovar, sen g'amgin bo'lma kulfatga,
Boshinga yetishgan jabr-u mehnatga,
Inshaalloh, yetarsen aysh-u ishratga,
Endi bu ko'nglimning xohi ko'rindi.

Dilovar so'zini tugatib, yo'lida davom etdi. Choshgoh vaqti edi. Nogoh bir qush kelib, shahzodaning boshiga qo'ndi. Shahzoda uni olib, yerga qo'ydi. Ammo qush uch martaba qayta

[1] **Avqat** — vaqtlar.

uning boshiga qo'ndi. Shahzoda yana olib yerga qo'ydi. Qush to'rtinchi marta qo'ndi. Shu holda shahzoda ilgari yurdi. Nogoh oldidan bir guruh sipoh kelib, otlardan tushib, shahzoda otining uzanggisini tavof qildi. Haligi qushni shahzodaning boshidan olib, boshiga tilla jig'a sanchib, tillo egarli otga mindirib olib ketadigan bo'ldilar.

Shunda shahzolda ularga:

— Ey xaloyiq, siz qandoq odamlarsiz? -dedi.

Sipohlar unga:

— Ey mard yigit, Alloh taolo sizni ulug' davlatga munosib ko'rdi. Sizni podshoh qilarmiz. Bugun uchinchi kunki, yurtimizning podshosi o'ldi. Uch kundirki davlat qushini uchiramiz, hech bir yerga qo'ngani yo'q. Bugun sizning boshingizga kelib qo'ndi. Mening ismimni vazir Tahmas derlar. Bu shaharning otini Qal'ai Jahonnoma derlar. Endi siz podshomiz bo'ldingiz, — deb podshosining tojini shahzoda boshiga qo'yib, yo'lga tushdilar.

Peshin vaqtida shaharga kirib borib, qimmatbaho liboslar solib, katta-kichik xaloyiqlar yig'ilishib, shahzodani podsho qilib taxtga chiqardilar.

Shahzoda Dilovar uch yil Jahonnoma shahrida podsho bo'ldi va adolat bilan ish yuritdi. Ammo kunlardan bir kun shahzodaning yori hamda ota-onasi yodiga tushib bir oh tortdi. Shu yerda Tahmas vazir bor edi.

Tahmas vazir shahzodaga qarab:

"Nechun oh tortding?" deb savol so'rab bir so'z dedi. Shahzoda ham vazirga javob berdi:

Savoli Tahmas vazir va javobi shahzoda Dilovar

Vazir:

— Fido bo'lay senga, gul yuzli shohim,
Ne sabadan oh-u fig'on aylading?
Bu dunyoda mening ko'ngil xushgohim,
Sen ne uchun oh-u fig'on aylading?

Dilovar:

— Quloq solgil, mening arz-u holimga,
Bu sababdan oh-u fig'on ayladim.
Egam yuz ming savdo soldi boshimga,
Shuning uchun oh-u fig'on ayladim.

— Yurtingda shoh edingmi yo gado?
Yo bir g'arib, miskin yo bir benavo?
G'am yema, toparmen dardingga davo,
Sen ne uchun oh-u fig'on aylading?

— Mening bu holimni hech kimsa bilmas,
Muhabbat rishtasi jondan uzilmas,
Kecha-kunduz ko'zim oldidan ketmas,
Shuning uchun oh-u fig'on ayladim.

— Bulbul bo'lib, sayra toza gullarga,
Jonim fido bo'lsin shirin tillarga,
Savol beray sening uchun ellarga,
Sen ne uchun oh-u fig'on aylading?

— Bechora bulbulning chiqmas fig'oni,
Bog'im xazon urib, qolsa tikoni,
So'roq etmak bilan yo'qdir makoni,
Shuning uchun oh-u fig'on ayladim.

— Necha yildan beri mehnat chekarsen,
Yor yo'lida ko'zdan yoshing to'karsen,
Sabr etsang, murodingga yetarsen,
Sen ne uchun oh-u fig'on aylading?

— Bir paridir uni tushda ko'ribmen,
Oti Gusasrordir yaqin bilibmen,
Parvonadek shirin jondan kechibmen,
Shuning uchun oh-u fig'on ayladim.

— Vazirning ko'nglida armon qolmasin,
Hech kimga Xudoyim hijron solmasin,
Bu so'zingda zarra xilof bo'lmasin,
Sen ne uchun oh-u fig'on aylading.

— Otam erur Rum shahrining sultoni,
Beklar bilan surar aysh-u davronni,
Dilovarning yo'qdir zarra darmoni,
Shuning uchun oh-u fig'on ayladim.

Shahzoda bilan vazir ikkovlarining savol-javobi tamom bo'ldi. Shundan keyin vazir:

— Ey polshohi olam, sultoni bokaram unday bo'lsa siz taxtingizning ustida farog'atda o'tiring, men siz uchun jondan kecharman. Menga izn bering, men shaharma-shahar, viloyatma-viloyat yurib so'rarman. Shoyadki, biron yerda yoringdan xabar toparman, — dedi.

Shunda shahzoda:

— Ey vaziri a'zam, mening hamdamim sensan va sendan judolikka bir soat toqatim yo'qdir. Agar qabul qilsang, ikkimiz hamroh bo'lib ketsak, — deb shahzoda Dilovar ushbu she'rni vaziri a'zamga qarab aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Ayo, ey hamdamim, vaziri a'zam,
Agar qabul qilsang, hamroh ketali.
Bir parining hasratida qon yig'lab,
Parvonadek ishq o'tiga kuyali.

Sen boringda menga hasrat bilinmas,
Bu dunyoda dog'-u kulfat ko'rinmas,
Agar qolsang, mendan tuman arimas,
Kel sirdoshim, ikkov hamroh ketali.

Sirimni aytishga yo'qdir sirdoshim,
Kecha-kunduz bo'lgil mening yo'ldoshim,

Ajal yostig'iga yetishsa boshim,
Daf etarga ikkov hamroh bo'lali.

Ayo mening g'amda qolgan vazirim,
Bu dunyoda, netay, yo'qdir guzarim,
Tillo taxt ustida ulfatnishinim,
Boqiy yo'lda ikkov hamroh bo'lali.

Dilovar der, shohi Qaysar o'g'liman,
To qimyomat bir dilbarga bog'li(q)man,
Bu sababdan jism-u jigar dog'liman,
Hamroh bo'lsang, ikkov birga ketali.

Shahzoda so'zini tamom qildi. Vazir esa taklifni jon dildan qabul etdi. Xufton namozidan so'ng shahzoda bilan birga vazir ikkisi kuloh va janda kiyib, kamand[1] tashlab, shahardan yuz o'girib, "Huv" deb chiqib ketdilar. Ikki oy yo'l yurib, bir chorboqqa ketib bordilar. To'qqiz paxsa baland devori bor erdi. Hech odamzot asli kirgulik emas. Axir so'ng suv yo'lidan (ob-u mo'rsisidan) yonboshlab kirib oldilar. Ichkari kirib sayr qilib yurar edilar.

Ko'rishsa, xiyobon-xiyobon gullar ochilib, bulbullar chah-chah urib va buloqlar har tarafga oqib turgan musaffo bir bog' ekan. Ammo u chorbog'ning otini Charbog'i Murod der erdilar. Ohanrabotda Shahbot joduning onasi Otash joduning makoni erdi.

Nogoh odamzot hidi kampirning dimog'iga yetib bordi. Kampir shunda tishlarini qayrab, bir butni bo'yniga osib, og'ir gurzini kiftiga tashlab: "Hayhot, hayhot, odamzotlar boxabar bo'lgil" deb yo'lga chiqdi. Shahzoda uni ko'rib, Allohdan shukri ixlos bilan madad tilab, darrov (chusti-chalak) o'rnidan turib, u kampirning yoniga qarab yurdi. Ammo kampir shahzodani ko'rib, shu daqiqada gurzisini otdi— havola qildi. Shahzoda Dilovar vaqtni g'animat bilib, chusti-chalak qo'l uzatib, havoda uni uchidan tutdi; kampirning qo'lidan gurzisini olib, uning boshiga urdi. Ammo kampir darrov chorasini ko'rib, sehrgarlik qildi; allaqanday duo o'qib,

[1] **Kamand** — arqon, ip.

shahzodning ko'zidan g'oyib bo'ldi. Uzoqdan yana qandaydir duo o'qib, olamga o't qo'ydi.

Shahzoda kampirni har qancha axtarsa ham, hech yerdan uning nishonini topmadi. Oxiri "Vazirdan xabar olayin", deb borib ko'rsa, vazir bechora jodugarning o'tiga kuyib, kul bo'libdi. Shahzoda uni ko'rib, holi parishon bo'ldi va ushbu munojotni aytdi:

Shahzoda Dilovarning munojoti

Qodir Mavlom bizni yo'qdan bor etib,
Ne mushkul savdoga solding, Xudoyim.
Ibrohimdek o't ichida zor etib,
Ne mushkul savdoga solding, Xudoyim.

Bir ajab savdodir, hech odam bilmas,
Bir zamon oromim, qarori bo'lmas,
Bizni kuydirmakdan o'zga ish bo'lmas,
Ne mushkul savdoga solding, Xudoyim.

Yolg'onchi dunyoga meni keltirib,
Cho'x baloni bu boshimga endirib,
Sabab bilan bu makonga keltirib,
Ne mushkul savdoga solding, Xudoyim.

Yigitning avvaldan baxti qarodir-
"Ochilar" deb umid etmak xatodir,
Bu kun Sendan menga yuz ming jafodir,
Jafolarga solding meni, Xudoyim.

Mening qasdim sevar yorga bormoqda,
Uning bilan aysh-ishrat qilmoqda,
Sening qasding mening jonim olmoqda,
Ne mushkul savdoga solding, Xudoyim.

Necha yillar uzoq tushdim otamdan,
"Bolam" deb, oq sut bergan onamdan,

Bilmadim ne kechdi hali izimdan,
Ularga dog'larni solding, Xudoyim.

Bu dunyoning ishi jabr ila mehnat,
Ko'z ochib ko'rmadim bir dam farog'at,
Dilovarni g'amdan qutqar bu soat,
Jodugar o'tiga solma, Xudoyim.

Shahzoda o'z munojotini tugatgan mahal kampir qo'liga bir shamshir-zahrolud[1] shamshirini olib, shahzodaga qarab otdi. Buni shahzoda ko'rib qoldi va tezda uning qilichini qo'lidan olib yerga tashladi. Kampirning belidan mahkam tutib, ko'tarib yerga urdi va boshini kesdi. Kampirning har qatra qonidan bir dev paydo bo'lib, olamni dev bosdi. Hammasi shahzodaga tashlandi. Go'yo zamin-u zamon, manzil-u makon birlashdi. Butun olam shahzodaning ko'ziga qorong'i bo'lib, hech narsa ko'rinmay qoldi. O'shanda shahzoda hayron-u sargardon holda ushbu munojotni aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Ey Xudoyim berarmisen, omonim,
Bir dardga tushmisham darmonim bo'lmas.
Bir zamon ayrilmas boshdan tumanim,
Bundan qutulishga gumonim bo'lmas.

Hazrat Ali derlar oshiqlar piri,
Haqiqatan er erur Xudoning sheri,
Sen bo'lmasang bu kun menga dastgiri,
Dam olishga mening majolim bo'lmas.

Ne sababdan bo'ldi menga bu savdo,
Mushkul ishlar bo'ldi boshimda paydo,
Yo'qdan bizni bor aylagan bir Xudo,
Dargohingdan o'zga panohim bo'lmas.

[1] **Zahrolud** — zaharli.

Rahmat daryosidan serob etmasang,
Qudrat bilan mening qo'lim tutmasang,
Bu kun mening faryodimga yetmasang,
Xijr o'tiga kuydim, qarorim bo'lmas.

Dilovar der, qoldim jabr-u jafoga,
Joduning qo'lida qoldim baloga,
Karam ayla menga — miskin gadoga,
Bu manzilda bir dam turarim bo'lmas.

Shahzoda Dilovar munojotini aytib, g'azablanib, qayta urushga kiradigan bo'ldi. Maydonda devlar bilan yetti kecha-kunduz urushdi. Ammo sakkizinchi kun yetib keldi, shahzoda ko'p yarador va bexush bo'lib yiqildi. Shunda devlar vaqtni g'animat bilib, shahzodani zanjirband qilib, bir otga sudratib Ohanrabot qal'asiga keldi. Peshin mahalida shahzoda xushiga keldi. Ko'rsa qo'l-oyog'i zanjir bilan band etilgan. Shahzoda Alloh taologa munojot qilib, falakdan shikva aylab, bu muxammasni aytdi:

Muxammasi shahzoda Dilovar

Qo'ymading bu dunyoda, bir dam meni shod, ey falak,
Umrimni o'tirdim sening yo'lingda barbod, ey falak.
Yaxshilikni tark etib, qilding yomon ot, ey falak,
Shahri tan ichra bo'lib, jonimga jallod, ey falak,
Aylaram har dam qo'lingdan, dod-u faryod, ey falak.

Qo'ymading bu dahr aro bir uyni men bunyod etay,
G'am xarobatida qolgan ko'nglimni obod etay,
Ko'nglingga zarra keltirmassen birovni shod etay,
Gar Xudo qozi bo'lib, so'rsa men Unga dod etay,
Unda aylarmen qo'lingdan dod-u faryod, ey falak.

Kulmadim bir dam qo'lingdan, doimo holim fano,
Men davo istar edim, sen aylading menga jafo,
Hijr o'tiga dam-badam jismim birla jonim yoqa(r),

Qilmadi Hech kimga poyon foniy dunyo bebaqo,
Dod qo'lingdan, ey falak, faryod qo'lingdan, ey falak.

Ey birodarlar, bu dunyodan bo'ldingizlar mosuvo,
Bizni qildi bu falak yuz ming baloga mubtalo,
Dodlar aylar qo'lingdan, yig'lashib shoh-u gado,
Tong-la mashharda bo'larlar barcha sendan dodho,
Dod qo'lingdan, ey falak, faryod qo'lingdan, ey falak.

Ey Dilovar, bo'lma g'amgin, qil Xudoga muddao,
Bir gunohkor ummating men, yo Muhammad Mustafo,
Ber najotim bu balodan, chekar yori besafo,
Yetkazing maqsadimga, bo'lsin falak yuzi qaro,
Muncha ishni to qiyomat qilmasin yod, ey falak.

Dilovar munojotidan keyin Alloh taolo o'z lutfi bilan hamma devlarni ko'ngliga rahm-shafqat soldi. Shahzodaning qo'l-oyog'ini yechib, tuyaga mindirib, yo'lga tushib ravona bo'ldilar. Ammo qirq kunlik yo'lni uch kunda yurib, Ohanrabot qal'asiga borib, shahzodaning ahvolini bir-bir bayon qildilar. Shunda shahzodani zindonga buyurdilar. Zindonbonlar uni zindonga tashladilar.

Shahzoda bechora bo'lib, Alloh taolo hukmiga bo'yinsunib, qismatiga rozi bo'lib bir so'z aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Xudo-yo rozimen Sendan,
Eshitgil arz-u ahvolim.
Nechuk xato kechdi mendan,
To'kding ko'zdan bag'ir qonim.

Bu jafoga dosh berolmay,
Bir dam beg'am keza bilmay,
Yor jamolin ko'ra bilmay,
Yurakda qoldi armonim.

Balolarga qoldi boshim,
Hijron erur yoz-u qishim,
Eshitgil oh-u nolishim,
Qilib tadbiri darmonim.

Taqdirimga bo'yin egib,
Jafo chekdim misli Ayyub,
Misr elida Misli Yusuf,
Zindon aylading makonim.

To'ymadim yor jamolidan,
Nasib etmas visolidan,
Ayroliqning shamolidan,
Qo'riqlar bog'-u bo'stonim.

Bir hamdan holimni so'rsa,
Qalam olib noma yozsa,
Sevar yorga xabar bersa,
O'qib yig'lar bu dostonim.

Dilovarga bo'ldi tuhmat,
Zindon ichra chekar mehnat,
Qismatimga qil qanoat,
Shoyad rahm etgay Rahmonim.

Shahzoda Dilovar so'zini tugatib, Alloh taoloning qudratiga bo'yin egib va o'z qismatiga rozi bo'lib, zindon ichida yotib qoldi. Ammo uch kecha-kunduzdan so'ng Shohbat joduning onasi yodiga tushib, darqahr bo'lib, zindonbon bilan jallodni yoniga olib, zindonga kelib, shahzodani oqibatga mubtalo qildi. Shu zindon ichida qirq qulochlik quduq bor edi. Ichida ilon, chayon ko'p edi. Shahzodani shu quduqqa tashlab, o'zi borib taxtiga chiqib o'tirdi.

Shahzoda qirq qulochlik joyning ostiga tushib: "Xudoyim, Xudovandi Karim, men bunda quduqda zindon ichra yotsam, yorimiz unda sog'-salomat yursa, bundan ham mushkul savdo bormi?" deb bir so'z aytdi:

Muxammasi shahzoda Dilovar

Pok-o, Samad-o, Mavlom, qoldim bu zindon ichra,
Dardimga davo topmay, bu yorug' jahon ichra,
Bag'rimni qilib chok-chok, jismim to'la qon ichra,
Kul bo'ldi tanim yonib otashi so'zon ichra,
Endi menga toqat yo'q, doim bu fig'on ichra,
Yorimdan nishon topmay, bugun bu makon ichra,
Yor anda salomatdir, men bunda zindon ichra.

Joy ichra ilon-chayon bunda bizga hamdamdir,
Yeganim mening hijron, ichganim mening g'amdir,
Az ro'zi azal yetgan boshimga bu motamdir,
Hijronning o'qi degan tan mulki bir ohimdir,
Bu qonli jarohatga yorning vasli malhamdir,
Shab to basahar yig'lab, bu g'amda ko'zim namdir,
Yor anda salomatdir, men bunda zindon ichra.

Farhod ila Shirin ham chekmadi mendek jafo,
Layli g'amida Majnun cho'llarda bo'ldi shaydo,
Vomiq ko'rar tun ichra kun suvrati Uzro,
Zindonga sohib edi bu Yusufi Zulayho,
Dushmanlarning jabridan qoldim joy uzra tanda,
Hech qaysi bu mehnatni ko'rgani yo'qdir aslo,
Yor anda salomatdir, men bunda zindon ichra.

Rasuli Xudo bizni o'tinch qilib Allohdan,
Tugatsa bu boshimni hasrat birla savdodan,
Ovoz keldi "Amin" debon yer bilan osmondan,
Osmondagi malaklar, qo'ymang meni duodan,
Shoyad men ham qutulsam, bunday baxti qarodan,
Toqat qila bilmadim, zindon ichra izodan,
Yor anda salomatdir, men bunda zindon ichra.

Otam bilan onamdan yo'qdir menga nishona,
Endi ular jamolin ko'rmak bo'ldi gumona,

Soldi meni baloga garduni kech ravona,
Ko'rmay bo'lib men oshiq bir qizga g'oyibona,
Shami ruhiga uning jonim erur parvona,
Bu holimdan bexabar yorim kezar mastona,
Dilovar qoldi qattiq dardi bedarmon ichra.

Shahzoda shu baytlarni aytib, fig'on-u nola qilar edi. Banogoh zindon tubidan bir qora ilon paydo bo'lib shahzodaga qarab kelaverdi. Shu vaqt shahzoda uni ko'rib, o'z ko'ngliga "Xudo-yo, Xudovandi Karim, ko'rgan jabr-u jafolarim menga kam edimi? Bu ilon kelib, menga zahar sochsa, qanday toqat qilarman" deb nola qildi. Ilon Allohning qudrati bilan shahzodaning yoniga bir qora toshni og'zidan tashladi. Qaytib o'zi bir teshikka kirib, ko'zdan yo'qoldi. Bu ahvolni ko'rib, shahzoda o'z ko'ngliga "Xudo-yo, Xudovandi Karim, O'z amring birla shekilli. Bu ilon zahar tashlab ketdi. Shuncha jabr-u jafo ko'rib, baloga mubtalo bo'lib yurgandan ko'ra o'lganim yaxshiroqdir" deb, haligi ilon tashlagan toshni zahar degan o'y bilan og'ziga solib yutib yubordi.

Alloh taolo qudrati bilan shahzodaning ko'ngli oynadek ravshan tortdi; ochlik, suvsizlik yodidan chiqdi va xushvaqt bo'lib ushbu munojotni aytdi:

Shahzoda Dilovar munojoti

Ajab qudratli Xudosen,
Bilib bo'lmas qudratingni.
Bandalarga rahnamosen,
Sol barchaga rahmatingni.

Men kelibman jahon ichra,
Ishim oh-u fig'on ichra,
Bu gunohki, zindon ichra,
Ko'rdim ajab san'atingni.

Yor savdosi bo'ldi paydo,
Yuz o'girma mendan aslo,

Tosh parchani berding menga,
Yedim turli ne'matingni.

Ko'nglim andan topdi quvvat,
Gohi taom, gohi sharbat,
Sevar yorim menga ko'rsat,
Tugat boshdan zulmatingni.

Mening uchun onam giryon,
Otamga soling ming armon,
Alarning dardiga darmon,
Ato qilgil shafqatingni.

Xabar bergil sevar yorga,
Rahm aylasin men dildorga,
Yuzi qora raqiblarga,
O'zing qilgil kulfatingni.

Dilovarning oh-u zori,
G'arib ko'nglimning murodi,
Xudo bersa sevar yorni,
Bilib tutgil suhbatingni.

Shahzoda shu zaylda zindonda qaror topdi.

Shahzodani zindon ichida qo'ying. Endi ikki kalima so'zni malika Gulasrordan eshiting.

Gulasror pari kunlardan bir kun kanizlari bilan "Sayri sahroyida sayri bog'i bo'ston qilayin" deb yo'lga ravona bo'ldi. Nogoh bir sarhovuzning bo'yiga yetib bordi. Ko'rsalar, xayhot ajab joyi makon bo'lib, hech bir jism bunday manzil makonni ko'rgani yo'q erdi. Ammo malika Gulasrorning ko'ngli ochilib, zavq-shavqi toshib va jo'shib, u zarrin supaning ustiga qimmatbaho ko'rpachalar solib, yotib uxladi. Gulasror uyqusida tush ko'rdi. Bir barno yigit tushiga kirdi. Gulasror pari:

— Ey barno yigit, qaysi bog'ning gulisan va qaysi gulshanning bulbulisan va qaysi gulshanda parvoz qilib va qaysi chamanga bo-

rib qo'narsan? Otingiz kim erur va maskaningiz qaysi viloyatdir? Kimning o'g'li bo'larsen, — deganda, shahzoda:

— Ey nozanin parizod, bilgil va ogoh bo'lgil. Mening otim shahzoda Dilovardir. Otamning otini Qaysari Rum derlar. Viloyatimni oti Rum shahridir. Yetti yildir sening ishqing otashiga kuyarman, hanuz tanim kul bo'lmas. Filhol, makonimni qal'ai Ohanrabot derlar. Shohbot joduning yurtida mening holim zabun bo'ldi. Agar men senga kerak bo'lsam, tezda yetib kelgaysan, alvido, — deb ko'zidan g'oyib bo'ldi. O'sha holatda malika Gulasror uyqusi ichida bir oh-u fig'on chekdi. U o'z ohidan uyg'onib, yotgan yerida bir sapchib tushdi. U yon-bu yonga qaradi. Ko'rsa, na shahzoda bor, na odamzot. Ammo malika Gulasror shahzodaning ishqida yig'lab, oh urar edi.

Gulasrorning kanizlari sardoriga Gulchehra pari der edilar. Shu vaqt Guchehra pari malika Gulasrorga qarab:

— Ey nozanin parizod, ne sababdan oh urib, muncha yig'larsen, — dedi.

Malika Gulasror:

— Ey kanizlar, men bir tush ko'rdim. Agar tushda ko'rgan mard yigit bo'lmasa, agar uni topib bermasangiz, bu dunyo menga zindon bo'lar. Valloh, qayg'u-hasrat bilan o'larman, — deb shahzodaning ishqidan betoqat bo'lib, kanizlariga ko'rgan tushini bayon etib, ushbu so'zni aytdi:

G'azali malika Gulasror

Quloq soling, parizodlar so'zimga,
Har ne tushda ko'rdim bayon aylayin.
To qiyomat fikrim kecha-kunduzda,
Boshimdan o'tganin bayon aylayin.

Yotgan edim, bir tush ko'rdim shu zamon,
Bir yigit ko'rmisham nodiri davron,
Jamoliga parvonadir shirin jon,
Ishq o'tiga bag'rim biryon aylayin.

Odamzot elida andog‘ nimarsa-
Bu dunyoga kelgan emas hech kimsa,
U nozanin dardim darmonin bersa,
Har bir so‘zin misli Luqmon aylayin.

Mushkul ekan judolikning balosi,
O‘limdan battardir jabr-u jafosi,
Ey parilar, ishq dardimning davosi,
Topilarmi, oh-u fig‘on aylayin.

Do‘stlar,
meni ayb aylamang bu soat,
Tanimda qolmadi bir zarra toqat,
Boshimga tushsa-da, turli malomat,
Yo‘lida kulbai ahzon aylayin.

So‘roq etib, istab topinglar ani,
Ohanrabot shahridadir maskani,
Yo‘qsa barbod etib guli gulshanni,
Jahonni o‘zimga zindon aylayin.

Gulasrorning sizlar holin bilinglar,
Jon chiqmasdan burun fikrin qilinglar,
U yigitni menga topib beringlar,
Yetti kunga ahdi iymon aylayin.

Gulasror so‘zini tamom qildi. Shunda Gulchehra parizod joyidan turib:

— Ey nozanin, Gulasrorjon. Men sening uchun jonimdan kecharmen. Menga qirq kun muhlat bering. Zero qal’ai Ohanrobot bu yerdan uch yuz yillik yo‘ldir. Men parizodman, qirq kunda borib kelarman. Siz ko‘p betoqat va beorom bo‘lmangiz, — deb Gulasrordan ruxsat so‘rab bir so‘z aytdi:

G‘azali Gulchehra pari

Ijozat aylagil, parilar shohi,
Hijr qo‘lidan kunda omon istarsen.
Besh vatqtingni o‘qib, yod et Xudoni,
Jumla mo‘min qulga iymon istarsen.

Bir zamon yurmading dunyoda hurram,
Kecha-kunduz ishing bo‘libdir motam,
Rozi diling so‘zlashurga yo‘q hamdam,
Tan mulkida shohi jahon istarsen.

Men ketgan so‘ngra uydan ayrilma,
Do‘st yig‘latib,
dushmanlaring kuldirma.
Har yetar-yetmasga siring bildirma,
Darding bilar piri Luqmon istarsen.

Muhabbat qo‘lidan sharob ichilmish,
Sadaf og‘zin ochib, durlar sochilmish,
Bahor bo‘lib, qizil gullar ochilmish,
Gulingga munosib bog‘bon istarsen.

Ani topmoq erur jahonda mushkul,
Bu mushkulni,
Egam, o‘zing oson qil.
Gulchehra der, qilib Haqqa tavakkul,
Qirq kundan so‘ng munda
makon aylarsen.

Gulchehra parizod shu zaylda izn tiladi. Shunda Gulasror parizod:

— Ey Gulchehrajon, mening jonim senga sadag‘a. Andog‘ bo‘lsa, senga bir salomnoma berayin. Yo toparsen, yo topmassen.

— Agar topsang, sening so‘zing birla yo kelgay yo kelmagay, — deb ko‘zlaridan qatra-qatra yosh to‘kib, bir so‘z aytdi:

G‘azali Gulasror parizod

Seni topshirmisham Egam Rahmonga,
Agar borsang, degil yorga salomim,
Rahm aylasin ko‘zdan oqqan qonimga,
Bu dardimga sababkorga salomim.

G‘oyibona ko‘rmay bo‘lib men oshiq,
Tushumda ko‘ribman bo‘lib men sodiq,
Alifdek qomatim qaddiga loyiq,
Tar[1] *ochilgan gulguzorga saeomim.*

Tez borib kelgaysen sog‘-u salomat,
Topshirdim Xudoga seni omonat,
Arosat yerida ro‘zi qiyomat,
Yiqilganda madadkorga salomim.

Yorsiz bu dunyoda guzar etmasdan,
Ko‘z ochib yumguncha mador etmasdan,
To yuzin ko‘rguncha qaror etmasdan,
Anda bo‘lgan navbahorga salomim.

Bulbullar sayrashar gulda chamanda,
Aslim bayon etsam men bu dostonda,
Egam madad qilsin bu cho‘listonda,
Bog‘da bo‘lgan gulbahorga salomim.

Bir toza gul edim osmondan tushgan,
Men bulbulman, jonga o‘tlar yopishgan,
Mening uchun o‘z yurtingdan adashgan,
Hijr elidan sharmisorga salomim.

Men bunda yig‘larmen sevar yon anda,
Zarra toqat yo‘qdir jon bilan tanda,
Egam amri bilan yorni ko‘rganda,
Degaylarsen zinhorlab yorga salomim.

[1]**Mar** — toza.

Senga bayon aylar so'zin Gulasror,
Bu dunyoda undan o'zga kimim bor,
Misli Zulayxomen arzim aytaver,
Yusuf kabi shohsuvorga salomim.

Gulasaror bu so'zini qog'ozga bitib, Guchehraning qo'liga tutqazdi. Shunda Gulchehra pari qog'ozni ro'moliga solib, Gulasror parizoddan ruxsat olib, bir kabutar suvratida havoga parvoz qildi. Ammo o'n yetti kecha-kunduz qanot qoqib, parvoz qilib, uch yuz yillik yo'lni tamom qilib, qal'ai Ohanrabotning bir tarafiga kirib bordi. Shunda bir pinhon yerga tushib bir soat o'ziga orom berib, keyin shaharga kirib, baland va past ko'chani axtarib yuraverdi. Ko'chani uch kecha-kunduz axtardi. Hech bir yerdan nishon topmadi. Oxiri bir yerga borib: "Men ne yuz bilan borarman", deb quyidagi baytni o'qidi:

G'azali Gulchehra pari

Qodir Mavlom qudratingdan aylanay,
Yolg'onchi dunyoda davron topmadim,
Bu mushkul savdoga ne iloj aylay,
Bu g'amli ko'nglimga darmon topmadim.

G'oyibona qildim ahd ila paymon,
Bu qilgan ishimga bo'ldim pushaymon,
Oshiqlarning piri, yo Shahimardon,
Madad aylang, aniq makon topmadim.

Men bunda kelmisham birov ahdi-la,
Yot ellarga— Ohanrabot shahriga,
Davo topmoq uchun aning dardiga,
Tabiblarning piri — Luqmon topmadim.

Majnun kabi Karbaloning cho'lida,
Kecha-kunduz yig'lab aning hijrida,
Parvonadek kuyib, ishqning o'tiga,
Ishq o'tining jabrin oson topmadim.

Otim Gulchehradir,
o'zim pariman,
Gulasror yuborgan bir chopqiriman,
Xudoning yaratgan osiy quliman,
Istagan ovimdan nishon topmadim.

Gulchehra pari bu so'zini aytib, o'rnidan turib, orom olmay dam-badam izlar edi. Yana uch kecha-kunduz axtarib, Hech bir yerdan nishon topmadi. Oxiri bu shahardan noumid bo'lib qaytar bo'ldi. Banogoh yo'li zindon tomonga tushdi. Zindonni axtardi. Zindon eshigiga bordi. Zindonbon uni ichkari qo'ymadi. Uning xayoliga bir fikr keldi.

Bozorga borib, ikkita to'qqiz patir non, to'qqiz qatlamani bir dasturxonga solib, ikki savat uzum olib, hojilar turqiga kirib, zindonbon yoniga kelib:

— Ey zindonbon, Alloh taolo va taborak menga bir kasal bergan edi. Ammo ko'nglim qanoat qilib "Agar men bu g'amdan najot topsam, Alloh rizosi uchun zindonga borib, bandilardan duo olsam" deb niyat qilgan edim. Alhamdulilloh robbil alamin, endi g'amdan najot topdim va qarzi qiyomat bo'ynimda qolmasin deb keldim. Ixtiyor sendadir, — dedi.

Zindonbonning unga rahmi kelib, ruxsat berdi. Gulchehra zindonga kirib, ko'p izlab ko'rdi. Biroq hech yerdan nishon topmadi. Banogoh zindon ichida — bir burchakda o'tirgan keksa boboga ko'zi tushdi. Uning qoshiga borib:

— Ey padari buzrukvor, zindonda odam bormi? Non bersam, uning ham duosini olsam, — dedi. Haligi qariya:

— Bu zindon ichida hech kim qolgani yo'q. Ammo sakkizinchi hujrada bir quduq bor. Uning otini Joyi maran derlar. U joyga bir yigitni tashlagan edilar, uch yildan beri yotibdi. Biror kimsa uning holidan xabar olmadi. Bu Shobot joduning amridir, degach, Gulchehraning yuragida sabr-toqat qolmadi.

Qariyaga qarab:

— Quduqni menga ko'rsating, — deb tavallo va izhor qilib, ushbu muxammasni aytdi:

Muxammasi Gulchehra pari

Men aning xijrida kuydim, ey bobo, ko'rsat ani,
Lutf etib bechoralar, marhabo, ko'rsat ani,
Bu ko'hna solingda bo'lgin rahnamo, ko'rsat ani,
Fikr qilmay podshohlardan beibo, ko'rsat ani,
Xohi bo'lgin begona, xohi oshno, ko'rsat ani.

U nechuk bechoradir, hech kim andan bermas darak,
Ne sababdan soldi anga savdolar zolim falak,
Mol-u dunyo, farovonlik men senga bersam kerak,
Mustajob etib Xudodan haqingga qilsam tilak,
Do'zax o'tidan senga bersin panoh, ko'rsat ani.

Hech kim mendek bu olam ichra hayron bo'lmasin,
Hijr o'tiga bag'ri kuygan, chashmi giryon bo'lmasin,
Yo magar furqat o'tiga xonavayron bo'lmasin,
Yo mening istagim bu chohda nihon bo'lmasin,
Bir ko'ray shahzodadirmi yo gado, ko'rsat ani.

Rahnamo bo'lgil menga avval Xudo haqi uchun,
"Ummatim" deb nola qilgan Mustafo haqi uchun,
Choriyorlar — nozanin bosafo haqi uchun,
Nurayni ikki shahid — Karbalo haqi uchun,
Ikki olamda madadkoring Xudo, ko'rsat ani.

Bu musofirlikda bo'ldi menga shaharga guzar,
Bir ko'rsam, ota-onasidan bersam xabar,
Yig'lasharlarkim, firoqida kuyib shom-u sahar,
Men pari Gulchehraning holiga aylang bir nazar,
Chun bo'libmen mosuvo, ey bobo, ko'rsat ani.

Boboy Gulchehraning bu so'zini eshitib:

— Ey parizod, undog' bo'lsa, shu quduqning og'zida bir tosh bordi, uni chetga surgin. Quduq og'zi ochiladi. Ichkari kirib ko'rgin, — dedi.

Gulchehra pari qariyaga bir siqim zar berib, zindon ichidan o‘tib borib, sakkizinchi hujraga kirdi. Ko‘rsa, hujra o‘rtasida katta bir tosh turibdi.

Toshni surib qarasa, quduqning og‘zi ochilib, bir ovoz chiqib, falakni larzaga solar edi.

O‘sha mahal shahzoda quduqning ichida onadan tug‘ilganiga pushaymon bo‘lib, yig‘lab ushbu muxammasni aytar edi:

Muxammasi shahzoda Dilovar

Men onadan avvalo bo‘lmagay erdim, koshki,
Ba’da mavjud ayrilib qolmagay erdim, koshki,
Bu jafoni boshimga solmagay erdim, koshki,
Buncha jabr-u mehnatni ko‘rmagay erdim, koshki,
Nolai oh-u fig‘onlar qilmagay erdim, koshki.

Ko‘z ochib yorug‘ jahonda aysh-u davron surmadim,
Do‘st-u yorim, hamdamim birla hiramon yurmadim,
Izzat-u ikrom birla arzi holin so‘rmadim,
Shum falakning gardishidan bir dam shod bo‘lmadim,
Toleyim badbaxtligin bilmagay erdim, koshki.

Buncha savdolar mening tushdi azaldan boshimga,
Bir kishi qilmas bayonim qavm ila qardoshimga,
Bu qorong‘i joy ichida hech kim kelmas qoshimga,
Rahm qilmay Haq taolo ko‘zdan oqqan yoshimga,
Jodugarlar shahriga kelmagay erdim, koshki.

Uch yil bo‘ldi bu quduq ostida bo‘ldim mubtalo,
Ojiz-u notavonman naylayin holim taboh,
Qayg‘u-alamdan boshqa yo‘qdir menga bir oshno,
Bo‘lmadi hosil menga, ko‘nglimda qilgan muddao,
Hobi g‘aflatda ani ko‘rmagay erdim, koshki.

Ey Xudo-yo, bu balolar bizga yo‘qdir benasib,
Jabr-u mehnatlar chekib, qoldim quduqda men g‘arib,

Bir nishonin topmadim, yorning makonin axtarib,
Bu Dilovar qoldi tanho bu quduqda sarg'arib
Yor vaslidan judo bo'lmagay erdim koshki.

Dilovardan bu muxammasni eshitgan Gulchehra pari ko'nglida "mening muddaoyim shu yerda ekan" deb, quduqning ichiga tushdi. Shahzodaning yoniga borib:

— Ey, barno yigit qaydan bo'larsen? Asli-naslingni menga bayon qilgil. Men parizodman, shaharma-shahar sayr qilaman. Bugun mening yo'lim shu zindon ustidan o'tdi. Sening oh-u nolang, fig'oning falaka chiqqanini eshitdim. Ne sababdan buncha yig'laysan? — deb Gulchehra pari shahzoda Dilovardan savol so'radi. Shahzoda Gulchehra parining savoliga javob berdi:

Savoli Gulchehra pari

— Arzi holing so'zla menga bilayin,
Ne sababdan yig'laydirsan chandona,
Qismating ne bo'ldi tadbir qilayin,
Fig'oning yetishdi yerdan osmon(g)a.

Javobi shahzoda Dilovar:

— Necha yildir zindon ichra bog'liman,
Shuning uchun yig'laydirman chandona,
Bir yor uchun siynalari dog'liman,
Shu sababdan ohim yetar osmon(g)a.

— Bayon ayla o'zing qaydan bo'larsen,
Shaxzodami yo bir miskin bo'larsan,
Sabab nedir o'zing o'tga solarsen,
Kecha-kunduz kuyib misli parvona.

— Otam shohi Rum, o'zim shahzoda,
Musofir ellarda qoldim aftoda,
Ko'nglim g'amda erur, jonim jafoda,
Ishq o'tida kuydim misli parvona,

— Ne sababdan bo'ldi senga bu qismat,
Yetishdi boshingga bu qayg'u-kulfat,
Nechuk odam qilib bo'hton-u tuhmat,
Yusuf kabi tashladilar zindon(g)a.

— Necha yillar sonsiz jafolar ko'rdim,
Undan xalos bo'lib, bir boqqa keldim,
Shohbot joduning onasini o'ldirdim,
Jodugarlar tutib soldi zindon(g)a.

— Men bundan ketarman uzoq yo'llarga,
So'zla qurbon bo'lay, shirin tillarga,
So'roq etay sening uchun ellarga,
Yoringning otini ayla bayona.

— Zarnigor shahridir aning makoni,
Sababkorim,
g'arib dardim darmoni,
Asli pari parilarning sultoni,
Gulasrordir otin qilsam bayona.

— Gulchehra der yoring yubordi meni,
Istadim necha kun topmadim seni,
G'am yema, yoringga eltarman seni,
Yoring bilan suhbat ayla mastona.

— Sadag'ang ketayin, qaydan bo'larsan,
Bu quruq jismiga o'tlar solarsan,
Dilovarning g'amgin ko'nglin olarsan,
Shirin jonim bo'lsin senga qurbona.

Shahzoda Dilovar bilan Gulchehra pari bu so'zlarni aytishganlaridan keyin shahzoda o'z yori yonidan kelgan parizodni bilib, bo'ynidan osilib, betoqat va beorom bo'lib, yig'lab ushbu g'azalni aytdi:

G‘azali shahzoda Dilovar

Shukur Egam, dargohiga,
Sevar yordan xabar keldi.
Oshiqlarning holin so‘rab,
U dildordan xabar keldi.

Yetishib yorning dodiga,
Yetish uchun dil shodiga,
Bulbulning chekkan ohiga,
U gulzordan xabar keldi.

Payg‘am yuboribdir habib,
Dardga davo qilar tabib,
Yuzin ko‘rmak bormi nasib,
U xunxo‘rdan xabar keldi.

Bog‘i Eram ichra ra’no,
Zulfi sunbul qaddi zebo,
Yetibon boshiga savdo,
Sharmisordan xabar keldi.

Ohim yetdi dilraboga,
Rahm etdi mendek gadoga,
Dilovar shukr et Xudoga,
Guasrordan xabar keldi.

Gulchehra pari shahzodaning bu so‘zini eshitib, Gulasaroning yori ekanini bildi. Shunda Gulasaror parininng salomnomasini chiqarib, shahzodaga berdi. Shahzoda salomnoma-maktubni olib, ko‘zlariga surtib, betoqat va beorom bo‘ldi. Shunda Gulchehra parizod bir dev suvratiga kirib, shahzodani ortiga ko‘tarib, quduqdan chiqib havoga uchdi. Nogoh Shohbot jodu o‘n ming lashkar bilan shikorga chiqqan edi. Tasodifan yo‘li ularga ro‘baro‘ keldi. Shohbot joduning ko‘zi shahzodani yelkasida ko‘tirib borayotgan Gulchehra parizodga tushdi.

Shohbot jodu dedi:

— Ey jodugarlar, bu dev orqasida bir odamni ko'tarib ketmoqda, uni ushlanglar.

Hamma jodugarlar ismi a'zam duosini o'qib, dev suvratiga kirib, Gulchehra bilan shahzoda orqasidan shoshib, quvalab borar edilar.

Ammo u vaqt Gulchehra parizod Alloh taologa munojot qilib: "Xudo-yo, Xudovando, meni sharmisor qilmagaysen", deb Allohdan panoh tilab ushbu baytlarni o'qidi:

G'azali Gulchehra pari

Xudovando Sen-Sen mening panohim,
Bunda meni oh-u zorga qo'ymagin.
Yo'qdan meni bor aylagan Xudoyim,
Kofir ichra sharmisorga qo'ymagin.

Men kelgandim bir pariga ahd etib,
Uch yuz yillik yo'lni jiddu-jahd etib,
Qo'yma bu cho'llarda sargardon etib,
Parvonadek kuyib norga qo'ymagin.

Zindondan qutuldim uchib havoga,
Qayta boshdan bizni qo'yma baloga,
Ayriqlik hasratin solib oraga,
Bir-biriga intizorga qo'ymagin.

Bizlarga yetirgil pardai hijob,
Munojot qilaman Xudoga yig'lab,
Sen ham yig'la, shoyad bo'lgay mustajob,
Bir-u Borim nomus-orga qo'ymagin.

Gulchehra der, pirim yo Shohimardon,
Qo'lim tut bu yerda qilma sargardon,
Solma oshiqlarga otash-u hijron,
Gulasror baxtin qora qo'ymagin.

Gulchehra pari o‘z so‘zini aytdi. Devlar esa uning orqasida jamlanib turardi. U samodan yerga tushib, shahzodani bir pinhon yerga qo‘yib, o‘zi qo‘liga qilich oldi va devlar bilan urusha boshladi.

Shunda Shohbot jodu bir ismi a’zam duosini o‘qib, olamga o‘t qo‘ydi. Olamni dudi zulmat tutib, qarong‘u bo‘lib, atrofdagilar bir-birini ko‘rmas bo‘lib sarosimaga tushdi.

U vaqtda shahzoda darrov joyidan turib, Alloh taolodan madad tilab, ushbu so‘zlarni aytdi:

G‘azali shahzoda Dilovar

Xudo-yo Sen o‘zing bergil,
Jodugarlardan omon menga.
Bu holimga tarahhum qil,
Sen erursan Rahmon menga.

Nuhning to‘foni bo‘ldimi?
Jahonni zulmat oldimi?
Isrofil surin chaldimi?
Bo‘ldi oxir zamon menga.

Qutulmadim hech balodan,
Jon birla jismim jafodan,
Necha yil o‘tdi oradan,
Bu kun bo‘ldi gumon menga.

Ne jafo yetar boshimga,
Og‘u qo‘shildi oshimga,
Nusrat bergin bu ishimga,
Zindon bo‘ldi makon menga.

Dunyoda ko‘rmadim najot,
Qolmadi mendan yaxshi ot,
Umrim guli bo‘ldi barbod,
Esdi bodi hazon menga.

Eshitdim yorning salomin,
O'qib yig'larmen payg'omin,
Ko'rolmadim yor visolin,
Dog'lar soldi hijron menga.

Dilovardir Haqning quli,
Taborak ism o'qir tili,
Oshiqlarning piri Ali,
Madad bergil Yazdon menga.

Dilovar shu zaylda Alloh taologa sodiq ixlosda tavakkal qilib, devlar bilan shunday jiddu jahd bilan kurashar edi. Peshingacha o'n ming jodugarni qirib, ularning jonini do'zaxning malagiga topshirdi. Shundan so'ng olam yorishdi. Bu holdan Gulchehra parining ko'ngli xush bo'lib, shahzodaga qarab bir so'z dedi:

G'azali Gulchehra pari

Ey shahzoda pandim eshit,
Yurgil, yo'lga kirgil bugun.
Yoring bilan suhbating tut,
Yetaver manzilga bugun.

Oshiqlarni qo'yma dog'ga,
Navbat berma farzonaga,
Nav niholli toza bog'ga,
Borib bog'bon bo'lgin bugun.

Va'da qildi yoring qirq kun,
Ko'zda yoshi bo'ldi Jayhun,
Bu dahr yerga bo'lib Majnun,
Layli uchun kirgin bugun.

Sening uchun kecha-kunduz,
Yoring anda yurar ojiz,
Raqiblar bo'lmay xabarsiz,
Yetaver manzilga bugun.

Gulchehradir Haqning quli,
Hurram bo'lsin yurgan yo'li,
Sarvi qomat, nozik beli
Quchib, kirgin yo'lga bugun.

Gulchehra pari so'zini eshitgan shahzoda:

— Ey Gulchehra pari, jonim senga sadaqa bo'lsin. Mening toqatim toq bo'lib, hech sabr qarorim qolmadi, —degach Gulchehra pari yana ham Alloh taologa tavakkal qilib, shahzodani qaytadan yelkasiga ko'tarib, dev suvratida havoga uchdi. Yana yetti kecha-kunduzda uch yuz yillik yo'lni bosib o'tdi. Qal'ai Zarnigorga yetib keldi.

Gulasror parining chorbog'iga kirib, shahzodani bog'da gullarning orasida qo'yib, o'zi suyunchi olish uchun yetmish ikki quloch ko'shkning ustiga chiqib, haramsaroyga borib, Gulasror pariga salom berdi. Shu vaqt Gulasrorning qo'lida ro'moli, ko'zida yosh, bag'rida tosh, yorining ishqi-la ming g'am-kulfatda zorzor chun abrinavbahor kabi yig'lab, ko'zi yo'lda, qulog'i cho'lda edi. Nogoh Gulchehra parini ko'rib, qo'lini bo'yniga solib, yorini so'radi. Gulchehra pari "Yoring keldi" deb, uning manglayidan o'pdi.

Ikkisi bir-biriga savol-javob aytishar edi:

Savoli Gulasror pari

— Kanizlar sarvari xonim,
Mening sevar yorim qani?
So'zlagil Gulchehra jonim
Tanda shirin jonim qani?

Javobi Gulchehra par

— Ey parilar sultoni,
Yurgil, sevar yoring keldi.
G'arib ko'nglingning murodi,
Tanda shirin joning keldi.

— Ishqning bozori qurildi,
Durri, yoqut, gavhar to'ldi,
Alar xaridori keldi,
Mening xaridorim qani?

— Oshiqlar ishq bozorida,
G'avvoslar gavhar konida,
Bulbullar gul dargohida,
Sening xaridoring keldi.

— Majlisida qo'li sozli,
Ovozi bulbul ovozli,
Qarchig'ayli, tabli, bozli[1]*,*
Yusufi Ka'nonim qani?

— Ishq o'tida ranggi so'lib,
Jafo chekib misli Ayyub,
Yor oldida Yoqub bo'lib,
Yusufi Ka'noning keldi.

— Hijr o'tiga kuydi jonim,
Barbod bo'ldi ustixonim,
Sarf aylayin har na borim,
Dardimga darmonim qani?

— Yoring bo'lar senga hamdam,
Boshingizdan ketar bu g'am,
U bo'lar dardinga marham,
U tabib Luqmoning keldi.

— Gulasrordir mening otim,
Falakni kuydirar ohim,
Behishtim, firdavsim yorim,
Hur ila g'ilmonim qani?

[1]**Tabli, bozli** — nag'orali, lochinli

— Gulchehra der, og'zin ochib,
Og'zidan durlarin sochib,
Sening uchun jondan kechib,
Behishtdan g'ilmoning keldi.

Gulchehra pari bilan Gulasror pari shu so'zlarni aytishgandan keyin ko'shkning ustiga chiqib, har yonni tomosha qildilar.

Shunda Gulasror pari ko'p betoqat bo'lib:

— Ey Gulchehrajon, mening sabri qarorim qolmadi. Mening yorimni qayerda ko'rding? Uzoqdan muborak jamolini bir ko'rsatgil, — deb tavallo qilib yig'lar erdi.

Shu payt shahzodaning ko'zi ko'shk ustiga tushdi. Ko'rsa, Gulasror parizod o'n to'rt kechalik oyga o'xshab, jahonni nurga to'ldirib, yuzining shu'lasidan oftob rashk etib, zarrin pardani yuziga tortib, xijolat bo'lib turibdi.

Shahzoda esa tushida ko'rgan nozanin yorini topib, ko'shkka qarab, baland ovoz bilan bu muxammasni aytdi:

Muxammasi shahzoda Dilovar

Oshig'ingning holiga ayla tarahhum, ey sanam,
Kecha-kunduz zor yig'lab, siyna biryon, diyda g'am,
Naylayin tushdi boshimga hijr aro yuz ming alam,
Ketdi sabr-u ixtiyorim, qoldi jon birla tanim,
Rahm etib so'r holimni, ey dilrabo, qilma sitam.

Za'farondek sarg'arib, so'ldi mening guldek yuzim,
Sensiz ko'zimga qarong'u bo'ldi kecha-kunduzim,
Ketdi bog'imdan uchib, sayrab o'tirgan bulbulim,
To'kilib bol-u parim, tan bo'ldi joy ostida qum,
Misli Yoqub "Yusufim" deb zor yig'labon qaddi jim.

Vaslingni istab Xudodankim, tilarman dod etib,
Mumkin bo'lg'aymi ko'rarga nolai faryod etib,
Sen yurarsan gul aro bulbul bilan maskan etib,

Sharbati abri labingdan bir qadah ber noz etib,
Yetti yil bo'ldi humorimen, keltirgil jomi Jam.

Oftobdek barq uradir oy yuzingning shu'lasi,
Bilmadim yo ochildimikim, behishtning ravzasi,
Eshigingda kiygan libosingdirmi jannat hullasi,
Kuydirur olamni gar tushsa yuzingning pardasi,
Podishohim men gadoga ber zakoting dam-badam.

Yastanib keldim ko'yingda bir nazar qilgaymi deb,
Lutf etib holim so'rab, dardga davo qilgaymi deb,
Hijr o'tidan bir zamon jonimni qutqargaymi deb,
Holimni ko'rsa nigorim, menga rahm qilgaymi deb,
Bu Dilovar sariga, endi nigorim qo'y qadam.

Shahzoda Dilovar muxamasni o'qib bitirdi. Gulasror pari shahzoda Dilovarning ovozini eshitib, joniga o't yopishib, o'zini tuta bilmay, ko'shkdan o'zini tashlashga oz qoldi. Shunda Gulchehra hozir bo'ldi. Darhol kelib, Gulasror parini quchoqlab, ichkariga oldi.

Gulasror pari zor-zor yig'lab:

— Ey Gulchehrajon, menda hech sabr-taoqat, quvvat-u mador qolmadi, — dedi.

Gulchehra pari:

— Ey Gulasrorjon, siz shu yerda o'tiring, men borib yoringni keltirayin, tokim, do'st-u dushman tang qilmasinlar, — deb ko'shkdan tushib, boqqa borib, shahzodani ko'shkning ostiga olib keldi.

Gulasror parizod ko'shkining ustida turib, yaxshilab nazar solsa— tushida ko'rgan yori. Darhol Gulasror pari ko'shkining ustidan tushib, shahzoda Dilovarning yoniga kelib, yoriga qarab, "Xush kelibsiz" dedi va ikkisi ham xushidan ketdi. Gulchehra bechora bularning dimog'iga xushiga keltiradigan dori tutdi. Ikkisi ham xushiga keldi. Gulasror pari shahzoda Dilovarga qarab bir so'z aytdi:

G‘azali Gulasror parizod

Qolmadi sabr-u qarorim,
Xush kelibsiz, sevar yorim.
Senga berdim ixtiyorim,
Xush kelibsiz, sevar yorim.

Qurbonman asli zotingga,
Yetti pushti avlodingga,
Oshiq edim men otingga,
Xush kelibsiz, sevar yorim.

Ishqning sharobin ichibmen,
G‘avvosman konga tushibmen,
Shirin jonimdan kechibmen,
Xush kelibsiz, sevar yorim.

Falak birla hamxonamen,
Goh tutashib, goh yonamen,
Jamolingga parvonamen,
Xush kelibsiz, sevar yorim

Oshiq bo‘lmas jondan kechmay,
Ishq jomidan sharob ichmay,
Raqiblar o‘rtaga tushmay,
Xush kelibsiz, sevar yorim.

Bilma “Yorim bevafo” deb,
“Jonimga aylar jafo” deb,
Yusuf kabi “Zulayxo” deb,
Xush kelibsiz, sevar yorim.

Gulasror der sonsiz qizni,
Parizoddir aning o‘zi,
Eshitib, rahm aylą so‘zni,
Xush kelibsiz, sevar yorim.

Gulasror parizod o‘z so‘zini aytdi. Shundan keyin:

— Tushimda ko‘rgan mehribon yorim, kelgin ko‘shkka chiqaylik, — deya ishorat qildi. Shundan so‘ng shahzoda Dilovar bilan Gulasror pari ko‘shkka qarab yurdilar.

Gulasror:

—Ey Gulchehrajon, mening mehribon hamdamim, sirdoshim, sen mening uchun ko‘p jabr-u jafolar tortding. Endi to‘y anjomini hozirlab, katta to‘y berib, oshiqlarni murod-maqsadiga yetirgil, — dedi. Shunda Gulchehra:

— Xo‘p bo‘ladi, —deb kanizlar bilan to‘y hozirligini ko‘rdi. Gulasror pari shahzoda Dilovarning ko‘ngli shod bo‘lsin deb, arzi holini, ahvolini bayon etib bir so‘z aytdi:

G‘azali Gulasror pari

Yorim sening *ishqing o‘tiga yondim,*
Kecha-kunduz intizorim sen mening.
Parvonadek o‘zim o‘tlarga soldim,
Bu ishlarga sababkorim sen mening.

Haddan oshdi mening oh-u fig‘onim,
Hijr o‘tiga ko‘ydi bu shirin jonim,
Behishtim, firdavsim, hur-u g‘ilmonim,
Tushda ko‘rgan sevar yorim sen mening.

Bir ohimdan falak yerga yiqildi,
Ohim dudi bilan dunyo tutildi,
Yaxshi kunim, yomon kunga chatildi[1],
Bu dardimga madadkorim sen mening.

Endi tark ayladim nomus-orimni,
Sarf aylay yo‘lingga har ne borimni,
Bihamdulloh, ko‘rdim sevar yorimni,
Ko‘nglimdagi qil-u qolim sen mening.

[1]**Chatildi** — aralashdi, almashdi, adashdi.

Gulasrorning arzi holin eshitgil,
Zarnigor shahrida murodga yetgil,
Sevar yorim, endi suhbating tutgil,
Ikki dunyo vafodorim sen mening.

Gulasror pari arzi holini bayon etdi. Shahzoda Dilovar Gulasror parining yuzidan pardasini ko'tarib, uning yuzini ko'rib, yorini ta'rif qilib, ushbu g'azalni aytdi:

G'azali shahzoda Gulasror

Yuzing shamsi qamar, zulfing sunbuldek,
Labi la'ling erur xandon, nigorim.
Husning ochilmishdir bir toza guldek,
Xiyobon-xiyobon yursang, nigorim.

Hozirdir yoningda jumla parizod,
Raftoring to'tidir, qomating — shamshid,
Jon olishga jodu ko'zlaring jallod,
Parilarning shohi, sulton, nigorim.

Rashk etar qaddingdan sarvi xiromon,
Tilarmen:
Allohdan yetmasin nuqson,
Dunyoda bo'l barchaga nodir-u davron,
Besh kun g'animatdir sulton, nigorim.

Qadding guldir, qomating gul, yuzing gul,
Raftoring gul, guftoring gul, so'zing gul,
Asling guldir, vasling guldir, o'zing gul,
Men bulbul — qolmisham hayron, nigorim.

Qodir Alloh, Egam tahsin qudrati,
Chekmishdir tuproqdan turfa suvratni,
Yolg'onchi dunyoga berib ziynatni,
Sen parisen, sen bir inson, nigorim.

Shikor chiqib, seni ko'rdim tushimda,
Ko'rgan erdim, ayni o'n to'rt yoshimda,
Yetti yildir bori kulfat boshimda,
Sening uchun bo'ldim giryon, nigorim.

Dilovarga falak ne ish qayiridi,
Dushmanlarin tuproq bilan to'ydirdi,
Jazirai xunxo'rda lashkarim qoldi,
Vazir o'ldi, bag'ri biryonim mening.

Shahzoda Dilovar bu so'zini tamom qildi.To'yboshi Gulchehra pari yetti kech-kunduz to'y-tomosha berib, sakkizinchi kun qozini chaqirib, Gulasror parini shahzoda Dilovarga nikoh qilishdi. Ikki oshiq qo'shilib, qimmatbaho to'shaklardan aysh-u ishratga mashg'ul bo'ldi.

So'zning qisqasi, Gulasror parizod bilan shahzoda Dilovar rohat-farog'atda bo'lishdi.

Oradan yetti yil o'tdi. Kunlardan bir kun shahzoda Dilovarning ota-onasi yodiga tushib:

— Men bu yerda murodimga yetdim. Ammo otam bilan onamning ahvoli nima bo'ldi, —deb yoriga qarab, bir so'z dedi:

G'azali shahzoda Dilovar

Ajab kundir, Xudovan-o,
Bu kun jononimga yetdim.
Chekib jabr-u mashaqqatlar,
Ko'ngil armonimga yetdim.

Jafolar tortib gardundan,
Ziyoda bo'ldim Majnundan,
Qutuldim hijron o'ti(n)dan,
Bunda darmonimga yetdim.

Boshimga tushdi mehnatlar,
Yana sonsiz alomatlar,

Chekib ranj-u mashaqqatlar,
Shahri sultonimga yetdim.

Tushimda ko'rdim jamolin,
Oy yuzin, qoshi kamonin,
Yetti yil izlab zulolin,
Obi Jayhunimga yetdim.

Tark ayladim saltanatni,
Tashladim shon-u shavkatni,
Ixtiyor etmay jannatni,
Huri g'ilmonimga yetdim.

Necha yil chohi zindonda,
Yusuf kabi bo'ldim banda,
Ishq o'tiga jon kuyganda,
Piri Luqmonimga yetdim.

Otam erdi Rumda sulton,
Onamga yetdi ming armon,
Dilovarga keldi davron,
Ayshi davronimga yetdim.

Dilovarning bu so'zidan Gulasror parizod seli obdek ko'z yosh to'kib, shahzodadan ahvol so'rab:

— Ey barno yigit, menga arzi holingni bayon qilmasang, mening holim zabun bo'ldi, — deb bir muxammas aytdi.

Muxammasi Gulasror parizod

Ey husn ichra xo'blarsen, maqsading bayon ayla,
Jannat-u, gul-u huramon, maqsading bayon ayla,
Bo'ldi ko'nglim bunda barbod, maqsading bayon ayla,
Jon chekmasdan burunroq maqsading bayon ayla,
Ey yori Dilovar sen, maqsading bayon ayla.

Boshimga tushib ofat Yusufning otasidek,
Layli g'amidan yetgan Majnunning balosidek,
Farhodi jafokashga ul Zolning jafosidek,
Kim ul Vomiq-Uzroning ko'rgan mojarosidek,
Ey yori Dilovarsen,
maqsading bayon ayla.

Yo bormi boshqa yoring bu yorug' jahon ichra,
Ishqingda jigar dog'lab, bu kun bu makon ichra,
Sharh ayla menga bu dam, bu sirri pinhon ichra,
Qo'yma meni, ey dilbar, bu ohi fig'on ichra,
Ey yor Dilovarsen,
maqsading bayon ayla.

Vaslingni, ayo janon, ellarga so'rog' etsam,
Ishqingda shirin jonim hijr o'tiga dog' etsam,
Parvonasifat yonib, jismimni nisor etsam,
G'am kulbasiga kirdim g'urbatda makon etsam,
Ey yori Dilovarsen, maqsading bayon ayla.

Arzini eshit, yorim, bechora Gulasrorning,
Men tushda ko'rib bo'ldim shaydoyi giriftoring,
O'rtama meni — zoring, yetirmay sehri sharring,
Ta'qiqini aytib, endi ayla menga guftoring,
Ey yori Dilovarsen, maqsading bayon ayla.

Gulasror pari shahzoda Dilovarga o'z so'zni aytib, oh urib:

— Darvoqe mendan boshqa yoring borga o'xshaydi, — dedi.

Shahzoda Dilovar bir oh urib:

— Ey nozanin parizod, mendan badgumon bo'lmagil. Mening sendan o'zga yorim yo'qdir, — deb qasamyod qildi.

Shundan so'ngra:

— Mening otam bilan onam yodimga tushdi. Ey mehribonim, agar menga ruxsat bersang men ularni ko'rib kelayin, — deb bir so'z aytdi:

G‘azali shahzoda Dilovar

Quloq solib, sevar yorim,
Eshit arzi-ahvolimni,
Ota-onam mehribonim,
Ko‘rsam ul xush taborimni[1].

Maqsadimdir Rumning shahri,
Turfa xushdir uning bahri,
Inoyat ayla Tangri,
Ko‘rib kelsam diyorimni.

Ilm o‘qidim kitob ochib,
Haqiqat yo‘liga tushib,
Ziyorat aylasam borib,
Ta’lim bergan ustozimni.

Shikor chiqar beg-u xonlar,
Adolat birla sultonlar,
Xush takallum g‘azalxonlar,
Musohib[2] *do‘sti yorimni.*

Dilovarga ruxsat bersang,
So‘zini muxtasar qilsang,
Senga budir so‘zim, bilsang,
Xo‘p eshit sen kalomimni.

Shahzoda Dilovar so‘zini tugatgach, Gulasror parizod:

— Ey yori vafodorim, sendan ayrilishga toqat qila bilmasman. Jonim chiqar mahali men sening visolingga yetgan bo‘larman. Sen ketsang, endi men sendan ayrilmasman, — deb shahzodaning bo‘ynidan osilib, bu so‘zni aytdi:

[1] **Tabor** — qarindosh, nasl.

[2] **Musohib** —hamsuhbat, ulfat.

Gulasror parizodning abyoti

Sevar yorim, eshit mendan,
Ayrilmasman yorim sendan.
Shirin jonim chiqar tandan,
Ayrilmasman yorim sendan.

Mansurdek jondan kechmayin,
Ajal mayidan ichmayin,
Kafan to'nimni bichmayin,
Ayrilmasman yorim sendan.

Farhod Shirindan ayrilsa,
Layli Majnundan ayrilsa,
Zuhra Tohirdan ayrilsa,
Ayrilmasman yorim sendan.

Vomiq ayrilsa Uzrodan,
Yusuf kechsa Zulayxodan,
Ont icharman bir Allohdan,
Ayrilmasman yorim sendan.

Inon mening so'zlarimga,
Qaro surtay yuzlarimga,
Hoki poying ko'zlarimga,
Ayrilmasman yorim sendan.

Men senga hamdam bo'larman,
Jannatni barham[1] *urarman,*
Hur-u g'ilmondan kecharman,
Ayrilmasman yorim sendan.

Gulasrorning budir so'zi,
Parizoddir uning o'zi,
Agar hamroh qilsang biz(n)i,
Ayrilmasman yorim sendan.

[1] **Barham** — yo'qotish.

Shahzoda Dilovar Gulasrordan bu so‘zni eshitib:

— Ey nozanin, mehribon yorim, unday bo‘lsa ne maslahat berarsan? — dedi.

Shunda Gulasror pari Gulchehra parini yoniga maslahatga chiqib:

— Ey Gulchehrajon, men sendan ko‘p yaxshiliklar ko‘rdim. Sen Zarnigor qal’asiga podshoh qildim va yurtni senga topshirdim. Mol-mulkimga va toj-u taxtimga ega qildim. Men bo‘lsa, shahzoda bilan Rum shahriga ketaman. Sen borib, Dilovarimni olib kelgin, — dedi.

Gulchehra pari darrov Dilovarni olib keldi. Devsalim ta’zim etib, salom berib turdi. Gulasror pari Devsalimga qarab bir so‘z aytdi:

G‘azali Gulasror pari

Devsalimim, arzim eshit aytayin,
Sendan o‘zga suhandonim yo‘q mening.
Yorim bilan Rum shahriga ketayin,
Sendan o‘zga mehribonim yo‘q mening.

Yoshligimdan boqib, tarbiya berding,
Suv o‘rniga shirin-sharbat ichirding,
Jabr-u mehnatlarni o‘zingga olding,
Sendan o‘zga g‘amg‘usorim yo‘q mening.

Otamizdan sensan qolgan yodgorim,
Sarf etay yo‘lingda men har na borim,
Yaxshi kunda, yomon kunda darkorim,
Sendan o‘zga madadkorim yo‘q mening.

Devlar ichra seni bildim yagona,
Sendek yaxshi dev kelmas jahon(g)a,
Qadrimni na bilar dev-u begona,
Sendan o‘zga qadrdonim yo‘q mening.

Gulasrorning xizmatini bitirgil,
Balolardan, ofatlardan o'tirgil,
Ikkimizni Rum shahriga yetirgil,
Sendan o'zga sababkorim yo'q mening.

Gulasror pari so'zni Devsalim ma'qul topib, qo'l qovshirib xizmatiga tayyor bo'lib turdi. So'ng Gulchehra pari kanizlariga devning ustiga dur-u gavharlardan, zeb-u ziynatlardan yuklashni buyurdi. Kanizlar buyruqni bajardilar.

Gulasror pari bilan shahzoda devning ustiga minishdi. Barcha dev-parilar bilan mamnun bo'lib xayrlashdilar. Ammo Gulasror pari hijronga toqat qila bilmay ko'zlaridan qatra-qatra yosh to'kib, Gulchehraga qarab bir so'z aytdi:

G'azali Gulasror pari

O'z o'rnimga sulton bo'lgan,
Shohi jahon, xush qol endi.
Madadkoring bo'lsin Subhon,
Gulchehrajon xush qol endi.

Katta-kichik xizmatimda,
Birga yurgan ishratimda,
Bo'ling Haqning ismatinda[1]*,*
Pari, juvon xush qol endi.

O'z ochib dunyoga kelgan,
Necha yillar davron surgan,
Xaloyiqning dodin bergan,
Taxti ravon xush qol endi.

Qozilar, shayxlar muvofiq,
Din yo'lida bo'ling sodiq,
Rozi bo'ling, ey xaloyiq,
Yurt kaloni, xush qol endi.

[1] **Ismat** — poklik, ma'sumlik.

Qarorim yo'qdir bu tanda,
Ishq o'ti qildi sharmanda,
Gulasrorga Rum shahrinda,
Bo'ldi makon, xush qol endi.

Gulasror paridan keyin shahzoda Dilovar bir fikr qilib:

— Ey, Gulasrorjon, men ham bir so'z aytib rozilashayin. Parilar "Shahzoda biz bilan vido qilmadi" deb ta'na qilmasinlar. Men ham bir so'z bilan bularning ko'nglini olayin, — deb parilarga qarab, ko'zlaridan qatra-qatra yosh to'kib, bir muxammas o'qidi:

Muxammasi shahzoda Dilovar

Alvido, ey nozaninlar, mehribonlar, alvido!
Zarnigor shahrida, ey shohi jahonlar, alvido!
Qaddi alif, yuzi gul, qoshi kamonlar, alvido!
Termilib yuzimga boqqan qiz-u juvonlar, alvido!
Sirru-mahfiylari bilan nuktadonlar, alvido!

Haq taolo chun yaratmishdir azaldan qismatni,
Ishq uchun soldi boshimga ming baloi mehnatni,
Yetti yil chekdim jafolar birla qayg'u kulfatni,
Inshaalloh Rum shahrinda surarmen ishratni,
Alvido, ey nozaninlar, mehribonlar, alvido!

Haq taolo amri birla men safar qilsam kerak,
Ul jamoli ota-onamni borib ko'rsam kerak,
Jonimni sarf aylabon, boshidan o'grilsam kerak,
Har ne qismat bo'lsa, Allohdan ko'rsam kerak,
Alvido, ey nozaninlar, mehribonlar, alvido!

Siz jamoat bunda bo'ling biz ikkimizdan rizo,
Marhabo, ey Zarnigor ahli eshiting, marhabo,
Bir sabab birla bo'libmen, sizlarga men oshno,
Chun azaldan bizga, sizga bo'ldi taqdiri Xudo,
Alvido, ey nozaninlar, mehribonlar, alvido!

Yosh joriy bo'ldi ko'zimdan, qon ham bag'rimdan mening,
Men duo aylay haqingga Haq taolodan sening,
Huri jannatlar bilan bo'lsin muhayyo gulshaning,
Bu Dilovarning joni bo'lsin fidoi har biring,
Alvido, ey nozaninlar, mehribonlar, alvido!

Shahzoda Dilovar so'zidan barcha parilar xursand bo'lib, shahzoda bilan xayrlashib, yig'lashib, ruxsat berdilar. Gulchehra pari esa Zarnigor taxtiga chiqib podshoh bo'ldi.

Gulasror pari Devsalimga amr etdi. Dev Allohga tavakkal qilib, ularni orqasiga ko'tarib, osmonga parvoz qildi. Alqissa, uch oy yo'l yurib, Ohanrabot shahridan o'tib, Otashi joduning maskaniga, ya'ni Bog'i Murodga yetishdi. Ko'rsalar, bog' eshigida bir bobo o'tirgan ekan. Shahzoda:

— Ey bobo, sen qandoq odamsan, bu jodugar makonida o'tiribsan? — deb so'radi.

Bobo:

— Ey shahzoda, men Hazrati Xizr alayhissalom bo'laman. Allohning amri bilan sening oldingga keldim, -dedi.

Shunda Dilovar bilan Gulasror pari ziyorat qilib, bog' ichiga kirdilar. Shu vaqt vazir Tahmas shahzodaning yodiga tushib, hazrati Xizr alayhissalomga arzini aytib, bu muxammasni o'qidi:

Muxammasi shahzoda Dilovar

Ey bobo, Tangri uchun menga nazar ayla bu kun,
Ul vazir qolgan yerga borib, guzar ayla bu kun.
Jon berib bechorani bizga nafar ayla bu kun,
Rost bo'ling bir karomati asar ayla bu kun,
Gar qabul etsang, mening birla safar ayla bu kun.

Qal'ai Jahonnomadan bizga hamroh bo'ldi ul,
Ikki oy yo'llar yurib, bu yerga keldi ul,
Qismati shu bo'ldi — jodugar o'tiga kuydi ul,
Jon-u jahonin sarf etib, bu bog'da tuproq bo'ldi ul,
Ahd-u paymon birla o'lganga nazar ayla bu kun.

Onasi Shohbodning Otashi ekandir pir-zol,
Qildi afsun olamga yog'dirdi o'tni bemalol,
Bilmadim ne qilmishimdan qahr qildi Zuljalol,
Haq taolo amri birla umriga yetdi zavol,
Hasrat o'ti birla kuyganga nazar ayla bu kun.

Chiqdi ul bizning bilan taxti tojidan kechib,
Ahli avlodi bilan xesh-u taborindan kechib,
Ko'z yumib olamdan o'tdi, o'lmak makonidan kechib,
Oxiri qoldi bu yerda margning[1] jomidan ichib,
Ul sharobi margni ichganga nazar ayla bu kun.

Mustajob bo'lsa duongiz, Xizr, yo payg'ambari,
Mustafo haqi uchun bo'ldi Dilovar rahbari,
Piridir oshiqlarning dargohingda Hazrat Ali,
Toqatim yo'qdir mening, bunda o'zim qolgali,
O'tli ohim bilan fig'onimga nazar ayla bu kun.

Shahzoda Dilovar zor-zor chun abri navbahor yig'lab, hazrati Xizr alayhissalomning xizmatlariga arzi ahvolini bayon qildi. Hazrati Xizr alayhissalom vazir haqiga duoi xayr etdi. Shunda Alloh taborak va taolo hazrati Xizr alayhissalomning duosini qabul qildi. Vazir Allohning qudrati bilan aksirib, tuproqdan bosh ko'tarib, shahzoda Dilovar va hazrati Xizr alayhissalom bilan gaplashdi. Tahmas vazir bilan shahzoda Dilovar o'zaro hol-ahvol so'rashishdi. So'ngra Hazrati Xizr alayhissalom ularning ko'zlaridan g'oyib bo'ldi.

Shahzoda Dilovar, Tahmas vazir va Gulasror pari birgalashib, Bog'i Muroddan chiqib ketdi. Bir necha kun yo'l yurib, Jahonnoma qal'asiga bordilar. Bir necha kun u yerda qaror topib, viloyatni sarishta qilib, beqaror bo'ldilar.

Shundan so'ngra shahzoda Dilovar Tahmas vazirga shaharni topshirib, o'z o'rniga podshoh qilib, vazir bilan xayrlashib, ushbu baytlarni aytdi:

---

[1] **Marg** — o'lim, ajal.

G‘azali shahzoda Dilovar

Kel vazirim, duo aylayin endi,
Nigohboning bo‘lsin Yaratgan Jabbor.
To o‘lguncha adolatda bo‘l endi,
Madadkoring bo‘lsin rasuli Muxtor.

Men ketarmen Rum shahrini so‘roqlab,
Otam-onam qoldi bechora yig‘lab,
Ziyorat aylasam, ko‘nglini ovlab,
Bo‘ldi ular firog‘imda sharmisor.

Meni ketdi debon bo‘lma parishon,
Yosh oqib ko‘zingdan ashyoi hubon,
Dushmanlaring bo‘lsin yer bilan yakson,
Tarbiyat aylasin Haydari Qaror.

Sen bunda bo‘lgaysan sog‘-u salomat,
Mening bu boshimda ko‘pdir alomat,
Ikki notavonga bo‘ldi qiyomat,
Nihon sirim senga aylasam izhor.

Dilovarning muxtasardir kalomi,
Eshitsa bu so‘zim har xos-u omi,
Rum shahriga ketsin uning payg‘omi,
Nasib etsa, yana ko‘rgaymiz diydor.

Shahzoda Dilovar so‘zini tamom qildi. Tahmas vazir betoqat bo‘lib, shahzoda bilan vidolashib, ushbu so‘zni aytdi:

G‘azali Tohmas vazir

Bundan ketar bo‘lsang nozanin shohim,
Yana ham bir yo‘lga guzar aylagil.
Hijratingdan ko‘kka yetishdi ohim,
Bu g‘arib holimga nazar aylagil.

Hamroh erdim bir necha yil g'aybona,
Jonim erur jamolingga parvona,
Ko'nglingdan aylama meni begona,
Yurtingga borgandan xabar aylagil.

Agar joning omon bo'lsa bu tanda,
Mabodo ustimga lashkar kelganda.
Payg'omim eshitib, o'qib bilganda,
Lashkar bilan bunda safar aylagil.

Men yig'larmen bir Allohga yolvorib,
Za'farondek hijr o'tida sarg'arib,
Gar o'zing kelmasang, lashkar yuborib,
Dushmanlarim zer-u zabar aylagil.

Vazir aytar, sizga ushbu kalomim,
Xotiringda saqla mening payg'omim,
Otangga yetirib, mening salomim,
Haqiga bir duo asar aylagil.

Tahmas vazir shahzoda Dilovar bilan vidolashib, bir-biridan rozi bo'lishib ayrilishdi. Shundan so'ng shahzoda Dilovar bilan Gulasror pari Devsalimning ustiga minib, devga amr qildilar. Dev Allohga tavakkal bilan havoda parvoz etdi.

Yana bir oy yo'l yurib, Jazirai xunxo'rga yetib keldilar. Ko'rsalar odamlarning ustixoni cho'li biyobonni tutib yotar edi. Shahzoda Dilovar uni ko'rib, lashkari yodiga tushib bir sovuq oh urib, yurakdan dard tortib, ko'zlaridan qatra-qatra yosh to'kdi. Shunda Gulasror pari:

— Ey shahzoda, sen nima sababdan sovuq oh chekding. Mendan boshqa yoring bormi? — dedi.

Shahzoda Dilovar:

— Ey Gulasrorjon, mening sovuq oh chekishimning sababi budir: Men Rum shahridan ikki lak lashkar bilan chiqqan edim. Bu Jaziraga yetganimda ularning umri tamom bo'lib, bu dunyodan u dunyoga safar qildilar. Shuning uchun ko'nglim buzilib yig'larmen, — deb ko'zlaridan yosh to'kib, bu muxammasni aytdi:

Muxammasi shahzoda Dilovar

Ey parilar podshosi, senga ahvolim aytayin,
Bu lashkari turfadan qat'i manzilga keldik bu kun.
Men nechuk zolim falakning elidan dod etayin,
Ko'zyoshim har suv bo'lib oqqan yerga keldik bu kun.
Vaqti hijron Karbalo bo'lgan yerga keldik bu kun.

Avvalo Rum shahridan chiqdim ajab mushkul bilan,
Ham vazirim sarvarim, chun ikki lak lashkar bilan,
Sa'di Muxtoj xarajatki, zer-u zevar bilan,
Rustam shoh sifatli solar safidlar bilan,
Jumlasi yakson bo'lib qolgan yerga keldik bu kun.

Chiqdi bu cho'lning orasidan bir necha ming ajdar,
Qadlari uch yuz qadam, boshi gumbaz, og'zi — g'or,
Titrashar erdi xaloyiq, ko'rgach ani zor-u zor,
Yig'lar erdik, keldi zahrin soldi, bo'ldik paymol,
Bir kecha-kunduz yotib-turgan yerga keldik bu kun.

U zamon hayron bo'lib, bilmay qayon borar yo'lim,
Haq taolo amridan bo'ldi xayoling rahbarim,
Ketdi yodimdan chiqib, bog'-u bahor gulshanim,
Aql tandan bo'ldi zoyil, ham gung-lol bo'ldi tanim,
Bir Xudoga muddao qilgan yerga keldik bu kun.

Gar qo'lingdan kelsa yorim, qil duo alar uchun,
Ikki lak lashkarlarim tuproqqa yaksonlar uchun,
Yor hijronida yurgan ko'zi giryonlar uchun,
Bu Dilovar zor yig'lar, tushgan hijronlar uchun,
Men o'liklarga vido qilgan yerga keldik bu kun.

Shahzoda Dilovar o'z muxammasini tamom qilgach, Gulasror parizod Devsalimga qarab:

— Ey Devsalim, bu yerga tushgil, — dedi.

Devsalim shu zamon osmondan yerga tushdi. Ko'rishsa, yerda zer-u zevarlar xarvor-xarvor[1] yotar erdi.

Shu yerda Gulasror parizod tayamum qilib, bo'yniga ridosini solib, yuz ming ajr-u shikastalik bilan Alloh taborak va taologa zor-zor chun abri navbahordek yig'lab, ko'zlaridan qon to'kib, bu munojotni aytdi:

Munojoti Gulasror pari

Xudovando O'zing jon ato ayla,
Bu yerda qirilgan inson haqiga!
Bu g'amgin ko'nglimni Sen safo ayla,
Yetti qat yer, yetti osmon haqiga!

Qudratingdan yetti do'zax barpo,
Aylading behishtni sakkiz muhayyo,
Manzilingdir Sening u Arshi a'lo,
Kunfayakun otli farmon haqiga!

To'rt muqarrab malak ko'tardi arshing,
Tilga joriy qilib bir necha isming,
Vird ayladi tamjit otli tasbihing,
Malaklar o'qigan Qur'on haqiga!

O'n sakkiz ming olam sening mavjuding,
Yerda inson, ko'kda nujum ziynating,
Karam aylab, to'k bu yerga rahmating,
Rahmating daryosi ummon haqiga!

Arshi, Kursi, lavhi qalam hurmati,
Yetti ota, to'rt onaning hurmati,
Behisht ichra Dorul-islom hurmati,
Tavrot, Zabur, Injil, Qur'on haqiga!

[1] **Xarvor-xarvor** — to'p-to'p, uyum-uyum.

Bobolarim xizmatingda yurdilar,
Kulli maxluqoting doding berdilar,
Taqdir edi, izzat bilan o'ldilar,
Dovud o'g'li er Sulaymon haqiga!

Men shafe' ayladim jumla nabini,
Baxsh aylagil bu lashkarning jonini,
Gulasrorning qo'lidagi nigini[1]*,*
Sulaymondan qolgan nishon haqiga!

Gulasror pari bu munojotni tamom qildi. Shunda Alloh taolo qudrati bilan ikki lak lashkar tirildi. Alloh ularga jon ato etdi.

Go'yoki ular bir oqshom uxlab, hammasi o'rnidan aksirib turdilar.

Shahzoda Dilovar butun lashkari bilan ko'rishib, u kecha o'sha yerda bo'ldi. Ertasi tong namozidan so'ngra vazir Haqonul Azim bilan shahzoda Dilovar bir-biriga hol-ahvol so'rashdi; savol-javob qilib, ushbu baytlarni aytdilar:

Savoli Haqonul Azim

— Marhabo, ey shahzodai Dilovar,
Necha yil bo'libdi chiqdik vatandan.
Fahm qilayin ani, tayini bovar[2]*,*
Javob ayla, bu kun menga sen undan.

Javobi shahzoda Dilovar

—Hijr etib, Rum shahridan adashib,
O'n besh yil bo'libdi chiqdik vatandan.
Bir parining sadosiga ulashib,
Javobini, vazir eshitding mendan.

[1] **Nigin**— uzuk.

[2] **Bovar** — ishonch.

— Rum shahridan chiqdik, olib ijozat,
Bu yerga yetishdik ko'rdik alomat,
Kim qutuldi ajdarhodan salomat,
Shirin joni chiqmay qoldi bu tandan.

— Lashkar bilan bu makonga yetishdim,
Men ham ajdarhoning zahridan ichdim,
Bir kech-kunduzda o'zimga keldim,
Men g'olibmen jonim chiqmay bu tandan.

Ko'rdingmi dunyoda jabr-u jafoni,
Kisht etib yolg'onchi foniy dunyoni,
Ne yerda aylading zavqi safoni,
Bulbulingni topding qaysi chamandan.

— Yetti yil chekmisham jabr-u jafoni,
Zindondan zindonga turli baloni,
Muttako[1] ayladim Qodir Allohni,
Borib topdim Zarnigorning shahridan.

— Barakallo, sening e'tiqodingga,
Bu dunyoda qilgan e'tiqodingga,
Yetib ko'nglingdagi u murodingga,
Yur endi ko'chali ushbu manzildan.

— Saranjom aylagil, endi lashkarni,
Toza guldek navjuvonlar — beklarni,
Qat' aylasang[2] Rum shahriga cho'llarni,
Shitob bilan ko'ch aylali bu yerdan.

— Haqon erdi, o'z yurtida badavlat,
Kecha-kunduz Qaysar bilan hamulfat,
Haq muyassar etsin barchaga jannat,
Kechsam behisht ichra toza hurlardan.

[1] **Muttako** — suyanchiq, madadkor.

[2] **Qat' aylash** — kesib o'tish.

—Dilovardir bir Xudoning bandasi,
Qabul etsa Mustafoning ummati,
Inshaalloh ko'rarmiz huri jannatni,
Umid eting Xudoning rahmatidan.

Shahzoda Dilovar bilan Haqoni Azim savol-javob tugadi. Shunda barcha lashkarni saranjom qilib, Jazirai Xunxo'rdan chiqib yo'lga tushdilar.

Qirq kecha-kunduz yo'l yurdilar. Asr namozi vaqti ediki, Rum shahrining daraxtlari va minoralari ko'rindi. Ular o'sha manzilda to'xtab, oqshom shu yerda bo'ldilar. Nomozi shomdan so'ng shahzoda Dilovar Gulasror paridan izn tilab, "Yurtimdan xabar olay, otam-onam bormikin yo yo'qmi" deb, ushbu baytlarni aytdi:

Abyoti shahzoda Dilovar

Qabul qilgin, sen ey dilbar,
Men yurtimdan xabar olsam.
Tar[1] *ochilgan qizil gullar,*
Poyandozing undan qilsam.

Necha yil mendan o'tibdi,
Navbat kimlarga yetibdi,
Ajdodimdan kim qolibdi,
Yor-u yaronimni ko'rsam.

Otam birla onam ko'rib,
Bechoralar holin so'rib,
Rum shahriga xabar berib,
To'y anjomin qilib kelsam.

Qirq kecha-kunduz to'y etib,
Orzu-armonimga yetib,
Muhabbat bilan bel eshib,
Ishrat aylab safo sursam.

[1] **Tar** — yangi, toza.

Dilovar der, fig'on aylab,
Haqiqat so'zini so'ylab,
Seni Rumga sulton aylab,
Xizmatingda qullik qilsam.

Alqissa, Gulasror pari shahzoda Dilovardan bu so'zni eshitib, unga ruxsat berib ushbu baytlarni aytdi:

Abyoti Gulasror pari

Bir so'zim bor, aytay, adolat shohim,
Vasiyatim senga budir, nigorim.
Musofir ellarda pusht-u panohim,
E'tiqodim senga budir nigorim.

Seni deb kechmisham taxti tojimdan,
Hamdamim, ulfatim, tengi to'shimdan,
Fahm aylagil ko'zdan oqqan yoshimdan,
Nasihatim senga budir, nigorim.

Tong otsa choshgohga qolma mabodo,
Kelmasang hijrdan boshimda savdo,
Barcha qulning panohidir bir Alloh,
Nasihatim senga budir, nigorim.

Men pariman, bo'ldim senga hamxona,
Ayro tushdim el-xalqimdan begona,
Shirin jonim senga bo'lsin qurbon-a,
Nasihatim senga budir, nigorim.

Gulasror der, so'zim bovar aylagil[1]*,*
Peshingga qolmagil, va'dangga yetgil,
Kechga qolma endi, manziling tutgil,
Nasihatim senga budir, nigorim.

[1] **Bovar aylamoq** — ishonmoq.

Shahzoda Dilovar Gulasror pari so‘zini eshitib, qo‘lini yori_ning bo‘yniga solib va gul yuzidan bo‘sa olib:

— Ey sevar yorim, tez kelarman. Sabr qilgil, — deb bir so‘z aytdi:

G‘azali shahzoda Dilovar

Quloq solib eshit arzi holimni,
Tez kelib ko‘rarmen sening jamoling.
Fahm aylasang, mening e’tiqodimni,
To o‘lguncha men bandai visoling.

Ey parilar ho‘bi, yorim parizod,
Soching sunbul erur, qomating shamshod,
Qilarmen umrimni yo‘lingda barbod,
Yolg‘onchi dunyoda yo‘qdir misoling.

Yetti yil chekmisham ishqingda fig‘on,
Zindondan zindonga diydamiz giryon,
Shirin jonim bo‘lsin yo‘lingda qurbon,
Xizmatingda boshim bo‘lsin nisoring.

Malul bo‘lib[1]*, bo‘yning egib yig‘lama,*
Jon qushini oh o‘tiga dog‘lama,
Men g‘aribni “bevafo” deb chog‘lama,
Tong otguncha bunda ayla qaroring.

Dilovar so‘zining adosi bo‘lmas,
Sendan g‘ayri dardim davosi bo‘lmas,
Bevafo dunyoning baqosi bo‘lmas,
Musahhaf yuzingda har nuqta holing.

Shahzoda Dilovarga Gulasror pari ruxsat berdi. Shahzoda xursand —xurram bo‘lib, yo‘lga tushdi. Yarim tunda Rum shahriga kirdi. Sahar vaqti otasining bargohiga bordi. Shahzodaning

[1] **Malul bo‘lmoq** — xafa bo‘lmoq.

qulog'iga bir ovoz eshitildi. Diqqat bilan quloq soldi. Shohi Qaysar o'g'lining firoqida misli Yusuf kabi qaddi g'am bilan xam bo'lib, yurak qoni bilan ko'zi nam bo'lib, judolik hasratidan ko'nglida yuz ming g'am bo'lib va uning jismi jonim firoq o'tiga kuyib, ridoni bo'yniga solib, ushbu muxammasni baland ovozda dard bilan aytar edi:

Muxammasi shohi Qaysar

Furqatidan hijr o'tiga oshno bo'lgan bolam,
Bu falakning gardishidan mubtalo bo'lgan bolam.
Donai maqsadlaridan mojaro bo'lgan bolam,
G'am yuki ostida gardi osiya bo'lgan bolam,
Bunday kulfat bilan olamdan fano bo'lgan bolam.

Ismatingda saqlagaysen ey Xudo, shahzodani,
Ishq o'tiga Yusufi shamsuvrat ozodani,
Quvvati ko'nglim edi, u ham ko'zimning ravshani,
Bir kelib ko'rmasmikin, shoyad, meni aftodani,
Necha maqsad birla olamdan fano bo'lgan bolam.

Hijrida yeldek yugurdim, yig'ladim men voy-voy,
Dunyoda hargiz bilinmas kecha-kunduz yil-u oy,
Men Senga topshirmisham, saqla uni Qodir Xudoy,
Bebaqo dunyo erur, poyoni yo'q ko'hna saroy,
Jabr-u mehnat birla olamdan fano bo'lgan bolam.

Ko'z yumib ketdi ota bilan onadan bexabar,
Hech kim qilmas mendek motamsaroga bir nazar,
Oy jamolini ko'zim ko'rmasga aylarmen hazar,
Gardishi ayyomdan saqla, Xudo-yo, bexatar,
Bir sabab birla ko'zimdan fano bo'lgan bolam.

Ey Xudo-yo, shohi Qaysarni eshit dodin bu kun,
O'g'lining hijrida qilgan oh-u faryodin bu kun,
Yo'qotib u shahzodasin dardiga darmonin bu kun,

U siyoh baxt onasin — ko'nglining shodin bu kun,
Ham ota birla onasidan judo bo'lgan bolam.

Shohi Qaysari Rum bu muxammasni tamom qilib o'tirgan edi. Shahzodaning boshqa sabr-u taoqati qolmay, eshikdan ichkari kirib, otasining bo'ynidan quchoqladi.

Shunda Qaysar shoh:

— Ey odamzot sen nechuk zotsan, bu vaqtda bu yerga kelibsan. Mening bu yurak qonim bilan ikki ko'zim xira bo'ldi, — degach, shahzoda bechora zor-zor chun abri navbahor yig'lab:

— Ey otajon, o'n besh yildan beri visolingdan judo tushgan va balolarga mubtalo bo'lib, jabr-u jafolar ko'rib, murod maqsadiga yetib, yorini olib kelgan bechora Dilovar mendirman, — deb bir so'z aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Marhabo, ey ka'bam otam, marhabo,
Ishq qo'lidan sharob ichdim-da keldim.
Jamolingga parvonadir shirin jon,
Vujud daryosiga tushdim-da keldim.

Hech kim mendek jabr-jafolar tortmasin,
Yor yo'lida ko'zidan yosh to'kmasin,
Jafosini Egam ravo ko'rmasin,
Bihamdulloh, yorga yetdim-da keldim.

Bir necha zindonning ichida bo'ldim,
Egam oson qildi, undan qutuldim,
Yetti yilda sevar yorga qo'shildim,
Yorimning qo'lidan tutdim-da keldim.

Pirim Ali qildi meni salomat,
Muhammad Mustafo aylab shafoat,
Dilovarga Xudo aylab inoyat,
Murod maqsadimga yetdim-da keldim.

Bu so‘zlardan Qaysari Rum o‘z o‘g‘lini tanidi; shodligi yuragiga tushib, behush bo‘lib yiqildi. Bir soatdan so‘ng Qaysari Rum xushiga kelib, shahzodaning muborak jamolini ko‘rdi va o‘g‘liga qarab, ushbu baytlarni aytdi:

Abyoti podshohi Qaysari Rum

Qurboning bo‘layin, ey jonim bolam,
Xush kelibsan, qo‘zim, safo kelibsan.
O‘n besh yillik dardga darmonim bolam,
Xush kelibsan, qo‘zim, safo kelibsan.

Oshiq ermas shirin jondan kechmagan,
Yurak qonin ikki ko‘zdan to‘kmagan,
Oh o‘tidan shum falakni yoqmagan,
Xush kelibsan, qo‘zim, safo kelibsan.

Uch yilgacha firoqingda yig‘ladim,
To sakkiz yil bag‘rim o‘tga dog‘ladim,
O‘n yil bo‘ldi, o‘lishimni chog‘ladim,
Xush kelibsan, qo‘zim, safo kelibsan.

O‘n uch yilda bo‘ldim sening gadoying,
O‘n to‘rt yilda qonim to‘kdi hijroning,
O‘n besh yilda ko‘rdim husni jamoling,
Xush kelibsan, qo‘zim, safo kelibsan.

Qaysar aytar, nomus-orim sendirsan,
Taxti tojim, har na borim sendirsan,
Aziz tanda shirin jonim sendirsan,
Xush kelibsan, qo‘zim, safo kelibsan.

Alqissa shohi Qaysar shu so‘zni aytib tamom qildi. Shahzoda Dilovar:

— Ey otajon, men borib bechora onamning g‘amgin ko‘nglini olayin, — deb onasining borgohiga bordi.

Shahzoda ko‘rsa, Qamaroyning ko‘ngli alamda, joni sitamda va ming qayg‘u-g‘amda o‘tirib, zor-zor chun abri navbahor kabi yig‘lab, ushbu baytlarni aytar edi:

Abyoti Qamaroy

Xudoyo, bolam hijridan,
Ko‘yib bag‘rim ado bo‘ldim.
So‘roq aylab eshiklardan,
Eshiklarda gado bo‘ldim.

Kelmadi hech ko‘ngil xushim,
Qonga do‘ndi ko‘zda yoshim,
Ajal yostig‘ida boshim,
Alif qaddi duto bo‘ldim.

Kechibmen mol-u dunyodan,
Tilab xojat bir Allohdan,
Jabr-u mehnatdan, jafodan,
Falak senga oshno bo‘ldim.

Hijrlarda yig‘lab doim,
Olamni kuydirdi ohim,
Oqib ko‘zdan bag‘ir qonim,
G‘amingda qahrabo bo‘ldim.

O‘n besh yildir ayro tushdi,
Hijr o‘ti jonga yopishdi,
Bilmam ne savdoga tushdi,
Bir bolamdan judo bo‘ldim.

O‘n besh yildir asar yo‘qdir,
Menga andin xabar yo‘qdir,
Mendek dog‘li jigar yo‘qdir,
Muqayyadga[1] *balo bo‘ldim.*

[1] **Muqayyad** — bog‘langan, band etilgan.

Qamar aytar, ayo Rahmon,
Mushkulimni ayla oson,
O'zing ber dardimga darmon,
Ki dardi bedavo bo'ldim.

Qamaroy so'zlaridan shahzoda Dilovar betoqat va beorom bo'lib, ichkari kirdi; onasiga "Marhabo" deb, salom berib va bo'yniga osilib, biri-biri bilan ko'rishishdi; dardlarini aytib yig'lashdi.

Bechora ona o'z boshidan o'tganlarini bir-bir bayon aylab, o'g'lini bag'riga bosib bir so'z aytdi:

G'azali Qamaroy

Tuman ketmaydi boshimdan,
Bolam sendan ayrilgali.
Falak titrar nolishimdan,
Bolam sendan ayrilgali.

Bir dam beg'am kunim o'tmas,
O'lay desam, ajal yetmas,
Ko'zim yoshi taskin etmas,
Bolam sendan ayrilgali.

Ayroliqdan battar yo'qdir,
Xudoning qudrati ko'pdir,
Yurak qoni ko'zdan oqar,
Bolam sendan ayrilgali.

Bo'lmadim bir dam farog'at,
Dunyoda ko'rmadim rohat,
El-u xalq qildi malomat,
Bolam sendan ayrilgali.

Taqdirimga bo'yinsundim,
Kunda yuz o'ldim — tirildim,

Kulbai ahzonda qoldim,
Bolam sendan ayrilgali.

Rahm ayla miskin gadoga,
Chekilmay baxtim qaroga,
Kunda yig'larmen Xudoga,
Bolam sendan ayrilgali.

Qamar aytsa, kalomi cho'x,
Yuz yil aytsam, adosi yo'q,
Bu dardimning davosi yo'q,
Bolam sendan ayrilgali.

Qamaroy so'zini aytib tugatgach, shahzoda Dilovar:

— Men subhidam kelaman deb yorim bilan va'dalashgan edim. Endi men uning qoshiga borayin. Inshaalloh, xizmatingizga yorimni olib kelarman,— deb, Gulasror parining yoniga ravona bo'ldi. Shahzoda Dilovar tong sahar Gulasror pari yoniga borib, bomdod namozini o'qib, undan so'ng lashkarini jamlab, Rum shahriga ravona bo'ldi.

Banogoh peshin vaqti edi, podshohi Qaysari Rum "Ayol-qizlar va pari-juvonlar shahzoda Dilovar bilan Gulasror parizodga peshvoz chiqsinlar" deb, xaloyiqqa amr qildi. Hamma odam ularga peshvoz chiqdi.

Podshoh ham shahzoda Dilovar bilan Gulasror parizod oyoqlari ostiga poyandozlar to'shab, shaharning barcha ulug'larini to'plab, shahzoda Dilovarni yoniga bordilar.

Shahzoda ularni ko'rib, tezda ularga peshvoz chiqdi. Odamlar bilan ko'rishar ekan, "Marhabo" deb bir g'azal aytdi:

G'azali shahzoda Dilovar

Ey yoronlar, musulmonlar,
Keling jonlar, ko'rishali.
Vazir, vakil, beg-u xonlar,
Keling jonlar, ko'rishali.

Karomatli eshonlarim,
Pirdan ta'lim olganlarim,
Ilm o'qitgan ustozlarim,
Keling jonlar, ko'rishali.

Bunda kelgan qiz-juvonlar,
Gulmon sifat arg'uvonlar[1]*,*
Hofizlarim, xush elxonlar,
Keling jonlar, ko'rishali.

Mening bilan hamdam bo'lgan,
Qushlar solib, tabil[2] *qoqqan,*
Maktabimda qo'l ushlashgan,
Keling jonlar, ko'rishali.

Dilovar der, so'zin aytar,
Safo aylab, so'zin saqlar,
Katta-kichik xaloyiqlar,
Keling jonlar, ko'rishali.

Shahzoda so'zini tugatib, barcha xaloyiq bilan ko'rishdi va barchasi birgalikda Rum shahriga ravona bo'ldi. Peshin vaqti shaharga kirib borishdi.

Podshohi Qaysari Rum xaloyiqqa qirq kecha-kunduz shukrona dasturxoni yozib, shahzoda Dilovar bilan Gulasror parilarning to'yini qilib berdi.

So'ngra Qaysar o'g'li Dilovarni Rum shahriga podshoh qilib, taxtga chiqardi. Oshiqlar murod maqsadiga yetib, aysh-ishratda, odamlar farog'atda hayot kechirdilar. Kimki azob cheksa, rohat ko'rar, inshaalloh.

Xullas Mo'llamurod sohibi suhan ham ular sha'niga ushbu g'azalni aytdi:

---

[1] **Arg'uvon** — bahorda ochiladigan qizil gulli daraxt.

[2] **Tabl (tabil)** — ovchi qushlar dovuli; katta nog'ora.

G‘azali Mo‘llamurod Xorazmiy

Birodarlar, eshitinglar so‘zimni,
O‘z jonimga o‘zim azob ayladim.
Za’faron ayladim qizil yuzimni,
Ishq o‘tiga bag‘rim kabob ayladim.

Saharlarda turib, aylab tahorat,
Yaratgan Allohdan istadim rohat,
Bir osiy qul erdim, yig‘lab davomat,
Ko‘z yoshim olamga xunob[1] ayladim.

Tavakkal ayladim Qodir Allohga,
Tashladim o‘zimni bir turfa chohga,
Bir xaylga[2] keltirib, chiqib sahroga,
Ko‘rgan xaloyiqqa qibob[3] ayladim.

Payg‘ambardan so‘ngra necha zamonlar,
O‘tib erdi, tasnif ayladim ani,
Bu kitobning sanasining bayoni,
Hazar-u du sad-u si[4] hisob ayladim.

Aslim Xorazmli, yerim Shirshali,
Madad qildi bizga eranlari bari,
Mo‘llamurod jonin aylab nisori,
Bir jonon joninda kitob ayladim.

---

[1] **Xunob** — qonli yosh, achchiq yig‘i.
[2] **Xayl** — guruh, to‘p.
[3] **Qibob** — qubba, chodir.
[4] **Hazar-u du sad-u si** — 1230-hijriy.

ZUHRA-TOHIR

(doston)

Ammo roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, Tatar shahrida bir podshoh bo‘lib, ismini Boboxon der edilar. Uning farzandi yo‘q edi. Podshohning bir vaziri bo‘lib, ismini Bahir der edilar. Vazirning ham farzandi yo‘q edi.

Podshoh aytdi:

— Ey vazir, kel ikkimiz ahd-u paymon qilaylik. Shoyadki Alloh taolo ikkimizga farzand ato etgay. Agar mening qizim va sening o‘g‘ling bo‘lsa, ikkisi gahvarga[1] baxsh bo‘lsin. Agar mening o‘g‘lim va sening qizing bo‘lsa, ular ham gahvarga baxsh bo‘lsin. Agar ikkimizdan ham o‘g‘il bo‘lsa, bu yurtni so‘rasinlar.

Shundan keyin ikkisi ahd-u paymon qilib xat bitdilar:

— Har kim shu ahdidan qaytsa, Alloh taoloning la’natiga giriftor bo‘lsin, — deb xat yozishdi. Podshoh xatni vazirining qo‘liga berdi.

Shu ahd-paymon bilan uylariga borib, rohat-farog‘atda zaifalari bilan suhbat qurdilar. Podshoh zaifasining bo‘ynida homila paydo bo‘ldi.

Orada to‘qqiz oy va to‘qqiz kun o‘tdi. Alloh taolo podshohga bir qiz ato etdiki, yuzining nuridan, go‘zal jamolidan olam munavvar bo‘ldi. Uning husnidan oftobi jahon rashk etar edi. Kim uning husni jamolini ko‘rsa, qirq kecha-kunduz mast-u mustag‘rak bo‘lib yotar va agar biror ishqli odam ko‘rsa, jonini Haqqa taslim qilar edi.

Kanizlar podshoh huzuriga borib suyunchiladilar. Podshoh ham suyunchiga bosh-oyoq sarpolar in’om etdi; fuqaroni tarxon qilib[2] to‘y berdi.

---

[1] **Gahvar** — beshik, sallanchiq.

[2] **Tarxon qilib** — soliqlardan ozod qilib *(tarj.)*

So‘ng podshoh barcha munajjimlar va qur’aandoz[1]larni chaqirib, qiziga ot qo‘yadigan bo‘ldi. Barcha munajjim va qu‘r’achilar jam bo‘lib, uning ismini Zuhra qo‘yishdi. Qizni enagaga topshirdilar.

Oydan oy va kundan kun o‘tdi. Qizi yetti yoshiga kirganida, “Boboxonga Alloh taolo bir nozanin mohichehra qiz beribdi”, degan ovoza butun olamga yoyildi. Buni Boboxon podshohning o‘zi ham eshitib, mamnun bo‘lib Alloh taologa shukrona aytdi.

Endi Boboxon podshoh bilan qizini shu yerda qo‘yib, ikki og‘iz so‘zni vaziridan eshiting.

Roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, o‘sha podshohning qizi tug‘ilgan kechada vazirning ham o‘g‘li dunyoga keldi. U shunday o‘g‘il ediki, sochining har tori xiroji mamlakatga arzir va uning husniga oftob rashk qilar edi. Uning ham ovozasi dunyoga tarqaldi. Vazir ham butun shaharni bezatib odamlarga to‘y berdi; yurtining ulamolari va obro‘li odamlarini chaqirdi. Ular vazirning o‘g‘liga Mirzo Tohir deb ism qo‘yishdi. Tohirni ham enagaga topshirdilar.

Oydan oy o‘tdi, kundan kun o‘tdi. Tohirbek yetti yoshga to‘ldi. Vazir Allohning amriga bo‘yin egib, doril fanodan doril baqoga rixlat qildi.

Shundan keyin podshoh malika Zuhra va Tohirbekni maktabga berdi. Ular yetti yil maktabda ilmiy juziyat va hufiyat, ilmi nujumat va ilmi tas’hirat va ilmi nirangjot[2] kabi ilmlarni o‘qidilar...

Qirq to‘qqiz turli ilmning barini qalbiga joyladilar. Ular o‘n to‘rt yoshga kirdi. Shundan so‘ngra odamlar: “Malika Zuhra Tohirbekning baxshidasidir (Tohirbekka atalgan)”, deb ayta boshlashdi. Bu so‘zlarga Tohirbek quloq solmadi.

Bir kun ikkisi maktabga borayotgan edi. Ko‘rdilarkim, Gulpari degan enagasi bularning yo‘lini ustida qo‘l qovushtirib turibdi.

Gulpari enaga ularga qarab:

— Ey shahzodalar! Mening bir arzi xudoyim bor, sizlarga aytayin, — dedi.

Tohirbek:

---

[1] **Qur’aandoz**— qur’a tashlovchi *(tarj.)*

[2] Ilmiy juziyat va hufiyat, ilmi nujumat va ilmi tashirat va ilmi nirangjot — sirli, sehrli, afsun, nayrang kabi turli ilmlar haqida gap bormoqda *(tarj.)*

— Nima arzingiz bo‘lsa ayting, — dedi.

Gulpari enaga Tohirbekka qarab, avval-u oxir voqealarni bayon qilib, ushbu g‘azalni aytdi:

G‘azali Gulpari enaga

Quloq solib, eshit mening arzimni,
Bu kun senga bir-bir bayon aylayin.
Ifsho aylay siynamdagi dardimni,
Otang ishin bugun ayon aylayin.

Ahd etgandir otang bilan bu shohing,
Yetti iqlim erur sening guvohing,
Qodir Egam sening pushti panohing,
Tokay kuyib, oh-u fig‘on aylayin.

Oshiq bo‘lib olgin yoring quchoqqa,
Shukr etgin xalq aylagan Xudoga,
Nazar solsang, menga — miskin gadoga,
Yurak dog‘im senga nishon aylayin.

Zuhra jonim sizga nisbat bo‘lgandir,
Bahir necha hasrat bilan o‘lgandir,
Shohihuban qonlar yig‘lab qolgandir,
Bu kun senga sirni nihon aylayin.

Gulpari der, eshit bu kun fig‘onim,
Hijr o‘tiga yonar kunda bu jonim,
Ajal bersa, bir necha kun omonim,
Undan so‘ngra zavqi-safo aylayin.

Gulpari enaga shu so‘zlarni aytgach, Tohirbek hayratlanib dediki:

— Siz nimalar demoqdasiz?

Gulpari enaga:

— Qolgan boshqa gaplarni borib onangizdan so‘rangiz, — dedi.

Tohirbek enagadan bu gapni eshitib, yuragi jo‘sh-xuruj qilib, borib onasidan so‘radi:

— Ey onajon, men bu kun maktabga borayotgan edim. Yo‘lda bir gapni eshitib, juda taajjublanib qoldim. Alloh taoloning hurmati uchun menga bayon qiling, eshitayin, — dedi.

Onasi:

— Ey ko‘zimning ravshani, men senga aysam, otangga Boboxon podshoh: “Qizimni sening o‘g‘lingga beraman”, deb ahdi-paymon etgan edi. Otang bandalik qildi. Endi ular podshoh bo‘lsa, biz esa kambag‘al bir gado bo‘lsak, uning qizi xonlarga munosibdir. Uning qiziga ko‘ngil berma. Sen undan ko‘nglingni uzgin, — dedi.

Alqissa, Tohirbek onasidan shu so‘zni eshitib, mast-u mustag‘raq bo‘lib, kitobini olib, qo‘yniga solib, yana maktabga bordi. Ko‘rsa, malika Zuhra tamom zer-u zevarning ichida o‘n to‘rt kechalik oydek bo‘lib, bolalarga dars berib o‘tiribdi. Shu vaqt Tohirbekka bir yondan ishqning va yana bir tarafdan g‘ariblikning ta’siri bo‘lib, shoirlik g‘ururi jo‘sh urib, sozini qo‘liga olib, malika Zuhraga qarab, bir so‘z aytdi:

G‘azali Tohirbek

Ishqning savdosiga tushib,
Devona bo‘ldim, naylayin.
Mast bo‘libmen, aqlim choshib,
Begona bo‘ldim, naylayin.

Qaro bag‘rim qonga to‘ldi,
Xazon urib, rangim so‘ldi,
Menga qismat shunday bo‘ldi,
Parvona bo‘ldim, naylayin.

Chora yo‘qdir Haq ishiga,
Rahm aylagil ko‘z yoshimga,
Bu dunyoning koyishiga,
Hamxona bo‘lim, naylayin.

Mening baxtim bo'ldi qaro,
Yuragimga soldi yaro,
Jigarim bo'li sadparo,
Shaydoyi bo'ldim, naylayin.

Tohirbek istar nigorin,
Endi tashlab nomus-orin,
Sarf etarman har na borin,
Afsona bo'ldim, naylayin.

Tohirbek bu g'azalni tamom qilib, ba'zan ko'z qiri bilan malikaga qarab qo'yar edi. Malika Zuhra maktabdagi barcha bolalarga muallima edi. Bu ikki oshiqning bahona bilan ko'rishadigan makoni maktab edi. Malika Zuhra Tohirning so'zlarini eshitdi. Uning ham havasi oshib, goh-gohida bolalarning ko'zini shamg'alat qilib, Tohirbekka bir-bir nazar tashlar edi.

Zero bular maktabdan boshqa joyda uchrasha bilmas edilar. Ularning holidan Oxun domlasi boxabar bo'ldi.

Oxun domlasi:

— Ey malikai hubon! Tohirbekka quloq tuting. G'alat aytsa, xo'p bildiring, — dedi.

Domla yana malika Zuhraga:

— Tohirbekdan boxabar bo'ling. G'alat qilsa, g'alatini ayting, — dedi.

Tohirbek domlasining gaplaridan mamnun bo'lib, Zuhratdan g'alat-xatolarini so'rar edi. Bahonada ikkovi bir-biri bilan so'zlasha edi. Ammo Tohirbekning rangi xazon yaprog'idek sarg'argan edi. Buni malika Zuhra ko'rib, yuragida zarracha toqat qolmay, Tohirning ishqida kuyib-yonib bu g'azalni aytdi:

G'azali malika Zuhra

Bu kun mening dardim bo'ldi ziyoda,
Ishqning daryosiga junun bo'libmen.
Bilolmadim ne sir bordir orada,
Xazon urib, qizil guldek so'libmen.

Hech kimga aytmasman dardim davosin,
Boshga tushdi bu kun ishqning havosi,
Menda erur Tohirbekning jafosi,
Ishq o'tiga kuyib, zabun bo'libmen.

Bu kun mening qulfi dilim ochilsin,
Shirin-shakar dildan durlar sochilsin,
Tangim Egam, mening murodim bersin,
Daryo kabi qaynab-toshib to'libmen.

Oshiqlarning O'zing bergin murodin,
Necha so'zlar bo'lib o'tdi oradan,
Xabar olsang, mendan — bag'ri qarodan,
O'z-o'zimdan bu kun mahzun bo'libmen.

Falak soldi meni tuganmas darda,
Zuhra fig'on aylab yig'lar bu yerda,
Toqatim yo'q endi bu ohi sard[1]*a,*
Jamolingni ko'rib mamnun bo'libmen.

Zuhrajon shu g'azalni o'qigandan so'ng Tohirbek:

— Ey Malika, bir oz tahammul[2] qiling. Mening bir-ikki kalima so'zim bor, aytayin, — dedi.

Malika Zuhra:

— Bu yer so'z aytar joy emas. Inshaalloh, ertaga siz bilan rozi-dil aytisharmen, — dedi.

Podshohning bir saylgohi bor edi. Uning otini Bog'i Maydon der edilar. Ammo u Bog'i Maydon shunday edikim, Bog'i Eram undan rashk qilar edi. Bog'ning mevalari alvon-alvon pishib, obi sharlar har tarafga oqib borar va xiyobon-xiyobon gullar ochilib, qumrilar nag'masaroylik, to'tilar g'azalxonlik qilib sayrar edi.

Chorbog' ostonasida podshoh qiziga ko'shk qurdirgan edi. Bir g'ishti tillodan, bir g'ishti nuqradan, bir g'ishti zabarjaddan, bir g'ishti marjondan, bir g'ishti yoqutdan va bir g'ishti olmosdan

[1] **Ohi sard** — sovuq oh, sovuq nafas.

[2] **Tahammul** — sabr, toqat.

edi. Devorining balandligi qirq gaz kelardi. Podshoh unda qirqta qo'riqchi qulni boyligini qo'riqlash uchun qo'ygan edi. Bu ikkisining va'dasi shu bog'i Maydonda bo'ldi.

Oradan bir kun o'tib, ertasi saharlab malika Zuhra kanizlariga:

— Bu kun sayri guliston qilarmen, — dedi.

Bu xabarni bog'bon eshitdi. Chorbog'ni shunday orasta qildiki, odam o'g'li ko'rsa aqli zoyil bo'lar edi.Malika Zuhra boqqa bordi. Ammo malika Zuhrani ko'rsangizkim, har yonida qirq kanizi shohi va qirq kanizi rumi va bir necha duxtarxonalari mohital'at sog'-so'lida, turfa saltanat bilan kelib Bog'i Maydonga kirdi.

Xo'sh, malika Zuhrani kanizlar va qizlar bilan bog' ichida qo'ying. Endi ikki og'iz so'zni Tohirbekdan eshiting.

Tohirbek ham Bog'i Maydonga borib, darvozadan kirdi. Ko'rdikim, darvozabonni g'aflat eltibdi. Asta-sekin kirib ketganidan darvozabonlar xabardor ham bo'lmadi.

Tohirbek ko'rdikim, malikaning kanizlaridan biri suvga kelibdi, u Tohirbekni ko'rib o'zini bir majnuntol tagiga oldi. Kanizning ko'zi Tohirbekka tushdi. U ko'zasini qo'yib malika Zuhraga xabar berdi.

— Bir odam chorbog'ni tomosha qilib yuribdi.

Unga malika Zuhra:

— Zinhor bu sirni birorta kimsaga aytmagin. Agar kimdir bilsa, post kosayi-xonai-sarindan[1] olarman, — dedi.

Ammo malika Zuhra u kanizga buyurdi:

— U yigitni sen borib olib kelgin, buni hech kim bilmasin.

Darhol u kaniz "Xo'p bo'ladi", deb bir zumda Tohirbekning yoniga bordi. Ko'rdikim, bir nozanin oy yuzli o'tiribdi; agar qarong'i uy ichiga kirsa, uy ichi shunday oydinlashadiki, misli mingta sham va mash'ala yondirgandek yorug' bo'lardi. Buni kanizak ko'rib:

— Ey buyuk Alloh! Ey yagona Qahhor! Bunday inson ham bo'lar ekanmi? deb ta'zim va tavoze bilan qo'l qovushtirib Tohirbekka salom berdi. U salomga alik oldi.

---

[1] "Boshining terisini shilib olaman" ma'nosida.

Shundan so‘ng kaniz:

— Ey nozanin barno yigit, menga suyunchi bering, — dedi.

Shunda Tohirbek:

— Agar Alloh taolo meni u kunga yetkazsa, seni barcha kanizlarga sardor qilaman, — dedi...

Kaniz:

— Qani yuring, — deb yo‘l boshladi.

Endi malika Zuhrani tomosha qilsangiz, u zeb-ziynat va kimxoblar ichida qimmatbaho tillo-kumush taqinchoqlar bo‘ynida edi. Boshida tillo toj-jig‘a, ustalar unga ikki gavhar-shamchirog‘ni band qilgan edilar. Uning boshiga qo‘ndirilgan va nazargirlar qarashsa, ko‘z tegmas edi. Sochini qirq o‘rim etib, egniga tashlagan edi. Har o‘rim sochining uchi qimmatbaho toshlar bilan bezalgan, zulflari yuzlarida parishon edi. Unga atir, mushk-u guloblar sepgandi. Shamol iforni har tomonga sochar va hidi olamni mushk-u anbarga to‘ldirgan edi. Ko‘rsangiz lablari aqiq va tishlari marvarid, yuzlari bamisoli chin qog‘ozi — oydek edi.

Endi malikani tomosha qilsangiz, ancha mashshotagarlar malika Zuhrani ta’rif va tavsif beribdilar. Buyuk Birubor uning pokligini ziyoda qilsin.

Alqissa, Tohirbek kelib, haram saroyga kirdi. Malika Zuhra Tohirbekka qarab noz-u karashma bilan kuldi. Tohirbek badanidagi barcha a’zolar simobdek titradi. Agra malika Zuhra yana bir takallumnavozlik (noz-karashma) qilsa, Tohirbekning joni chiqib, ruh tanini tark etar edi. Zuhra shu nazokat bilan Tohirbekka qarab ta’zim va tavoze bilan salom berdi. Tohirbek alik oldi...

Malika Zuhra bilan Tohirbek saroyga kelishdi. O‘tirib duoi fotiha qilishdi. Kanizlar darhol zarrin dasturxonlar yozib, turli-turli taomlar keltirishdi. Taomlanishdi. Taomdan keyin yana duoi fotiha qilishdi. Keyin Tohirbekning tillo suvi yuritilgan sozlarga ko‘zi tushdi. U sozlardan birini qo‘liga olib, malika Zuhraga qarab, avval-oxirin bayon qilib ushbu g‘azalni o‘qidi:

Bu kun senga arzim bayon aylayin,
Dod elidan, Boboxonning elidan.
Faryod etib, oh-u fig‘on aylayin,
Dod elidan, Boboxonning elidan.

Ahd-u paymon qilib seni bermadi,
Men g‘aribni otang ko‘zga ilmadi,
Otam yaxshiligin hargiz bilmadi,
Dod elidan, Boboxonning elidan.

Pushti-panohimdir mening Lam-Yazal,
Yozdi sizni bizga Kotibi-Azal,
Arz-dodim eshit, mening sen go‘zal,
Dod elidan, Boboxonning elidan.

Kundan-kun ortadi mening koyishim,
G‘amdan o‘zga yo‘qdir
mening hech ishim,
Yorga qurbon bo‘lsin mening shu boshim,
Dod elidan, Boboxonning elidan.

Sendan ayrilgali fig‘on aylaram,
Hijron o‘ti bilan yurak dog‘laram,
Tohirbek der, afg‘on etib yig‘laram,
Dod elidan, Boboxonning elidan.

Alqissa, Tohirbek shu munojotni o‘qiganidan so‘ng dedi:

— Ey yori-vafodorim, men sizga bayon qilayin. Otangiz “Qizimni sening o‘g‘lingga berdim”deb ahdi-paymon qilgan ekan. Otam Xudoning bandaligini bajo etganidan so‘ng, otangiz ahdidan qaytibdi. Mening dodimga o‘zing yetmasang hech kim yetmas.

Shunda malika Zuhra Tohirbekka qarab “Otam qaytsa-da, men qaytmasman” deb unga ko‘ngil berib, bir g‘azal o‘qidi:

Otam qaytsa, men qaytmasman so‘zimdan,
Shukr etay sevar yorga yetkazdi,
Yorim uchun qonlar oqsin ko‘zimdan,
Haq taolo sevar yorga yetkazdi.

Otam qolar oshiqlarning qoniga,
O‘tlar tushsin uning shirin joniga,
To o‘lguncha bormay uning yoniga,
Tangri meni sevar yorga yetkazdi.

Qudratidan mavjud etibdi bizni,
Nasib bo‘lsa, sizga Boboxon qizi,
Parvo qilmang, har na eshitgan so‘zni.
Shukr endi sevar yorga yetakzdi.

Oshiq bo‘lib yor jabrini tortganlar,
Yor yo‘lida qizil qonlar to‘kkanlar,
Toj-u taxtin uni o‘tga yoqqanlar,
Tangri meni sevar yorga yetkazdi.

Muattar aylading mening dimog‘im,
Sendan ayrilishga yo‘qdir so‘rog‘im,
Zuhra deydi, shu kun yondi chirog‘im,
Shukr endi, sevar yorga yetkazdi.

Zuhrajon shu g‘azalni o‘qidi va:

— Ey yori vafodorim, sen g‘am yemagin, — deb kimxob ko‘rpacha ustiga chiqib, ayshu ishratga mashg‘ul bo‘ldi.

Bularni ushbu bog‘ ichiga qo‘ying-da, ikki kalima so‘zni Mahmud chorbog‘bondan eshiting.

Mahmud chorbog‘bon barcha bog‘bonlar kattasi va u malika Zuhraga juda qadrdon edi. Ammo shu Mahmud chorbog‘bon ikki oshiqning barcha qilgan ishlaridan boxabar edi. U darhol pod-

shohning huzuriga bordi. Podshohni ko'rib salom berdi, podshoh alik oldi.

— Taqsiri shahriyor, mening bir arzim bor, — dedi Mahmud.

— Nima arzing bor? — so'radi podshoh.

— Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman, — dedi Mahmud charbog'bon.

— O'tdim, aytgin, — dedi podshoh.

Mahud chorbog'bon ko'rganlarini bayon qilib, podshohga qarab ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Mahmud chorbog'bon

Arz aylayin senga shohim,
Ajab g'ovg'olarni ko'rdim.
Kechiring mening gunohim,
Turfa savdolarni ko'rdim.

Bog' ichinda ikki dilbar,
Oshiqlarga erur sarvar,
Og'zi pista, labi shakar,
Bag'ri biryonlarni ko'rdim.

Shaydo bulbul qo'nar gulga,
Qurbon bo'lay shirin tilga,
Zuhra qiz Tohirbek birla,
Afg'on etganlarin ko'rdim.

Xazon urgan gul ochildi,
Gulzor ichra gul sochildi,
Yor qo'lidan may ichildi,
Mast-u shaydolarni ko'rdim.

Eshit Mahmudning zorini,
Qo'shgin Tohirning yorini,
Sarf eting har na borini,
Beg-u sultonlarni ko'rdim.

Alqissa, podshoh Mahmuddan bu so‘zlarni eshitib, qahri kelib, ikki mahramiga buyurib:

— Boring, Tohirbekni tutib, olib kelinglar, — dedi.

Biroq o‘sha ikki mahram Tohirbekning chin do‘sti edi. Ular podshohning buyrug‘ini eshitib, juda xafa bo‘lishdi.

Shunda ikki do‘st Tohirbek yoniga borib aytishdiki:

— Ey Tohirbek, sizni podshoh chaqirmoqda.

Tohirbek:

— Nima gapi bor, aytinglar. Aks holda men bormayman, — dedi.

Ular:

— Bormasang, qabohat ish bo‘ladi, — deyishdi.

Tohirbek:

— Mening bu yurishimdan rozi emasmikin? Qo‘lidan kelsa, mayli, o‘ldirsin. Bir jon ekan, agar ming jonim bo‘lsa ham, Malika sochining bir toriga tasadduq qilaman, — deb mahramlarga qarab ushbu g‘azalni aytdi:

G‘azali Tohirbek

Xush keldingiz Boboxonning mahrami,
Mening arzim Boboxonga yetiring.
Qarab turgan Tohirbekning hamdami,
Bu kun mening gunohimni o‘tiring.

Va’da qilib vafosida turmagan,
Oshiqlarni ma’shuqiga bermagan,
Boboxonning yuzin hargiz ko‘mayin,
Gaplarimni sizlar unga yetiring.

Qiyomat kun Xudo qozi bo‘lganda,
*Rasulullo*h
“Ummatim”, deb so‘rganda,
Mahshar kuni pulsirotda turganda,
Boboxonga mening arzim yetiring.

Ayroliq ko'yiga meni solmasin,
Oshiqlar qoniga o'zi qolmasin,
Va'da qilib, endi nomard bo'lmasin,
So'zlarimni sizlar unga yetiring.

Tohirbek der, yuragimni dog'larman,
Ajal yetsa, naylay, maqom bog'larman,
Zuhra uchun fig'on etib yig'larman,
Mening kalomimni sizlar yetiring.

Alqissa, Tohirbek mahramlarga o'z javobini aytib, malika yoniga keldi. Malika:

— Otam huzuriga boring. Ular pordshohdir. Uning amri vojibdir. Shoyadki, yodidan chiqqan bo'lsa. Mening qobog'im uchishiga rozi emas. Sizni ko'rib, shoyadki, bu so'zlar yodiga tushgay, —dedi.

Alqissa, Tohirbek bu gapni eshitib, bildiki, malika Zuhraning iltimosiga ko'ra podshoh huzuriga borishi lozim ekan.

Shunda Tohirbek:

— Ey malika, bir jon ekan, agar ming jonim bo'lsa, sizga sadaqa bo'lsin, — dedi.

Tohirbek malika Zuhradan ruxsat olib, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Nozli, vafoli dilbarim,
Xush qol endi mening yorim.
Azroyil mening rahbarim,
Yo'qdir endi g'am-g'usorim.

Fido bo'lsin senga jonim,
Sen erursan mehribonim,
Mening davlatli sultonim,
Yo'qdir endi nomus-orim.

Eltib meni tortsin dor(g)a,
Dushmanlarim yuzi qora,

Ajal yetsa, nedir chora,
Endi yo'qdir ul davronim.

Yuragimga solding dog'(n)i,
Hazon urar bo'ldi bog'(n)i,
Ikki dunyomning chirog'i,
Endi yo'qdir hech qarorim.

.....,
.....,[1]
Rahm ayladi menga Qodir,
Eshit bugun mening zorim.

Alqissa, Tohirbek bu so'zni aytib, yo'lga ravona bo'ldi. Shunda malika Zuhraning ko'zlaridan shoshqator yosh oqib, Tohirbek dardida yig'lab, ushbu muxammasni o'qidi:

Ohkim, qildi falak oromi jonimdan judo,
Xasta jonim rohati, ruhi ravonimdan judo,
Ikki dunyomning chirog'i, mehribonimdan judo,
Saltanatli hamdamim, oromi jonimdan judo,
Haq taolo ayro soldi mehribonimdan judo.

Men g'aribi notavon yig'lab munojot aylaram,
Hasratidan kecha-kunduz arzi hojat aylaram,
G'am uyida sarg'arib, necha xayolot aylaram,
Yorimning diydorini ko'rsam, muloqot aylaram,
Haq taolo ayro soldi mehribonimdan judo.

Yusufidan ayrilib, Ya'qubi Ka'non yig'ladi,
Nola-yu faryod etib, bag'rini o'tga dog'ladi,
Gul degan bechora bulbul necha kunlar yig'ladi,
Amri Haqqa rozi bo'ldi yaxshi kunni chog'ladi,
Haq taolo ayro soldi mehribonimdan judo.

[1] Bu ikki qator qo'lyozmada tushirib qoldirilgan.

Bulbulim uchdi qo'limdan, endi yo'qdir hamdamim,
Rozi dil aytarga dardimni yo'qdir hech kishim,
Yig'lamoqdan qolmadi ko'zlarimda zarra yoshim,
Haq taologa munojot aylab et, qalbi samim,
Haq taolo ayro soldi mehribonimdan judo.

Bebaqo dunyoda bir dam shod-u hurram bo'lmadim,
Shum raqiblar jabridan yor bila hamdam bo'lmadim,
Zuhra deydi oyinai baxtim hargiz ko'rmadim,
Ul munajjimlar so'ziga menki, parov qilmadim,
Haq taolo ayro soldi mehribonimdan judo.

Alqissa, Tohirbek podshoh yoniga borib , ta'zim va tavoze bilan salom berdi. Podshoh alik olib:

— Ey Tohirbek, sen nima ishlar qilib yuribsan? Seni bu yo'lga kim boshladi? Senga bu yo'lni kim ko'rsatdi? Men podshoh bo'lsam, sen esa bir gado bo'lsang, bu qandoq so'z? Sening salomingga Haq hurmati alik oldim. Otang menga vazir edi. Bu so'zlar senga munosib emas. Nega bunday noshoyista ishlarni qilarsan? Sening da'voing sarsonlikdan boshqa narsa emas, — dedi.

Tohirbek boshini egib turdi. Podshoh so'zini bitirdi. Tohirbek:

— Ey podshohi olam, mening ham sizga bir arzim bor, aytayin, — dedi.

Podshoh izn berdi.

Tohirbek unga qarab o'tgan voqealarni bir-bir bayon qilib ushbu g'azalni aytdi:

G'azali Tohirbek

Arzim eshit bu kun amiri Tatar,
Meni buncha zoru giryon aylama.
Nomardlarning so'zi jonimdan o'tar,
Shiksata ko'nglimni vayron aylama.

Toqatim yo'q bu yerlarda yurishga,
Bu kun keldim shirin jonni berishga,

Ajal yetsa, qo'ymas davron surishga,
Menga bu kun qahr-u g'azab aylama.

Otam bilan o'zing paymon etibsen,
Otam o'lib o'zing yolg'iz qolibsen,
Rost-u yolg'onlarni o'zing bilibsen,
Xalq ichida meni hayron aylama.

Bandi bo'lib, dargohingga kelmisham,
Qismatimda ne borini ko'rmisham,
Ishqning bozoriga bugun kirmisham,
Meni buncha zor-u giryon aylama.

Tohirbek der bugun aqlim choshibdir,
Or-nomusim bugun boshdan oshibdir,
O'limning savdosi boshga tushibdir,
Shikasta ko'nglimni vayron aylama.

Alqissa, Tohirbek so'zi ustiga onasi Shohihuban keldi. Podshohga qarab yig'lab:

— Ey podshohi olam, bu bemuruvvatlikni qilmoqdasiz, Bahir vazir bilan qanday ahd-u paymon qilib edingiz? Yetimlar haqiga buncha jafo qilmang. Bu dunyo kimga vafo qildikim, sizga vafo qilsin? — deb zor-zor chun abri navbahor yig'lab ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Shohihuban

Yetimlar haqiga jafo qilmangiz,
Bu dunyo kimga ham vafo ayladi.
Har eshikda meni gado qilmangiz,
Do'stlar yig'lab dushman safo ayladi.

Qiyomatning kunin solgin yodinga,
Unda yetmas hech kim sening dodinga,
Qurbon o'lay sening asil zotinga,
Bahir hasrat bilan qazo ayladi.

Yolg'iz boshim qoldi bunday baloga,
Yetimlar jabridan qoldim izoga,
Munojot aylarman Qodir Xudoga,
Falak bizga jabr-u jafo ayladi.

Tuganmas savdoga bu kun qolibman,
Ajal yetmay g'ussa bilan o'libman,
Sening xizmatingga bu kun kelibman.
Dushman bizga tangu-navo[1] *ayladi.*

Shohihuban arzin bayon ayladi,
Sir-u asrorini ayon ayladi,
Zuhra uchun yig'lab fig'on ayladi,
Tangrim shu ishlarga rizo ayladi.

Alqissa, Shohihuban bu g'azalni o'qiganda podshoh unga quloq solmay darg'azab bo'lib, Tohirbekni zindonga buyurdi. Tohirbekni zindonga tashladilar.

Podshohning Dara degan bir ustasi bor edi. Darhol o'sha sandiqsoz ustani olib kelishdi. Podshoh usta Daraga qarab:

— Ey usta Dara, Tohirbek bo'y-bastiga mos bir sandiq yasagin, — dedi.

Usta Dara: "Jonim bilan", deb rozi bo'ldi. Bu xabarni malika Zuhraga yetkazdilar. Darhol malika Zuhra usta Darani chaqirtirib aytdi:

— Ey usta Dara, sandiqni mahkam yasagin, ichiga bir qatra nam o'tmasin. Agar shunday qilmasang, sening zurriyotlaringgacha qirib tashlataman.

Usta Dara Zuhraning gapiga rozi bo'ldi. Sandiqni ichiga qatra nam o'tmaydigan qilib yasadi. U sandiqni podshoh huzuriga olib bordi. Podshoh sandiqni ko'rdi va mahramlariga:

— Tohirbekni sandiqqa solib, daryoga eltib tashlang, — deb buyurdi.

Alqissa, mahramlari sandiqni podshoh yonidan daryo qirg'o-g'iga olib bordilar. Bu xabarni shahar xalqi eshitib jamlanishdi

[1] **"Tangu navo"** —kamsitish ma'nosida.

va izdihomda bir nechta odamlar oyoq ostida qolib majruh ham bo'lishdi.

Daryo bo'yida Tohirbek ko'zlaridan qatra-qatra yosh oqib, har tomonga qarab ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Ey yoronlar, musulmonlar,
Bo'ldi oxir zamon menga,
Ko'rgan-bilgan yor-u do'stlar,
Bo'ldi oxir zamon menga.

Rozilik so'rab yig'larman,
Oxirat yukin bog'larman,
Yurak-bag'rim dog'larman,
Zuhra uchun fig'on menga.

Haqning amridir bu ishlar,
Xor bo'libdir aziz boshlar,
Boboxon daryoga tashlar,
Endi bo'ldi ayon menga.

Yorning diydorini ko'rsam,
Labining sharbatin so'rsam,
Yo'lida jonimni bersam,
Qaytib kelmak gumon menga.

Eshit Tohirning nolishin,
Yig'lab yerga qo'ydi boshin,
Kech solgandir falak ishin,
Bo'ldi oxir zamon menga.

Alqissa, Tohirbek bu g'azalni o'qib har yonga qarab yig'lar edi.

Xabar malika Zuhraga yetib bordi. Malika Zuhrani tomosha qilsangiz, qora anbar sochini yoyib, giribonini pora qilib hozir

bo‘ldi. Ko‘rsa, yorining ko‘zlaridan qatra-qatar yosh oqar, har kimga qarab termilib yolvorar edi.

Buni malika Zuhra ko‘rib, bir sovuq oh tortdi. Keyin “Vodarig‘o, yorimning boshiga shunday ish tushdi”, deb falakdan shikoyat aylab ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali malika Zuhra

Faryod etib yig‘lay falak elidan,
Qora ko‘zli nigorimdan ayirdi.
So‘zlaganda dur sochilar tilidan,
Shirin tilli nigorimdan ayirdi.

Tasadduq aylayin shirin jonimni,
Yo‘lida to‘karman qizil qonimni,
Talon etdim bu kun bori molimni,
Endi naylay u yorimdan ayirdi.

Raqiblar dardidan yura bilmadim,
Yorim bilan davron sura bilmadim,
Otamning yoniga bora bilmadim,
Ko‘rar ko‘zim nigorimdan ayirdi.

Zuhra yig‘lar yorin jamolin ko‘rib,
Sochin yoyib,
yuzin tirnab oh urib,
Hasrat bilan oqdi yuragim erib,
Bahribozim,
shunqorimdan ayirdi.

Alqissa, malika Zuhra shu g‘azalni o‘qib, Tohirbek yoniga keldi.

— Ey yori vafodorim, bu kun sening yo‘lingda jonimni qurbon qilarman, — dedi.

Xanjar olib o‘ziga urmoqchi bo‘ldi. Shu zamon Tohirbek malikaning qo‘lini tutdi va tavallo qilib ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

Sadag‘ang bo‘lay shirin dilli nigorim,
Mening yuragimga urgin xanjar(n)i,
Sen erursen mening yurak madorim,
Quloq solgin, oshiqlarning sarvari.

Yuragim quvvati, mening hamdamim,
Qurbon bo‘lsa, sening uchun yo‘q g‘amim,
Bo‘lsin menga izzi-jannati tazim,
Hozir bo‘lsin oshiqlarning rahbari.

Inshaalloh yana davron surarmiz,
Shod-u hurram bo‘lib, o‘ynab kularmiz,
Tatar o‘lkasiga podshoh bo‘larmiz,
Boshingizga nigor etsam gavharni.

Tohirbek der har ne qismatda borim,
Ruxsat bergin, bu kun sevikli yorim,
Yuragimda hargiz yo‘qdir qarorim,
Hamdam bo‘lsin endi bir kokil pari.

Alqissa, Tohirbek bu g‘azalni o‘qigandan so‘ng Zuhraning yuragi bir muncha orom topdi. So‘ngra malika Zuhra: “Koshki onadan tug‘ilmasam edi. Menda zarra toqat qolmadi”, deb Tohirbekka qarab bir mustahzod o‘qidi:

Mustahzodi malika Zuhra

Bu otashi xijron yuragim ichra tutashib,
hech yo‘qdir qarorim,
Hasrat uyida yolg‘iz bu kun qoldim adashib,
eshitgin mening zorim.
O‘tlarga yoqilsin bu mening toj ila taxtim,
sulton bo‘lmasman,

Jonimga mening tushdi bu
kun g'ulg'ulayi ishq,
yo'q nomus ila orim.
Sendan qolibon foniy jahonni ne qilayin,
ey yori g'aribim.
Hoki qadaming surma qilay bu ko'zimga,
yo'q endi qarorim.
Mushtoq jamolingda bu kun Zuhra, nigorim,
arzin eshitgin.
Har kecha tong otgancha qilib nola-yu faryod,
hech yo'qdir qarorim.

Alqissa, malika Zuhra bu mustahzodni aytgach Tohirbek:

— Ey yori vafodorim, mening uchun buncha qayg'urmagin. Garchand meni oqar daryoga tashlashsa ham, sabr qilaman. Sabrning oxiri kamoldir, —dedi.

Zuhra:

— Men qanday toqat qilarman? Nima bo'lsam bo'larman, sizdan ayro qolmasman. Birga bo'lsam hech armonim yo'qdir, — dedi.

Bu gap ustiga Shohihuban keldi. Yuzlaridan yuz ming qatra yosh oqib, malika Zuhra bilan Tohirga qarab:

— Ey ikki ko'zimning ravshani, sizlardan qolib, men nima bo'laman? Duo qilayin, parvardigori olam ertaroq mendan ham omonotini olsin. Men bu ishlarga toqat qila bilmasman. Sizlardan qolsam, mening hech g'amxo'rim yo'qdir, — dedi.

Shohihuban ular holini ko'rib, rahmi kelib ushbu so'zni aytdi:

G'azali Shohihuban

Faryod etay Boboxonning elidan,
Hasratli savdoga soldi, naylayin,
Bahr-u bazm uchdi mening qo'limdan,
Tuganmas savdoga soldi, naylayin.

Shu kun so'ndi Shohihuban chirog'i,
Yuragimga bitildi ayriliq dog'i.
Endi bo'lmas Tohirbekning so'rog'i,
Turfa savdolarga soldi, naylayin.

Tomosha aylayin qaddu bo'yini,
Xirojga bermasman tori mo'yini,
Xazon urdi uning rang-u ro'yini,
Siynam uzra dog'lar soldi, naylayin.

Jamolini bir dam turib ko'rayin,
Yuzlariga bu yuzimni surayin,
Undan so'ngra omonatim berayin,
Ko'nglimda armonlar qoldi, naylayin.

Rahm ayla holimga, Karamli Sulton,
Bag'rim biryon, diydalarim to'la qon,
Shohihuban holi bo'lgandir giryon,
Turfa savdolar soldi, naylayin.

Alqissa, Shohihuban shu g'azalni o'qigandan so'ng Tohirbek onasiga qarab:

— Ey mehribon onam, mening uchun yuz ming baloga giriftor bo'lding, — dedi. Yana aytdi: — Ey ka'bam onam, Xudoyi taolo sizga sabr va bardosh bersin, yana ko'rishish nasib qilgay va bizga Xizr alayhissalom yor bo'lsin. Oshiqlarning ishi doim tavakkaldir.

Shu vaqtda mahramlar shoshilib keldi. Shunda Tohirbek onasi bilan xayrlashib, savol berdi. Onasi o'g'lining savoliga javob aytdi. G'azali savol-javob ushbudir:

Tohirbekning savoli:

— Qiblagohim ka'bam onam, xo'sh endi,
Mening uchun zor-u giryon bo'lmagin.
O'lik qatoriga meni qo'sh endi,
Mening uchun zor-u giryon bo'lmagin.

Onasining javobi:

— Sendan judo bo'ldim, ko'zim ravshani,
Pora-pora bo'ldi jonim, yig'larman.
Endi kiysam kerak yashil savsanni,
Ayroliq jabridan bu kun yig'larman.

— Peshonaga yozilgandir bu kunlar,
Turfa savdolarga yo'liqdi boshlar,
Nolishimdan titrar tog' ila toshlar,
Mening uchun ko'ngli vayron bo'lmagin.

— Yozilmagan qismat shunday yozildi,
Ko'nglim ichra bu kun dog'lar tuzildi,
Bolam seni ko'rib, bag'rim ezildi,
Falakning dastidan bu kun yig'larman.

— Rozi bo'lmoq kerak Haqning ishiga,
Savdolar tushdi mardning boshiga,
Endi borsang, Zuhrajonning qoshiga,
Mening uchun zor-u giryon bo'lmagin.

— Eshit ohim mening bugun Zuljalol,
Ber murodim yo bu omonoting ol,
Oshiqlarga hargiz bermangiz zavol,
Bu kun holim giryon bo'lib yig'larman.

— Rabbimdir mening Parvardigorim,
Gumon bo'ldi bu ketishdan kelarim,
Hargiz yo'qdir mening istab so'rorim,
Mening uchun chashmi giryon bo'lmagin.

— Armonlarim ko'pdir mening dilimda,
G'arib bo'ldim bu o'lkada-elimda,
Bu kun mening ko'zim sening yo'lingda,
Shunig uchun afg'on chekib yig'larman.

— Ruxsat tilab, yig'lar Tohirbek endi,
Ka'bam onam shu kun chirog'ing so'ndi,
Biling, menga bu kun qiyomat kundi(r),
Xo'sh qol, ka'bam onam, hayron bo'lmagin.

— Shohihuban ko'zdan to'kar yoshini,
Uchirdi qo'lidan davlat qushini,
O'zing oson etgil mushkul ishini,
Oh-u fig'on etib bu kun yig'larman.

Alqissa, Tohirbek onasi bilan savol-javob aytishgandan keyin onasi zor-zor chun abri navbahor yig'lab:

— Ey, ko'zimning ravshani! Ey bag'rimnig porasi! Sendan judolikka aslo toqatim yo'qdir, na iloj qilayin, Parvardigori olamning amridir bu ishlar. Har doim mard bo'lgin, nomard bo'lmagin. Bu ishlar yolg'iz sening boshingga kelgan emas, qancha oshiqlar o'tgandir, — deb ko'p pand-u nasihatlar qilib ruxsat berdi.

Marhamlar Tohirbekni sandiqqa soldilar. Uch oylik ozuqani ham yoniga joylashdi.

Keyin qulfni berkitib, daryoga oqizishdi.

Buni Shohihuban ko'rib, zor-zor chun abri navbahor yig'lab, mutloq umidini uzib, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Shohihuban

Yuz hasrat-u g'am bilan,
Xor bo'ldi aziz boshim.
Bu kulbai ahzonda,
Qon bo'ldi ichgan oshim.

Sandiqqa seni soldi,
Ko'nglimda alam qoldi,
Ochilgan gulim so'ldi,
Hech tinmadi ko'zyoshim.
Yo'q endi menga g'amxo'r,

Rahim ayla bu kun Jabbor,
Doim mening ishim zor,
Yo'qdir mening sirdoshim.

Gulyuzli bolam xo'sh qol,
Har kimga berib iqbol,
Do'stlar menga bu ahvol,
Xor bo'ldi aziz boshim.

Yig'ladi g'arib Hubon,
Ko'nglida qolib armon,
Rahim ayla menga Subhon,
Yo'qdir mening yo'ldoshim.

Alqissa, onasi bu g'azalni o'qigach, odamlar birdan fig'on ko'tarib, zor-zor chun abri navbahor yig'ladi. "Qiyomat bo'ldi shekilli", deb o'yladilar. Bir necha kishilar podshohga malomat qila boshladi. Oxiri bo'lmadi. Odamlar maslahat qilishdi va aytishdi:

— Podshoh yoniga boraylik va Tohirbekning kafilligini olaylik, har ne sharti bo'lsa, qabul qilaylik. Xazinasi to'lganicha zar olsin.

Keyin ular podshoh huzuriga borishdi. Borib qo'l qovushtirib turishdi. Podshoh ulardan arzini so'radi.

Odamlar aytishdiki:

— Taqsir, shahriyori olam, davlatingiz ziyoda bo'lsin. Arzimiz shuki, Tohirbekning gunohini o'tingiz. Va kafilligini olaylik. Hozircha Tohirbekni daryo bo'yiga olib kelganlariga uch kun bo'ldi. Shahar ahli motamdadir, — dedilar.

Bu gapdan podshohning qahri keldi.

— Buning da'vosi sangsor-toshbo'ron qilmoq edi, — deb javob berdi.

Podshoh javobini eshitgan odamlar noumid bo'lib ortiga qaytdilar.

So'ng odamlar bir-biriga qarab:

— Oxir-oqibat Tohirbekning qismat nasibasi shu ekan, — deganicha zor-zor chun abri navbahor yig'lar edilar.

Podshoh mulozimlari sandiqni daryoga tashladilar. Tohirbek sandiq ichida Xudoga tavakkal qilib o'z yo'liga ketdi. Xaloyiq bu holdan zor-zor chun abri navbahor yig'lab qaytdilar.

Tohirbekni sandiq ichida daryoda oqib ketishiga qo'ying.

Endi ikki kalima so'zni malika Zuhradan eshiting. Malika Zuhra bu xabarni eshitib, siynasini pora-pora qilib, ich-ichidan oh tortib beqaror bo'ldi.

Malika Zuhraning bir ko'shki bor edi. Shunday baland ediki, undan qush uchib chiqa olmas edi. Malika Zuhra shu ko'shk ustiga chiqdi. Daryo shu ko'shk tagidan oqib o'tar edi.

Ammo ko'shk tagida bir girdobgoh bo'lib, bamisli Iskandarning girdobi kabi edi. Bu girdobda bir nahang bor edi. Har kim va har nima shu girdobga tushsa, olib yer edi. Banogoh sandiq kelib shu girdobga tushdi. Buni nahang ko'rib, xalqning ko'zicha bir hamla qildi. Sandiqni ola bilmadi.

Tohirbek nahang hamla qilganini bilib, Xudoga sig'inib, sandiq ichida bir munojot aytganining bayoni budir:

Munojoti Tohirbek

Osiy qulman dargohingda Zuljalol,
Sendan najot istab bu kun yig'larman.
Rasulning do'stlari hazrati Bilol,
Sendan najot istab bu kun yig'larman.

Bu kun bo'ldim daryo ichinda mazlum,
Azal kunda bitilgan tolega shul,
Qo'limda ohani bu dam qilay mum[1],
Sendan najot istab bu kun yig'larman.

Madad bering choriyori muqarar,
Avval Abu Bakr, ikkinchi Umar,

[1] **Ohani** — temir. Bu erda Dovud alayhissalom nazarda tutilgan.

Uchinchisi Usmon, to'rtinchi Haydar,
Sendan najot istab bu kun yig'larman.

Yutar meni endi yo'qdir gumoni,
Qodir Egam o'zing bergin omoni,
Madad bergin, ey Ismoil Samoniy,
Sendan najot istab bu kun yig'larman.

Jazo berar daryo bu dam ming alvon,
Tohir yig'lab deydi bu kun "al-omon",
Kushoyish bergin pirim xojayi jahon[1],
Sendan najot istab bu kun yig'larman.

Alqissa, Tohirbek shu munojotni aytganidan keyin hazrati Xojayi jahon darhol hozir bo'lib, sandiqning xalqasidan tutib, bir tortdilar va girdobdan chiqarib qo'ydilar. Tohirbek bu najotdan mamnun bo'lib ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Shukr ayladim dargohida,
Himmat qildi pirim bu kun.
Rahim etib Tohir holiga,
Qildilar tadbirim bu kun.

Ola bilmas bizni baliq,
Madad berdi bizga Xoliq,
Yo'qdir endi menga shohlik,
Ayon bo'ldi sirim bu kun.

Daryoda oqib borarman,
Termulib har yon boqarman,
O'lmasam oxir chiqarman,
Yoki o'larman men bu kun.

[1] **Xojayi jahon** — olamning eng martabalisi. Bu erda Xizr alayhissalom nazarda tutiladi.

Bodi sabo esib-esib,
Azal kunda menga nasib,
Oshiqlarning piri Yusuf,
Eshit mening zorim bu kun.

Tohir deydi yorimni ko'rsam,
Shirin lablaridan so'rsam,
Undan so'ngra jonim bersam,
Yor uchun, do'stlarim, bu kun.

Alqissa, Tohirbek shu g'azalni o'qigach:

— Ey daryoi-azim, sen barcha daryolarning kattasi bo'lsang, ne bo'lar ozgina fursat bersang, malika Zuhrani xo'b tomosha qilsam?! Bir dam ham g'animatdir, — dedi.

Shu so'zni aytgan mahali ko'shkning ustida turgan malika-Zuhraning ko'zi unga tushdi va ich-ichidan oh tortib:

— Ey voh, azal kunda Parvardigori olam mening baxtim chirog'ini qorong'u qilgan ekan. Mening dardimning darmoni sen eding, jamolingni bir ko'rmay o'lsam, yuragimda armon qolar, — deb ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali malika Zuhra

Faryod etsam mening dodim eshitmas,
Qora bag'rim qonga do'ndi, vodarig'.
Sendan boshqa dilbar yodimga tushmas,
Yuragimda dog'lar qoldi, vodarig'.

O'tlar tushdi bu kun xonu monimga,
Xanjar tortib bu kun shirin jonimga,
Tohirbegim yetgin bu fig'onimga,
Sendan bu kun ayro soldi, vodarig'.

Ko'zlarimdan oqar ob-u ravonim,
Hajr o'tida yonar har kun bu jonim,
Xo'sh qol endi mening sarviravonim,
Ko'ksimda armonlar qoldi, vodarig'.

Qora kiyib bu kun qonlar yig'larman,
Sendan ayroliqqa ko'ksim dog'larman,
Yorim deb senga ko'nglim bog'larman,
Zor-u giryon bo'lib qoldim, vodarig'.

Zuhrajon der, naylay toj-u davlatni,
Egam soldi senga bunday mehnatni,
Daryo ichra nahanglarga uchradi,
Tohirbegim bu kun o'ldi, vodarig'.

Alqissa, malika Zuhra shu g'azalni o'qib yig'lab turar edi. Girdob sandiqni yana aylantirib o'ziga tortdi. Sandiqni tomosha qilsangiz, misli tegirmon toshidek gir-gir aylanar edi. Buni Tohirbek bilib, ohi-faryod qilib:

— Bugun bu daryoda ishq bozorini qizdirarman. Qaniydi oshiq tomosha qilsa, — deb malika Zuhraning ishqida kuyib-yonib, to'rt tarafga boqib bu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Ishqning o'tida yonib,
O'rtandi aziz jonim.
Girdobida aylanib,
Bergin o'zing omonim.

Oshiqlar kelib ko'rsa,
Dardimni bugun so'rsa.
Tohirga ko'ngil bersa,
Ul mahvashi jononim.

Boshimga tushib bugun,
Bo'ldi jigarim purxun.
Qonimni qilay gulgun,
Shudir mening armonim.

Ko'nglimda farog'at yo'q,
Endi menga rohat yo'q,

Dam urishga soat yo'q,
Ortar mening xijronim.

Yig'laydi g'arib Tohir,
Dardini qilib zohir,
Shu kunda qani Bahir?
Qilsa mening darmonim.

Alqissa, buni malika Zuhra ko'rib, ohi dardnok yuragi ezilib: "Xudo-yo, qiyomat kuni bo'ldi", deb yig'lar edi. Bu gapni Tohirbek sandiqning ichida eshitib, ohi dilso'znok tortib, faryod qilib:

— Bizning boshimizga tushgan bu qanday kulfat bo'ldi? — dedi. Yana Tohirbek sandiq ichida qayg'urib: — Ey yori vafodorim, bugun sendan ayrilmoqdaman.Go'yoki sen bo'ston eding-u, men bulbul. Bugun gulistondan ayro tushib ketarman. Yana boshqa birovni o'zingga hamdam qilib, men g'aribni unutmagin. Bu dunyo boricha oshiqlarga jafodir. Tirik bo'lib bu balodan qutulsam, yana Parvardigordan tilagim ko'pdir, — dedi. Yana: — Aslo unutmagaysen. Men ham sendan boshqani demasman, — deb bir biriga rozi-dilini aytib turar edi.

Shu vaqtda daryo yana mavj urib, girdob sandiqni o'ziga tortdi.

Bunda Tohirbek xabardor edi. Buni ko'rib oh-u faryod qilib, Xudodan madad so'rab, ushbu munojotni o'qidi:

Munojoti Tohirbek

Rahm ayla holimga Qodiri-Qayyum,
Mushkul kunim O'zing oson aylagin,
Yo'ldosh et iymonim bu oxir damim,
Qorong'u ko'nglimni ravshan aylagin.

Hech tinmadi mening ko'zimda yoshim,
Turfa savdolarga yo'liqdi boshim,
Kundan-kunga battar bo'ldi har ishim
Xavf-u xatarlardan omon aylagin.

Falak ayro soldi meni elimdan,
Bulbul edim judo bo'ldim gulimdan,
Qochib qutulmagay hech kim o'limdan,
Bu ishlardan meni tarxon aylagin.

O'z holimga bugun o'zim yig'larman,
Judolik dardidan yurak dog'larman,
Shirin yorga bugun ko'ngil bog'larman,
Men g'aribni bunda omon aylagin.

Tohirbekning Zuhra erur nigori,
Hoki poying qilsam ko'zimga dori,
Bu kun tushdi menga yorning xumori,
Qodir Egam bu kun darmon aylagin.

Alqissa, Tohirbek bu munojotni o'qiganidan so'ng, Xudoyi taolo najot berib, girdobdan ham qutqardi. Sandiqni suv oqizib ravon bo'ldi. Buni malika Zuhra ko'rib, ko'shk ustida ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali malika Zuhra

O't tushdi xonimonimga,
Men yig'lamay, kim yig'lasin.
Bo'yaldim qizil qonimga,
Men yig'lamay, kim yig'lasin.

Hech kimsa yo'q, holim so'rsa,
Yuraklarim dog'in ko'rsa,
Men g'aribga ko'ngil bersa,
Men yig'lamay, kim yig'lasin.

Ichim yonib bag'rim pishar,
Daryo kabi qaynab— jo'shar,
Tohirbek yodimga tushar,
Men yig'lamay, kim yig'lasin.

Uningdek nozanin qayda,
Men bo'layin unga banda,
Hech toqat qolmadi tanda,
Men yig'lamay, kim yig'lasin.

Ko'zlarim termilib qoldi,
Zuhraga oxir zamondir,
Tohir uchun bag'rim qondir
Men yig'lamay, kim yig'lasin.

Alqissa, malika Zuhra shu g'azalni o'qirkan, girdob yana sandiqni o'z domiga tortdi. Sandiqni tomosha qilsangiz, misli tegirmon toshidek gir-gir aylanar edi. Bundan Tohirbek voqif bo'lib:

— Poki Parvardigor-o, bu xatarlardan o'zing qutqarmasang, mening holim mushkul bo'ldi, — deb bir munojot o'qidi:

Munojoti Tohirbek

Qodir Egam rahim qilmasang holimga,
Mushkul bo'ldi mening holi tabohim.
O'zing yetgin mening oh-u zorimga,
Sendan o'zga yo'qdir mening panohim.

Bu dunyoga kelib, o'ynab kulmadim,
Qismatimda ne borini bilmadim,
Sening farmoningni hargiz qilmadim,
Mendan xato, sendan ato— Allohim.

Qorong'udir menga yorug' jahoni,
O'zing bergin bu yerlardan omoni,
Men erurman bandalarning yomoni,
Dargohingda ko'pdir mening gunohim.

Hargiz qutulmadim dard-u alamdan,
Judo bo'ldim vatanimdan, elimdan,
Bulbul edim ayro tushdim gulimdan,
O'zing eshit, Qodir Egam bu ohim.

Ajab hayron bo'lib bu yerga keldim,
Zuhra uchun o'zimni bu dardga soldim,
Tohir derki, oqibatda shu bo'ldim,
Men g'aribga rahm ayla, Xudoyim.

Alqissa, bu munojotni o'qigach, uning holiga Parvardigori olamning rahmi kelib, sandiqni girdobdan chiqardi. Tohirbek Xudoga shukrona aytib, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Qodir Egam rahm ayladi,
Men g'aribi notovonga,
Ming alvon daryo so'yladi,
Bag'rim to'ldi qora qonga.

Sendan o'zga yo'qdir kishim,
Hech tinmadi ko'zda yoshim,
G'arib bo'ldi sulton boshim,
Tokay kuyay yona-yona.

Faryod etsam, dodim yetmas,
Qo'l uzatsam, qo'lim yetmas,
Zuhra jonim nazar etmas,
Meni soldi bu hijronga.

Allohim, dodimga yetgin,
Mushkulimni oson etgin,
Gunohim ko'pdir afv etgin,
Tirik tushdim bu zindonga.

Tohir chekib jabr-u jafo,
Umid shuki, surgay safo,
Sevar yorim sendan vafo,
Men g'aribi notovonga.

Alqissa, Tohirbek shu g‘azalni o‘qigach, malika Zuhra ko‘shkining ustidan qarab turdi. Qulog‘iga ovoz keldi: “Ey Zuhrajonim, mening holimni ko‘rmasmisan?”. Zuhrajon buni eshitib: “Men qaysi yuz bilan senga qarayin?” deb zor-zor chun abri navbahor yig‘lab, Tohirbekka qarab ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali malika Zuhrajon

Sen ketarsan, meni etib notavon,
Meni qo‘yding dog‘i hasrat ichida.
Ayro tushdim bu kun sendan navjuvon,
Bu kun qoldim qayg‘u-kulfat ichida.

Ranggim so‘lib, ko‘zim qonga to‘libdir,
Menga bu kun oxir zamon bo‘libdir,
Tengdoshlarim o‘ynab-o‘ynab yuribdir,
Meni ko‘rsang, qayg‘u-mehnat ichida.

Bu dunyoda yana ko‘rmak bo‘larmi?
Sening bilan safo surmak bo‘larmi?
Yana o‘ynab-kulib yurmak bo‘larmi?
Qoldim bu kun qayg‘u-kulfat ichida.

Hargiz tugamadi g‘am-u hijronim,
Shod bo‘lmadi bir dam ko‘ngil vayronim,
Yuragimda ko‘pdir mening armonim,
Yolg‘iz boshim qoldi g‘urbat ichida.

Bu kun mening aqlim yo‘qdir o‘zimda,
Ma’ni yo‘qdir, mening aytgan so‘zimda,
Hech qolmadi yoshim bu kun ko‘zimda,
Zuhra deydi qoldim hasrat ichinda.

Alqissa, malika Zuhra shu g‘azalni o‘qib, har yonga qarab, yig‘lab turar edi. Ammo sandiq to‘rt marta girdobdan qutulib qoldi. Hech kim uni tutmadi.

Shundan so‘ng Tohirbek Xudoning qismatiga rozi bo‘lib oqib ketdi.

Shu zaylda uch oy oqib borib bir manzilga yetdi. O‘sha manzilda bir g‘avg‘o paydo bo‘ldi. Tohirbek quloq soldi va aytdi: “Bu qanday voqeadir”. Xavotirlanib qo‘rqdi. Bu joy odam-obining[1] maskani edi. Shovqin-suron o‘shalarning fig‘oni edi.

Bu odam-obilar daryoning ichida bir-biri bilan o‘ynab-talashib yurar edilar. Daryoning yuzida bir sandiq paydo bo‘lganini ko‘rib, hammasi qochdi. Chunki ular odamdan qo‘rqar edilar. Ular odam hidini sezsa, daf’atan o‘lar edilar. Ularning fig‘onu nolasi shu hidni sezishlari sababidan edi. Bu g‘avg‘o shuning g‘avog‘osi edi. Uzoqdan bir sandiq oqib kelayotibdi, ammo sandiq yonida odam yo‘q. Ular kuzatib turishdi. Sandiq yaqin keldi. Hidi ziyoda-ziyoda bo‘ldi. O‘sha hid vahmidan bir nechtasi o‘ldi. Bir nechta qolganlari: “Bu odamzot bizni tutish uchun shumlik qilib turibdi”, deb aytishdi. Barchasi qochishdi. Shundan keyin Tohirbekning yuragi bir oz orom topdi. Bularning shahridan hech bir talofatsiz o‘tgandan keyin: “Xudoyim, meni qanday savdolarga solding”, deb giryon va nolon bo‘lib, ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

Ajab savdo solding boshga,
Meni qo‘yma oh-u zorga,
Ko‘zim to‘lib qoldi yoshga,
Jigarim bo‘ldi sadpora.

Ko‘rmadim yorug‘ jahonni,
Bilmadim yaxshi-yomonni,
Bu yerlardan ber omonni,
Mening baxtim qilma qora.

Kunda yuz g‘avg‘o ko‘rarman,
Ochilgan guldek so‘larman,

[1] **Odam-obi** — suv odami.

Yuz ming hasratda o'larman,
Tez yetirgin sevar yorga.

Tokay jabrida ozayin,
Yor uchun bag'rim ezayin,
Qachongacha men kezayin,
Yetir meni shohsuvorga.

Tohirning bergin murodin,
Eshit bu kun uning dodin,
Muyassar et parizodin,
Yo'qdir uningdek mohpora.

Alqissa, Tohirbek shu g'azalni o'qigandan keyin Xudoga shukur qilib o'tirdi. Uning yonida olti oylik ozuqasi bor edi. Biroq suv masalasi tang edi. Garchand suv ichida oqib kelayotgan bo'lsa ham, Tohirbekning daryo suvidan nasibasi yo'q edi. Sababi sandiq mustahkam yopilgan bo'lib, shu zaylda u daryoda oqib borardi.

Ammo daryo qirog'ida bir chinoriston bor edi. Bu chinorlarning orasida katta bir chinor bor edi. Shu chinor tepasida ikki qushning uyasi bo'lib, qushlar uyasida yotgan edi. Ular banogoh daryo yuzida bir narsa oqib kelayotganini ko'rishdi. U narsa bir pallada yalpildab yuz ming rangga kirar edi. Ikki qush buni ko'rib, Xudoning farmoni bilan uchib borib, ikkisi ham sandiqqa yopishdi, zo'r kuchi bilan daryodan chiqarib, uyalariga olib borishdi. Bu qushning kattaligi bamisoli tuyadek edi. Tohirbek bundan boxabar edi. O'sha qushlar sandiqni tutib, uyalarga olib borganidan ham xabari bor edi. Bu voqelarni ko'rib, yuragi yorilishiga andak qolib, qo'rqib, yig'lab, dod-faryod qilib, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Avval boshda bo'lmagaydim onamdan,
Qanday kunlar tushdi mening boshimga.
Hech bahra topmadim foniy dunyodan,
Rahim aylagil mening ko'zda yoshimga.

Ko‘rmagan kunlarni ko‘rdim bu yerda,
Rahm aylagil Qodir Egam bu dardga,
Shu kunimda Zuhrajonim qayerda,
G‘amxo‘r bo‘lsin bu kun mening loshimga.

Daryo ichra ko‘rdim yuz ming alomat,
Xudo qilsa bu yerlardan salomat,
Boboxonga u kun qolsin malomat,
Men yig‘larman hech kim yo‘qdir qoshimda.

Men bo‘lmisham yuz ming dardga giriftor,
Sevar yorga ko‘zim bo‘lib intizor,
Bu kun mening dardim eshit Birubor,
Balo qushlar qo‘nar mening loshimga.

Tohir bo‘lib o‘z holiga mubtalo,
Menga duchor bo‘ldi bu kun yuz balo,
O‘zing madad bergil qudratli Alloh,
Ota-onam kirar mening tushimga.

Alqissa, Tohirbek necha kun bu yerda qushlar bilan hamdam bo‘lib o‘tirdi. Kunlardan bir kun Tohirbekka g‘ariblik ta’sir ko‘rsatdi. “Avvalgi holim yaxshiroq edi. Daryoning ichida oqib borardim. Biror yaxshilik umidi bor edi. Kimdir ko‘rib qolib, tutib olish umidi bor edi. Endi mening tuprog‘im shu yer o‘xshaydi”, deb zor-zor chun abri navbahor yig‘lab, ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

Ajal meni quvlab keldi bu yerga,
Yo‘qdir endi menda qavm-u qarindosh,
Hech kim yo‘qdir payg‘om eltsa dilbarga,
Xor bo‘libdi bu yerlarda aziz bosh.

Yaxshiliklar istab topmadim chora,
Yurak-bag‘rim bu kun bo‘ldi ming pora,

Ilojim yo‘q, kirdim oh bilan zorga,
Qushlar etar mening ustimda talosh.

Yeta olmay, o‘lar bo‘ldim murodga,
Necha vaqtlar oqib keldim daryoda,
Men icharman falak qo‘lidan boda,
Xalq ichida bo‘ldi mening sirim fosh.

Tuproqqa aylanar bo‘ldim bu yerda,
G‘arib onam qoldi tuganmas dardga,
Chora ko‘rib Haqdan kelgan bu dardga,
Bag‘rim qondir, ko‘zim bu kun to‘la yosh.

Boshim qo‘yib dargohiga, yig‘larman,
Oxirat yo‘liga belim bog‘larman,
Tohir deydi Zuhra uchun yig‘larman,
Bu yerlarda yo‘qdir menga bir yo‘ldosh.

Alqissa, Tohirbek shu g‘azalni o‘qib:“Xudoyim, bu yerda o‘zing najot bermasang, mening holim mushkul bo‘lar. Har qanday bo‘lsa ham, daryo ichida oqqanim yaxshidir. Chunki biror odam ko‘rib, meni shoyad qutqarar. Bu ishlarning hammasi Sening farmoning bilan bo‘lar. Agar xohlasang bir damda matlabimga yetirarsan”, deb zor-zor yig‘lab, ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

Rahmon Egam omon ayla,
Men g‘aribni qo‘yma zorga.
Mushkulimni oson ayla,
Tez yetirgin sevar yorga.

Kushoyish berigin ishimga,
Zuhrajon kirar tushimga,
Tez yetirgin mahvashimga,
Mening baxtim qilma qora.

Dog‘-u jabriga to‘zayin,
Yor uchun bag‘rim ezayin.
Himmat ber, bundan uzayin.
Yurak bag‘rim pora-pora.

Men bo‘libmen zor-u hayron,
Onam qoldi bag‘ri biryon,
Zuhrajonning chashmi giryon,
Yolboradir Biruborga.

Sendan o‘zga yo‘q panohim,
Tohir der ko‘pdir gunohim,
Rahm aylab eshit ohim,
Meni qo‘yma oh-u zorga.

Alqissa, Tohirbek bu munojotni o‘qigandan so‘ng, Alloh taoloning farmoni bilan qibla tomondan bir shamol paydo bo‘ldi. Shamol sandiqni qushning uyasidan ag‘darib daryoga tashladi. Tohirbek yana daryoda oqa boshladi.

Olti oy oqib, ozuqa va suvi ham ado bo‘ldi. Tohirbek suvsizlik va ochlikdan o‘lar holga yetdi. Shunda Tohirbek: “O‘lar vaqtim yaqin qoldi shekilli”, deb o‘ylagan edi, bir payt sandiq borib toshga tegdi. Bir taxtasi sinib, sandiq ichi yorishdi. Buni ko‘rgan Tohirbek:“Xudoga shukr yana yorug‘ jahonni ko‘radigan bo‘ldim”, deb quvonib, malika Zuhra yodiga tushib ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

Shod-u hurram bo‘lib ko‘nglim,
Parvoz etar endi gulga,
Qodir Egam qilma zulm,
Davron suray yorim birla.

To‘kildi ko‘nglim zangori,
Ko‘nglim oynadek bari,

Tohirbek Zuhraning zori,
So'zlarin keltirar tilga.

Ajal yetib, kun to'lmasa,
Odamzod hargiz o'lmasa,
Ko'ngil suygani bo'lmasa,
Ketsin bu kun eldan elga.

Ko'nglim istar sevar yorni.
Hoki poyin qilsam dori,
Menda yo'q endi qarori,
Ochilgan ul toza gulga.

Qancha chekdim jabr-u jafo,
Umid shulki, sursam safo,
Tohir der: Zuhradan vafo,
Yursa kerak mening birla.

Alqissa, Tohirbek ushbu g'azalni o'qigandan so'ng yana daryoda oqib ketavyerdi. Olti oyki, u daryoda oqib boradi. Ammo Tohirbek suv ichida halok bo'lishiga ozgina qolgan edi, banogoh bir manzilga yetdi. Bu manzilning otini shahri Bog'dod der edilar.

Yer yuzida bunday obod shahar yo'q edi. Kimning ko'ngli g'amga botsa, bu shaharda shod bo'lar edi. Ammo roviylar andog' rivoyat qilar edilarki, Bog'dod shahrida bir podshoh bor edi. Uning ismini Odilshoh der edilar.

Bisyor sohibdavlat va sohibkaram edi. O'zi juda ham diyonatli edi. Uning uch o'g'li va uch qizi bor edi. Har biri bamisoli xurshidijahon edi. Ularning baridan kichik bir qizi bo'lib, uni malika Mohim der edilar.

Kunlardan bir kuni malika Mohim uxlab yotar edi. Tushida daryo bo'ylab ketayotgan allanarsa ko'ziga ko'rindi. "Nima ekan?" deb yaqin bordi. Qarasa, taxt emish. Taxtda bir nozanin misli huri jannatdek o'tiribdi. Malika Mohim uni ko'rib, aql-u xushidan ayrilib:

— Ey nozanin yigit, qaysi bog‘ning gulisan, qaysi bog‘ning gulshanisan, qaysi oshiyonning bulbulisan? Qaysi podshohning farzandisan? Qaysi dilbarning yorisan? — dedi.

Shunda Tohirbek:

— Bir Xudoning qulidurman. Tatar yurtining farzandi bo‘laman. Otamning ismini Bahir vazir derlar. Mening ismim— Tohirbek. Bu sirni hech kimga bildirmagin. Necha kun qo‘lingda musofir bo‘laman, bilmadim. Ammo nasibam qayerga tortsa, o‘sha tomonga ketaman. Va lekin mendan senga vafo yo‘qdir. Ko‘p jafolar bor, — deb malika Mohimning ko‘zidan g‘oyib bo‘ldi.

Malika Mohim uyg‘onib qaradi: na taxt bor va na u yigit. Malika Mohimning ichiga o‘t tushdi. Tandirdan otilgan favvoradek og‘zidan olov chiqar edi.

Malika Mohimning bir enagasi bor edi. Kecha-yu — kunduz yonidan ketmas edi. Malika Mohim bu alamga chiday olmay, shu enagasini chaqirdi. Enagasi hozir bo‘ldi:

— Ey bolam, senga nima bo‘ldi?

Shunda malika Mohim zor-zor chun abri-navbahor yig‘lab, ko‘rgan tushini bayon qilib, ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali malika Mohim

Yotar edim bu kulbai ahzanda,
Taxti zarrin paydo bo‘lib ko‘rindi,
Yuz ming rangda tovlanadir bir damda,
Bir nozanin pari unda ko‘rindi.

Uningdek nozanin yo‘qdir jahonda,
Yuz ming rangga do‘nar ul bir zamonda,
Uni ko‘rgach, bulbul kabi fig‘onda,
Shams-u qamar kabi unda ko‘rindi.

Hech qolmadi jon-u tanimda toqat,
Shundan beri yo‘qdir menda rohat,
Menga bo‘ldi endi tuganmas mehnat,
Huri g‘ilmon menga shunda ko‘rindi.

Jamolini gar ko'rmasam o'larman,
Oyday yuzlarini qachon ko'rarman,
So'rab Tatar o'lkasiga borarman,
Go'yo yeldek bo'lib unda ko'rindi.

Kuyub ado bo'ldim uning dardidan,
Qon yig'larman bugun uning jabridan,
Surma qilsam kerak poyi gardidan,
Mohim deydi: menga unda ko'rindi.

Alqissa, malika Mohim bu g'azalni o'qiganidan so'ng, enagasi dedi:

— Ey bolam, sen ishq savdosiga yo'liqibsan. Bu tushingni ta'birini men aytay, sen quloq sol. Men bayon qilsam, mashriq tomondan bir yor kelar. Undan hech vafo yo'q, balki ko'p jafolar tortasan.

Malika Mohim:

— Unday bo'lsa, buning davosi qanday bo'lar? — dedi.

Enagasi:

— Sabr qilmoq kerak, sabrning oxiri kamoldir, — dedi

Bu so'zlardan malikaning yuragi bir oz orom topdi. Ammo bu sirni malika Mohim va enagasidan boshqa hech kim bilmadi. Malika Mohim o'z-o'zidan oh urib qo'yardi. Uning ohidan birov xabardor emas edi.

Ular uch qiz bo'lib, har biri oydanda ziyoda edi. Daryo bo'yida ularning bir saylgohi bor edi. Bu uch qiz navbat bilan kelib sayl qilar edilar. Bugun malika Mohimning navbati edi. Dugonalari bilan kelib, daryoni tomosha qilishdi. Nogoh ularning ko'zi daryodan oqib kelayotgan bir narsaga tushdi. Qarab uning nimaligini bilolmadilar. Ammo malika Mohimning o'zi razm solib qarasa, oqib kelayotgan bir sandiq ekan. Malika Mohim yonida Shahri degan bir qiz bor edi, o'zi juda suxanvor[1] edi. Malika Mohim shu Shahriga:

— Ey Shahri, bu kelayotgan sandiqqa o'xshaydi, — dedi.

— Undog' bo'lsa, uni tutib olmoq kerak, — dedi.

[1] **Suxanvor** — so'zamol, bilimdon.

Ular ichida Jahongir degan qiz ham bor edi. Juda obboz[1] edi. Shahri shu Jahongirni chaqirib:

— Borib sandiqni tutgin. Qulfini ochmasdan bu yerga olib kelgin, — dedi. Malika Mohim Jahongir o'zini suvga tashladi. Sandiqni suvdan olib chiqdi. Qhimning yoniga keltirdi.

Malika Mohim sandiqni ochib qarasa, uning ichida bir yigit yotibdi. Ruhi panjai oftob. Malika Mohim o'ylab qarasa, tushida ko'rib oshiq bo'lgan yigit. Malika uni ko'rib bir oh tortdi. Shunda Shahri:

— Ey malika Mohim, nima uchun oh tortasan? — dedi

Malika aytdi:

— Ey Shahri, alamimni nima uchun so'raysan? Bu yigitni tushimda ko'rib, u bilan ahd-u paymon qilgan edim, — dedi.

— Ey malika Mohim, undog' bo'lsa, men ham uni bir ko'rayin, — deb yigitga qaradi. Qarasa, tengsiz bir yigit yotibdi. Misli ruhi panjai-oftobi-hovar[2] edi. Bir ramaqqa[3] kelgan edi.

Uni Shahri ko'rib: "Hayf, bunday yigit", deb u ham bir oh urdi.

Shundan keyin Shahri:

— Boring, mushki anbar olib keling, — dedi.

Mushki anbar olib kelib, uning yuziga sepishdi. So'ngra udi-anbar degan dorini tomog'iga pufladilar. Daf'atan Tohirbek askirib, o'rnidan turdi. Ko'zini ochib atrofga qaradi. Qarasa, bir guruh qizlar uni o'rtaga olib turishibdi. Shunda Tohirbek oh-u jigargohidan tortib:

— Azal kunda bu ishlar menga qismati Haq ekan, — dedi va ulardan:

— Bu qanday joylar? — deb so'radi.

Malika Mohim:

— Avval sen bayon qil. Kimsan? Bu sandiqqa seni kim soldi? Nima sababdan bu baloga giriftor bo'lding? —dedi.

Tohirbek aytdi:

— Men bayon qilar bo'lsam, otamning otini Bahir savdogar der edilar.

---

[1] **Obboz** — suvda yaxshi suzadigan.

[2] **Ruhi panjai**–oftobi-hovar — yuzi quyoshning sochilgan nuri *(tarj.)*

[3] **Ramaq** — eng oxigi nafas, jon chiqar oldidagi nafas.

Ko‘p davlatmand edi. O‘zi turli viloyatlarga borar edi. Otamning bir xazinaxonasi bor edi. Men shu xazinaxonada yotgan edim. Bir qancha g‘animlar yig‘ilib, bir tunda shabihun urdilar[1]. So‘ngra meni tutib, qo‘l-oyog‘imni bog‘lab olib ketdilar. Meni bir joyga olib bordilar. Keyin bir sandiqqa solib, suvga tashladilar. Dunyodan ne o‘tdi, ne bo‘ldi hanuzgacha xabarim yo‘q.

Tohirbek bu yerda andak tazvir[2] qildi. Chunki Tohirbek juda dono edi. Ko‘nglida: “Avval bularning mizoj-tabiatini bilayin, so‘ngra boshimdan o‘tganlarini ularga aytayin”, deb shu o‘rinda yolg‘on so‘zlashga majbur bo‘ldi.

Malika Mohim:

— Uni uyga olib boringlar, turli mahram-nomahramning unga ko‘zi tushmasin, — dedi.

Tohirbekni sandiqdan chiqarib, uyga olib bordilar. Uni necha kunlab parvarish qildilar. Shunda Tohirbek bir oz o‘ziga keldi.

Kunlardan bir kun malika Mohim o‘zi kanizlaridan yashirin Tohirbekning yoniga kelib:

— Ey yigit! Rost so‘zlagin, nima sababdan bu savdolarga tushding? — dedi.

— Qurboning bo‘layin, ey malika! Falakning jabridan taqdir-u nasibam meni shu yerlarga yetkazdi, — dedi.

— Ore, sen haqni aytding. Va lekin sen ishq savdosidan xabardormisan yoki yo‘q? — deb so‘radi malika Mohim.

Tohirbek:

— Men bu savdolardan bexabarman, —dedi.

Shunda malika Mohim Tohirbekdan takror so‘radi:

— Kimsan? Uylanganmisan yoki bo‘ydoqmisan?

— Bo‘ydoqman.

Uning so‘ziga malika Mohim ishonmadi.

Tohirbek qasam ichdi. Shundan keyin malika xotirjam bo‘ldi.

Malika Mohim uyiga qaytib bordi. Bu ishdan Shahridan boshqa hech kim voqif bo‘lmadi. Bir mahal Shahri eshikdan kirib keldi. U malikaning ko‘ngli xush, dimog‘i chog‘lig‘ini ko‘rdi. Shahri undan:

---

[1] **Shabihun urmoq** — tunda to‘satdan hujum qilmoq.

[2] **Tazvir** — aldash, hiyla.

— Ey malika Mohim, bu kun vaqtingiz xush va dimog‘ingiz chog‘, sababi nadir? — dedi.

Malika Mohim unga javoban:

— Ey Shahri, mening vaqtim xush bo‘lmay, kimning vaqti xush bo‘lsin, — deb Shahriga qarab ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali malika Mohim

Oson bo‘lar mushkul ishim,
Ko‘nglim istar yorga yetsam.
Nisor etay mol-u boshim,
Suyukli dildorga yetsam.

Ko‘kka yetdi oh-u zorim,
Rahm ayladi Biruborim,
Qodir Egamdir g‘amxo‘rim,
Sultoni Tatarga yetsam.

U bo‘lib vatandan judo,
Uni ayro solgan Xudo,
Ishq o‘tiga kuyib ado,
Bo‘lgan kabi yorga yetdim.

Quloq sol so‘zlayin Shahri,
Hech ochilmas uning bahri,
Ko‘zlaridan oqar nahri,
Diydasi xunxorga yetsam.

Yurak bag‘rim bo‘ldi rish-a[1],
O‘shal kecha kirdi tush(g)a,
Mohimga bo‘lgandir pesha,
Qiziqli bozorga yetdim.

Alqissa, malika Mohim shu g‘azalni o‘qib javob berdi. So‘ngra Shahri:

[1] **Rish** — yara.

— Unda muborak bo‘lsin! — deb tabriklab, ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Sharhi

Sizga muborak bo‘lsin,
Ul yor, hamdami asror.
Nasibi ro‘zi qilsin,
Sultoni mulki Tatar.

Yor bo‘ldi bog‘-u davlat,
Dunyoda surgin ishrat,
O‘tar bu dam g‘animat,
Qil yoring uzra guftor.

Ochildi g‘uncha-yu gul,
Yuz nola qildi bulbul,
Ey shams, zulfi sunbul,
Chal endi chang-u dutor.

Vahdat mayi ichildi,
Haq rahmati sochildi.
G‘am lashkari qo‘shildi,
Topildi yori-dildor.

Shahri deydiki, janon,
Haq berdi sizga mehmon,
Yo‘q endi senda armon,
Bo‘lsa agar vafodor.

Alqissa, Shahri shu g‘azalni o‘qib, muborakbod qildi. So‘ngra malika Mohim:

— Ey Shahrijon, buning chorasi qanday bo‘ladi? — dedi.

Shahri:

— Buning chorasi shuki, bir xat yozib, otangizga yuborib, bu sandiqni so‘raymiz. Agar bermasa, uni ham o‘ylab ko‘rish kerak, — dedi.

Maslahat malika Mohimga ma'qul keldi va Qosim devonani chaqirdi. Xat yozdi: "Otajon! Men bu kun sayilgohda sayil qilardim. Banogoh daryo ichida bir sandiq oqib kelayotganini ko'rdim. Uni daryodan chiqrib oldim. Sandiqning taxtasi zumraddan, qulfi tillodan. Eshigiga qulf solingan. Uning ichida nima borligini hech kim bilmas edi. Nima bo'lganda ham otamiz mehribonlik qilib, shu sandiqni bizga bersalar", deb xat birdilar va bir elchi bilan podshohning huzuriga yubordilar.

Xatni podshoh o'qib ko'rib:

— Bir sandiq ekan, agar o'n sandiq bo'lsa ham. Unga berganim bo'lsin, — dedi.

Elchilar bu xabarni tezda malika Mohimga keltirishdi. Malika Mohim bu xabarni eshitib, xushvaqt bo'lib, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali malikai Mohim

Shukur Alloh qabul bo'ldi bu ohim,
Haq yetirdi bu kun meni murodga.
Tavakkal ayladim bu kun, Allohim,
Dushman so'zi aytilmasin orada.

Otam bo'ldi mening dardimga darmon,
Endi o'lsam yo'qdir ko'nglimda armon,
Tori muyin uning xirojga berman,
Uning ishqi bo'ldi menga ziyoda.

Elchi kelib bizga berdi xabarin,
G'arib bechoraning eshitdi zorin,
Pok ayladi bu kun ko'nglim g'uborin,
Davron surub bu kun ichilsin boda.

Oshiqlik do'konin endi qurayin,
Dol gardanga bu kun zulfim urayin,
Shakar lablaridan uning so'rayin,
Undan so'ngra yetsam kerak murodga.

Nazar solay endi Bog'dod eliga,
Mohim qo'nar bu kun toza guliga,
Qurbon bo'lay uning nozik beliga,
Xabar bering bu kun qavm, zuriyodga.

Alqissa, malika Mohim shu g'azalani o'qib:

— Men Tohirbekka tanimni bag'ishladim, — dedi.

Bu gap odamlar orasiga tarqaldi. Malika Mohim Shahrini chaqirib maslahat qildi:

— Shu sandiqni otamning xizmatiga yuborayin, — dedi.

— Mayli, voqealarni aytib, bir xat yozib ham yuboring, zero otangiz bu savdolarni odamlardan eshitsa, yaxshi bo'lmas, — dedi Shahri.

Maslahat malikaga ma'qul keldi. Malika Mohim Qosim devonani chaqirdi: "Shu topgan sandig'imning ichidan bir yigit chiqdi. Har tori-mo'yi xiroji mamlakatga arziydi. U otamning xizmatiga loyiqdir", deb xat yozib, sandiq bilan otasiga yubordi.

Shundan keyin malika Mohim Shahrini chaqirib:

— Ey Shahri, sen Tohirbekni u yerdan mening ko'shkimga olib borgin. Uning fe'li-tabiatini anglab, ko'nglida nima borligini bilayin, — dedi.

Shahri asta-sekin Tohirbek yoniga bordi...

Ularni shu yerda qo'ying-da, endi ikki kalima so'zni Tothirbekdan eshiting.

Ammo o'sha kuni Tohirbekni daryodan tutib olib keltirdilar.

Dori-darmonlarni tomog'iga puflagandan keyin, u o'ziga keldi.So'ngra uni Shahriga topshirdilar. Shahri uni bir uyga kiritib, yoniga bir kanizni qo'yib: "Bundan boxabar bo'l, nima desa, bajargin", dedi.

Oradan o'n kunlar o'tdi. Har o'tgan kun Tohirbek uchun bir yildan battar cho'zilgandek bo'ldi. Shunday kunlarning birida eshikda Shahri paydo bo'ldi. Tohirbek unga qarab boshini egib turdi. Shahri aytdiki:

— Ey Tohirbek, ko'p dilgir bo'ldingiz. G'am yemang. Mard boshiga ish tushar. Mardona turing, — dedi.

Tohirbekka g‘ariblik ta’sir qilib, Shahriga qarab ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

G‘arib bo‘ldim bu makonda,
Naylay yo‘qdir qavm-u elim.
Mening kabi yo‘q jahonda,
Yo‘qdir mening so‘ylar tilim.

Men bo‘ldim vatandan judo,
Yo‘qdir menda ona-ota,
Doim xunob yuta-yuta,
Tatarda qoldi suygilim.

Ichim yonib, bag‘rim pishdi,
Ohim bu kun haddan oshdi,
Xushim ketib,
aqlim choshdi,
Senga derman rozi dilim.

Kelibman Bog‘dod eliga,
Tushibman Mohim qo‘liga,
Marhamat qilsin quliga,
Ochilmadi g‘uncha-gulim.

Shahri ko‘nglim obod eting,
G‘ariblarni dilshod eting,
Tohir qulingni yod eting,
Tinmay oqar ko‘zdan selim.

Alqissa, Tohirbek bu so‘zni aytgandan so‘ng, Shahri:

— Ey Tohirbek, g‘am yemagin. Sabr qil, sabring oxiri murod topar, — dedi.

Yana Shahri Tohirbekka ko‘ngil berib, ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Shahri

Malul bo‘lib[1]*, g‘amgin bo‘lma,*
Yurgin mastona-mastona.
O‘zingni solmagin zulmga,
Yurgin har yona, har yona.

Tamoshai jahon ayla,
Siring menga bayon ayla,
O‘zingga mehribon ayla,
Ishq o‘tiga yurma yona.

Solma o‘zingni qayg‘u-g‘amga,
E’timod yo‘qdir bu damga,
Endi bo‘l ulfat Mohimga,
Yurgin sollana-sollana.

Ovozing tushdi Bog‘dodga,
Sen ekansan asilzoda,
Mohim bilan yet murodga,
Davron surgin qona-qona.

Aziz etdi seni Tangri,
Bu so‘zlarni dedi Shahri,
Bordir uning senga mehri,
Bo‘lgin mardona-mardona.

Alqissa, Shahri shu javobni aytgach, Tohirbek bildikim, dunyoda boshqa so‘z yo‘q ekan.

Shundan so‘ng Tohirbek:

— Ey Shahri, mening boshimdan o‘tganlarni so‘rasang, bayon etsam, ado bo‘lmas, — deb ushbu g‘azalni o‘qidi:

[1] **Malul bo‘lmoq** — malollanmoq; qayg‘uli, xafa, g‘amgin bo‘moq.

Senga aytsam bu kun asli zotimni,
Angla bu kun endi, Shahri dilorom.
Bayon etay ko‘nglimdagi dardimni,
Senga aytsam bu kun,
Shahri dilorom.

Otam oti edi sultoni Bahir,
Bu sirni qilmangiz hech kimga zohir,
Yig‘lab aytar bu kun so‘zini Tohir,
Quloq soling endi,
Shahri dilorom.

Otam o‘ldi meni sandiqqa soldi,
Shahihubon enam yig‘lashib qoldi,
Xudoning qismati menga shu bo‘ldi,
Senga aytsam bu kun,
Shahri dilorom.

Tatar erur mening manzil-makonim,
Zuhra uchun yonar kunda bu jonim,
Tohir aytar shuning uchun fig‘onim,
Eshit endi bu kun,
Shahri dilorom.

Alqissa, Tohirbek bu g‘azalni aytgandan so‘ng Shahri bildikim, Tohirbek Tatar yurtining farzandi ekan, Zuhra degan yori bor ekan. Shundan keyin Shahri malika Mohimning yoniga bordi va aytdi:

— Ey malika, Tohirbek Tatar yurtining sultonzodasi ekan, malika Zuhra degan yori bor ekan. Uning firoqida bu savdolarga tushgan ekan, — dedi.

Malika Mohim:

— Ey Shahri, unday bo‘lsa, bu bevafo ekan. Mening dog‘im yangilandi, — deb, zor-zor chun abri navbahor yig‘lab, bir g‘azal o‘qidi:

G‘azali malika Mohim

Qaro bo‘ldi mening baxtim,
Bir bevafoga uchradim.
Safil bo‘ldi toj-u taxtim,
Yuragi dog‘ga uchradim.

Yurakda ko‘p qoldi armon,
Undan yo‘qdir dardga darmon,
Haq yetirdi menga mehmon,
Tang-u navoga uchradim.

Devona bo‘ldim ko‘rgali,
Dardidan yetdim o‘lgali,
Tohirga hamdam bo‘lgali,
Ajab savdoga uchradim.

Yuragim bo‘ldi shikasta,
Endi bo‘ldim, Shahri, xasta,
Mening ko‘nglim yuz havasda,
Ochilmas bog‘ga uchradim.

Senga derman bu fig‘onim,
Endi chiqar bo‘ldi jonim,
Mohi der ko‘pdir gumonim,
Hasratli tog‘ga uchradim.

Alqissa, malika Mohim shu g‘azalni o‘qigach, Shahri:

— Ey malika Mohim, ko‘p betoqat bo‘lmagin. Siz hali nima ham jafo tortdingiz? Bu ishlarni Alloh taqdirga yozgandir. Sabr qiling, sabrning oxiri muroddir, — dedi.

Shahri shu so‘zni aytgandan so‘ng malika Mohimning yurakdagi o‘ti andak pasaydi.

Ammo malika Mohimni bu yerga qo‘ying. Endi ikki og‘iz so‘zni Tohirbekdan eshiting.

Tohirbek necha kun bular bilan hamsuhbat bo‘lib, bularning maromi-ko‘ngliga qarab so‘zlar edi. Ammo Tohirbek ich-ichidan oh tortar edi. Zotan u juda dono va bilimdon edi. Uning ovozasi olamga yoyildi. Ta’rifi podshohga ham yetdi. Shundan so‘ng podshoh:

— Demak, men uni ko‘rishim kerak, — dedi.

Podshoh qiziga xabar berdi:

— Har qanday bo‘lsa ham mehmonlariga marhamat ko‘rsatib, ularni huzurimizga chorlasalar. Bir kecha biz ham mehmon qilsak, nima bo‘ladi? — dedi.

Bu xabarni malika Mohim eshitib xursand bo‘ldi va “Yaxshi bo‘ladi” deb asta-sekin Tohirbekning yoniga borib:

— Ey aziz mehmon. Bir so‘zim bor. Aytsam ko‘nglingizga qattiq olmang, — dedi.

Tohirbek:

— Qurboning bo‘layin, nima so‘zdir ayting, — dedi.

— Men aytsam, bu kun otam sizni chaqirib mehmon qilar ekan, — dedi malika.

— Men roziman, — dedi Tohirbek.

Bundan malika xursand bo‘lib buyurdi:

— Boring. Xazinaning eshigini oching. Tohirbekning o‘ziga loyiq sarpolar keltiring, — dedi.

Kanizlar xazinadan Tohirbek uchun bosh-oyoq sarpo keltirishdi.

Tohirbek sarpolarni kiydi, so‘ngra uni malika Mohim ko‘rib betoqat bo‘ldi. Tohirbek dardida kuyib-yonib ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali malika Mohim

Quyosh kabi ravshan bo‘ldi,
Aqlim ketib lol bo‘libman,
Qaro ko‘zim yoshga to‘ldi,
Diydasi xunbor bo‘libman.

Qolmadi sabr-u qarorim,
Tanamda qolmadi jonim,

Uning uchun bu fig'onim
..... (bu qator yo'q)

Sen erursan xo'blar-xo'bi
Ko'nglimning istar matlubi,
..... (bu qator yo'q)
Ko'rib beqaror bo'libman.

Bu kun meni qo'yding dog'ga,
Ohim yetishdi samoga,
Qachon yetarman saboga,
Termilib hayron bo'libman.

Quloq sol sultoni Tatar,
Senga bo'ldim men giriftor
Mohimdir senga intizor,
Bu kun sharmisor bo'libman

Alqissa, malika Mohim bu g'azalni o'qigach, Tohirbek uning yurak dardini angladi.Tohirbek unga:

—Ey malika Mohim ko'p betoqat bo'lma, Alloh nimani xohlasa shu bo'ladi, — dedi.

Shu so'zni aytgach, Tohirbek borib podshoh saroyiga kirdi. Uzoqdan uni ko'rgan mahramlar peshvoz chiqdilar.Bir necha kun uni izzat-hurmatda mehmon qilishdi. Podshoh Tohirbekning bag'oyat dono ekaniga iqror bo'ldi. Podshoh: "Men buning aslini surishtirayin. Agar asli menga teng bo'lsa, undan so'ng buning fikrini qilayin", dedi va bu fikri o'ziga ma'qul bo'ldi.

Shundan so'ng Tohirga qarab:

— Ey mehmon yigit, sendan bir savol so'rasam, ko'nglingga qattiq olmaysanmi? — dedi.

— Nima savol bo'lsa so'rang, — dedi Tohirbek.

— Xo'sh nima sababdan bu savdolarga giriftor bo'lding? — dedi podshoh. Shunda Tohirbek podshohga qarab, avval-oxir boshidan o'tganlarini bir-bir bayon qilib, asil nasabini ham bildirib, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Shohi olam bu kun angla so'zimni,
Men ham edim o'z elimda bir sulton.
Yor yo'lida giryon etib ko'zimni,
Topilmadi mening dardimga darmon.

Tatar erur mening manzil makonim,
Aytsam tug'yon etar mening fig'onim,
Yuragimda laxt-laxtadir qonim,
Mening yuragimda hasratli armon.

Tatarning shohini derlar Boboxon,
Otam bilan qilib ahd ila paymon.
Qizining otini derlar Zuhrajon,
Uning uchun meni ayladi zindon.

Necha vaqtlar chekib jabr-u jafosin,
Ko'rmadim men uning zavq-u safosin,
Chaqirib der zamon ustozi xosin,
Sandiq yasang debon ayladi farmon.

Sandiq yasab keltirdilar zamonda,
Meni soldi unga, qaramay dodga,
Vodarig'-o, yetmadim men murodga,
Makon bo'ldi menga andin so'ng ummon.

Zor-u giryon bo'lib ketdim onamdan,
Judo bo'ldim Zuhra otli sanamdan,
Jismim qolib, jonim chiqib tanamdan,
Uning ishqi bo'ldi menga faravon.

Falakning gardishi keltirdi bunga,
Bilolmadim yana nasibam qayda,
Tohir der men ham bir asilzoda,
Bu kun Tangri sizga ayladi mehmon.

Alqissa, Tohirbek shu javobni aytgandan so‘ng podshoh bildikim, bu asilzoda — Tatar shohining sultonzodasi, Zuhra ismli yori bor ekan. Ammo Odilshoh hech kimga sir boy bermadi.

Kunlardan bir kun Odilshoh o‘tirib, o‘zicha fikr qildi: “Men bir ish qilsam. Xalq menga ta’na qilmasin tag‘in”. Podshohning bag‘oyat dono va to‘g‘riso‘z Abdulvohid ismli vaziri bor edi. Podshoh vazirini chaqirib:

— Ey vazir, mening ko‘nglimga bir so‘z keldi, —dedi.

Vazir:

— Taqsiri shahriyor, bayon qiling qanday so‘zdir, -dedi.

Podshoh:

— Aytadigan bo‘lsam, shu daryodan topilgan qanday yigit? — deb so‘radi. Vazir savolni eshitgan zahoti:

— Juda dono va suxanvor hamda dilkash yigitga o‘xshaydi, — dedi.

Vazir dono edi. Podshoh og‘zini ochgan mahali uning ko‘nglini bildi. Shu bois podshohning mayliga qarab gapirdi.

Shunda podshoh:

— Mening ham maqsadim shuki, shunday yigitni qo‘yib yubormasak, o‘z yonimizda olib qolsak, — dedi.

Vazir:

— Juda yaxshi bo‘ladi; men shu gapni aytolmay turgan edim, —dedi.

Podshoh:

— Ey vazir, avval sen borib undan bir xabar ol. Uning fikrini bil. Shundan keyin maslahatlashaylik, — dedi.

Bu gap vazirga ma’qul keldi va u asta Tohirbekning yoniga bordi.

Ko‘rsa, Tohirbekning rangi-ro‘yi xazon urgan yaproqdek sarg‘aribdi. Vazir:

— Ey Tohirbek, ko‘p g‘amgin bo‘lmangin, g‘am odamni quritadi. Mard bo‘ling. Bu kunlar ham unutilib ketadi, — dedi.

Shunda Tohirbek vazirga qarab:

— Men g‘amgin bo‘lmay, kim g‘amgin bo‘lsin, — deb zor-zor chun abri navbahor yig‘lab, malika Zuhraning dardida kuyib-yonib, ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

Zor ayladi, xohish-g‘amim,
Chora yo‘q endi, naylayin.
Suyukli nozli dilbarim,
Yodimga tushdi, naylayin.

Mening ko‘nglim yuz havasda,
Jonimdir unga payvasta,
Men bunda, yor unda xasta,
Bag‘rim tutashdi, naylayin.

Shirin jonim bo‘lsa tanda,
To o‘lguncha unga banda,
Zuhrajonday dilbar qayda,
Umrim talandi, naylayin.

G‘aming hijronida sarg‘arib,
Hasrat bilan oqdim erib,
Yorning ahvolidan so‘rib,
Yotmadim endi, naylayiin.

G‘arib Tohir yig‘lar bunda,
Munojot aylar yurganda.
Bog‘dod elida zindonda,
Tuzoqqa tushdi, naylayin.

Tohirbekning bu gapini eshitgan vazir:

— Ey Tohirbek, o‘zingizni ko‘p qayg‘u-g‘amga solmang. Azal kunda Xudoyi taolo yozgan bo‘lsa, qayta bir-biringiz bilan ko‘rishsarsiz. Mening esa sizga bir gapim bor. Aytsam, ko‘nglingizga og‘ir olmang, — dedi.

Tohirbek rozi bo‘ldi. Vazir aytdiki:

— Podshohimiz sizga marhamat ko‘rsatib, o‘ziga domad-kuyov qilmoqchi, — dedi.

Tohirbek vazirning gapini eshitib:

— Men qayda-yu, bu savdolar qayda? Men bir musofir odam bo'lsam, barchangizga vaqtincha bir mehmon bo'lsam... Menga bu savdolar kerak emas, — deb, vazirga qarab yana bir g'azal o'qidi:

G'azali Tohirbek

Majburlamang meni bunda bu rohga,
Bu yerlarda hargiz tura bilmasman.
Meni qo'ymang bu kun oh ila zorga,
Musofir o'lkada yura bilmasman.

Meni qo'ying o'z holimga yotayin,
Yig'lab dargohida zorim etayin,
Yo o'layin yo murodga yetayin,
Istab sevar yorga yeta bilmasman.

Kerakmasdir menga mohi-hiloli,
Ko'zimga ko'rinmas dunyoning moli,
To ichmasam aning labidin bol(n)i,
Tegmang, bu yerlarda tura bilmasman.

Mening ko'nglim doim erur shikasta,
Bu sirni aytmangiz dushman-u do'stga,
Bulbul kabi doim bunda qafasda,
Ozod eting, bunda tura bilmasman.

Tohir deydi, mening ko'nglimda armon,
Haq ayladi bu kun sizlarga mehmon,
Zuhra uchun qilay jonimni qurbon,
Tegmang endi, bunda tura bilmasman.

Alqissa, Tohirbek shu so'zlarni aytgach, vazir:

— Ey Tohirbek, o'lik arslondan tirik sichqon yaxshidir, — deb unga ko'p pand-u nasihatlar qildi. Tohirbek ilojsiz qoldi va murosa qilishga majbur bo'lib aytdiki:

— Undog‘ bo‘lsa, siz mening otam, og‘am bo‘ling, — dedi.

Bu javobni eshitgan vazir quvonib, podshoh huzuriga keldi. Podshoh undan xabar so‘radi.

Vazir:

— Rozi qildim, tezda to‘y hozirligini ko‘ring, — dedi.

Podshoh xursand bo‘lib, darhol shaharning to‘rt tarafiga xabar yubordi. Odamlar jamlandi. Podshoh qirq kecha-kunduz xaloyiqqa tomosha berib, yetti yil fuqaroni tarxon qilib, malika Mohimni Tohirbekka nikohlab berdi.

Ammo Tohirbek har doim ohu-dilso‘z tortar edi. Enagalari bir qancha uylarni bular bemalol o‘ynab-kulishlari uchun xilvat qildilar. Biroq uylar Tohirbekka zindondan ham battar ko‘rinar edi. Tohirbek o‘z qayg‘u-g‘ami bilan bo‘lgani uchun malika Mohimga e’tibor ham bermas edi. Bu holdan malika Mohim hayron bo‘lib, biror so‘z ayta olmay zor-zor chun abri navbahor yig‘lar edi. Oxir oqibat malika Mohim yuzidan pardani — hijobni ko‘tardi:

— Ey Tohirbek, nima uchun bir bechorani yot ko‘rib, unga iltifot qilmaysiz. Sizni daryo bo‘yida ko‘rganimda giriftori jamolingiz bo‘ldim. Azal kunda— qolu baloda yozilgan ekan. Qolayersa, siz uchun men zarracha or-u nomus qilmadim. Qancha do‘st-dushmanlarim ta’na qildilar. Meni oxir-oqibat odamlarning ham ta’na-dashnomlariga qo‘ydingiz, — dedi.

Tohirbek:

— Mening ham ikki og‘iz gapim bor. Quloq soling — aytayin, — dedi.

Malika some’ bo‘ldi.

Tohirbek:

— Aytsam, so‘zim shudirki, mening ham ko‘nglimda bir his-tuyg‘ularim bor. Ularni sizga aytayin. To yetti yilga qadar menga hamdam bo‘ling. Menga aslo qo‘l uzatmang. Aks holda ko‘nglimda ko‘p armonlar qoladi, — dedi.

Bu taklifni eshitgan malika Mohim noiloj qolib, sabr etdi. So‘ngra u: “Bu so‘zlarning oxirini ko‘rayin, qayerda qaror topar ekan”, dedi.

Ammo bular bir qancha vaqt bir-birlariga hamdam bo‘lishdi. Tohirbek kechasi qilichini o‘rtalariga qo‘yib yotar edi. Mabodo

nafs g'oliblik qilib qolsa, ikki tan bir-biriga vosil bo'lmasin deb shunday qilar edi. Oradan ko'p kunlar o'tdi.

Kunlardan bir kun malika Mohim:

— Tokay mening umrim bunday o'tadi, — deb Tohirbekka qarab bir g'azal o'qidi:

G'azali malika Mohim

Tokay mening umrim o'tar xor-u zor,
Bu dunyoga kelib o'ynab kulmadim.
Sevar yorga ko'zim bo'lib intizor,
Ko'rmay uni boshda nega o'lmadim?

Kuchayadi dardim, yo'qdir qarorim,
Sening uchun tashlab nomis-u orim,
Qanday xato bo'ldi bunda nigorim,
Bir dam sening birla ulfat bo'lmadim.

Men naylayin bu kun taxt ila tojni,
Sen orada nega qo'yding qilichni,
Bu ishlaring menga zahardan achchi(q),
Men Shahrining so'zin ko'zga ilmadim.

"Vafosi yo'q" deb menga ta'na etar,
Vafoli bo'l, meni ta'nadan qutqar,
Suhbat g'animatdir, bu dunyo o'tar,
Sendan o'zga yorga nazar qilmadim.

Mohim deydi mening baxtim qarodir,
Hasrat bilan umrim o'tib boradir,
Ajab ko'rsang, mening ko'ksim yarodir,
Men naylayin, qilar ishim bo'lmadi.

Alqissa, malika Mohim shu g'azalni o'qigach, Tohirbek:

— Ey malika Mohim, ko'p betoqat bo'lmagin. Sabr qiling, sabrning oxiri muroddir, — dedi.

Bu so‘zlar bilan malika Mohimning ko‘ngli andak xotirjam bo‘ldi. Ammo Tohirbekning ichi har vaqt tandirdek yonar edi. Bu holni malika Mohim ko‘rib:

— Ey Tohirbek, ko‘p betoqat bo‘lmang, ko‘p betoqat bo‘lmang, sabr qiling, sabrning oxiri muroddir, — dedi.

Tohirbek:

— Qurboning bo‘layin, Xudoyi taolo hech bandasini mendek qilmasin.

Tuganmas bir savdoga qolganman, — deb malika Zuhraning dardida kuyib-yonib, malika Mohimga qarab bir g‘azal o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

Qurbon bo‘lay senga, malika Mohim,
Bu so‘zlarni og‘ir olma o‘zingga.
Ochilmadi mening hargiz bu rohim[1]*,*
Bu so‘zlarni og‘ir olma o‘zingga.

Bunda senga qaray olmay yuribman,
Uning g‘ami bilan oqib-eribman,
Tuganmas yo‘llarga bu kun kiribman,
Bu so‘zlarni og‘ir olma o‘zingga.

Qudratidan meni yaratgan Xudoy,
Doim mening ishim erur ohu-voy,
Yor bo‘lmasa kerak emas balki joy,
Bu so‘zlarni og‘ir olma o‘zingga.

Sen yig‘lasang mening ichim tutashar,
Nola qilsam, ohim falakdan oshar,
Menga bu kun Zuhra xayoli tushar,
Bu so‘zlarni og‘ir olma o‘zingga.

Ajab savdolarga bu kun qolibman,
Zuhra uchun o‘zim dardga solibman,

[1] **Roh**— yo‘l.

Bunga kelib, sizga hamdam bo'libman,
Tohir so'zin og'ir olma o'zingga.

Alqissa, Tohirbekning shu javobidan so'ng malika Mohim:

— Ey Tohirbek, ko'p bedillik qilmang, ne iloj qilayin, Parvardigori olamin bu qaro kuni mening boshimga solibdir, — deb nochor sabr qildi.

Ammo Tohirbek bular bilan bu ravishda olti yil bunda murosa qildi. Bu kunlar Tohirbek ko'p dilgir bo'ldi.

Malika Mohimning bir chorbog'i bor edi. Uni Bog'i Dilaso der edilar. Bunday bog' yer yuzida yo'q edi. Har kim u chorbog'ga kirsa, bu jahon ko'ziga ko'rinmas edi. Tohirbek ko'p dilgir bo'lgandan shu Bog'i Dilasoga bordi. Ko'rsa, xiyobon-xiyobon gullar ochilib, bulbullar nag'masaroylik, to'tilar g'azalxonlik qilib va qushlar sayrab turar edi. Daraxtlari juda ajoyib va go'zal bir bog'dir. Tohirbek shu bog'ni tomosha qilar edi. U yerda bir sarhovuz bo'lib, Tohirbek shu hovuz bo'yiga kelib o'tirdi. Shu mahal chorbog'ning yuqori tarafidan turfa bir nasim-shamol kelib, Tohirbekning yuziga urildi. Tohirbekning ko'ngli boshqacha bo'lib, yori yodiga tushib, masti junun bo'lib bir g'azal o'qidi:

G'azali Tohirbek

Haq rahmati bois bu kun,
G'amgin ko'ngillar ochildi.
G'am-u qayg'u ketib bu kun,
G'amning lashkari ko'childi.

Bog'i Dilasoga kirdim,
Tomosha qilibon yurdim,
Dasta-dasta gullar terdim,
Gullar ichra dur sochildi.

Tushdi menga yor xayoli,
Ko'rmayin hech mushkul holi,
Kerakmasdir dunyo moli,
Raqiblar so'zi kechildi.

Zuhra edi ko'nglim shodi,
Naylay boshqa parizodni,
Men g'aribning ko'p murodi,
Oshiq do'koni ochildi.

Tohirbek qaynaydi jo'shib,
Ohi yetti ko'kdan oshib,
Gohi o'chib, goh tutashib,
Zuhra debon umrim kechdi.

Alqissa, Tohirbek shu g'azalni aytib tugatganda, banogoh uzoqdan malika Mohim ko'rindi.

Ko'rsangiz, misli oftobi choshtdek[1] jilo berib, bir lahzada yuz ming turga do'nib keldi.

Uni Tohirbek ko'rib, toqat qila bilmay malika Mohimning dardida kuyib-yonib, uning sha'niga bir muxammas o'qidi:

Muxammasi Tohirbek

Keldi yori mahvashim, yuz noz ila o'ldirgali,
To'ti, bulbul fig'onlar aylamishdir ko'rgali.
Ko'nglim aylar orzusi yorning jamolin ko'rgali,
Oshiqi shaydo erurman senga hamdam bo'lgali,
Toqatim yo'qdir mening bu yerda endi yurgali.

Oftobi hovar, xurshidi tavbon dilbarim,
Men qilarman jonimni yo'lingda qurbon dilbarim,
Zuhra deb doim mening ko'nglimda armon dilbarim,
Ishqida uning bu kun majnuni hayron dilbarim,
Ko'nglim aylar orzuni shirin labidan so'rgali.

Ishqida men bulbuli sho'rida, shaydo bo'lmisham,
To tirikman yo'lida men bir huvaydo bo'lmisham,
Aql-u hushim oldirib, olamga rasvo bo'lmisham,

[1] **Oftobi choshtdek** — choshtgoh quyoshidek.

Ey yoronlar, naylayin, yo'q chora bunda bo'lmisham,
Hech kishi yo'qdir mening bu yerda holim so'rgali.

Bu gadolik yo'liga soldi meni ishq ofati,
Shahri Bog'dod ichra bo'ldim mohi paykar ulfati,
Bandi zindon bo'ldi menga mohi anvar suhbati,
Haq azalda soldi menga bunday dardi-mehnatni,
Ey yoronlar, rozidirman bu yurishdan o'lgali.

Bu musofir yurtida yo'qdir yonimda bir kishim,
Haq taolo aylasa, oson mening mushkul ishim,
Bir nigohi birla kuydirdi meni ul mahvashim,
Tohir aytar naylayin topmasa ko'ngil xushim,
Yo'q qarorim tanda, ul nochordan ayrilgali.

Alqissa, Tohirbek muxammasni o'qigach, malika Mohim yoniga yetib kelib:

— Ey yori vafodorim, nima uchun buncha ohu fig'on etasan, — deb Tohirbekka qarab bir g'azal o'qidi:

G'azali malika Mohim

Bulbul kabi chekib nola,
Solmagil o'zingni dardga.
Meni solib yuz ming holga,
Fig'on chekmagin bu yerda.

Bu dunyo, bil, bevafodir,
Barcha ishlari jafodir,
Men g'aribga ko'p tegadir,
Lahta-lahta qon jigardan.

Ishq o'tiga kuydim yana,
Zuhradur bunga bahona,
Mengadur oxir zamona,
Tenglashasen mashharda.

Yolvordim men Biru borga,
Fig'on etarman saharda,
.....
.....[1]

Mohim deb, senga so'zini,
Surma qilar yor yuzini,
Shod ayla Odil qizini,
Doim ishimdir xatarda.

Alqissa, malika Mohim shu javobni aytgach, Tohirbek:

— Ey malika, men nola qilmay, kim nola qilsin? Nimaga desang, avval ota-onamdan, so'ng sevar yorimdan ayrildim. Uchinchisi, el-yurtim va yoru do'stlarimdan judo bo'ldim, — deb malika Mohimga qarab, zor-zor yig'lab, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Falak soldi mening boshimga savdo,
Bu kun ota-onamizdan ayirdi.
Zuhraning ishqida bo'libman shaydo,
Meni ko'nglim istar yordan ayirdi.

G'ariblik ko'yida fig'onda bo'ldim,
Olti yildan beri
Bog'dodda bo'ldim,
Sizning bilan yorug' dunyoda bo'ldim,
Vatanimdan ham elimdan ayirdi.

G'am shomining balosiga qolmisham,
Bog'dod o'lkasida g'arib bo'lmisham,
Men g'unchadek ochilmayin so'lmisham,
Bulubul edim gulistondan ayirdi.

[1] Bu misralar qo'lyozmada yo'q.

Umid etib umrim o'tar xor-u zor,
Ko'nglim oynasini tutibdi g'ubor,
Zuhrajondan yetishmadi bir xabar,
Bu kun shirin jonim tandan ayrildi.

Tohir Zuhra jamoliga zor emish,
Bog'dodning yurtida giriftor emish,
Tirik bo'lsam mening umrim xor emish,
Naylay falak nigorimdan ayirdi.

Alqissa, Tohirbek shu g'azalni o'qigach, malika Mohim:

— Ey yori vafodorim, ko'p betoqat bo'lma, sabr qiling, sabrning oxiri muroddir, — deb malika Mohim Tohirbekka qaradi.

Ular birga saroyga qarab yurdilar.

Ammo malika Mohim bilan Tohirbekni ko'shk ustida suhbatda qo'ying-da, endi ikki og'iz so'zni Tohirbekning onasidan eshiting.

Roviylar andog' rivoyat qilurlarkim, Tohirbek daryo suviga tashlangandan keyin Shohihuban onasi bir kulbai ahzon qilib, bag'rini sovuq yerga berib, zor-zor chun abri navbahor yig'lab yotgan edi.

Kunlardan bir kun Tohirbekning onasiga g'ariblik ko'p ta'sir qilib, o'g'lining xumori tutib, bir g'azal o'qidi:

G'azali Shohihuban

Naylayin bu tanda jonni, nuridiydam bo'lmasa,
O'tirib dardim aytarga menga hamdam bo'lmasa.

Menda yo'qdir tobi-toqat, ey yoronlar, yurgali,
Ko'nglim aytar: naylayin, to diydam purnam bo'lmasa.

Yig'labon dardimni izhor etishga yo'qdir kishim,
Nega aytay har kimga to ko'ngli purg'am bo'lmasa.

Ohu fig'onim mening to'qqiz falakka chirmashib,
Naylayin dunyoni bir dam shod-u hurram bo'lmasa.

Haq taolo soldi menga ayroliqning dardini,
Tohiro, istar ko'nglim naylayki shu dam bo'lmasa.

Alam ichra men bo'libman mubtaloi siyna chok,
Naylayin, ey do'stlaro men nuridiydam bo'lmasa.

Rahm qiling Shohihuban holiga, ey Zuljalol,
Hech kishining holi mendek ko'ngli purg'am bo'lmasa.

Alqissa, Shohihuban shu g'azalni o'qib, zor-zor yig'lab o'tirgan edi. Nagohon qarasa, uzoqdan malika Zuhra kelar edi. Ammo malika Zuhra ko'p dilgir bo'lib, Tohirbekning xumori tutib: "Men endi Shohihuban yoniga borib, dardimni unga aytayin", deb kelar edi.

Uni uzoqdan ko'rgan Shohihubanning alami yangilanib, faryod-u fig'on qilib bir g'azal o'qidi:

G'azali Shohihuban

Yangilandi mening dardi,
Tutashdi dardim, naylayin.
Tohir edi ko'ngil chog'im,
Yo'q mehribonim, naylayin.

Zuhra kelar yona-yona,
Mengadir oxir zamona,
Tiriklik endi gumon-a,
To'kildi qonim, naylayin.

Tohirbekning yo'q xabari,
Mening ishim oh-u zori,
Xush keldingiz Zuhra yori,
Ko'pdir armonim, naylayin.

Menda yo'qdir endi g'amxo'r,
Rahm ayla menga Bir-u bor,

Bolam deb ko'zim intizor,
Chiqar fig'onim, naylayin.

Zuhrajon ko'rgin holimni,
Eshit mening fig'onimni,
Hubon der xonumonimni,
O'tlarga soldi, naylayin.

Alqissa, Shohihuban shu g'azalni o'qigach, malika Zuhra keldi. Ko'rsa, Shohihubanning ko'zlaridan qatra-qatra yosh oqib yig'lar edi.

Shunda malika Zuhra salom berib, eshikdan kirdi. Shohihuban o'rnidan turib, malika Zuhrani quchog'iga olib bir g'azal o'qidi:

G'azali Shohihuban

Men g'aribni yod aylading,
Xush kelding diydam ustiga.
G'amgin ko'nglim shod aylading,
Xush kelding, diydam ustiga.

Hech kim yo'qdir holim so'rsa,
Men g'aribga ko'ngil bersa,
Tohirdan xabar keltirsa,
Xush kelding, diydam ustiga.

Tohir isi kelar sendan,
Ma'zur tuting, xato mendan,
Jabr o'ti menga otangdan,
Xush kelding, diydam ustiga.

Menda yo'qdir qavm-u qardosh,
Zuhradir menga, ey jon, esh,
Tohir deb ko'zim to'li yosh,
Xush kelding, diydam ustiga.

Mushkuldir Hubonning holi,
Yig'lab kechar mohi-sali,
Ko'rinmaydir dunyo moli,
Xush kelding, diydam ustiga.

Alqissa, Shohihuban ushbu g'azalni o'qigandan so'ng malika Zuhraning ko'ngli buzilib, ko'zlaridan marvariddek dona-dona yosh oqib, yorining firoqidan kuyib-yonib, Shohihubanga qarab bir g'azal o'qiganining bayoni ushbudir:

G'azali malika Zuhra

Dunyo ishi bu kun menga adomi,
Yor bo'lmasa shirin jonni naylayin.
Zolim otamizdan kelgan sitmani,
O'tga yonsin, xonimonni naylayin.

Zabun bo'lib, mening baxtim ochilmas,
Rozidirman kafan to'nim bichilmas,
Tohir uchun nega qonim sochilmas,
Usiz bu dunyoda jonni naylayin.

Sizga aytsam bu kun sir-u nihonim,
Tohir edi mening yurak madorim,
Egam eshitmadi bu ohi-zorim,
Kerakmasdir, boshqa yorni naylayin.

Bir murodim shudir — Tohirni ko'rsam,
Menda yo'qdir armon, undan so'ng o'lsam,
Quchoqlashib, yuzim-yuziga qo'ysam,
Undan so'ngra Boboxonni naylayin.

Undan ayrilgali yo'qdir qarorim,
Ko'zlarimdan oqdi ashk-u xunborim,
Yuzimda qolmadi hech sharmisorim,
Zuhra deydi endi jonni naylayin.

Alqissa, malika Zuhra shu javobni aytdi va ular to shom namozigacha bir-birovlari bilan hasratlashdilar. So‘ng malika Zuhra qaytadigan bo‘ldi. Unga Shohihuban:

— Qurboning bo‘layin, malika Zuhra, meni bu g‘amxonaga tashlab ketasan. Menga bir narsani estalik uchun gapirib ketmasmisan? — dedi.

Malika Zuhra Shohihubanga qarab: “Men qaysi til bilan aytayin”, deb xayrlashayotgan pallada bir g‘azal o‘qidi:

G‘azali Zuhra

Xudoyim soldi qaro kunni,
Sevar yordan ayro tushdim.
Ko‘pdir yuragim tuguni,
Gohi o‘chib, goh tutashdim.

Xush qoling endi ko‘rguncha,
So‘zlashay siz bilan necha,
Fig‘on etarman har kecha,
Ayroliq sharbatin ichdim.

Mushkulim oson etmasa,
O‘zi dodimga yetmasa,
Yor diydorin ko‘rsatmasa,
Bilinglar dunyodan kechdim.

Mushtoq edim jamoliga,
Yuzida qora holiga,
Otam qoldi vaboliga[1],
O‘z-o‘zimdan qaynab toshdim.

Zuhraning baxti qarodir,
Siynasin ko‘rsang yarodir,
Menga qanday majarodir,
Tuganmas yo‘llarga tushdim.

[1] **Vabol** — gunoh, uvol, ziyon.

Alqissa, malika Zuhra shu g‘azalni aytib, uyiga qaytdi. Shohihuban yana o‘z g‘amxonasida zor-u tanho qoldi.

Shohihuban bu alamlarga chidab bilmay, o‘lar holga yetdi. Shundan keyin Shohihuban:

— Xudoyim-a! Omonatingni olgin va meni bunday ko‘rishga ko‘z, eshitishga quloq etmagin, — deb o‘g‘lining diydoriga mushtoq bo‘lib, zor-zor chun abri navbahor yig‘lab ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Shohihuban

Hasrat bilan o‘tar bo‘ldim dunyodan,
Zor-u giryon bo‘lib bu kun yig‘laram.
Raqiblarning so‘zi yetar bir yondan,
Shuning uchun malul bo‘lib yig‘laram.

“Bolam” debon orzu-armon etarman,
Yeta bilmay oh-u fig‘on etarman,
Hasrat bilan bu dunyodan o‘tarman,
Jamoliga mushtoq bo‘lib yig‘laram.

O‘lsam endi yo‘qdir murdam egasi,
Tohirbekning yo‘qdir ota-og‘asi,
Qabul bo‘ldi Boboxonning duosi,
Yuraklarim vayron bo‘lib yig‘laram.

Ko‘rmadim men Tohirbekning murodin,
Yuraklarim sizildi shu yarodin,
“Tohir” debon yig‘lab o‘tsam dunyodan,
Bu kun holim zabun bo‘lib yig‘laram.

Endi mening tirikligimdir gumon,
Dunyo bo‘ldi mening boshimda tuman,
Sharhi dilin aytar, ul Shohihuban,
Yuragimda armon qolib yig‘laram.

Alqissa, Shohihuban shu so‘zni aytib, chiday olmay bir oh tortdi. Shu ohi bilan joni chiqdi. G‘arib edi va g‘arib holda o‘ldi.

Bu xabar malika Zuhraning qulog‘iga yetib bordi. Malika Zuhra buni eshitib, oh urib, behush bo‘lib o‘zidan ketdi. Ammo malika Zuhraning yonida qirq dugonasi bor edi. O‘sha qizlar malikaning boshini ushlab o‘tirdilar. Bir necha muddatdan keyin malika Zuhra hushiga keldi. U barcha qizlar bilan qaro kiyib, o‘likning yoniga borishdi.

Qarashsa, Shohihubanning murdasi g‘ariblar o‘ligidek yotibdi. Buni malika Zuhra ko‘rib, oh-u fig‘on tortib: “G‘aribning holi shunday bo‘lar ekan. Bu kun o‘zim senga ham o‘g‘illik, ham qizlik qilarman”, deb belini mahkam bog‘lab, qora anbarafshon sochini yoyib, boshiga qora chodrani solib, ko‘zlaridan dona-dona marvariddek yosh oqib, o‘likning yonida ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali malika Zuhra

Hasrat bilan o‘tsam foniy dunyodan,
Qaro sochim yoyib bu kun yig‘laram.
Dushmanlarning ta’nasi menga bir yondan,
Sening uchun yonib bu kun yig‘laram.

Tark ayladim bu kun sharm-u hajobni,
Pora-pora qildim yuzdan niqobni,
Surma qilsam kerak poyi turobni,
Oh-u fig‘on etib bu kun yig‘laram.

Safil bo‘ldi bu kun toj ila taxtim,
Egam qaro qildi, yaronlar, baxtim,
Bu hasratlar bilan eridim, oqdim,
Raqiblar jabridan bu kun yig‘laram.

Bir farzanding diydoriga zor bo‘lib,
Yuragimda yuz ming armonlar qolib,
Bu dunyoda umrim o‘tdi xor bo‘lib,
Ajalning qo‘lida bu kun yig‘laram.

Zuhra deydi jonim qilarman fido,
Ayro soldi seni bizlardan Xudo,
G'arib bo'lding bu kun o'zing elingda,
Chok aylab siynamni,
bu kun yig'laram.

Alqissa, malika Zuhra bu g'azalni o'qib yig'lar edi. Ammo malika Zuhraning yonida qirq qiz bor edi. Har biri bir bayt o'qib yig'lar edi. Shundan so'ngra g'assollar kelib, Shohihubanni taxtaning ustiga olib yuvdilar. Keyin tobutga solib, olib ketar bo'ldilar. Shu vaqt malika Zuhra:

— Tahammul qiling, bir zamon g'animatdir, — deb zor-zor chun abri navbahor yig'lab, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Zuhra

Oxiratning yukin bog'lab ketarsan,
Meni qo'yding dog'i-hijron ichida.
Qaro yer ostida qanday yotarsan,
Meni qo'yib shomi-hijron ichida.

Bu dunyoda yetmadim men murodga,
Tohirbegim oqib ketdi daryoga,
Menga bo'ldi bu alamlar ziyoda,
Meni qo'yding bandi zindon ichida.

Sening kabi hech kim g'arib bo'lmasin,
Mening kabi zor ingrayib qolmasin,
Yolg'onchi dunyoga hargiz kelmasin,
Qoldim bu kun oh-u fig'on ichida.

Ajal mening jon panjamni quritdi,
Anduh-u g'ami bilan meni eritdi,
Ko'nglimning quvvati dunyodan o'tdi,
Naylay endi,
qoldim armon ichida.

Mushkul bo'ldi, do'stlar, mening holim-a,
O'tlar soldim bu kun bari molimga,
Qachongacha rahm aylamas holimga,
Zuhra deydi, yorim ummon ichida.

Alqissa, malika Zuhra bu g'azalni o'qib, zor-zor chun abri navbahor yig'lab qoldi. O'likni izzat-ikrom bilan dafn qilishdi.

Malika Zuhra Shohihuban uchun elga osh-suv berib, obro'si oshdi.

So'ngra malika Zuhra yana o'z dard-u alami bilan yolg'iz qoldi.

Ammo kunlardan bir kun malika Zuhraning yodiga Tohirbek tushib, mastu mastag'raq bo'ldi. Ko'ziga hech narsa ko'rinmas edi. Bundan malikaning onasi boxabar bo'lib, podshoh yoniga borib:

— Qizingiz alamdan o'lar holga kelibdi, — dedi. Podshoh zaifasidan bu gapni eshitib, farzandining holiga achinib:

— O'zim borib, ko'zim bilan ko'rib, ham so'zini anglayin, — dedi.

Shunda malikaning onasi:

— Ey shahriyori olam, agar siz malika Zuhraning oldiga borsangiz, xaloyiq ta'na-dashnom qiladilar, — dedi.

Bu gap podshohga ma'qul kelib tinchlandi.

Ammo podshohni shu fikr-xayol bilan qo'ying-da, endi ikki og'iz so'zni malika Zuhradan eshiting.

Malika Zuhra mast-u mustag'rak bo'lib, bu dunyo ishidan ko'ngli sovib, ko'ziga hech narsa ko'rinmadi, oh-u fig'on tortib, ota-onasini ham unutib o'tirar edi.

Bir kuni podshoh: "Qizimni borib ko'raman, undan hol-ahvol so'rayman", deb xabar yubordi. Xabarni malika Zuhraga yetkazdilar. Buni eshitgan malika Zuhra:

— Mening uningdek otam ham, onam ham yo'q. Ularning yuzini nima deb ham ko'rardim? Men hammadan kechdim va ularga begona bo'ldim. Endi qolgan umrimni Tohirbekning yo'liga fido qilaman. Otam qo'lidan kelsa meni o'ldirib, loshimni bir darvozaga osib qo'ysin. Men bu yurishimdan rozi emasman. Men-

da zarracha or-nomus qolmadi, — deb zor-zor chun abri navbahor yig'lab, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali malika Zuhra

Naylay endi ota-onam,
Sevar yordan ayro soldi.
Tohirbekdir mening jonim,
Armon yuragimda qoldi.

Qanday ko'ray otam yuzin?
Eshitaymi uning so'zin?
Malomat etdi o'z qizing,
Ado bo'lmas dardga soldi.

Shohihuban bo'ldi g'arib,
O'g'li g'amida sarg'arib,
Uning uchun oqdim erib,
Ko'nglim istar qayda qoldi?

Tark ayladim bu dunyoni,
Omonatdir har kim joni,
Aslo kulmadi darmonni,
Meni yordan ayro soldi.

Umrim o'tdi xor-u zori,
Buzilsin mulki Tatari,
To bo'lmasa Zuhra yori,
Shirin jonim o'tga soldi.

Alqissa, malika Zuhraning bu so'zlarini otasi eshitib, hayron bo'lib, o'ziga "Buning iloji qanday bo'ladi" deb fikr qildi. O'yi oxiriga yetmadi.

Podshohning bir amakisi bor edi, uning bir o'g'li bo'lib, otini Qorabotir der edilar. Ko'p suxanvor va suxandon edi. Urushda ko'rsangiz, pahlavoni zamon va sohibqiron edi. Boboxon pod-

shoh qizini shu Qorabotirga bermoqchi bo'lib, kishi yubordi. Qorabotir bu xabarni eshitib, xushvaqt bo'lib, to'y hozirligini ko'rib, ko'pgina mol-dunyo bilan kelib, Boboxonga pashkash qildi.

Boboxon podshoh Qorabotirning sovg'a-salomlarini oldi va xursand bo'lib, qizini berishga ahd etdi. "Agar shunga bersam, Tohirbekni unutadi", degan xayolga bordi. Podshoh shaharga ma'lum qilib, qirq kecha-kunduz to'y-tomosha berib, malika Zuhrani Qorabotirga nikoh qilmoqchi bo'ldi.

Malika Zuhra bu xabarni eshitgach, xazinaning eshigini ochdi. Xazinasida bor boyliklarini bechoralarga ulashib, ko'ngillarini oldi. "Bechoralarning duolarini ijobat qilib, meni Tohirimga yetkazadi", deb umid qilar edi.

Ammo Boboxon podshoh qizini Qorabotirga nikohlab berdi. Bu xabarni malika Zuhra eshitib:

— Qani, Qorabotir yonimga kelib ko'rsin-chi? Yo o'zimni yoki bo'lmasa Qorabotirni o'ldiraman, —dedi.

Zuhraning tillo suvi yuritilgan o'tkir xanjari bor edi. Shu xanjarni qo'liga olib o'tirdi.

Buni Qorabotir eshitib, hayron bo'ldi. Ich-ichidan oh-u dilso'z tortdi. Ora-orada Qorabotir uzoqdan kelib, Zuhraga termilib qarab ketar edi.

Biroq bu ishdan hech bahra topmas edi. Qorabotirning maqsadi Tohirbekni tutib, o'ldirib boshini kesib arqonga osib, malikani o'ziniki qilish edi. Lekin ilojini topa olmas edi. Shu bois o'z-o'zidan oh-u dilso'z chekar edi.

Ammo malika Zuhra buni anglab, faryod-u fig'on etib, Tohirbekning dardida ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali malika Zuhra

Dushmanlar qasd etar shirin jonima,
Endi menda zarra toqat qolmadi.
O't soldilar bu kun xonimonima,
Sendan ayrilgali rohat qolmadi.

Shum raqiblar sening yo'ling tusarlar,
Boshing kesib, arqoniga osarlar,
G'ovg'a qilib boshim uzra kelarlar,
Yuragimda zarra toqat qolmadi.

Sening ishqing qildi meni devona,
Sendan ayrilishim — oxir zamona,
Qorabotir istab chopar har yona,
Menga hamdam fursat bo'la bilmadi.

Otam berdi meni emakdoshiga,
Daryolar to'libdi ko'zim yoshiga,
Hayrona bo'larman falak ishiga,
Sevar yorim bir dam ulfat bo'lmadi.

Zuhra deydi holim zabun bo'libdir,
Yor dardida guldek rangim so'libdir,
Bu maskanlar menga harom bo'libdir,
Tohirbegim bilan suhbat bo'lmadi.

Alqissa, malika Zuhra shu g'azalni o'qigandan so'ng yonidagi qirq qiz uning holiga zor-zor yig'ladilar.

Keyin aytishdiki:

— Ey malika, siz hammamizning ulug'imiz bo'lasiz, to shu kunga qadar siz biz bilan hamroh edingiz, biz sizga biror gap ayta olmas edik. Ko'rdikkim, siz ishq o'tiga kuyib yonarsiz va or-nomus ham qilmassiz. Xazina, mol-mulkni barbod qilibsiz. O'zingizni buncha xarob aylab, dushmanlarni shod qilmangiz.

Malika:

— Axir qandoq qilayin? —dedi.

Qizlar:

— Buning chorasi shuki: katta-kichik jam bo'lib, maslahat qilmoq kerak, — deyishdi.

Taklif malika Zuhraga ma'qul kelib, qizlarga:

— Unday bo'lsa, o'zlaringiz bilasizlar, — dedi.

Katta-kichik jamlandi. Malika Zuharning bir enagasi bo'lib, uning otini Xonpari der edilar. Ko'p dono va raso edi. Malika Zuhra shu Xonparini chaqirtirdi. Qizlar bor gapni unga aytishdi.

Shunda Xonpari:

— Bu maslahat solishingiz yaxshi bo'libdi. Endi har tomonga odam yuboring. O'lik bo'lsa o'ligini, tirik bo'lsa tirigini bilaylik, —dedi.

So'ngra ular malika Zuhraning yoniga borishdi. Ko'rsangiz uy to'la qiz o'tiribdi, har biri xurshidi hovar kabi. Ular orasida malika Zuhra go'yo o'n to'rt kechalik oydek edi. Qizlardan har biri bir so'z aytar edi. Ammo ular aytgan so'zlarning hech biri malikaga ma'qul kelmadi.

Ular ichida Shaxboz ismli qiz bor edi. O'zi bag'oyat dono va suxanvor edi. Shaxboz malikaga juda mushfiq va mehribon edi. Shaxboz:

— Bir dono munshiy chaqirtiring. Malika Zuhraning hol-ahvolini yozib, qosid-choparning qo'liga berib yuboring. Balki axtarib topar, — dedi.

Bu maslahat malika Zuhraga ma'qul keldi. Shu vaqt Qobul ismli devon munshiysini chaqirib kelishdi.

Malika Zuhra:

— U devon munshiysini mening huzurimga keltiring. Unga arzimni bayon qilayin, u xat yozsin, — dedi.

Qobulni malika Zuhraning yoniga keltirib, oralariga parda tutdilar.

Malika Zuhra:

— Devon munshiysiga bosh-oyoq sarpo keltiring, — deb buyurdi.

Munshiy sarpoli bo'ldi. Keyin malika Zuhra unga:

— Ey Qobul, devon munshiysi, bu kun men uchun bir salomnoma bitsang kerak. Umringda boshqa bunday g'aroyib salomnoma bitmagaysan. Agar meni Xudoyi taolo u kunlarga yetkazsa, sening yetti pushtingni xor-u zor qilmasman. Seni qarindoshim o'rnida ko'rarman, — dedi.

— Bosh ustiga, — dedi munshiy.

Malika Zuhra qo'liga sozini olib, boshidan o'tgan voqealarni bir-bir bayon qilib bir g'azal o'qidi:

G‘azali malika Zuhra

Sening mehring menga bo‘ldi ziyoda,
Bu kun jamolinga mushtoq bo‘libman.
Quloq solgin bu kun oh-u faryodga,
Sening jamolingga mushtoq bo‘libman.

Qosid[1] *olib borsa mening xabarim,*
Rahm aylasin bilsa oh ila zorim,
Tez yetirgin o‘zing, sevikli yorim,
Turfa jamolingga mushtoq bo‘libman.

Firoqingda shaydo bo‘lib yurmisham,
Bulbul kabi tili go‘yo bo‘lmisham,
Sening hasratingda bemor o‘lmisham,
Sening diydoringga mushtoq bo‘libman.

Sening uchun kechdim, yorim, elimdan,
Bulbul edim ayro tushdim gulimdan,
Majolim qolmadi tursam yerimdan,
Turfa jamolingga mushtoq bo‘libman.

Yot ellarda o‘zing g‘arib etmagin,
Meni bunda zor-u hayron etmagin,
Nomard bo‘lib boshqa dilbar tutmagin,
Sening jamolingga mushtoq bo‘libman.

Tirik bo‘lsang yetir menga xabaring,
Himmat qilish asli sening hunaring,
Intizordir senga sevar nigoring,
Sening diydoringga mushtoq bo‘libman.

Arz ayladim yurakdagi dardimni,
Tomosha aylasang rangi-zardimni,

[1] **Qosid** — xat tashuvchi, xabarchi, chopar.

Eshit g'arib Zuhraning oh-sardini,
Jamolingga turfa mushtoq bo'libman.

Alqissa, malika Zuhra shu g'azalni o'qidi. Qobul devon munshiy uni xat qilib yozdi.

Malika Zuhraning Qosid degan bir devonbegi bor edi, malikani juda hurmat-u izzat qilar edi. Xatni uning qo'liga berib:

— Qaysi viloyatga borsang, albatta, uni so'rab surishtirgin. Agar bandi bo'lsa, sotib olgaysan, agra podshoh bo'lsa sulh tuzgaysan, — dedi.

Shunday tilaklar bilan Qosidni yo'lga ravona qildilar. Qosid katta savdogarlar misoli yo'lga tushdi.

Qosid qancha manzil va marohillarni bosib o'tib, qanchadan qancha shaharlarni kechib, oxiri Bog'dod shahriga kirib keldi. Shaharning bir karvonsaroyi bor edi. Savdogarlar kelib shu saroyga tushar edilar. Qosid ham shu yerga o'rnashdi. Bir necha kun ranju-rohdan osuda va xotirjam bo'ldi.

Kunlardan bir kun "Bu shaharni chiqib tomosha qilsam", deb rastai Registonga bordi. Ko'rsa, bag'oyat obod shahar. Bunga teng keladigan shahar yer yuzida yo'q edi.

Ammo Qosidning o'zi juda dono, suxandon va suxanvor edi. O'zi ham shunday mohir sozanda edi, yer yuzida unga teng keladigan sozanda va hofiz yo'q edi, desa ham bo'ladi. Kim u bilan hamsuhbat bo'lsa, undan ko'ngil uzib keta bilmas edi. Bag'oyat xushovoz va xushnag'ma edi. Suhbati odamni yondiradigan darajada juda ta'sirli edi. Qosid savdogar bunda uch oy istiqomat qildi.

Darvoqe, savdogarni bunda qo'ying-da, endi ikki og'iz so'zni Tohirbekdan eshiting.

Tohirbek har kuni kelib, yor-u birodarlari bilan shu karvonsaroyni tomosha qilardi. U jo'ralariga:

— Bu kun yana borib, saroyni tomosha qilayin, undagi savdogarlar bilan bir suhbatlashayin, — dedi.

Taklifi jo'ralariga ma'qul tushdi. Kelib saroyning darvozasidan kirdilar. Shu mahal Qosid savdogar ham o'z hujrasidan chiqib, shohsupaning ustida chordona qurib o'tirgan edi.

Banogoh Tohirbek yor-jo'ralari bilan kelib saroyga kirdilar. Ko'rdilarkim, shohsupada bir yigit o'tiribdi. Yuzidan ilohiy nur barq uradi. O'zi ham ajoyib bir dilkash yigit ko'rinadi. Tohirbek uni ko'rsatib:

— Yigitlar, shu shohsupada o'tirgan yigit sizning ham nazaringizga shunday yaxshi ko'rinmoqdami yoki faqat menga shunday tuyuldimi? Mening ko'nglim shu yigit suhbatiga xo'p moyil bo'ldi, — dedi.

Yigitlar:

— Bizning nazarimizda ham bag'oyat shirinsuxan ko'rinadi, — deyishdi.

Tohirbek shunda:

— Undoq bo'lsa, yuringlar shu yigitning yoniga borib bir maydon suhbatlashaylik, — dedi.

Tohir jo'ralari bilan Qosid tomonga qarab boraverishdi. Qosid ko'rdikim, bu kelayotgan yigitlar oddiy odamlarga o'xshamaydi. Zero Qosid hayotda bunday yigitlarni ko'p ko'rgan edi. Juda ziyrak va dono Qosid beixtiyor o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, peshvoz chiqib ehtirom ila salom berdi. Yigitlar alik olib, shohsupaga kelib o'tirishdi.

Qosid juda mard, oqil va to'g'riso'z yigit edi. U ko'nglida: "Ehtimol, bular shu shaharning podshohzodasidir. Baharhol bular behikmat odamlar emas", deb o'yladi va ularni hujrasiga taklif etdi. Oldiga dasturxon yozib, turli noz-ne'matlar qo'ydi. Yigitlar ne'matlardan yedilar. So'ngra duo qilishib, yana bir muddat suhbatlashishdi. Tohirbek va uning jo'ralari Qosidning fahm-farosatiga tahsin o'qishdi.

Kun shunday o'tdi. Ertasi Tohirbek yor-do'stlari bilan kelib, yana gurung qildilar. To uch kungacha ular kelib, Qosid bilan suhbatlashdilar. Yigitning juda suxanvor va suxandonligiga guvoh bo'lishdi.

So'ng Tohirbek:

— Endi biz ham uni mehmon qilishimiz lozim, — dedi.

— Albatta, uni mehmon qilamiz, — dedi jo'ralari ham.

Barchasi maslahatni bir joyga qo'yib, ertasi erta bilan borib, Qosidni mehmonga taklif qilishdi:

— Har holda bir kun biz ham sizni mehmon qilaylik. Bu saroy ichida ko'p dilgir bo'lgan ko'rinasiz. Bir kecha ko'ngilni shod qilaylik, — deyishdi.

Qosid mehmondorchilikka rozi bo'ldi. Shom nomozidan keyin saroydan chiqdi. Borib Tohirbekning haramiga kirdi. Ko'rdiki, juda hashamatli, ajib ayvonlar, uylar ham bag'oyat go'zal naqshlar bilan bezatilgan. Qosid savdogar bundan ta'sirlanib, ofarinlar aytdi.

Shundan so'ngra zarnigor dasturxon yozib, turli taomlar keltirishdi. Taom yeb bo'lgach, duoyi fotiha qildilar.

Tohirbek yigitlarga:

— Endi qo'llaringizga sozingizni olib, har biringiz qo'shiq ayting, — deb buyurdi.

Ular oraisda Gulob otli bir yigit bor edi. Endi navbat Gulobga keldi. U sozini qo'liga olib, yorining dardida kuyib-yonib, ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Gulob sozanda

Ey yoronlar, arz etayin, yoronlar, anglang bu kun,
Men g'aribning yuragida g'ussalar bo'ldi tugun.

Hech kishim yo'qdir mening dard-u alamim aytarga,
Naylayin, ey do'stlarim, bo'ldi yuragim to'la xun.

Nola qilsam, ayb qilmang bu kun meni, ey do'stlar,
Haq azaldan aylamishdir, qismatimni vazi'gun[1],

Siynam ichra yo'q qarorim, ohi-fig'on aylaram,
Men firoqida uning bo'ldim bu kun masti-junun.

Men bayon aylay bu kun yurakdagi dardim sizga,
Chora yo'qdir, naylasin, qilmish mening baxtim zabun.

[1] **Vazi'gun** — tuban *(tarj.)*,

Ishq o'ti har dam yuragimda urar favvoralar,
Nag'ma bilan past qilsam, dildagi dardim bu kun.

Ishqida uning bu kun devonai shaydo Gulob,
Olam ichra ul bo'lib ulfatdayi rasvo bu kun.

Alqissa, Gulob sozanda shu g'azalni o'qigach, barcha zavqlandi.

Ammo Gulobning voqealarini so'rasangiz, uning yonida bir hamrohi bor edi. Uning ismini Badriddin der edilar. Uning bir qizi bo'lib, ismini Mohpora der edilar. Ko'p barno qiz edi. Necha marta kishi yubordi. Biroq otasi Badriddin unga qizini bermadi. Bu Mohporaning alami Gulobning yuragidan aslo chiqmas edi. Bu oqshom Gulob Mohporani eslab haligi g'azalni o'qigan edi.

Navbat Qosid savdogarga yetdi. U ham qo'liga sozini olib, beixtiyor mast bo'lib, "Malika Zuhraning yoridan bir xabar topgayman" deb ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Qosid savdogar

Bahri bazm qochib qo'ldan,
Istab chiqdim bu ellarga.
Judo bo'lib gulistondan,
Istab chiqdim bu yo'llarga.

Men kezarman eldan elga,
Topsam eltay o'zim birla,
Shod bo'lsin qavm-u qabila,
Dardidan chiqdim yo'llarga.

Hech topmadim undan payg'om,
Zuhra uning uchun davom,
Fig'on etar har subhi shom,
Istab chiqdim bu ellarga.

G'am bilan sarg'ayib yuzi,
Tohirning yo'lida ko'zi,
Oqlayin men uning tuzin,
Ul uchun chiqdim yo'llarga.

Qosid der ko'ngilda borin,
Topsa agar Zuhra yorin,
Istaram mulki Tatarin,
Ketarman so'ngra ellarga.

Alqissa, Qosid savdogar shu g'azalni o'qigach, uning so'ziga yigitlar hayron qoldi. Tohirbek g'azalni eshitgan zahoti behush bo'lib, o'zidan ketdi.

O'tirganlar bu holni ko'rib, hayrat ummonga tushdi. Bir muddatdan keyin Tohirbek o'ziga keldi. Ko'zini ochib qarasa, jo'ralarni uning boshini ushlab o'tiribdi.

Tohirbek oh-voh qilib, o'rnidan turib, Qosidning bo'yniga yopishib, zor-zor chun abri navbahor yig'lab, yorining holidan boxabar bo'lib, Qosid savdogardan bir savol so'radi.

Qosid savdogar bilan Tohirbek o'rtasidagi savol-javob ushbudir:

Tohirbekning savoli

— Zuhra otli nigorimdan xabar ber,
Qosid oshna, mening yorim omonmi?
Tirik bo'lsa sevar yordan xabar ber,
Qosid oshna, mening yorim omonmi?

Qosid savdogar javobi

— Sening g'aming bilan sarg'ayib yuzi,
Yig'lab, istar doim yo'lingda ko'zi,
Izlab topolmassan unday bir qizni,
Xabar bersam Zuhrajoning omondir.

— U kun meni tashladilar daryoga,
So'ng Zuhradan tushdim yiroqqa,
Shirin jonim bo'lsin unga sadaqa,
So'zla, Qosid oshna, yorim omonmi?

— Uning ishi doim oh-u fig'ondir,
Sening uchun doim yuragi qondir,
Har bir o'tgan kuni oxir zamondir,
Angla bu kun sevar yoring omondir.

— Oqib keldim necha kunlar daryoda,
Hech kim yo'qdir yetsa oh-u faryod(g)a,
Oxir kelib tushdim shahri Bog'dod(g)a
Ilojim yo'q, sevar yorim omonmi?

— Men uning qosidi edim qadrdon,
Zuhra berdi menga moli-faravon,
Savdogarlik qilib yurdim men har yon,
Bilgin, Zuhra otli yoring omondir.

— Tutib oldi meni Odil shoh qizi,
Xurshidi olamga o'xshaydir yuzi,
Topolmasman Zuhra kabi mahbub(n)i,
So'zla, Qosid oshna, xonim omonmi?

— U aytgan so'zni bajo qilarman,
Sizni o'zim bilan olib ketarman,
Yoring holin sizga nisor etarman,
Zuhra sizning uchun bag'ri biryondir.

— Qizin berdi menga Odil shahonshoh,
Men etmadim hargiz unga bir nigoh,
Zuhra uchun doim ishim oh-u voh,
Qosid oshna, mening yorim omonmi?

— Tohirbek der unday bo'lsa ketarman,
Ruxsat bermasalar unda netarman,
Zuhra uchun kuyib faryod etarman,
Qosid oshna, sevar yorim omonmi?

— Qosid deydi, qo'ymay olib ketarman,
Odil shohga o'zim arzing aytarman,
To ketmasang oylab-yillab yotarman,
Zuhrajonning ishi oh-u fig'ondir.

Alqissa, Qosid savdogar va Tohirbek bir-biriga savol-javob aytishdilar. So'ngra Qosid savdogar Tohirbekka:

— Ogoh bo'l. Ogoh va dono bo'l. Men malika Zuhraning xabarchisiman. Necha vaqtlardan beri seni so'roqlab yuribman. Shukr olamlar egasi Alloh taologa hamd-u sanolar bo'lsin. Bu kun meni Xudoyi taolo senga yo'liqtirdi, — dedi.

Shunda Tohirbek o'rindan turib, Qosid bilan quchoqlashib, zor-zor chun abri navbahor yig'lashib o'tirdilar. Bu oqshom shu tariqa o'tdi. Ertasi Qosid savdogar borib karvonsaroyda yana o'z joyida o'tirdi.

Endi Qosid savdogarni bu saroyda qo'ying-da, ikki og'iz so'zni Tohirbekdan eshiting.

Qosid savdogar qaytib ketgandan so'ng Tohirbek ham uyiga bordi va haram eshigidan kirdi. Ko'rsa malika Mohim kimxob ko'rpacha ustida o'tirib, xayolan ro'molcha to'qir edi.

Bir mahal malikaning ko'zi Tohirbekka tushdi. O'rnidan turib, Tohirbekka qarab, ta'zim va tavoze bilan qo'l qovushtirib salom berdi. Tohirbek alik oldi.

So'ngra Tohirbek bor voqeani boshdan oxir malika Mohimga bayon etdi. U Tohirbekning so'zini eshitgach, behush bo'lib o'zidan ketib yiqildi. Bir ozdan keyin o'ziga keldi va oh-voh tortib:

— Vo darig', yana mening baxtimning chirog'i tiyra bo'lganga o'xshaydir, — deb turganida Shahri keldi. Qarasa, malika Mohimning ahvoli shunday. Buni Shahri anglab:

—Ey malika Mohim, ko'p betoqat bo'lma, sabr qil, sabrning oxiri muroddir, — dedi.

Malika Mohim:

— Ey Shahrijon, qachongacha men sabr qilayin. Mening tamom umrim motam va g'am-hasratda o'tdi, — deb zor-zor chun abri navbahor yig'ladi.

Bu holni ko'rgan odamlar "Qiyomat bo'ldi" debi barmog'ini tishlar edi. Barchasi xafa bo'ldilar. Tohirbek ulardan yaxshi so'z eshitmadi.

Oxiri bo'lmadi, podshoh yoniga ravona bo'ldi. Podshohni xilvatxonasidan topdi. Tohirbek unga salom berib ichkari kirdi. Podshoh alik oldi. Tohirbek:

— Taqsiri shahriyor! Sizga arzim bor, —dedi. Podshoh so'zlashga izn berdi.

Tohir podshohga qarab boshidan kechganlarini bir-bir bayon qilib ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Ruxsat tilab sizdan bu kun kelmisham,
Noma keldi bu kun bizning ellardan.
Zuhrajon holidan xabar bilmisham,
Qosid keldi bu kun uzoq yo'llardan.

Qosid olib kelmish Zuhra nomasin,
Yig'lab aytar Zuhrajonning qissasin,
Tark etdim necha vaqt otam o'lkasin,
Xabar kelmish bu kun bizning ellardan.

Mening sirim sizga ma'lum bo'lgandir,
Shohihuban onam yig'lab qolgandir,
Qosid izlab meni bunda kelgandir,
Jafo chekib kelmish uzoq yo'llardan.

Bevafolik malomatin chekmayin,
Ruxsat bersang, sog'dan so'lga boqmayin,

Necha yillik umidimni yoqmayin,
Ruxsat bering,
xabar kelmish ellardan.

Malul bo'lib, Tohir ijozat tilar,
Zuhra uchun o'zin o'tlarga solar,
Ruxsat bering,
Xizr rahbarim bo'lar,
Men qolmayin bu kun uzoq yo'llarda.

Alqissa, Tohirbek shu g'azalni o'qigach, podshoh ko'zlaridan qatra-qatra yoshlar to'kilayotgan Tohirbekning bu yerlardan qolmasligini aniq bildi.

Podshoh bu holni ko'rib:

— Ey Tohirbek, ko'p yig'lamagin. Agar qoladigan bo'lsang, bosh ustiga joy berarmiz, ketar bo'lsang, qarshiligimiz yo'q, Xudoyi taolo oq yo'l bersin, — deb duo qildi.

Tohirbek Odil shohdan duo olib, xushvaqt bo'lib, uyiga kelib, haram darvozasidan ichkari kirdi. Ko'rsa, kanizlar o'tiribdi. Hammasining ko'zi Tohirbekka tushgan zahoti birdan fig'on ko'tarib yig'lashdilar.

Malika Mohimning malika Xonim degan onasi bor edi.

Tohirbekning hol-ahvolini ko'rib, unga qarab:

— Ey Tohirbek, kishi degan shunday nomardlik qilsa bo'larmi?

Mening qizim seni mard deb etagingdan tutdi. Tirik umri sening yo'lingda o'tadi, — deb Tohirbekka bir oz iddao qildi. Diqqat qilsa, Tohirbekning aslo qoladigan kayfiyati yo'q. Noiloj u ham ruxsat berib, kanizlarga:

— Boringlar, xazina eshigini ochinglar, Tohirbekka munosib sarpo keltiring, — deb buyurdi.

Kanizlar zarrin sarpolar keltirib, Tohirbekka kiydirishdi.

Tohirbekning ko'rinishi avvaligdan yuz hissa go'zallashib ketdi. Malika Mohim uni ko'rib, betoqat bo'lib Tohirbekka qarab bir muxammas o'qidi:

Muxammasi malika Mohim

Ey ko'zlari mastonim, rahm ayla bu holimga,
Kuydirdi aziz jonim, ko'p qolma vabolimga,
Xanjar urarsan har dam bu qaddi niholimga,
Bir zarra so'zing malham, albatta ahvolimga,
Devona qilib ishqing, zulm etma bu jonimga.

Mast ila junun bo'ldim, guldek yuzingni ko'rgach,
O'rtanib ado bo'ldim, husni-jamoling ko'rgach,
Shaydoyi qilib ishqing, shirin labini so'rgach,
Yo'q sabr-u qaror endi, har kas ko'zini ko'rgach,
Devona qilib ishqing, zulm etma bu jonimga.

Ishqingda chekib hasrat, Haq berdi menga mehnat,
Boshimga tushib kulfat bir dam bo'lmadim ulfat,
Istab topmadim rohat, kim qildi duoyibad?
Bu menga ajab ofat, bu senga qaddi qomat,
Devona qilib ishqing, zulm etma bu jonimga.

Ishqingda sening bo'ldi, qonli yuragim yaro,
Jonimga tushib o'tlar, solding meni tashvishga,
Bu dog'i-alamlarni o'zimga qilib pesha,
Rahm aylamading bir dam, to'ldirding ko'zim yoshga,
Devona qilib ishqing, zulm etma bu jonimga.

Mohimni qilib hayron, qilding yuragin vayron,
Chashmini qilib giryon, ko'nglimda g'olib armon,
Tokay qilayin fig'on, aqlimni oldiribon,
Jonimni qilay qurbon, hayf, o'tdi bu kun davron,
Devona qilib ishqing, zulm etma bu jonimga.

Alqissa, malika Mohim bu muxammasni o'qigandan so'ng, Tohirbek ko'rsa, malika Mohimning ko'zlaridan dona-dona marvariddek yosh oqib turibdi.

Tohirbekning ko‘ngli buzilib, malikaga qarab, yig‘lagancha bir g‘azal o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

Malul bo‘lib sevar yorim yig‘lama,
Men g‘aribning ko‘nglin vayron aylama.
Tohir quling yuraklarin dog‘lama,
Qaro ko‘zdan yoshing sellar aylama.

Naylay, falak soldi boshimga savdo,
Zuhra bilan sening yo‘lingda g‘avg‘o,
Yuz ming g‘am-u g‘ussa mening ichimda,
Sevar yorim kuyib tug‘yon aylama.

G‘arib Zuhrajonim giryon bo‘libdir,
Bu kun unga oxir zamon bo‘libdir,
Mening baxtim buncha yomon bo‘libdir,
Ko‘p yig‘lama, meni hayron aylama.

Qosid bu kun menga keltirdi xabar,
Yig‘lab mening uchun Zuhra intizor,
Rahm ayladi holim ko‘rib Biru bor,
Buncha kuyib oh-u fig‘on aylama.

Vodarig‘-o, murodimga yetmadim,
Zuhrajon deb, bu kun sizdan kechmadim,
Yor labidan yuhiyul izam ichmadim,
Tohirbekni buncha nolon aylama.

Alqissa, Tohirbek g‘azalni o‘qigach, zor-zor chun abri navbahor yig‘lab, malika Mohimning yonidan tashqariga chiqdi. Abdulavohid vazir ko‘rdiki, Tohirbek ko‘zidan yuz ming qatra yosh oqib boradi. Vazir uni ko‘rib:

— Ey Tohirbek, bu kun sizning boshingizga qanday kulfat tushdi, — deb so‘radi.

Tohirbek unga javoban zor-zor yig‘lab ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali Tohirbek

Xabar kelmish *bizning eldan,*
Mohim kuyib fig‘on etar.
Ayrilmisham toza guldan,
Mening bag‘rimni qon aylar.

Ruxsat tilab zor etarman,
O‘zimni beor etarman,
Aziz umrim xor etarman,
Dardim bu kun chandon aylar.

Endi , naylay, kezolmasman,
Mohim bilan qololmasman,
Ruxsat tilab ketolmasman,
Mening ko‘nglim vayron aylar.

Zuhrajonim unda hayron,
Mening uchun jismi giryon,
Qurbon bo‘lsin bu shirin jon,
Mening uchun fig‘on aylar.

Tohir deydi, arz dilini,
So‘ldirmayin yor gulini,
So‘rayin shirin tilini,
Ishqim bu kun tug‘yon aylar.

Alqissa, Tohirbek shu g‘azalni o‘qigach, Abduvohid vazirga qarab:

— Menga oq yo‘l tilang, — dedi.

Shu mahal Qosid ham ular yoniga yetib keldi. Ko‘rsa, Tohirbek Abduvohid vazirdan duo olib, yo‘lga shaylanib turibdi.

Qosid Tohirbekka qarab:

— Ey Tohirbek, mening sizga bir-ikki og‘iz so‘zim bor, aytayin, — dedi. Tohirbek izn berdi.

Shunda Qosid Shahrijonning dardida kuyib yonib, Tohirbekka qarab bir g‘azal o‘qidi:

G‘azali Qosid savdogar

Senga derman rozi dilim,
Shahrijonga zor bo‘libman.
Ochilmadi g‘uncha gulim,
Eshit, sharmisor bo‘libman.

Karashmasi jonim yoqar,
G‘amza bilan qoshin qoqar,
Sollanib qasridan chiqar,
Ko‘rib beqaror bo‘libman.

Qachon quchgum nozik belni,
So‘rarmanmi shirin tilni,
Ochilmadi yorning guli,
Men bu kun bemor bo‘libman.

Naylay endi, yo‘q qarorim,
Majnun etdi nozli yorim,
Tatarga yo‘qdir borarim,
Bunda giriftor bo‘libman.

Mening dardim sen eshitgin,
Oh-u faryodimga yetgin,
Qosidni o‘ldirib ketgin,
Sevar yorga zor bo‘libman.

Alqissa, Qosid shu g‘azalni o‘qigach, Tohirbek:

— Ey Qosid savdogar, bu bu savdo mening boshimga tushgan edi. Bu kun sening ham boshingga tushgan ekan-da! Ey Qosid savdogar, g‘am yemagin. Inshaalloh buning bir chorasini qilarman, —dedi.

Tohirbek malika Mohim yoniga ketdi. Malika uni uzoqdan ko‘rib, sakrab o‘rnidan turdi. Go‘yo malika Mohim o‘lgan-u, Xudoyi taolo unga qayta jon baxsh etgandek bo‘ldi. Malika Mohim

Tohirbeka qarab qo'l qovushtirib, ta'zim bilan salom berdi. Salomga alik olgach, Tohirbek kelib uning yoniga o'tirdi.

Birpas bir-birlariga dil rozlarini aytishdi. So'ngra Tohirbek malikaga Qosidning dardini tushuntirdi. Malika Mohim Shahriga odam yuborib, uni huzuriga chaqirtirib, bor gapni unga ham aytishdi. Shunda Shahri qiz:

— Ey mohiro'yi jahon! O'zingiz bilasiz, mening ixtiyorim sizdadir. Cho'ri deganning bibisi oldida hech qanday ixtiyori bo'lmas. O'tga tashlasangiz kuyaman, suvga tashlasangiz cho'kaman. Nimani xohlasangiz, shuni qiling, — deb javob berdi.

Malika Mohim bu javobdan mamnun bo'lib, to'y tadorikini ko'ra boshladi. To'rt tarafga xabar berdi. Qirq kecha-kunduz to'y-tomosha berib, Shahrini Qosid savdogarga nikohlab berishdi.

Tohirbek ketish fikrida edi. Qosid esa hayron: ketishni ham, qolishni ham bilmas edi. Buni anglagan Tohirbek:

— Ey Qosid savdogar, sen shu yerda qolgin, men o'zim ketarman. Sening qolganing yaxshiroq, — dedi.

Bu taklif Qosid savdogarga ma'qul tushdi. Tohirbek o'zining bor mulkini ham, malika Mohimni ham unga topshirdi.

So'ngra malika Mohim yoniga borib, u bilan xayrlashib ketadigan bo'ldi.

Bundan malika Mohim mutaassir bo'lib, ayroliq o'tiga chiday olmay, Tohirbekka qarab zor-zor chun abri navbahor yig'lab, yoridan umidini uzib, xayrlashib ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali malika Mohim

Egam soldi menga qayg'u-hijronni,
Omon bo'lgin, Tohirbegim, xo'sh endi.
Men g'aribning ko'nglida ko'p armoni,
Omon bo'lgin, Tohirbegim, xo'sh endi.

Umid etib yetmadim meni murodga,
G'arib bo'lib bu kun bo'ldim aftoda,

Bu alamlar menga bo'ldi ziyoda,
Omon bo'lgin, Tohirbegim, xo'sh endi.

Yuraklarim laxta-laxta qon bo'lib,
Qaro nargis ko'zim selobga to'lib,
Naylay, yo'qdir chora, qoldim termilib,
Omon bo'lgin, Tohirbegim, xo'sh endi.

Bag'dodning mulkini o'tga yoqarman,
Visolini izlab har yon chiqarman,
Topmay seni oh-u fig'on chekarman,
Omon bo'lgin,
Tohirbegim, xo'sh endi.

Mohim orzu-dilin aytib yig'ladi,
Zuhra debon mening baxtim bog'ladi,
Tohirbegim mening baxtim bog'ladi,
Omon bo'lgin, Tohirbegim, xo'sh endi.

Alqissa, malika Mohim Tohirbek bilan xo'shlashib:

— Ey yori vafodorim, aniq bildimki, ketar ekansiz. Bu yo'llarga ot yaramaydi. Mening bir bodipoy tuyam bor. Tezlikda shunday ildamki, qirq kunlik yo'lni bir damda bosib o'tadi. Agar xohlasangiz, shu tuyani minib ketsangiz yaxshi bo'ladi, — dedi.

Shunda Tohirbek:

— Ixtiyor sizda. Bunday marhamat va mehribonchilik sizga yarashadi, — dedi.

Malika Mohim buyurgach, tuyani olib kelishdi. Tuyani ko'rib malika zor-zor chun abri navbahor yig'lar edi. Buni Bag'dod xalqi ko'rib, tomosha qilar edi. Tohirbek tuyani mindi. Qarasa, yorining ko'zidan yuz ming qatra yosh oqib turibdi. Bu holdan Tohirbek yuragida zarracha toqat qolmay, ko'ngli buzilib, malika holiga rahmi kelib, tuyaga minib malika Mohimga qarab, bir g'azal o'qidi:

G‘azali Tohirbek

Ko‘p yig‘lama mening yorim,
Xo‘sh endi, mohi-anvorim.
Yo‘q endi tanda qarorim,
Xo‘sh endi mohi-anvorim.

Termilib har yon boqmagin,
Yurak bag‘rimni yoqmagin,
Ko‘z suzib qoshing qoqmagin,
Omon bo‘l, mohi-anvorim.

Haq yetirsa Zuhrajonga,
Shirin labdan emay qona,
Undan so‘ng yetsa armonga,
Xo‘sh endi mohi-anvorim.

So‘ngra turmay bunda kelsam,
Siz bilan hamdam bo‘lsam,
Mening qalbimda yuz alam,
Xo‘sh endi mohi-anvorim.

Ruxsat bering, bizga shohim,
Kechiring, ko‘pdir gunohim,
Tohirbek der, Haq panohim,
Xo‘sh endi mohi-anvorim.

Alqissa, Tohirbek bu g‘azalni o‘qib, malika Mohim bilan xo‘shlashib, namozi bomdodni o‘qib, yo‘liga ravona bo‘ldi. Unga hazrati Xizr alayhissalom hamroh edi.

Shu zaylda qirq kun yo‘l yurishdi. Banogoh bir daryoga yetishdi. Ko‘rsa, bir daryoi xunxor oqib turibdi. Uning uchi-keti ko‘rinmaydi. Bu daryoning otini daryoyi Shujuk deb atar edilar.

Ammo Tohirbek shu daryoyi Shujukning labiga kelib, buning yo‘l-izini bilmasdan hayron va sargardon bo‘lib: “Xudo-yo yana meni qanday savdoga giriftor qilding.

Bu daryoyi Shujukdan O‘zing o‘tkazmasang, mening holim mushkul bo‘ldi”, deb Xudoyi taologa sidqi ixlos bilan ushbu munojotni o‘qidi:

Munojoti Tohirbek

Qudrat bilan xalq aylading, Zuljalol,
Buncha meni sargardonga qo‘ymagin.
Himmat sizdan bu kun yo Mirikulol,
Men g‘aribni sargardonga qo‘ymagin.

Shujuk daryosidan o‘ta bilmadim,
Zuhrajonga hargiz yeta bilmadim,
Rahbar yo‘qdir, endi keta bilmadim,
Buncha meni sargardonga qo‘ymagin.

Madad sizdan bu kun Xizr ila Ilyos,
Bu yerlardan meni aylang siz xolos,
Ko‘p yig‘ladim, sizga qildim iltimos,
Madad qilib, oh-u zorga qo‘ymagin.

Ne mushkul ish tushdi mening boshimga,
Naylay, yo‘qdir qavmim ishi qoshimda,
Qarg‘alar qo‘nadir bu kun loshimga,
Rahm aylagin, buncha zorga qo‘ymagin.

Shaydo bo‘ldim Zuhrajonning ishqiga,
Jabr ayladim bu kun Mohim haqiga,
Qachon borib kirgum uning ko‘shkiga,
Tohirbekni buncha zorga qo‘ymagin.

Alqissa, Tohirbek shu g‘azalni o‘qidi. Uning nolasidan cho‘l-biyobon larzaga keldi.

Ammo bu daryo bo‘yida yetti qaroqchi yo‘l qarab yotar edi. Banogoh, uning ovozi shu qaroqchilar qulog‘iga yetib bordi. Ular birdan ot choptirib kelishdi. Ammo Tohirbek shunday bir mergan,

tiyrandoz ediki, hatto unga zamonasining Rustami ham yuzma-yuz kela bilmas edi.

Tohirbek qarasa, yetti otli yetib kelibdi. Shunda Tohirbek:

— Ey yigitlar, qaytinglar, barbod bo'lasizlar, — dedi.

Bu gapdan ularning jahli chiqdi. Tohirbek "Qaytinglar, barbod bo'lasizlar", deb ularga qarab siyosat bilan ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Qahr etsam bu kun shirin jonimga,
Hammangizni yerga yakson aylaram.
Rustam kela bilmas bu kun yonimga,
Qizil qonni bu kun sellar aylaram.

Agarki men qahr aylasam shu zamon,
Haybatimdan titrar xisravi jahon,
Shahd aylasam barcha o'lar begumon,
Har bir o'qda biring nishon aylaram.

Nomard bo'lar kishi savash etmasa,
Boshin bu kun tandan judo etmasa,
Qilich urib, barin giryon etmasa,
Qayting, bu kun oxir zamon aylaram.

To'karman men yerga qizil qoningiz,
Qolipidan judo etsam, joningiz,
Hech kim eshitmasa munda dodingiz,
O'ngdan chapga boqmay tug'yon aylaram.

Men erurman pahlavoni Iskandar,
Do'nmay savash eting sohibqironlar,
Rumga Shom bo'la bilmas barobar,
Tohirbek der bu kun giryon aylaram.

Alqissa, Tohirbek shunday siyosat qildi. Bunga e'tibor bermagan ikkita qaroqchi ot qo'yib keldi. Tohirbek sandog'idan o'qini chiqarib, yoyga joylab otdi. Ikki otliqni bir o'q bilan yiqitdi. Buni

ko'rgan yana uchtasi ot choptirib keldi. Tohirbek qahrlanib bir o'q otdi. Yana ikkitasini urib yiqitdi. Birisi qoldi. Yiqilgan ikkitasini ko'rsa ham kelaverdi. Shunda Tohirbek qo'ynidan bir tosh chiqarib unga otdi. Dushman otdan yiqildi. Bu holatni ko'rgan boshqalari qochib qolishdi.

So'ngra Tohirbek o'lganlardan birining otini tutib olib, daryoga tushdi. Ot daryodan suzib o'tdi; narigi qirg'oqqa yetdi. Yo'lida davom etdi.

Shu zaylda qirq kun yo'l yurib, bir manzilga yetdi. Oldida bir shahri azim paydo bo'ldi. Shaharga yaqin keldi. Bir kampirning ko'za ko'tarib suvga borayotganini ko'rib qoldi. Tohirbek shu kampirning yoniga borib so'radi:

— Ey momo, bu shaharning otini nima derlar?

— Mendan so'rab nima qilasan yo so'rashga boshqa odam topilmadimi? — dedi kampir. Kampir so'zida davom etib: — Buning otini shahri Musaffo derlar. Mening otimni esa Kanishshum sehrgar deyishadi.

Shu mahal Tohirbekni sehri bilan band qilgan kampir o'z uyiga olib bordi. Uning qo'l-oyog'ini temir zanjir bilan kishanladi. Kampir uyi devoriga ajdarho rasmi chizilgan edi. Tohirbek ko'zi banogoh shu ajdarhoga tushdi va rasm harakatga keldi. Tohirbekka qarab og'zini ochdi.

Tohirbek undan qo'rqib yuragi yorilar bo'lib, piridan yordam so'rab, sidqi ixlos bilan Xudoyi taologa munojot qildi:

Munojoti Tohirbek

Avval boshda xalq aylading, yo Ahad,
Madad tilab, sendan bu kun yig'larman.
Rahmatingni arzon etding, yo Samad,
Zikr-u sano aylab, bu kun yig'larman.

Musaffo shahrida bo'ldim mubtalo,
Haybat bilan menga boqdi bir balo,
Ko'p yig'ladim, unga qildim tavallo,
O'z holimga o'zim bu kun yig'larman.

Band ayladi meni bunda Kanishshum,
Azal kunda tilagimni qildi shum,
Jonim chiqib tandan ketibdir xushim,
Yoshim to'kib ko'zdan bu kun yig'larman.

Naylay qoldi bunda davlatli sarim,
Ko'rolmadim Zuhra otli dilbarim,
Himmat sizdan Xizr, sizdir rahbarim,
Istiqomat istab bu kun yig'larman.

Qo'rqib, yig'lab yuraklarim bo'ldi qon,
Tohir deydi, o'lar bo'ldim begumon,
Madad sizdan pirim, ey Xoja Jahon,
O'limim vahmidan bu kun yig'larman.

Alqissa, Tohirbek bu munojotni o'qigach, Xoja Jahon shu zahoti hozir bo'ldi. Ko'rsa, Tohirbekning qo'l-oyog'i shunday band qilinganki, u aslo qimirlay olmaydi. Xoja Jahon:

— Qo'rqma bolam, men borman, —deb hassasi bilan jodugar kampirning yuragiga shunday urdiki, orqasidan hassaning to'rt barmoq uchi chiqdi. Jodugar kampir shu fursatda jon berdi.

Devordagi ajdarho suvrati ham barham topib, Tohirbekning oyoq-qo'llari yechildi. Tohirbek bu balolardan qutulib, yana yo'lida ravona bo'ldi. U uch oy yo'l yurdi. Oldida bir tog' paydo bo'ldi. Tog'ning uch-qiri ko'rinmaydi; cho'qqilari yulduzga tegadigan darajada baland. Tohirbek shu toqqa ro'baro' bo'lib, o'tish yo'lini topa bilmadi. Shunda Tohirbek:

— Xudoyo, yana meni qanday sargardonliklarga solding? — deb ushbu munojotni o'qidi.

Tohirbekning munojoti

Yana qanday hikmat bo'ldi Xudoyim,
Mening baxtim buncha qaro aylading.
Mushkul kunga solma meni Allohim,
Bu yerlarda meni hayron aylading.

Yo'l yurolmay hayron bo'lib qolibman,
O'lar vaqtim endi yaqin bilibman,
Zuhrajon deb qaro bag'rim tilibman,
Cho'l-u biyobonni makon aylading.

Tog' yo'liqdi, mushkul ahvolga qoldim,
Naylay, oxir oqibatda shu bo'ldim,
Kanishshum jodudan endi qutuldim,
Men g'aribga oxir zamon aylading.

Tavakkal ayladim senga Birubor,
Doim mening umrim o'tdi xor-u zor,
Yo'l topmasdan bo'ldim bunda giriftor,
Qismatimni qanday yomon aylading.

Vodarig'o, yeta bilmay yorimga,
Yer chidamas mening oh-u zorimga,
Tez yetirgin meni Zuhra parimga,
G'arib Tohirbekni giryon aylading.

Alqissa, Tohirbek ushbu munojotni o'qidi va kechasi tog' ichida tunadi. Sahar uyg'ondi. Qarasa, barcha jonivorlar o'z-o'zidan bezovta. Tohirbek bu holdan ko'ngli buzilib, unga yolg'izlik va g'ariblik ta'sir qilib, sozini qo'liga olib bir munojot o'qidi:

Tohirbekning munojoti

Yolg'onchi foniy dunyoni,
Qudratingdan qilding paydo.
Oxiri yo'qdir poyoni,
Har kimni ko'rsang bu g'amda.

Nechalar bundan o'tdilar,
Hasrat-u g'amda ketdilar,
Ba'zilari tark etdilar,
Bosh olib ketdi huvaydo.

Qani Muhammad Mustafo?
Ummat uchun chekkan jafo.
Bu dunyo bilgin bevafo,
Oxir ajal qildi judo.

Qani Nuri nabiyulloh?
Qani Muso kalimulloh?
Qani Ayyub, ul Zakaryo?
Ular o'lgandir bu yo'lda.

Abu Bakr, Umar, Usmon,
Qani Ali Shohimardon?
Qani ul Dovud,
Sulaymon?
Ular yotar yer qa'rida.

Qani Ibrohim, Ismoil?
Qurbonlikka bo'lgan qoyil,
Qani hazrati Jabroyil?
Yaqub Yusufning hajrida.

Cho'lda kezgan Xizr ota,
Yettinchi ko'kda Iso,
Qani ul Idris Ruhulloh?
Yunus baliqning qornida.

Qani oshiqlarning piri —
Zulayxo — Yusuf nigori?
Majnun erur Layli zori,
Ko'p jafo chekdi yo'lida.

Qani Shirin, qani Farhod?
G'arib oshiqdan qoldi ot,
Navro'z bilan Gul Parizod,
Oqdi necha yil daryoda.

O'tdi Uzro bilan Vomiq,
Himmat bering jumla oshiq,
Yor diydorin tez ko'raylik,
Shu kun bo'ldim mast-u shaydo.

Tohir deydi sahar vaqti,
Yo'l topolmay yig'lab yotdi,
Bunda aytur munojotni,
Yig'lar Zuhraning hajrida.

Alqissa, Tohirbek munojot aytib yig'ladi. Uning nolasidan zamin-u zamon, maskan-u makon larzaga keldi. Uning holidan o'tgan barcha oshiqlar va payg'ambarlar nola-yu zor qildilar. Bularning nolishini Parvardigori olam eshitib, Tohirbekka rahm qildi. Birdan sado keldi: "Ey tog', ikki bo'linib Tohirbekka yo'l bergin!"

Tog' Xudoning qudrati bilan ikkiga bo'linib, yo'l ochildi. Tohirbek undan o'tib, xushvaqt bo'lib, ushbu tog' sha'ni va Xudoyi taoloning qudrati uchun yana bir munojot aytdi:

Munojoti Tohirbek

Tomosha qilarman Egam ishini,
O'z qudratidan menga nishon ayladi.
Rahm qildi bu kun ko'zim yoshiga,
Bu yerlardan meni omon ayladi.

Yakka yolg'iz yig'lab, kirishdim zorga,
Amr etib, tog'ni qildi ming pora,
O'tdim undan, hukm bo'ldi dubora,
Mushkul kunim bunda oson ayladi.

Yetir meni matlabimga Birubor,
Bu yerlarda qo'yma meni intizor,
Qudrat bilan xalq ayladi ul Jabbor,
Bu kun meni shod-u xandon ayladi.

Xor etmasin bandasini Xudoyim,
Avval-oxir O'zi erur panohim.
Rahm ayladi, kechiribon gunohim,
Bu kun yo'lim ochiq, ravon ayladi.

Shukr qilsam, yana berar murodim,
Madad etdi Xizr otli ustozim,
Necha kun yo'l topmay har yon qaradim,
Tohir yig'lab zikr-u sano ayladi.

Alqissa, Tohirbek munojotni aytib, yo'lida davom etdi. Shu zaylda yana qirq kun yo'l bosdi. Tog'ning kamarida bir chashma bor edi. Asr namozi vaqtida shu chashmaning boshiga borib tushdi.

Tohirbekning necha kundan beri oti ham, o'zi suvsizlikdan cho'llagan edi. Chashma suvidan oti ham, o'zi ham ichdi. Tohirbek otini bir yong'oq daraxtiga[1] bog'ladi. Keyin "Bir zamon orom olayin", deb boshini qo'ydi. Yotib uyquga ketdi. Ertalab saharda uyg'ondi. Qarasa, boshi ustida bir daraxt bor ekan. Daraxt ustida bir jonivor o'tirib, shunday nolish qilib, o'zini kabobi-biryon etar edi. Kimki uning nolishini eshitsa, bu jahondan ko'ngli uzilar, sabr-toqat qilib turolmas va yurak-bag'ri suv bo'lib oqar edi. Tohirbek ham bu nolishga sabr-toqat qila olmadi. So'ngra Tohirbek:

— Ey jonivor, sen nima uchun o'zingni buncha kabobi-biryon etarsan, — deb sozini qo'liga olib, o'sha jonivorga qarab bir g'azal o'qidi:

G'azali Tohirbek

Nola qilib, yurak-b*ag'rim qon etding,*
Sen ne uchun oh-u fig'on etarsan.
Qizil yuzim bu kun qahrabo etding,
Mening bag'rim buncha biryon etarsan.

[1] Nashrga tayyorlovchi "yong'oq daraxti" birikmasiga "ehtimol yantoq bo'lsa kerak" deb hoshiyada izoh beribdi. Yantoq daraxt bo'lib o'smaydi; bu aniq yong'oqdir, tog'da yantoq emas, qolaversa yong'oqning daraxt bo'lib o'sishi ishonchliroqdir *(tarj.)*.

O'zga qushda yo'qdir senday xushilhon[1],
Sen erursan murg'i behishti rizvon,
Tomoshangga keldi hur ila g'ilmon,
Barchaning ko'nglini vayron etarsan.

Yuz ming alvon so'zlab, jonim yoqarsan,
Parvoz etib, bol-parini qoqarsan,
Haqning Kalomini doir o'qirsan,
Shikasta ko'nglimni vayron etarsan.

Xudoning ne maxluqisan beqaror,
Nolishingni eshitib, bo'ldim giriftor,
Bulbul kabi chekib doim oh-u zor,
Mening ko'zim buncha giryon etarsan.

Arzi diling bayon ayla jonivor,
Toza bo'ldi mening dog'im shu sahar,
G'arib Tohir Zuhra uchun qalandar,
Aqlim olib, meni hayron etarsan.

Alqissa, Tohirbek shu g'azalni o'qigach, Xudoyi taoloning farmoni bilan jonivor tilga kirib:

— Ey odamzod, mening otimni Murg'i Xushilhon derlar. Mening vatanim Shomi Sharifdir. Mening boshimdan o'tganlarni so'rasang, bayon qilsam, senga malol kelmasin, — dedi.

Tohirbek bayon qilish uchun unga izn berdi.

Shundan keyin Murg'i Xushilhon:

— Mening o'z joyimda bir guliston bor edi. Bir kuni shu gulistonga bordim. Shu maskanning bir tomoni katta yo'l edi. Shu yo'l ustida bir gulning shoxida o'tirib, bir nolish qildim. O'n kun davomida o'zimni bilmadim, mast bo'lib bexush yiqilgan ekanman. Shu mahal Tatar shahrining karvoni o'tib borardi. Meni ko'rib qolishadi. Ular orasida Shomura degan qabilaboshi meni olib, bir tillo qafasga solib, olib ketdi. Necha vaqt yo'l yurib, gapning qisqasi, Tatar viloyatiga yetib, meni bir ayvonga osib

[1] **Xushilhon** — xushovoz, sayrash, yoqimli sayrash *(tarj.)*.

qo‘ydilar. Bir kuni qafasda ko‘p dilgir bo‘lib, vatan firoqi, qavm-u qarindoshim xumori yodimga tushib, bir nolish qildim. Nolishimdan butun viloyat xalqi va osmondagi parrandalar ham mast bo‘ldi. Ular qirq kungacha mast bo‘lib yotdilar va so‘ngra o‘zlariga kelishdi. Ammo bu shahar podshohining bir qizi bor ekan. Otini malika Zuhra der ekanlar. Mening ta’rifim shu malika Zuhraning qulog‘iga yetib boribdi.

Malika Zuhra Shomura qabilaboshini chaqirib: “Ey Shomura, senda bir jonivor bor deb eshitdim. Uni juda maqtadilar. Sen uni olib kelgin; bir tomosha qilayin”, dedi. Shomura meni malika Zuhraning yoniga olib bordi.

Malika Zuhra meni Shomuradan sotib oldi va ko‘shkining ayvoniga osib qo‘ydi.

Bir necha kun malika Zuhraning qo‘lida qoldim. Kunlardan bir kun qafasning ichida ko‘p dilgir bo‘ldim. Bir kecha el-xalqim va qavm-qarindoshim yodimga tushib, mast-u junun bo‘lib, sahar vaqti bir nolish qildim. Malika mening bu holimdan boxabar ekan. Shu mahal malika Zuhra o‘rnidan turib, menga qarab: “Ey jonivor, nima uchun buncha o‘zingni kabobi-biryon etarsan”, dedi.

Shunda Parvardigori olam o‘z qudrati bilan menga til-zabon ato qildi:

— Ey malika Zuhra, quloq sol. Men boshimdan o‘tganlarni senga bir bir bayon qilayin, — deb bir g‘azal o‘qidim:

G‘azali Murg‘i Xushilhon

Mening otim erur Murg‘i Xushilhon,
Shukur endi, dilim go‘yo ayladi.
Ayrilib vatandan ko‘zlarim giryon,
Ko‘r bo‘lgan ko‘zlarim bino ayladi.

Shomi Sharif erur manzil-makonim,
Arzim eshit endi, sohibqironim,
Ayroliq necha kun soldi Xudoyim,
Turfa savdolarni menga ayladi.

Gulistonda bir kun ilhon etardim,
Ilhon etib, bag'rim biryon etardim,
Mast-u shaydo bo'lib, so'ngra yiqildim,
Undan so'ng vatandan judo ayladi.

Qofilayi Tatar undan o'tardi,
Tutub meni qo'shga olib keltirdi,
Shomur ko'rib meni olib qutqardi,
Qafas ichra solib, parvo ayladi.

So'ngra olib ketdi meni Tatarga,
Qarilik dardidan ko'nglim ming pora,
Ilhon chekib Haqqa,
kirdim oh-zorga,
Shomur ko'rib, jonim fido ayladi.

Ta'rifim eshitdi Boboxon qizi,
Shomura bilan keltirdi bizni,
G'am-u qayg'u bilan sarg'arib yuzi,
"So'zlagin endi" deb sado ayladi.

Nag'ma bilan necha qildim nolish(n)i,
Yig'lab uning ko'zda qolmadi yoshi,
"Shomura sotsin" deb yubordi kishi,
Sotib olib meni hamroh ayladi.

Uning oti erur malika Zuhra,
Yuzi guldir, o'zi ajab mohpora,
O't chiqar og'zidan urub tavallo,
Yori uchun kuyib fig'on ayladi.

Yorining oti erur uning Tohirjon,
Uning uchun doim yuragi biryon,
Onasining oti ekandir Hubon,
Bu dunyodan o'zin fano ayladi.

.....

.....[1]

O'z-o'zimdan bir kun ilhon ayladim,
Holim so'rab, ko'zin giryon ayladim.

"Sen ne uchun buncha fig'on etarsan,
Kiming uchun bag'ri biryon etarsan,
Qanday qilsam, murodingga yetarsan",
Bu so'zlarni aytib sado ayladi.

"Go'yo bergin murodimga yetayin,
Parvoz etib, vatanimga ketayin,
Undan so'ngra senga duo etayin",
Qafasdan chiqarib ravon ayladi.

Bu dunyoning oxir yo'qdir vafosi,
Oshiqlarga ko'pdir uning jafosi,
Qabul bo'ldi Xushilhonning duosi,
Shukur endi, tilim go'yo ayladi.

Alqissa, Murg'i Xushilhon shu g'azalni aytib, badar uchib ketdi. Tohirbek esa bu voqeani eshitib, yana yo'liga tushdi va ikki oy yo'l yurgach, choshgoh vaqti unga Tatar shahrining qal'asi ko'rindi.

Shunda Tohirbekning ko'ngli pora-pora ochilib: "Shukur alhamdulillah, yana shahri Tatarga yetganga o'xshayman", deb malika Zuhraning dardida kuyib-yonib bir g'azal o'qidi:

G'azali Tohirbek

Ko'rindi *Tatarning mulki,*
Ko'nglim endi parvoz aylar.
Meni ko'rsalar el-xalqi,
Zuhrani sarafroz aylar.

[1] Shu ikki qator qo'lyozmada tushib qolgan.

Endi yo'qdir hech qarorim,
Qachon ko'rsam Zuhra jonim,
Ildam yuribdir tarlonim,
Zimiston ko'nglim yoz aylar.

Bu kun shod-u hurram bo'ldim,
Necha kun g'avg'olar ko'rdim,
Mehnat-u g'amdan yo'qoldim,
Buncha yo'lim daroz aylar.

Qachon so'rgum shirin lab(n)i,
Yo'qdir jahonda men kabi,
O'ldirar bizni g'abg'abi,
Karashma bilan noz aylar.

Tohirbek Zuhra mushtoqi,
Ko'rilmas siymin saqog'i,
Qaro ko'z bilan qiyog'i,
Kuydirib sarafroz aylar.

Alqissa, Tohirbek shu g'azalni o'qigach, to shom namozigacha yo'l yurdi. Shundan keyin shahri Tatarga yetishdi. Bu oqshom shahar darvozasining ostida yotdi.

Tong bilan bomdod namozini o'qib, darvozadan kirdi. Registonga yetib bordi.

Tohirbek ko'rsa, odamlar to'p-to'p bo'lib shahardan chiqib borayotir. Tohirbek bir kishidan so'radi:

— Bu shaharda nima voqea bo'ldi? Odamlar to'p-to'p bo'lib chiqib ketayotir?

Haligi kishi:

— Podshohimizning qizi xayr-ehson bermoqchi; odamlar shunga borishmoqda, — dedi.

Tohirbek odamlarga qo'shilib oldi. Borib Bog'i Maydon darvozasidan kirdi.

Endi Tohirbekni bu yerga qo'ying-da, ikki og'iz so'zni malika Zuhradan eshiting.

Malika Zuhra Qosidni yuborganiga necha vaqtlar o'tdi. Qosiddan hech xabar bo'lmadi. Malika dilgir bo'lib, Suhob otli bir munajjimini chaqirdi va unga:

— Ey Suhob munajjim! Sen bir qur'a tashlagin, nima voqea yuz berdi. Qosiddan hech xabar bo'lmadi. Mening yuragimda toqat qolmadi, — dedi.

Suhob munajjim qur'a tashladi. Ko'rsa, Tohirbek shahri Tatarga kelibdi. Shunda munajjim:

— Ey malika Zuhra, suyunchi bering. Men xushxabar aytayin, — dedi.

Zuhra:

— Ey Suhob munajjim nimalar ko'rding? —dedi.

— Men aytsam, yoring Tohirbek shaharga kelibdi, — dedi munajjim.

Malika Zuhra Suhob munajjimdan shu so'zni eshitganda, go'yo o'likka Xudoyi taolo jon ato etgandek, ko'r ko'zlar ochilgandek bo'ldi.

Shundan keyin malika Zuhra:

— Ey kanizlar boringlar, xazinadan sarpo olib kelinglar, — dedi.

Kanizlar xazinadan Sohib munajjim uchun bosh-oyoq sarpo kiydirdilar hamda hamyoni-hazor tanga in'om qildilar. Malika munajjimning xushxabaridan xursand bo'lib, Xudoyi taologa shukronalar aytdi.

Malika Zuhrani shu yerda qo'ying-da, endi ikki og'iz so'zni Tohirbekdan eshiting.

Tohirbek Bog'i Maydon darvozasidan kirdi. Ko'rdiki, Bog'i Maydon ichi go'yo bir saylgoh bo'lsa, nag'machilar to'p-to'p bo'lib, sozandalar juft-juft bo'lib soz-u suhbat qilmoqda; har kim o'z tengi bilan o'ynab kulmoqda.

Tohirbek ham qo'liga sozini olib, o'zini bildirmasdan va odamlardan otini yashirib, otini Hilol qo'yib, malika Zuhraning ko'shikiga qarab:

— Menga hanuz g'amxo'rlik qilmasmisiz, — deb faryod-u fig'on bilan ushbu g'azalni o'qidi:

G‘azali Hilol

Ko‘p jafolar chekib keldim,
Yo‘q g‘amxo‘r endi, naylayin.
O‘lkamda musofir bo‘ldim,
Yo‘q surur endi, naylayin.

Hech kim meningdek bo‘lmasin,
Uftado bo‘lib qolmasin,
Sarg‘argan guldek so‘lmasin,
Ko‘pdir armonim, naylayin.

Yuz yil yursam unutmasman,
Quvlab ursalar ketmasman,
Nechun murodga yetmasman,
Eshitgin endi, naylayin.

Tortdim yo‘lning jabrini,
Necha oy kezdim bahrini,
Qosidjon bilan Shahrini,
Olib kelmadim, naylayin.

Ko‘rindi g‘arib Hiloli,
Istab ol, birga bo‘lali,
Shirin lablardan so‘roli,
Qon bo‘ldi bag‘rim,
naylayin.

Alqissa, Tohirbek ushbu g‘azalni o‘qidi. Malika Zuhra ko‘shki ustida durbinini qo‘liga olib qarab turardi.

Ko‘rsa, bir hofiz yigit qo‘lida sozi bilan qo‘shiq aytib turibdi. Malikaning unga ko‘zi tushdi; zehn qo‘yib qarasa, Tohirbek yoriga o‘xshaydi. Malika uning har aytgan so‘ziga quloq soldi; so‘zlari va tovushi Tohirbekni eslatdi. Zuhra o‘z yorini tanib, xushdan ketib yiqildi.

Yonidagi qizlar bu holni ko‘rib:

— Malika Zuhrga nima bo'ldi? — deb hayron qolishdi.

Oxiri bo'lmadi: udi-anvor degan dorini dimog'iga tutdilar.

Shunda malika o'ziga keldi. U Xonpari degan enagasini chaqirib:

— Ey ena, endi maslahat bering, ko'nglimning quvvati, yuragimning murodi, vafodor yorim kelbdi, — dedi

— Qayerga kelibdi?

— Ko'rsangiz tanirmisiz? — dedi malika.

— Ore, ko'rsak ma'lum bo'ladi, albatta, — dedi Xonpari enaga.

— Durbinni qo'lingizga olib qarang, — dedi Zuhra.

Shunda Xonpari durbinni qo'liga olib qaradi; Tohirbekni ko'rib tanidi. Tohirbek mast-u junun bo'lib nola qilayotgan edi. Shundan so'ng Xonpari:

— Ey malika Zuhra, endi uni bu yerga olib kelish maslahatini qilaylik, — dedi.

Malika:

— Uni siz bilasiz, —dedi.

Xonparining Javhar degan bir qulbachchasi bor edi. Xonpari uni chaqirib:

— Shu chorbog' ichidagi sozandalar yoniga borgin. Yolg'iz o'zi soz chalib turgan yigitni olib kelgin. Hech kim xabardor bo'lmasin, — dedi.

Javhar borib, Tohirbekni izlab topdi. Kelib yonida o'tirdi. Bir maydon u yoq-bu yoqdan chaqchaqlashib o'tirdilar.

So'ngra Javhar:

— Qayerliksiz? — deb so'radi.

Tohirbek:

— Musofirman, — dedi.

Javhar:

— Unday bo'lsa, bir kecha bizning kulbada mehmon bo'ling, —deb Tohirbekning qo'lidan tutib uyiga olib keldi.

Shu orada Xonpari Tohirbekni ko'rib, hol-ahvol so'radi. Xonpari necha kun Tohirbekka izzat-hurmat ko'rsatdi. Keyin undan boshidan o'tkazgan voqealarini so'radi. Tohirbek boshidan o'tganlarini bayon qilib, ushbu g'azalni o'qidi:

G‘azali Tohirbek

Eshit mening arzi-holim,
Bir-bir senga bayon aylay.
Omonmidir Zuhra gulim,
Yurak dog‘in nishon aylay.

Ayirdi Boboxon bizni,
Qaro bo‘ldi uning yuzi,
Qo‘shdi Qodir Egam O‘zi,
Bo‘lgan ishni ayon aylay.

Zulm etdi mening jonimga,
Boqmadilar fig‘onimga,
Jabr etdilar g‘arib onamga,
Bu kun chashmim giryon bo‘ldi.

Ko‘rdim qismatda borini,
Eshitgin oh-u zorimni,
Zuhra otli nigorimni,
Ko‘rsam bu kun fig‘on aylar.

Faryod etar Tohir g‘arib,
Sevar yorini axtarib,
Shirin lablaridan so‘rib,
Dardim unga ayon aylay.

Alqissa, Tohirbek ushbu g‘azalni o‘qigandan so‘ng, Xonpari:

— Tohirbek, g‘am yemagin. Sen ko‘rgan uqubatlarni unut, inshaalloh endi rohat ko‘rarsan, — deb bir oz dardkashlik qildi.

Xonpari malika Zuhraning yoniga borib:

— Qurboning bo‘layin, ey malika Zuhra, u bechorani zor-u intizor qilib qo‘yasanmi? Holidan xabar olgin, — dedi.

Malika Zuhra:

— Unday bo‘lsa, shu kecha xabar olaman, — dedi.

Bu gapdan Xonpari mamnun bo'ldi va borib Tohirbekka suyunchiladi. Endi Tohirbekni ko'rsangiz, ikki ko'zi yo'lda: "Qani, biror xabar kelarmi?", deb intizor kutib o'tiribdi.

Malika Zuhraning Gultob va Mohtob degan ikkita mahram kanizi bor edi.

Ularga:

— Boringlar, xazinadan Tohirbek uchun bosh-oyoq sarpo olib kelinglar, — deb buyurdi.

Kanizlar xazinaga borib, asil liboslardan tanlab Tohirbek uchun bosh-oyoq sarpo olib kelishdi. Tohirbek ularni kiydi va ko'rinishi avvaligisidan ham ko'rkamroq bo'ldi. Gapirilsa, gap ko'p cho'ziladi. Qisqasi— kechqurun bo'ldi. Odamlar xufton namozini o'qib, uy-uylariga tarqaldi. Bir oz muddat o'tib, Tohirbek malika Zuhraning ko'shkiga kirdi.

Ko'rsangiz bu ko'shkning bir g'ishti zabarjaddan, bir g'ishti yoqutdan, bir g'ishti olmosdan edi. Ko'shk shunday bino qilingan ediki, uning butun devorlari zaranduddan[1] edi. Jayhunning tuprog'i mushki-anbar bilan pishirilgan edi. Ko'rsangiz gullar ochilib, xiyobon-xiyobon rastalar supurilgan, hamma yoq top-toza edi.

Tohirbekni shu yerda qo'ying-da, endi bir-ikki og'iz so'zni malika Zuhradan eshiting.

Malika Zuhrani ko'rsangiz, batamom kimxob va mashriq zarning ichida, tillo qubba boshida va shohlik to'p jig'asini ustidan kiyibdi; zulflari har yoniga bir gaz parishon tashlab, yuzidagi qaro xollari chap-rosti misli nuqtai Zaburdek juda chiroyli joylashtirilgan edi. Ammo u o'ziga ancha mashshotagirlik qilibdi. Azamatullohi lillahi vohidul qahhor[2].

Malika Zuhra shu tariqa Tohirbekka peshvoz chiqdi. Tohirbek uzoqdan yorini ko'rib, sabr-toqat qilib tura bilmadi. Mast-u junun bo'lib, ushbu g'azalni o'qidi:

---

[1] **Zarandud** — oltin qoplangan, zar yugitirilgan, zarhal bilan yaltiroq qilingan *(tarj.)*.

[2] **Azamatullohi lillahi vohidul qahhor** — "Ulug'lik yakka-yu yagona Allohga xosdir" ma'nosini anglatadi *(tarj.)*.

G‘azali Tohirbek

Jilo berib husni qamar yuzlari,
Yer yuzini layli-nahor ayladi.
Labi qand-u shakar, shahlo ko‘zlari,
Shu zamon mast etib xushyor ayladi.

Yondirib alami, kelar sollana,
Ziyo anbar zulfni tashlab har yona,
Karashma ayladi durri yagona,
Qalbim ichra ishqi qaror ayladi.

G‘ulg‘ulasi tushdi Tatar eliga,
Tohir uchib-qo‘nar toza guliga,
Muruvvat ayladi Zuhra quliga,
Zimiston kunini bahor ayladi.

Men bo‘lmisham sevar yorning asiri,
Bahir erur Boboxonning vaziri,
Tohir erur Zuhrajonning yesiri,
Bu kun meni mot-u shaydo ayladi.

Alqissa, Tohirbek ushbu g‘azalni o‘qiganini eshitgan malika Zuhra uning yoniga keldi. Yuz ming karashma bilan ta’zim qilib, Tohirbekka salom berdi. Tohirbek alik oldi... Ular birga yurib davlatxonaga kelishdi.

O‘tirgach, Tohirbek duoyi fotiha qildi. Kanizlar zarnigor dasturxonni yozib, turli-turli taomlarni keltirdilar. Yaxshi taomdan so‘ng yetmish qat kimxob ko‘rpachalar to‘shab, qirq kecha-kunduz aysh-ishrat qilib, o‘ynashib-talashib yotdilar.

Bu ikki oshiq-ma’shuq boshlaridan o‘tgan savdolarini bir-biriga bayon qildilar. So‘ngra Tohirbek:

— Ey yori vafodorim, endi qanday maslahatimiz bor? — dedi.

Malika Zuhra:

— Maslahat shuki, kunduz kunlarida bir pinhon uyda sizni yashirarman, kechalari chaqirib aysh-ishrat qilarmiz, — dedi.

Ikkoviga ham shu maslahat ma'qul ko'rindi. Tohirbekni kunduzlari pinhon bir uyga yashirib qo'yishdi. Kechalari aysh-ishrat qilishdi. Bir qancha vaqt shu zaylda umr kechirdilar.

Kunlardan bir kuni odamlar buni sezib "Tohirbek kelibdi", deb podshohga xabar berishdi. Bundan podshoh darg'azab bo'lib:

— Qayerda bo'lsa ham toping! — deb amr etibdi.

To'g'risi, odamlar Tohirbekning malika Zuhraning ko'shkida ekanini bilishar edi. Ammo malika Zuhradan qo'rqib, u yerga bora bilmas edi. Podshoh amrini malikaga aytishdi.

Malika Zuhraning bir enagasi bor edi. Uning otini Shodiya der edilar. Juda dono edi. Malika uni chaqirib, u bilan maslahat qildi. Enagasi:

— Bu xizmatni menga qo'yib bering, — dedi.— Kunduzi uni menga ber yashiraman, kechasi esa yana o'zingga topshiraman.

Maslahat ikkisiga ham ma'qul keldi. Qisqasi necha kunlar shu zaylda davron surdilar.

Shodiyaning bir piri zol do'sti bor edi. Bu sirlardan u ham voqif edi. Bir kuni Shodiya uyida yo'q edi, shu piri zol do'sti keldi. Ko'rsa, Tohirbek shu yerda o'tiribdi.

Shu vaqt piri zol:

— Ey Tohirbek, sen bu yerda nima qilasan, seni tutib hozir podshohning yoniga olib borsam, nima qilar eding? — dedi.

— Ixtiyor senda, o'zing bilasan, — dedi Tohirbek.

Piri zol:

— Undoq bo'lsa, sening gunohingdan o'tdim. Sozingni ol, men uchun bir g'azal o'qi, — dedi.

Tohirbek:

— Xo'p bo'ladi, — deb sozini qo'liga olib, g'ariblik ta'sir qilib, zor-zor chun abri navbahor yig'lab ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

So'rma holi parishonim,
Ko'ngli vayron bir g'aribman.
Ishq o'tiga yona-yona,
Qahrabodek sarg'aribman.

Qo'ymading o'z dardimga,
G'aribman o'z yurtimda,
Chora topilmas dardimga,
Hasrat bilan egilibman.

Ko'nglimning zanglari ko'pdir,
Ota-onam ketti— taqdir,
Haq amriga chora yo'qdir,
Qismatimga tan beribman.

Ne kundir mening holimga,
Qolma mening ahvolimga,
Eltma Boboxon zolimga,
Men bir shikasta g'aribman.

Tohir aytar arz-u holin,
Angla uning dard-u dilin,
To'yin ko'rmay Zuhra gulning,
Yuragi dog'li g'aribman.

Alqissa, Tohirbek shu g'azalni o'qigach, piri zol unga bir oz ko'ngillik berib qaytdi. Tohirbek o'sha uyda yolg'iz qoldi. O'zicha: "Bu qanday ahvol? Boshimda doimo g'avg'o, mudom g'am-kulfat ichidaman? Mening ishim hargiz behbud topmadi", deb g'amga botdi.

Shu mahal enaga eshikdan kirib, Tohirbekning g'amgin o'tirganini ko'rdi.

Enaga:

— Ey, Tohirbek, nima uchun buncha g'amginsan? — dedi.

Tohirbek bo'lgan voqealarni izhor etdi. Enaga bezovta bo'lib, borib malikaga xabar berdi:

— Ey malika Zuhra, endi odamlarga nima deymiz? Sir ochilib, Tohirbek odamlar og'ziga tushibdi, — dedi.

Shunda malika Zuhra:

— Ey ena, agar otam Tohirbekni o'ldirsa, men ham o'z o'zimni o'ldirarman, —dedi.

Piri zol Tohirbek xabarini podshohga yetkazdi. Podshoh xabarni eshitgan zahoti qasam ichib:

— Uni topib o'ldirarman, boshqa gap yo'q! Bular meni aldashibdi, — deb darg'azab bo'lib, umaro, fuzalo va qozilarni to'plashga ko'rsatma berdi.

Ular hozir bo'lishdi. Podshohga nasihat berib:

— Taqsir, shahriyori olam, qiz bola bir malomatlik bo'ladi. Hali ham Tohirbek bilan malika Zuhrani bir-biridan ajratmang. Xudoyi taolo azal kunda ikkovining qismatini birga qo'shgan bo'lsa kerak, — dedilar. Yana qo'shimcha qildilarki: — Ey podshohi olam, Parvardigori olamning qudratini tomosha qiling. Siz Tohirbekni oqar suvga tashlagan edingiz. U Parvardigorning hikmati bilan daryodan chiqib, qancha viloyatlarni kezibdi. Xudoyi taolo uni yana bu yerga keltiribdi.

Qolaversa, avval uning otasi bilan ahd-paymon ham qilgan ekansiz. Agar odamning boshiga qilich kelsa ham ahdidan qaytmagani ma'qul. Har holda bu ikkovini bir-birlaridan ajratmang. Ikkisini qo'shing. Xudoning xohishi shunday ekan, — deyishdi.

Podshoh ularning gapidan battar g'azabi kelib ikki yasovuliga buyurdi:

— Borib Tohirbekni bog'lab olib keling. Uni o'ldirmasam bo'lmaydi.

Ikki yasovul Tohirbek yoniga kirib:

— Ey Tohirbek, sizni podshoh chaqirmoqda, — deyishdi.

Tohirbek ulardan shu gapni eshitgach, o'zining o'lishini bilib yasovullarga qarab bir g'azal o'qidi:

G'azali Tohirbek

Umrim gulshani buzildi,
Ajal xabarin keltirding.
Qismatim qora yozildi,
Margning payg'omin
keltirding.
Azal kunda nasib etib,

Zuhrajonga habib etib,
Boboxonni raqib etib,
Ajalning jomini keltirding.

Qazo yetsa yashab bo'lmas,
Hech kim bu dunyoda qolmas,
Ketgan yana qaytib kelmas,
O'lim asbobin keltirding.

O'ldirsa qaytmasman yo'limdan,
Parvoyim yo'qdir o'limdan,
Qismatim shudir azaldan,
Dinim chirog'in keltirding.

Ruxsat ber, ichkari kiray,
Yorim diydorini ko'ray,
Undan so'ngra birga bo'lay,
Tohirbekka g'am keltirding.

Alqissa, Tohirbek ushbu g'azalni o'qigach, yasovullar unga ruxsat berishdi. Tohirbek malika Zuhra yoniga borib:

— Tasaddug'ing bo'layin, ey yori vafodorim. Endi xush qol, biz bu dunyodan mahrum bo'ldik, — deb malika Zuhra bilan xayrlashib ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Tohirbek

Davron surib xush yurmadim,
Bu foniy jahon ichida.
Suyukli yordan ayrildim,
Hasratli armon ichida.

Eshit samo anvar so'zim,
Xush qol endi ko'rar ko'zim,
To'yguncha ko'rmadim yuzing,
Qoldim men hijron ichida.
Fido bo'lsin senga bu jon,

Olsin, qo'ymasin bir zamon,
Raqiblar ta'nasi yomon,
Pichoq ustixon ichida.

Haqdan kelsa nedir chora,
Dunyo kelmasdir dubora,
Xush qol endi bu kun Zuhra,
Kulbayi vayron ichida.

Fanodir Tohir dunyodan,
Bu hamma ishlar Xudodan,
G'ofil yo'q zikr-u sanodan,
Umidim rizvon ichida.

Alqissa, Tohirbek shu g'azalni o'qigach, malika Zuhradan ruxsat so'radi.

Malika Tohirbekka qarab, zor-zor chun abri navbahor yig'lab, yoridan umidini uzib ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali malika Zuhra

Chin haqiqat oshiq bo'lib,
Tohirbegim mardona bo'l.
Umrim paymonasi to'lib,
G'arib Tohir mardona bo'l.

Bir kun umrim xush o'tmadi,
Naylay, murodga yetmadi,
Boshimdan qayg'u ketmadi,
Sevar yorim mardona bo'l.

Oxiratga bel bog'lagin,
Yaratgan Haqqa yig'lagin,
Jannat maqomin chog'lagin,
Ajal bilan hamxona bo'l.
Tila Haqdan iymoningni,

Afv aylasin gunohingni,
Qurbon et shirin joningni,
Ko'rar ko'zim mardona bo'l.

Qalbimni to'ldirding dog'ga,
Ming jonim bo'lsin sadag'a,
Zuhradek bodom qaboqqa,
Joning berib mardona bo'l.

Alqissa, malika Zuhra shu so'zni aytgach, Tohirbek bilan xayrlashib, undan umidini uzib, zor-zor yig'lab qoldi.

Yasovullar Tohirbekning qo'llarini orqasiga mahkam bog'ladilar. Xorlik va zorlik bilan Boboxonning yoniga olib bordilar. Tohirbek aybli bandi kabi podshoh huzurida turdi.

Podoshoh:

— Ey Tohirbek, sening qilgan bu ishing qanday ish? Boshing ketishidan qo'rqmadingmi? — dedi.

— Xudodan qo'rqaman. Bu ishlarning hammasi azalda yozilgan ekan, ularni ko'rish kerak, — dedi Tohirbek.

Podshohning qahri kelib:

— Ey jallod! Buni Registonga chiqarib, boshini olgin. Boshqalar uchun ibrat bo'lsin, — deb buyurdi.

Jallod Tohirbekni olib chiqib ketdi va odamlar jamlandi. Tohirbek shunda:

— Ey odamlar, bir muddat some' bo'linglar, mening bir-ikki og'iz so'zim bor, aytayin, — dedi.

Odamlar:

— Ey Tohirbek, nima gaping bo'lsa, aytgin, yuragingda armon qolmasin, —dedi.

Malika Zuhra o'sha yerda hozir bo'ldi. Uni ko'rsangiz, qora chodra boshida, ko'zlaridan yuz ming qatra yosh oqib, yuragini pora-pora qilar edi. Banogoh ko'zi Tohirbekka tushdi. Ko'rsa, Tohirbek har yonga qarab, termilib turar edi. Malika Tohirbekka qarab:

— Ey yori vafodorim, bu maydon senga muborak bo'lsin, — dedi.

Tohirbek ko‘zi malika Zuhraga tushib:

— Qurboning bo‘layin, ey malika Zuhra! Shukur alhamdulillloh bu kun murodimga yetdim, — dedi.

Malika Zuhra uning gapini eshitib, maydon o‘rtasiga bordi. Yuzidan pardayi hijobini ko‘tarib:

— Ey odamlar, eshiting. Meni unga munosib qilgan Xudoyi taolodir. Bu ishlar azalda yozilgandir. Yana bir so‘zim shuki, otam qancha vaqtlar meni undan, uni mendan ajratdi. Oradan yillar o‘tdi. Xudoyim ikkimizni qayta bog‘ladi. Endi nima bo‘lsa bo‘ldi. Uning yo‘lida jonimni fido qilaman, — deb zor-zor chun abri navbahor yig‘lab ushbu g‘azalni o‘qidi:

G‘azali malika Zuhra

Tangri haqi uchun turgan xaloyiq,
Tohirbekni qo‘ying, meni o‘ldiring.
Uning uchun jonim qurbon qilayin,
Uni qo‘ying, bu kun meni o‘ldiring.

Toqatim yo‘q uni bu kun ko‘rishga,
Uning uchun keldim jonim berishga,
Qo‘ymadi raqiblar davron surishga,
Sevar yorim qo‘ying, meni o‘ldiring.

Uning uchun o‘lsam, yo‘qdir so‘rog‘im,
O‘chdi bu kun mening yoqqan chirog‘im,
Aniq biling kuydi boshdan oyog‘im,
Bechorani qo‘ying, meni o‘ldiring.

O‘ldiringlar avval meni ko‘rmayin,
Undan qolib bu dunyoda yurmayin,
Men yomonning hargiz yuzin ko‘rmayin,
Bir Xudoning haqi uchun o‘ldiring.

Rahm aylamang bu kun mening holimga,
Duchor etma Boboxondek zolimga,

Zuhra yig'lar Tohirbekning holiga,
Sevar yorim uchun meni o'ldiring.

Alqissa, malika Zuhra shu javobni aytgach, Tohirbek kelib uning oyog'i tuprog'ini olib, ko'ziga surtdi. Ular bir-biridan umidini uzib, bir-biriga xayr-xo'sh tilab, Tohirbek malika Zuhradan savol so'radi.

Malika esa javob berdi:

Tohir bergan savol

— Umid etdim, yetmadim men murodga,
Xush qol endi, sevar yorim omon bo'l.
Qon yig'lasam,
hech kim yetmas faryodga,
Ko'rar ko'zim, sevar yorim omon bo'l.

Malika Zuhraning javobi

— Qiyomatning kuni tushib boshimga,
Ajab hayron bo'lib, bu kun yig'larman.
Falak og'u qo'shdi ichgan oshimga,
Sening uchun malul bo'lib yig'larman.

— Hamdam bo'lgin menga endi o'lguncha,
Shirin jonim chiqib, go'rga solguncha,
Ko'rmadim men gul yuzingni to'yguncha,
Ko'rar ko'zim, shirin jonim omon bo'l.

— Shirin jonim bo'lsin senga sadaqa,
Meni qo'yding ado bo'lmas bu dog'ga,
Parda ochib yuzdan, ketdim yiroqqa,
Mast-u junun bo'lib bu kun yig'larman.

— Buncha yig'lab, bo'lma bunda intizor,
Ko'rdim seni yana bo'ldim beqaror,

Foydasi yo'q qilma o'zing dilfigor,
Rozi bo'lgin, mehribonim omon bo'l.

— Rozi bo'lmay naylay Haqning ishiga,
Bunday kun tushmasin odam boshiga,
Bir murodim shudir: borsam qoshiga,
Bora bilmay hayron bo'lib yig'larman.

— Hayron bo'lma, mening uchun sarg'arib,
Bo'yning burib, malul bo'lma yolvorib,
Bu kun raqib meni sendan ayirib,
Murodiga yetdi, jonim omon bo'l.

— Naylay endi, mening tengi-to'shim yo'q,
Sendan o'zga bilan ko'ngil xushim yo'q,
Endi yig'lamoqdan o'zga ishim yo'q,
Devonayi shaydo bo'lib yig'larman.

— Naylay, o'chdi mening yoqqan chirog'im,
Qiyomatda qoldi hasratim, dog'im,
Xazon urdi bu kun gulshani bog'im,
Yerga yakson bo'ldi, jonim omon bo'l.

— Zuhrani aylading bu kun bechora,
Hasrat tig'i bilan bag'rin yuz pora,
Ketarsan, kelmassan endi dubora,
Uning uchun bu kun qonlar yig'ladim.

— Nasib etsa, tong-la diydor ko'rarmiz,
Jannat ichra sayron etib yurarmiz,
Tohir der chin murodga yetarmiz,
Xush qol endi, Zuhrajonim omon bo'l.

Alqissa, Tohirbek bilan malika Zuhra bir-birovlariga roziligini aytishdi. Keyin Tohirbek:

— Ey jallod, endi ixtiyor sendadir, — dedi.

Jallod Tohirbekning qo'llarini orqasiga mahkam bog'ladi. Qiblaga qaratib o'tirg'izdilar. Tohirbekning butun a'zolaridan majoli ketdi. Shu vaqtda malika Mohim yodiga tushib:

— Ey jallod, bir oz tavaqquf[1] qil. Mening bir-ikki og'iz so'zim bor, aytayin. Keyin mayli meni o'ldirgin, — dedi.

Jallod bir muddat to'xtadi. Tohirbek qichqirib:

— Ey turgan xaloyiq, eshiting qancha vaqtlar Bog'dod viloyatida nasibam bo'ldi. Uning podshohining malika Mohim degan bir qizi bor edi. U menga nikohlangan edi. Qancha vaqt meni bilan umrini o'tkazdi. Biroq unga iltifot qilmadim. Uning haqi mening bo'ynimda qoldi. Agarda Bog'dod viloyatiga yo'lingiz tushsa, mening xabarimni unga yetirgaysiz. Malika Mohimga Tohirbekni o'ldirdilar degaysiz, — deb so'zini tamom qildi.

Undan so'ng Tohirbek so'zlashdan xomush bo'ldi. Shu vaqtda mahramlar iztirob chekaverdilar.

Ammo malika Zuhrani ko'rsangiz, sochini yoyib, o'zini halok qilar bo'ldi. Oxiri malika Zuhra mahramlardan bir zamon muhlat tiladi. Ular muhlat berishdi. Malika Zuhra:

— Ey yori vafodorim, bu kun sendan qolib, men nima bo'larman? Jonon bo'lmasa, men jahonni na qilayin? Sen bo'lmasang, jahon menga qarong'idir. To sening qabring yonida o'zimga mozor qurdirmasam, bu jahon menga zindon bo'ladi, — deb zor-zor chun abri navbahor yig'lab, Tohirbekka qarab ushbu muxammasni o'qidi:

Malika Zuhraning muxammasi

Bu falakning jabridan taroj bo'libdi mulki joy,
Hasrat-u, dog'-u tugun qo'ydi yurakka voy-voy,
Avvali sulton etib, oxir meni qildi gadoy,
O'tdi umrim xorliklar bilan, endi ne qilay?
Chora yo'qdir,
mushkul ish boshimga solgandir Xudoy.

[1] **Tavaqquf** — to'xtash, tek turish *(tarj.)*.

Arshga chirmashdi fig'onim, bo'lmadi dardga iloj,
Bo'lmasa umrim xushi, darkori yo'qdir taxt-u toj,
Qilmadi Qodir Egam hargiz mening ishim rivoj,
Yo'lida barbod qildim men yorimni yuz ming xiroj.
Chora yo'qdir, naylayin, boshimga solgandir Xudoy.

Toleyimni nugun qildi, mening baxtimni qaro,
Bu qanday g'avg'o erur menga, qanday bu mojaro?
Ayroliqning tig'i, do'stlar, bag'rimga soldi yaro,
Yashirin sirim mening mashhur bo'ldi xalqaro,
Chora yo'qdir, naylayin, boshimga solgandir Xudoy.

Shum raqibning jabridan har yonga boqdim termilib,
Siynamni chok ayladim men, hasratingda oh urib,
Pardayi sharm hijobimni men yuzimdan ko'tarib,
Toqatim yo'qdir, yuzingni ko'rgali oqdim erib,
Chora yo'qdir, mushkul ish boshimga solgandir Xudoy.

Ko'kragimga urdi ajal o'qi bilan bemormen,
Toleyi-baxti qaromen, Tohir otli yorga men,
Ko'rishga diydorini mushtoqman-u ham zormen,
Yo'qsa bilgin oxirat yo'liga men tayyormen,
Chora yo'qdir, mushkul ish boshimga solgandir Xudoy.

Alqissa, malika Zuhra shu muxammasni o'qigach:

— Ey yori vafodorim, to sening yo'lingda jonimni qurbon qilib, mozorimni mozoring yonida qurmasam, bu dunyodan hasrat bilan o'tarman, — deb zor-zor yig'lab, bexush bo'lib yiqildi.

Keyin Tohirbek jallodlarga javob berdi. Jallodlar kelib Tohirbekning boshini tanidan judo qildilar. Buni malika Zuhra ko'rgach, bir oh tortdi. Uning ohidan birdan qirq kishi jon berdi. Go'yo shu kun qiyomat qoyim bo'ldi. Quyosh tutildi. Odamlar birdan fig'on ko'tarishdi.

Ammo malika Zuhra Tohirbekning jasadini aylanib, zor-zor chun abri navbahor yig'lab, ushbu g'azalni o'qidi:

Malika Zuhraning g‘azali

Vo-hasrat-o, fano bo‘lding dunyodan,
Mening baxtim qaro, sendan ayrildim.
Raqiblarning jabri kelar bir yondan,
Bu kun yongan chirog‘imdan ayrildim.

Naylay endi, borar makon bo‘lmasa,
Istab seni topar zamon bo‘lmasa,
Sening vasfing endi bayon bo‘lmasa,
Yurak bag‘rim murodimdan ayrildim.

Qaro anbar, zarga botgan kokili,
Ochilmadi g‘unchasidan bir guli,
Toqatim yo‘q seni ko‘rib turgali,
Qaro ko‘zli murodimdan ayrildim.

G‘animatsan, bir dam seni ko‘rayin,
Sening jamolingga to‘yib qolayin,
Qaysi yuzim bilan senga qarayin,
Yig‘lamay naylayin, sendan ayrildim.

Sening darding meni qildi devona,
Zuhra der, to‘ldi endi paymona,
Boshim olib ketay endi qay yon(g)a,
Ko‘zimning ravshani sendan ayrildim.

Alqissa, malika Zuhra shu g‘azalni o‘qigach, g‘assollar Tohirbek jasadini yuvib, kafanga o‘radilar. Malika Zuhra uch kun odamlarga osh-suv berdi. Tohirbekning hurmatini joyiga qo‘ydi. Uch kundan keyin malika Zuhra qiz-u xotinlar bilan Tohirbek qabri boshiga bordi. Egniga qora ko‘ylak kiyib, aza va matom tutib, ko‘ksini chok qilib, Tohirbek mozorini quchoqlab yig‘ladi.

Nogoh shu vaqtda Qorabotir ham keldi. Ko‘rsa, malika ko‘ksini chok qilib, yerni butunlay qora qonga bo‘yagan ekan. Shunda Qorabotir:

— Qurboning bo'layin malika Zuhra, endi Tohirbekni ko'nglingdan chiqar, mening bilan birga bo'lgin. Undan Hech bir vafo ko'rmading, seni cheksiz azobga qoldirdi. O'lganning izidan o'lmak yo'qdir. Kel, endi biz bechoralarga g'amxo'rlik qilgin.To tirik ekanman senga xizmatkor bo'layin. Endi mening sendan judoligim bo'lmas, — deb yig'lab ushbu g'azalni o'qidi:

G'azali Qarobotir

Ko'p yig'lama qaro ko'zli,
Meni qo'yma oh-u zorga.
Bodom qaboq, quyosh yuzli,
Yuragimga solma yara.

Men ham Haqning osiy quli,
Ochilsin oshiqlik yo'li,
G'amxo'r bo'l yori-suyguli,
Umrim o'tirdim yalbora.

Boqqin endi fig'onimga,
O'tlar solmagin jonimga,
Yo'qsa qolarsan qonimga,
Buncha qo'ymagin intizorga.

Bechoraman hech gapim yo'q,
Sendan o'zgaga ishim yo'q,
Lekin bil ko'ngil xushim yo'q,
Maqsadim: yetsam diydorga.

Bahodirga nazar ayla,
Xudoning qismati shunday,
Sen ham o'z holingga yig'la,
Bandadirmiz nedir chora.

Alqissa, Qorabotir shu g'azalni o'qidi. Malika Zuhra ko'rsa, Qorabotir ko'p intizorlik tortib yig'lamoqda.

Shunda malika Zuhra ko‘ngliga “Buni bir aldayin” deb:

— Ey Qorabotir, hali sen g‘am yemagin, endi men seniki, sen esa menikisan. Tohirbek o‘ldi. Endi davron senikidir. Har qanday bo‘lsa ham, bu kun kechgacha yig‘larman.Toki odamlar menga ta’na-yu malomat qilmasinlar. Sening bu yerda turishing yaxshi emas. Ertaroq borib to‘y tadorigini ko‘rgin. Men shohning qizi bo‘lsam, sen to‘yni shu maqomga mos ravishda qilgin. Xayolingga hech narsa kelmasin. Xotiring jam bo‘lsin. Endi sendan boshqani demasman, — dedi.

Qorabotir malika Zuhradan bu so‘zni eshitib, xushvaqt bo‘lib:

— Endi bildim. Malika Zuhraning menga ko‘ngli bor ekan, — deb suyunib uyiga bordi. Ota-onasiga bildirdi. Ular Xudoga shukr qilib, xursand bo‘lishdi.

Qorabotir bilan ota-onasini to‘y hozirligi bilan qo‘ying. Endi ikki og‘iz so‘zni malika Zuhradan eshiting.

Ammo malika Zuhrani ko‘rsangiz, butun xotin-qizlar bilan qora kiyib, qon yig‘lar edi. Nogoh malika Zuhra Tohirbekning qabri ustiga bordi. Shu vaqtda malika o‘zining kalishi bilan ro‘molini yashirdi. So‘ngra:

— Mening ro‘molim bilan kalishim yo‘q, tushiribman, — dedi.

Malikaning yonidagi xotin-qizlar har yonga yugirib izlashdi. Malika Zuhra ko‘rsa, xotin-qizlar qarosi ko‘rinmaydi. Malika-Zuhra Tohirbekning qabriga bordi. Uning belida yashirin osilgan xanjari bor edi. Yon bu yonga qarasa — hech kim yo‘q. Kalimasini o‘girib, xanjar dasta-sopini Tohirbek qabriga qo‘ydi va uchini o‘zining ko‘kragiga tirab: “Bir murod-maqsadim shu, endi men murodimga yetdim”, deb o‘zini xanjarning ustiga tashlab yubordi.

Xanjar orqasidan bir qarich bo‘lib teshib chiqdi. Shu zahoti oh urib, jon berdi. Bir oz o‘tib, qiz-juvonlar kelishdi. Malikaning qora qonga botib yotganini ko‘rishdi. Uning holini ko‘rib birdan fig‘on ko‘tarib, boshlariga mushtlab, o‘zlarini ura boshlashdi. Go‘yo qiyomat qoyim bo‘ldi.

Bu fig‘on-u nolalarni odamlar eshitib yugirib keldi. Malika ahvolini ko‘rib, podshohga xabar berdilar. Podshoh zor-zor yig‘lab yo‘lga tushdi. Qizining qizil qoniga belanib yotganini ko‘rdi;

afsusdan boshiga tuproq socha boshladi. Ammo buning foydasi yo‘q edi.

Malika Zuhrani Tohirbek yoniga dafn qilishdi.

Ularni bu yerda qo‘ying-da, endi ikki og‘iz so‘zni Qorabotirdan eshiting.

Bu xabar Qorabotirga ham yetib bordi. Biroq ishonmadi. “Bu so‘zlar yolg‘ondir. U men bilan ahd-u paymon qilgan edi”, dedi. Qorabotirning toqati toq bo‘ldi. Tezda yo‘lga tushdi. Kelib ko‘rsa, malika Zuhrani Tohirning yoniga dafn qilishibdi. Shundan keyin Qorabotir zor-zor yig‘lab, malikaning qabridan aylanib ushbu g‘azalni o‘qidi.

G‘azali Qorabotir

Endi naylay, kuydi jonim,
Ayrildim, do‘stlar, gulimdan.
Bu kun sochay qizil qonim,
Ayrildim, oh, suygilimdan.

Va’da qilib, topmay seni,
Etgan iqrorlaring qani?
Ol yoningga men g‘aribni,
Tort tutib endi qo‘limdan.

Men necha yonib o‘charman,
Ajalning jomin icharman,
Endi dunyodan kecharman,
Ayrilibman bulbulimdan.

Sendan qolib ne bo‘larman,
Ochilmayin men so‘larman,
Bahodir der men o‘larman,
Ayrilib men suygilimdan.

Alqissa, Qorabotir bu g‘azalni o‘qigach, zor-zor chun abri navbahor yig‘ladi. O‘z o‘ziga: “Endi bu dunyo menga harom bo‘ldi”,

deb xanjarni malika Zuhra bilan Tohir ikkisining qabri o'rtasiga qo'ydi. So'ng ko'kragini ochib:

— Ey Zuhrajon, sendan qolib bu dunyoda men nima qilaman? — deb xanjarning ustiga o'zini tashladi.

Xanjarning uchi orqasidan to'rt barmoq teshib chiqdi. "Haq" deb jon berdi. Qorabotirning ota-onasi xabar berildi.

—Qorabotir o'g'lingiz o'zini malika Zuhraning qabrining ustida xanjar bilan o'ldirdi, — deyishdi.

Qorabotirning ota-onasi bu xabarni eshitib, zor-zor yig'lab kelishdi. Ko'rishsa, Qorabotir Tohirbek bilan malika Zuhraning qabrlari o'rtasida o'zini xanjar bilan o'ldiribdi. Ota-onasi g'assolni chaqirib, Qorabotining murdasini yuvdirdi.Tohirbek bilan malika Zuhra qabrlari o'rtasiga uning qabrini bino qildirdilar. Odamlar Qorabotirni Haq joyiga topshirib, duoyi fotiha qilib qaytishdi.

Xudoyi taoloning qudrati bilan bu voqeani yodgorlik uchun qog'ozga tushirdik.

Ey Allohim, jumla Muhammad ummatini murod maqsadiga yetirgin. Omin, ey olamlar egasi. Rahm et, ey Rahmlilarning Rahmlisi.

MO‘LLAMUROD XORAZMIY VA UNING DOSTONLARI

1. Mo‘llamurod Xorazmiyning hayoti va adabiy merosi haqida

Turkman xalqi, ayni damda uning adabiyotining ham ko‘lga cho‘kkan baxti uzoq davrlar davomida orzu etilib kelgan yurt istiqloli tufayli qaytadan gul ochdi...

XVIII asr oxirlari va XIX asr birinchi yarmida yashab o‘tgan Mo‘llamurod Xorazmiy adabiy merosining shu kungacha yetarlicha o‘rganilmaganiga sababi adib asarlarining badiiy saviyasi yoki shunga o‘xshash boshqa jihatlar bilan emas, balki adabiy merosining o‘z vaqtida bir joyga jamlanmagani va nashr etilib xalqqa yetkazilmagani bilan bog‘liq.

Mo‘llamurodning nomiga biz birinchi marta rus sharqshunosi akademik A.N. Samoylovichning asarlarida duch kelamiz. Rusiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limining qo‘lyozmalar xazinasida “Xojali Mo‘llaning adabiy xatlari” degan nodir yozuvlar saqlanadi. Xojali Mo‘llaning 1907-yilda yozgan xati yonida Mo‘llamurodning “Bog‘lari” degan she’ri ham bor.

Filologiya fanlari doktori H.G. Go‘ro‘g‘lining “Bir qo‘lyozma haqida” degan maqolasida ham, Mo‘llamurod she’rlarining o‘ziga xosliklari, badiiy qimmati haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Olim Turkmaniston Milliy kutubxonasida saqlangan bayozda shoirning “Yastiq-to‘shak yaxshidir”, “Bo‘lmasa”, “Bog‘lari”, “Topilmas” degan to‘rtta she’ri bilan tanishadi. U birinchi bo‘lib Mo‘llamurod ijodining, har bir she’rining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

H.G. Go‘ro‘g‘lining Mo‘llamurod haqida yozganlari uning 1972-yilda Moskvada nashr etilgan “Turmenskaya literatura” kitobida ham davom ettirilgan. Albatta, to‘rtta she’ri bilan Mo‘l-

lamurodning butun ijodiga baho berish qiyin. Ammo bu she'rlar ma'lum darajada shoirning ijodiy qiyofasini ko'rsatadi.

Mo'llamurodning hayoti va ijodi haqida nisbatan kengroq fikr yuritgan adabiyotshunos filologiya fanlari doktori G.Nazarovdir. Uning "Yangi topilgan "Zuhra-Tohir" dostoni", "Yana bir yangi doston" degan maqolalari qamrov va ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi. G. Nazarov Mo'llamurodning "Zuhra-Tohir" dostoni bilan turkman mumtoz shoiri Mo'llanapasning shu nomli dostoni o'rtasidagi umumiylik va o'xshashliklarni tekshiradi. Tarix fanlari doktori Omontag'on Bekjanovning "Mo'llamurod eshon Xorazmiy", A. Mammetjumaevning "Mo'lla Murot Xorazmiy", "Mo'lla Murot Xorazmiyning hayoti va ijodiga doir manbalar", "Mo'lla Murot Xorazmiy", "Mo'lla Murot Xorazmiyning tarjimai holiga doir ma'lumotlar", "Mo'lla Murot Xorazmiy kim edi?" kabi maqolalarida ham shoirning tarjimai holi haqida qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Mo'llamurod adabiy merosi G.Nazarovning "Turk tilli qo'lyozmalar katologi", A.Ashirovning "Maxtumquli-ning qo'lyozmalari tavsifi", A. Mamatjumayev va G. Guzujiyeva-ning "Turk tilli qo'lyozmalar tavsifi" degan kitoblarida ham zikr etilganini aytib o'tish kerak. Bu kitoblarda shoirning ba'zi asarla-rining tavsifi beriladi. Mo'llamurodning ijodi haqida alohida dis-sertatsiya ham yozildi[1]. Ammo shunga qaramasdan hozirga qadar shoirning asarlari nashr etilib elga yetkazilganicha yo'q.

Hozirgi vaqtda shoir adabiy merosining katta qismi qo'lga kiritildi, xususan, uning "Zuhra-Tohir" va "Dilovar va Gulasror" dostonlari, o'ttizga yaqin she'rlari yuzaga chiqarildi. Qolavyersa, shoirning tarjimai holiga, hayotiga oid ayrim ma'lumotlar ham to'plandi.

Mo'llamurod XVIII asrning ikkinchi yarmida, taxminan, 1780–1788-yillarda dunyoga keladi. Mo'llamurodning "Dilovar va Gulasror" dostoni qo'lyozma nusxasining topilishi bilan shoir-ning Xorazmda tug'ilgani va keyinchalik Mang'ishloqqa ketgani ma'lum bo'ldi. Dostonning oxirida berilgan she'rda shunday bayt bor:

[1] *Mamatjumayev A.* Mo'llamurot Xorazmiy va uning adabiy merosi. Dissertatsiya. Ashxobod. 1990.

Aslim Xorazmli, yerim Shirshali,
Madad berdi bizga eranlar bari.
Mo'llamurod jonin aylab nisori,
Bir jonon sha'nida kitob ayladim.

Shu parchadan Mo'llamurodning Xorazmda tug'ilib, ma'lum bir davrda yashab, so'ngra qaysidir bir sabab bilan Mang'ishloqqa ko'chib ketgani va umrning qolgan qismini shu yerlarda yashab o'tgani ma'lum bo'ladi. Biroq uning Mang'ishloqqa qachon ko'chib borganini aniq aytish qiyin. Har holda, shoirning 1814–1815 yillarda Xorazmda yashaganini taxmin qilish mumkin. Zotan "Dilovar va Gulasror" dostonini Xorazmda yozib tugatgani aniq. Chunki dostonda shoir o'zining xorazmli ekanini aytadi. Unda Mang'ishloqni tilga olmaydi. Bu fakt shoir "Dilovar va Gulasror" dostonini Mang'ishloqqa ketgunga qadar bo'lgan davrda yozganini anglatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Mo'llamurod turkmanlarning iydir toifasining oqbilak urug'iga mansub bo'lgan. Otasining ismi Begenchtarxon, buvasining ismi esa Omontarxon bo'lgan ekan. Biroq ular to'g'risida biror aniq ma'lumot yo'q. Mo'llamurodning Xonmammat va Yozmammat degan ikki o'g'li bo'lgan. Xonmammatdan Tuvak eje degan yolg'iz qiz qolgan. Yozmammatning Gulboy va Sano degan o'g'illari bo'lgan.

Ma'lum bo'lganidek, turkiy xalqlarning ko'pchiligi, shular qatori turkman xalqining orasida ham ota-bobolarining shajarasini tuzish an'anasi mavjuddir. Mo'llamurodning nabiralari ham (ularning ko'pchiligi Balkan viloyatida, Turkmanboshi shahrinda, Toshhovuz viloyatida yashaydilar) o'z ota-bobolarining shajarasini tuzishibdi. Milliy qo'lyozmalar institutda Mo'llamurodning nabiralari tuzgan ikkita shajara bor. Shajaralarning birinchisini 1961-yilda nebitdagli Ashir Seyid o'g'li, ikkinchisini bo'lsa 1976-yilda shoirning evarasi-yovlig'i (oxtiq, chovliq, yovliq— B.K.) Annamurodov Nurjon institutga yuborgan. 1994-yilda Mo'llamurodning Toshhovuz viloyatida yashagan qarindoshlarining orasidan yana bir shajarani qo'lga kiritdik. Bu shajarani shoirning nabiralaridan bo'lgan Guluchmedov Gurbannazar yubordi.

Mo'llamurodning bolalik, yoshlik davri haqida faqat ba'zi rivoyatlarni hisobga olmaganda, hech bir ma'lumot qolmagan. Bu haqda shoir o'z she'rlarida ham hech narsa aytmagan. Ba'zi rivoyatlarda ham shoirning yosh vaqtida qo'y boqqani, o't o'rgani, baliqchilar yonida bo'lgani, ularga choy qaynatib bergani so'zlanadi. Shu rivoyatlar asosida uning bolaligidan qora mehnatga berilib, hayot mohiyatini yoshligidan chuqur anglaganini taxmin qilish mumkin. Shoir keyin chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan. Shuning uchun ham u o'z she'rlarida chorvachilikka oid satrlarni ko'p keltiradi.

Mo'llamurodning o'z davrining savodli odamlarining biri bo'lgani shubhasizdir. Ammo uning qayerda o'qib bilim olgani to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Shunga qaramasdan, uning qishloq mo'llalaridan olgan bilimlaridan keyin, Xiva va Samarqand madrasalarida o'qiganini taxmin etish mumkin. Mo'llamurod faqat ilmli odam bo'libgina qolmay, ilm olishga da'vat etgan, olimlarni hurmat qilgan, o'z xalqining savodli bo'lishini istgan shoirdir.

Mo'llamurodning qancha yashagani, qachon vafot etgani aniq emas. "Turkman adabiyoti tarixi"da shoirning, taxminan, 39 yoshida (1788–1827) vafot etgani ko'rsatiladi. Ammo ayrim manbalarda shoirning yoshining 39-40 dan katta bo'lgani aytiladi. Ba'zi she'rlari shoirning o'ttiz to'qqiz yoshda vafot etganiga shubha uyg'otadi:

Umrim mening karvon, o'tdi yosh bilan,
Qomatdan ayrilib, dol bo'lib qoldim.

Yoki:

Olisdan ko'rardim, ko'rmaydi ko'zim,
Jayrondek chopardim, og'riydir tizim.

Shu kabi satrlar shoirning oltmish, yetmish yoshdan ham o'tganini anglatadi. Satrlarda qomati dol bo'lgan, tizining quvvati ketgan, ko'rishi yomonlashgan yetmish, yetmish besh yoshlar yashagan lirik qahramonning hasrati seziladi.

Mo'llamurodning "Dilovar va Gulasror" dostoni "Gul Bulbul", "Gul Sanobar", "Sayfulmuluk-Madhaljamol", "Ray Chini"

dostonlari kabi ishqiy-xayoliy, kechinmalarni ifodalovchi dostondir.

Muallif dostonda, asosan, ishqiy hodisalar bilan birga qahramonlik motiviga ham ko'p e'tibor beradi. Sevgi va qahramonlik o'zaro uyg'unlashib asar bosh g'oyasini kuchaytirishga xizmat qilgan. Yo'llarda og'ir qiyinchilik va urushlarni boshidan kechirishi, har turli qora kuchlar bilan to'qnashuvlar faqat o'z sevgilisiga yetishish uchun qilingan harakat bo'lmasdan, balki u Dilovarning hayotda o'z yo'lini tanlab olganini ham tasavvur etishga imkon beradi. Dilovar o'z kelib chiqishiga ko'ra shohlar oilasidan, u o'zining boyligi bilan emas, balki g'ayratliligi, oqilligi, topqirligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Muallif Dilovarni botir, qaytmas qilib ko'rsatadi, ayni damda favqulodda bir qudratli etib tasvirlamaydi. Dilovar barcha boshqa odamlar kabi ojizlik ham qiladi birovlardan aldanadi va hatto ba'zan kurashlarda yengiladi ham. Biroq eng muhimi — u o'z maqsadi yo'lida kurashadi. Uning kuchli tarafi ham shudir. Bunday tasvir obrazga hayotiylik bag'ishlaydi. Dilovar obraz shu zaylda dostonning umumpafosiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shoir she'rlarida mardlik haqidagi yozadi; xuddi shu fazilatlarni Dilovar obraziga ham singdiradi.

Dilovarning Gulasror parini tushida ko'rishi bilan ular orasidagi sevgining boshlanishi ham, odatiy qahramonlarning parilarni sevishi avvaldan kelayotgan adabiy an'ana bo'lib, ishqiy-xayoliy dostonlarning barchasiga xosdir. Pari obrazi folklorda ham, yozma adabiyotda ham go'zallikning ramzi sanaladi. Oddiy odamlarning parilarni sevishi esa, avvalo uning go'zalligi oldida bosh egishni anglatadi.

Odatda ishqiy-xayoliy dostonlarda milliylikni saqlash oson emas. Asar milliy bo'lgan taqdirdagina uning xalqchilligi kuchli bo'ladi. Bu hol "Dilovar va Gulasror" dostonida ham kuzatiladi. Dostonning tili, unda qo'llangan atamalar, o'xshatishlar xalqqa tushunarlidir.

Dostonning she'riy qismlari juda ham badiiy jihatdan pishiq chiqqandir. Bu yerda 80 she'riy parcha bo'lib, ularning jami 1937 satrni tashkil etadi. She'rlarning ko'pisi monolog shaklida beril-

gan. 10 ga yaqin she'r aytishuv shaklida yozilgan. She'rlar asosan, 8,11, 14, 16 bo'g'inli bo'lib, ularning katta qismi turkman adabiyotida mavjud an'analar asosida yozilgan.

2. Mo'llamurodning "Zuhra-Tohir" dostonining o'ziga xosliklari

Mo'llamurodning "Zuhra-Tohir" dostonining qo'lyozmasi uning "Dilovar va Gulasror" dostoni bilan birlikda Gurjiston FA K.S.Kekeladze nomidagi Qo'lyozmlar institutida saqlanadi. Shoirning "Dilovar va Gulasror" dostonining yana uchta qo'lyozma nusxasi Turkmanistondan topildi. Biroq "Zuhra-Tohir"ning Gurjistondan boshqa qo'lyozma nusxasi topilgani yo'q. Shoir nabiralarining xabar berishicha, Mo'llamurodning o'z qo'li bilan yozgan qo'lyozmasi XX asarning elliginchi yillarida Toshhovuz viloyatida yashagan Yagmir so'fi degan odamda bor ekan. Afsuski, qo'lyozmaning taqdiri haligacha ma'lum emas.

"Zuhra-Tohir" syujetining uzoq o'sish yo'lini bosib o'tgani va Sharqda xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotida ham ushbu syujetning ommaviylashgani tasavvur qilinsa, shoir qalbidagi orzu-istaklarini, sevgi haqidagi qarashlarini bayon etish uchun aynan shu syujetni tanlaganining sabablari yaxshi anglashiladi. Bu syujetga yuzlangan shoirning o'z dostonida ma'lum bir yangiliklar ham ijod qilibdi. Shoir dostonini nazirachilik yo'lida yozgan bo'lsa ham, uning mazmunida, ilgari surilgan ta'limoti va badiiy jihatdan o'ziga xos asar sanaladi.

Xo'sh, dostonning o'ziga qaysi xos qirralarini ta'kidlab ko'rsatish mumkin? Avvalo Mo'llamurodning "Zuhra-Tohir" syujetiga turkman shoirlarining orasida birinchilardan bo'lib murojaat etganini ta'kidlash joiz. Mo'llamuroddan ilgari yozma adabiyotda faqat Sayitmuhammad Sayodiyning "Zuhra-Tohir" dostoni bor edi. Sayodiyning dostoni sof she'riy yo'lda yozilgan. Mo'llamurod esa o'z asarida turkman adabiyotida juda an'anaviy bo'lgan dostonchilikning barcha taraflariga mos ravishda nasr bilan nazmni uyg'unlashtirdi; bu shakl asarning baxshilar tomonidan ijro etish imkonini beradi. Qolaversa, bu hol Mo'llamurodning Sayodiyning

asari bilan tenglashtirilganda, dostonning xalq nusxalariga ko'proq suyanganini ham ko'rsatadi. Chunki dostonning xalq nusxalarida ham nasr bilan nazm uyg'un shaklda keladi.

Dostonning yana bir muhim jihati Mo'llamurodning dostondagi adabiy obrazlarni o'ziga xos ravishda tasvirlaganidir, yangicha rejalashtirganidadir. Masalan, dostondagi Tohirning obrazini kuzatib ko'raylik. Bu obraz shu syujet bo'yicha avvalgi Tohir obrazlaridan ko'p jihatdan farqlanadi. Tohir obrazi Mo'llamurod dostonida juda g'ayratli va adabli qilib ko'rsatiladi. Bu jihatdan u Sayodiy dastoni hamda xalq nusxalaridagi Tohir obrazidan farq qiladi.

Tohirning o'ziga xos harakatlari dostonning ko'p o'rinlarida kuzatiladi. Tohir Bog'doddan qaytib kelarkan, yo'lda qoroqchilarga uchrashi o'ziga xos kamtarona tarzda tasvirlangan. Tohir qaroqchilar bilan urushib, ularni yengadi. Qahramonlik dostonlaridagi kabi Mo'llamurod urush voqealarini eng mayda detallarigacha ko'rsatadi. Ammo shu kabi kamtar, mardona harakatlar Mo'llamurodgacha bo'lgan "Zuhra-Tohir"larda deyarlik ko'rsatilmaydi. Hatto Mo'llamuroddan keyin yozilgan Mo'llanafasning "Zuhra-Tohir"ida ham shu qaroqchi voqeasi shunday ko'rsatilgan emas.

Tohir dostonda vaziyatga qarab ish tutadi. U Bog'doddan Tatarga kelishda o'zini bildirmaslik uchun ismini Hilol deb o'zgartiradi. Bu uning Zuhraning ko'shkiga borganda o'zining Tohirligini birov bilmasligi va turli xavf-xatardan o'zini ham, Zuhrani ham himoyalash uchun o'ylab topilgan yo'li. Zero, Tohirning Zuhra ko'shkiga shunday yo'l bilan borishi Mo'llamurodnikidan boshqa "Zuhra-Tohir"larda uchramaydi.

Mo'llamurod o'z dostonida Zuhraning obraziga ham ko'p jihatdan yangicha yondashadi. Zuhra dostonda juda yaxshi insoniy fazilatlar bilan bezatilgan. U boshqalar bilan hamisha insoniy, do'stona munosabatda bo'ladi. Boboxonning yasovullari Tohirni olib ketmoqchi bo'lib kelganlarida Tohir shohning yoniga o'z erki bilan bormasligini aytadi va Zuhraning yoniga ketadi. Shunda Zuhra Tohirga otasining yoniga borishdan maslahat berib shunday deydi: "Otamning yoniga boring. Ular podshohdir. Ularning amri vojibdir...".

Zuhra agar o‘z ahvolini yaxshi tushuntirsa, otasi qarshi chiqadi, deb o‘ylamaydi. Zuhraning odamgarchiligi, ayniqsa, Tohirning ketishi bilan og‘ir holga tushgan Shohihuban bilan bo‘lgan munosabatida juda aniq tasvirlanadi. Shohihuban xo‘jasi Bahir vazirning o‘lishi, so‘ngra o‘g‘li Tohirning yurtdan chiqarilishi bilan g‘arib bir kunga tushadi. Zuhra Shohihubanning shunday og‘ir kunlarida gohi-gohi uning yoniga borib, dardini eshitib ko‘ngillik beradi. Shohihuban og‘ir kunlarga dosh bera olmay vafot etganda unga yana ham kanizlari bilan Zuhra qaraydi. Yonida hech kimi qolmagan onaga ham o‘g‘illik, ham qizlik qilib, uning barcha marosimlarini o‘zi o‘tkazadi.

Mo‘llamurod faqat Zuhra, Tohir yoki Shohihubanning emas, balki dostondagi boshqa obrazlarga ham yangicha yondashadi. Bu yangilik Odilshoh, Boboxon va Qorabotir obrazlari tasvirida ham kuzatiladi.

Sayodiyning dostonida ismsiz kelgan ayrim qahramonlarga Mo‘llamurod ism berib, aniq va alohida qahramon sifatida sahnaga olib chiqadi. Bu esa o‘sha adabiy obrazlarga ma’lum darajada aniqlik kiritadi, ularning esda qolishini ta’minlaydi.

Mo‘llamurod dostonining ahamiyatli tomoni u faqat oldin mavjud bo‘lgan adabiy obrazlarni yangicha talqin etish, yangicha tasvirlash bilan cheklanib qolmadi. Shoir o‘z dostoniga butunlay yangi bir qancha adabiy obrazlar kiritdi. Bu esa albatta dostonning yana bir o‘ziga xos qirrasidir. Maslan Xonpari, Badriddinning qizi Mohparo, Abduvohid, Sohib munajjim, Javhar, Mohtob kabi obrazlari faqat Mo‘llamurod dostonida qatnashadi. Bu esa Mo‘llamurod talqinidagi an’anaviy syujetning yangiligini ta’minlaydi. Ayni damda yangi voqealar ham qo‘shilgani muallif o‘z asari ustila ixlos bilan ishlaganini namoyon qiladi.

3. Mo‘llamurodning dostonlarining Mo‘llanafasning “Zuhra-Tohir” dostoniga ta’siri

Mo‘llamurod va Mo‘llanafas “Zuhra-Tohir” syujeti asosida doston yozgan ikki shoirdir. Har ikki doston ham XIX asrga tegishli. Bu shoirlar ijodi bilan tanishilganida Mo‘llanafasning Mo‘lla-

murod asarlari bilan tanish bo'lganiga ishonch hosil qilish mumkin. Shunga ko'ra Mo'llamurod dostonlarining Mo'llanafasning "Zuhra-Tohir"iga ta'siri xususida ayrim fikrlar aytish o'rinli bo'ladi. Avvalo Mo'llamurodning "Zuhra-Tohir"ining Mo'llanafasning "Zuhra-Tohir" dostonidan ilgari yozilganini yodga olish lozim. To'g'ri, Mo'llamurodning "Zuhra-Tohir" dostonining yozilgan sanasi qo'lyozmada ko'rsatilmagan. Ammo shoirning yana bir — "Dilovar va Gulasror" dostonining 1814–1815-yillarda yozilganini bilamiz. Mo'llanafas bo'lsa, bu vaqtda 4–5 yoshli bola bo'lgan. Agar Mo'llamurod "Zuhra-Tohir" dostonini 1820–1825-yillarda yozgan taqdirda ham, u Mo'llanafas dostonidan oldin yozilgan bo'ladi.

Xo'sh, Mo'llamurodning asarlarining ko'pisi qo'lga kiritilgan hozirgi davrda "Bu ikki shoir o'zaro muloqotda bo'lgan" degan fikrni tasdiqlash mumkinmi? Mo'llamurodning tarjimai holi va adabiy merosi bilan yaxshilab tanishganda, "Zuhra-Tohir" dostoni Mo'llanafasning shu nomli dostoni yozilishiga ta'siri etganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Bizning fikrimizcha, Mo'llanafas nafaqat "Zuhra-Tohir", balki Mo'llamurodning "Dilovar va Gulasror" dostonini ham o'qiganiga ishonsa bo'ladi. Chunki Mo'llanafasning "Zuhra-Tohir" dostonida "Dilovar va Gulasror" ning ta'siri ko'rinadi.

Dastlab "Zuhra-Tohir"lar haqida. Avvalo bu dostonlarning mazmun jihatida bir-biriga juda yaqinligini aytish lozim. Bu yaqinlik, albatta, ikki dostonning ham shu bir syujet asosida yozilgani bilan bog'liq. Ammo bizningcha, bir asarning boshqa asarga ta'siri masalasini bitta syujet asosida yozilgani bilan dalillab ko'rsatish yetarli bo'lmaydi. Agar shu tarzda fikr qilinsa, unda Andalib o'zining "Yusuf-Zulayho" dostonini yozganda shu syujet asosida yozilgan yuzdan ko'proq asardan ta'sirlangan, deb xulosa chiqarishga to'g'ri keladi. Adabiyotshunos G.Nazarovning hisoblashicha, "Yusuf-Zulayho" syujeti bo'yicha asar yozgan yozuvchi va shoirlarning soni 118 tani tashkil etadi. Afsuski, professor S.Garrievning Mo'llanafas "Zuhra-Tohir" dostonini yozishda "o'zbek, ozarbayjon va qozoq ertaklari va rivoyatlaridan, o'zbek va ozarbayjon xalq dostonlaridan ijodiy foydalangan" degan

qarashlari ham faqat syujetlar uyg'unligiga asoslangani uchun yanglishdir. Bu yerda aniqlik yetishmaydi. Biroq olimning Seyidmuhammad Sayodiyning "Zuhra-Tohir"i haqida aytganlarini to'la quvvatlaymiz.

Xo'sh, Mo'llanafas va Mo'llamurodning dostonlari orasidagi yaqinlik hamda o'zaro ta'sir haqida aniq fikrlar aytish lozim. Buning uchun qiyosiy talqin, ayrim parchalarga asoslanish yaxshi natija beradi. Sayidmuhammad Sayodiyning "Zuhra-Tohir" dostonida shunday bir parcha bor: Boboxon shohning qizi bo'ladi. U qiziga ism qo'yish uchun elni chaqirib, katta maslahat qiladi. Xaloyiq shohning qiziga Zuhra deb ism qo'yadi. Mo'llamurod bu voqeani boshqacharoq beradi. Boboxon shoh qizim bo'ldi deb to'y qiladi. Ammo u qiziga ism qo'yish uchun xalq bilan kengashmaydi. Mo'llamurod bunday yozadi: "Podshoh barcha munajjimlar va qur'andozlarni (qur'a tashlovchilarni) chaqirib, qiziga ism qo'yadigan bo'ldi. Alqissa, hamma munajjim va qur'a tashlovchilar yig'ilib, uning ismini Zuhra qo'ydilar". Endi Mo'llanafasning dostonida shu parchaning berilishiga e'tibor bering: "Podshoh falakiyot ilmidan xabarli ulamolarni, hakimlarni jamlab, bularning har biriga loyiq in'om-ehsonlar berib: "Bu mohi anvarga bir ism qo'ying" deydi". Ma'lum bo'lganidek, Mo'llanafas bu yerda Mo'llamurodning dostoniga ergashgani ko'rinib turibdi. Chunki Mo'llanafasgacha yozilgan "Zuhra-Tohir"lardan faqat Mo'llamurodning dostonida munajjim keltiriladi. Mo'llanafasning dostonida esga olingan falakiyot ilmi ham munajjimlik ilmidir.

"Zuhra-Tohir" syujetida yozilgan asarlardan yana bir parchaga e'tibor beramiz. Zuhra Tohirning maktabga qatnaganini bu syujet bo'yincha yozilgan asarlarning ko'pisida bayon etiladi. Ammo faqat Mo'llamurod dostonida Zuhra o'z maktabida o'qigan bolalarning muallimasi qilib ko'rsatiladi. So'ngra Mo'llanafasning dostonida ham bu fakt takrorlanadi. To'g'ri, Mo'llanafasning dostonida Zuhraning bir o'zi emas, Tohir bilan birga barcha bolalarning muallimi tarzida ko'rsatiladi. Gap bu yerda shu kabi o'xshash parchalarning ko'pligida emas, balki ularning faqat shu ikki dostonda muvofiq kelishidadir.

Bir syujet asosida yozilgan dostonlarning nasr bo‘limi asosan ko‘p yoki ozgina bir-birini qaytarib keladi. Ammo ularning she’riy qismida alohidalik to‘la saqlanadi. Eng qiziq joyi shundaki, biz Mo‘llanafasning dostonidagi she’rlarning ham ko‘pchiligi Mo‘llamurod dostonidagi she’rlarga yaqinligi ko‘zga tashlanadi. Bunga misol hukmida Tohir bilan Zuhraning otalarining ahdnoma etgan she’rlarini yoki Shohihubanning Boboxon shohga yuzlanib aytgan she’rini misol keltirish mumkin. Umuman, mazmuni yaqin she’rlar bu ikki dostonning boshqa sahifalarida ham ko‘p.

Ikki shoir dostonlaridagi she’rlar o‘xshashligi ustida fikr yuritilarkan, Mo‘llamurodning dostonida Zuhraning tilidan keltirilgan “Mushtoq bo‘libman” degan she’ri ustida ham qisqacha to‘xtalish lozim. Bu she’rning har bandining oxirgi misralarida “Sening jamolinga mushtoq bo‘libman” misra takror keladi. Shu misra Mo‘llanafasning “Zuhra-Tohir” dostonida ham bor. Shunday o‘xshashliklardan yana biri sifatida faqat Mo‘llamurod bilan Mo‘llanafasning dostonlaridagi obrazlar ismi qiyosida ham kuzatiladi. Mo‘llanafasda Qamar bilan boshlanuvchi ikkita ism keladi. Ulardan biri Zuhra kanizi Gulqamar, ikkinchisi qaroqchi hukmida kelgan Qamarizamon. Mo‘llamurodning “Zuhra-Tohir” dostonida ham Qamar bor. Tohirning Bog‘doddagi do‘stlarining birining ismi Qamar. Qiziq joyi, Mo‘llamurodning “Dilovar va Gulasror” dostonida ham Dilovarning onasining ismi Qamaroy. Qamaroy-Gulqamar, Qamar-Qamarulzamon kabi bir biriga o‘xshash ismlarning uyg‘unligi ham Mo‘llanafasning Mo‘llamurod dostonlaridan ta’sirlanganidan xabar beradi. Chunki Qamar ismi boshqa “Zuhra-Tohir”larda uchramaydi.

Mo‘llamurodning “Dilovar va Gulasror” dostoni ham Mo‘llanafasning ijodida iz qoldirgani kuzatildi. Bu yerda ham o‘xshash bo‘lgan parchalar, qismlarni qiyoslash mumkin. Masalan, “Dilovar va Gulasror”da Gulasrorning Dilovarga xat yozishi va uni Gulchehradan yuborishi Mo‘llanafasning dostonida Zuhraning Tohirga xat yozgan va uni Gavhardan yuborish voqeasini esga soladi. Bu yerda Gavhar bilan Gulchehaning aytgan so‘zlari ham bir-biriga juda yaqindir. Agar Mo‘llamurodning Gulchehrasi xatni olib ketar mahali:“Ey nozanin Gulasrorjon, men sening uchun

jonimdan kecharman" desa, Mo'llanafas dostonidagi Gavhar: "Men boshimni Zuhraga sadaqa etarman", deydi. Bu yerda bitta farq shuki, Gulasrorning xatini Gulchehra olib ketadi. Ammo Gavhar shahardan chiqib ketgandan so'ng Vohidga uchrab, xatni shunga beradi. Tohirga xatni Vohid topshiradi.

Tohir Bog'doddan Tatarga qaytib kelarkan, oldidan bir baland tog' chiqadi, so'ng Yaratganning qudrati bilan u tog'dan yo'l ochiladi; Tohir yo'lida davom etadi. Bu ma'lum voqea Sayidmuhammad Sayodiyning va Mo'llamurodning "Zuhra-Tohir"larida ham bor. Bu voqea Mo'llamurodning "Dilovar va Gulasror" dostonida ham beriladi.

Albatta, Mo'llanafasning tog' ochilib, yo'l berish fursatini asarga kiritganda "Zuhra-Tohir" toifasidagi dostonlardan ulgi olganligi shubhasizdir. Biroq biz boshqa bir kichik holatga diqqat berishimiz lozim. Mo'llamurod "Dilovar va Gulasaror" dostonida Dilovar tog'dan o'tgandan so'ng, uning tilidan "Shukr endi yor makoni ko'rindi" degan she'r keltiriladi. Mo'llanafasning dostonida esa Tohir tog'dan o'tgandan keyin "Shukr endi yor makoni ko'rindi" deb boshlangan she'rni aytadi. Ammo bu she'r Mo'llamurodning ham, Sayodiyning ham "Zuhra-Tohir"larida yo'q.

Bizning fikrimizcha, Mo'llanafasning "Topilmas" degan she'rining yozilishiga ham Mo'llamurodning "Dilovar va Gulasror" dostonida Dilovarning tilidan Gulasrorni ta'riflab:

Barobari yo'qdir ani jahonda,
Yer yuzi hamda yetti qat osmonda,
Misrning yurtida, Shom-u Ka'nonda,
Yorim kabi shohi Ka'non topilmas.

U Chin Mochin bilan shahri Xo'tonda,
U Qof tog'i bilan Arabistonda,
Makka-Madinada, Rum-Ispahonda,
Mening yorim kabi sulton topilmas,

deb yozgan she'rining ta'siri bo'lishi kerak.

Mo'llanafasda bu she'r quyidagi ko'rinishda keladi:

Qabul, Qandaxorni, Iroqni so'rsang,
Undan chiqib Hazor tog'iga yursang,
Oqcha, Sanam kezgan yerga bosh ursang,
Gurtguzlanda, Buzgo'manda topilmas.

Nafas deydi, qoldim beshumor dardga,
Bahri Badaxshonda, Hazar asarda,
Mag'ribda, mashriqda, jon bitgan yerda,
Go'rk egasi Gurjistonda topilmas.

O'rni kelganda aytsak, Mo'llanafasning "Topilmas" nomli ikkita she'ri bor. Albatta, Mo'llamurodning va Mo'llanafasning she'rlarida so'zma so'z o'xshashlik yo'q. Biroq bu she'rlarda qurilish tarafdan ham, ruhiy jihatdan ham Mo'llanafasning Mo'llamuroddan ta'sirlanganini tasdiqlash mumkin.

Mo'lanafasning Mo'llamurod dostonlari bilan tanishgani haqida o'ylaganda, yana bir holatni e'tibordan qochirmaslik lozim. Biz yana bir holat deganda Mo'llamurodning ham, Mo'llanafasning ham Buxoro madrasalarida o'qiganini ko'z oldida tutamiz. Professor K.Otaev Buxoro madrasalarining biri bo'lgan Mammatsharif madrasasi va turkmanlarning o'qishi haqida shunday ma'lumotlar keltiradi: "Buxoro shahrining 9-yanvar ko'chasining 14-uyida yashagan tojik yoshullisi Hakim Qosim o'g'li (84 yosh) shunday xotirlaydi:

— Men Mammatsharif madrasasini yaxshi bilaman... Uning qurilagniga ikki yuz yildan ko'proq vaqt o'tdi. Turkmanistondan kelganlarning deyarlik barchasi shu yerda o'qishdi. Mening tog'am Mammatsharifda dars berar edi. U vaqtda o'qishlar faqat fors tilida bo'lardi. Bu esa yangi kelgan turkmanlarga qiyin tushar edi. Shuning uchun mening tog'am turkman tilida ham dars berar edi". Olimnning tasdiqlashiga ko'ra, Mo'llanafas ham shu Mammatsharif madrasasida o'qigan. Madrasada o'qish uchun yoshning chegarasi bo'lgan emas. U yerda 20 yoshlilar ham, 30-35 yoshlilar ham o'qiganlar. Balki Mo'llanafas shu yerda o'qib yurganda qo'hnaurganchli toliblar yordamida Mo'llamurod dostonlarini mutolaa qilgandir. Albatta, bu aytilganlarning ikkisi ham rasmiy asosi

bo'lmagan taxmin, xolos. Asosiy narsa Mo'llanafasning Mo'llamurod dostonlari bilan yaxshi tanish bo'lganligi, ularni sevib o'qigani, yuqorida aytganimiz kabi ulardan ta'sirlangani haqiqatdir.

Mo'llamurodning "Zuhra-Tohir" dostoni bu mashhur syujet bo'yincha yozilgan asarlar ichida munosib o'rniga ega. Shoirning dostoni an'anaviy syujetga qayta jon bag'ishladi. Shoir o'z davrining ilgari surgan ijtimoiy muammolari hamda adabiy ehtiyojdan kelib chiqib, o'z dostonlarida ba'zi bir voqealarni kuchaytirdi; ayrimlarini yangicha talqin etdi. Bu esa dostonning ta'limiy va mazmuniy jihatidan mukammal bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Mo'llamurod dostonining ta'lim-tarbiyaviy yuki haqiqatning adolatsizlikdan ustidan tantana qilishidir. To'g'ri, doston Tohir va Zuhraning o'limi bilan tomomlanadi. Ammo ular o'z sevgisi yo'lidagi kurashlardan tonmaydilar. Bu esa ularning katta g'alabasidir. Bu albatta muhabbatning g'alabasidir.

Mo'llamurod mumtoz turkman rivoyatini insonparvarlik mazmuni bilan boyitib yozgan bu dostonida davr adolatsizligi qarshisiga o'z dunyoqarashini ro'baro' qo'yadi. Bu esa zehnli turkman shoiri Mo'llamurod Xorazmiyning el-yurt orzusini ifodalagan, uning qadriyatlarini e'zozlagan dostonining juda muhim jihati sanaladi.

Araznapas Mammatjumayev,
filologiya fanlari nomzodi

MUNDARIJA

Nazm bog'ining bulbuli. *(Ergash Ochilov)* 3

NURMUHAMMAD ANDALIB

G'AZALLAR

Ko'nglimni berdim 6

Ne balo xo'b 7

Jononiga yetsa 8

Xandon-xandon 8

Kitob ochdi 9

Rashki parizod 9

Andalib 10

MURABBALAR

Yorning firog'i 12

Men senga shaydo 13

MUXAMMASLAR

O'rgulay 15

Dilbar 16

Chig'ir 18

Navbat siza yetdi 20

TAXMISLAR

Navoiy g'azallariga muxammaslar

Yorg'acha 25

O'lturgusi 26

Ey ko‘ngul 28
Kelmadi 29
Giriftorman yana 31
Ko‘rdim bu kun 32
O‘n sakkiz yoshindadir 33
Nozikkina 35
Ko‘zgu xo‘b 37
G‘amza o‘qlarin otib 39
Quyosh 40
Hijron qolmasin 41
Shitob aylab 42
Beqaror aylay 44
Hamd 46
Laylat ul-me’roj 49
O‘tkan kecha 52
Ilohi 54

Vafoiy g‘azaliga muxammas

Qaydadir 56

Habibiy g‘azaliga muxammas

Go‘zal 58

Jomiy g‘azaliga muxammas

Hijron boshqa 60

Fuzuliy g‘azaliga muxammaslar

Sherozalar 62
Yonmazmi? 63

Ubaydiy g‘azaliga muxammas

Yori bor 65

MUSAMMAN

Navoiy g‘azaliga musamman

Ollida 66

DOSTONLARDAN QO‘SHIQLAR

“Layli-Majnun”dan

Bo‘lmasa 68
Layliyi Ra’no 69
Derlar 70
Sayding qo‘yaber, sayyod 71
Keturmisham 72
Bo‘lmasmu? 73
Ayirma ishqdan 74
Sabo bilan 75
Yor madhi 76
Menga 76
Duo yetkaz 77
Istamish 78
Darmon keragi yo‘q 79
Kech endi 80
Yor uchun 81
Aylading 82
Ka’bada 83
Munojot 84
Mustazod 85
Aldanma 86
Iqboli xush 87

Nasihat 87
Yorim qani? 88
Ovvora 89
Gulga o'xshab 90
Haq qismati 91
Sog'inchli salom 92
Xirom etmish 93
Yori vafodor 93
Bog' sayri 94
Dardi bedavo 95
Qora qush 96
Jonim o'rtandi 97
Sabo bermas xabar 97
Sen u yona — men bu yona 98
Majnunman 99
Falak 100
Iltijo 101
Jafoli dunyo 102
O'tinch 103
Majnuni benavo kelar 106
Savol 107
Ishq savdosi 108
Xayrlashuv 108

"Yusuf-Zulayxo"dan

Judo aylama 111
Ajdodlar o'giti 111
Xo'sh endi 112
Sendan ayrilib 113

Tush 113
Yorim bor 114
Bu paripaykar 115
Bir ofatijon keldi 116
Murodim hosil ayla 117
Jononiga yetsa 118
Mehribonim kelmadi 118
Naylaram 119
Visol 120
Jonim yonadir 120
Yetishmas 121
Netay 122
Yor kelur 122

"Bobo-Ravshan"dan

Dunyo 124
Sen bilarsan holimni 125
Armonli dunyo 126
Kerakdur 128
Tilarman 129

"Zaynularab"dan

Yor izlab 131
Hamroz istabdir 132
Mohi tobon 132
Senga kelibman 133
Ayriliq 134
Nigorim qani? 135
Kuyganim yetar 136

Yorimni sog'indim 137
G'arib bo'ldim 138
Holing ne kechdi? 139
Yo'qlov 140
Noumid etma 141
Ko'rdim 142
Yor, sensiz naylayin 142
Boshimga tushdi 143
Qissai Firavn *(doston, Muzaffar Ahmad tarjimasi)* 145

MO'LLAMUROD XORAZMIY

Bir-ikki og'iz so'z. *(Bahodir Karimov)* 154
Dilovar va Gulasror *(doston)* 156
Zuhra-Tohir *(doston)* 257
Mo'llamurod Xorazmiy va uning dostonlari.
(A. Mammatjumayev) 387



NURMUHAMMAD ANDALIB
MO'LLAMUROD XORAZMIY

94-jild

Adabiy-badiiy nashr

Tarjimonlar:
Ergash Ochilov, Bahodir Karim

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 25,5. Nashriyot-hisob tabog'i 22,84.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 160-1/22. Buyurtma raqami № 22-377

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

NURMUHAMMAD ANDALIB

MO‘LLAMUROD XORAZMIY